

Alisher NAVOIY

NAVODIR USH-SHABOB

ALIF HARFINING OFATLARINING IBTIDOSI «NAVODIR»DIN

1

Zihe zuhuri jamoling quyosh kebi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

Yuzung ziyyosidin ar subh ayni ichra bayoz,
Sochnng qorasidin ar shom boshida savdo,

Zuhuri husnung uchun aylabon mazohirni,
Bu kuzgularda ani jilvagar qilib amdo.

Chu jilva ayladi ul husn istabon oshiq,
Saloyi ishqin etib ofarinish ichra nido.

Pariy qabul eta olmay ani, magarkim men
Qilib otimni zalumu jahul birla ado.

Demayki men o‘zi ma’shuq o‘lub, o‘zi oshiq
Ki, tig‘ g‘ayrat o‘lub anga naqshi g‘ayrzudo.

Navoiy o‘lmadi tavhid guftugo‘ bila fahm,
Magarki aylagasesen tilni qat’u jonni fido.

2

Ilohiy amringa ma’mur yetti torami a’lo,
Ne yetti torami a’lo, to‘quz sipehri muallo.

Jamilzikrlig o‘lg‘an jamoling etti tamanno,
Vusulfikrlig elga visoling o‘ldi tavallo.

Xayol bikrlarin jilvagarlik etkali har yon,
Sen aylading hulali durri nazm birla muhallo.

Ibodatingg‘a yangi oy bo‘lub xam o‘ldi musalliy,
Sipehr atlasidin solibon havog‘a musallo.

Chu sendin o‘ldi quyosh panjası arosida oltun,
Socharg‘a dog‘i sen etting anga karam yadi tulo.

Demakka zikring erur xonaqoh ichinda hayo huy,
Saloyi ishqing ila ahli dayr ichra alolo.

Navoiy, ahli junun zumrasig‘a kirdi ilohiy,
Chu aylading ani Majnun, o‘zungni qil anga Laylo.

3

Yuzung ko‘zgusidin olamda yuz nuru safo paydo,
Quyosh andin aningdekkim quyoshdin zarra nopaydo.

Sening ko‘yung nasimig‘a o‘zin soldegki jon toptin,
Masih anfosidin gar xastag‘a bo‘lmas davo paydo.

Azaldin to abad sathi vujudung zarfi to‘lmaskim,
Anga ne ibtido paydodurur, ne intiho paydo.

Sen etting sham’u gulda jilvakim, parvonavu bulbul
Biri kuydi, biriga bo‘ldi yuz dardu balo paydo.

Sening nash’ang edi Shirin ila Laylodakim, Farhod O‘lub,
Majnung‘a bo‘ldi yuz tuman ranju ano paydo.

Mazohir istabon asmog‘a ishqu husn ko‘rguzdung
Ki, paydo xirmani ajz o‘ldiyu barqi jafo paydo.

Birov yettp sangakim o‘zlugi dashtini tay qildi,
Baqo istar kishi avval kerak qilsa fano paydo.

Sanga ko‘nglumdag‘i hojatni ne hojat yo‘qki arz etsam,
Ulus ko‘nglida pinhonlar erur chunkim sango paydo.

Navoiy gulshani vaqtig‘a ehson yamg‘urun yog‘dur
Ki, anda gul bila bulbulg‘a yo‘q bargu navo paydo.

4

Zihe el nihoni sanga oshkoror,
Nihon dardima oshkor et mudoro.

Ne dardingni ko‘nglumda asrarg‘a toqat,
Ne sirringnn og‘zimg‘a olmaqqa yoro.

Xayolnngda savdo pishirg‘anda, aylab
Dimog‘imni oshufta ul zulfi soro.

Firoqing aro jon talashurda yog‘ib
Hamul g‘am tog‘idin boshim uzra xoro.

Tarahhum, tarahhum, tarahhum, tarahhum,

Buto, chobuko, mahvasho, gul'uzoro.

Qorang 'udurur olam ohim tunidin,
Quyosh yanglig' och orazi olamoro.

Navoiyg'a jon oshkoru nihon sen,
Zihe el nihoni sanga oshkoro.

5

Yo rab, ul soatki tushkay hajr jismu jon aro,
Solg'ung oyini firoq ul ganju bu vayron aro.

Sarsaroyin har quyun qilg'ay badan tufrog'ining
Juzv-juzvin bir-bir ushbu gunbadi gardon aro.

Uyla sovrulg'an anosir har tarafkim, topmag'ay
Bir-birisidin nishon, bu vodiyi hirmon aro.

Jism tarkibi parishon bo'lg'ay ul yanglig'ki, aql
So'ngra jam' o'lmoqqa ruxsat bermagay imkon aro.

Jism ila jon ichra garchi tushkay oshubi firoq,
Solma furqat ibtilosi jon bila iymon aro.

Juzv-juzv ayrilsa bir-birdin ne g'am, gar qo'ymasang
Lutf etib yolg'uz meni ul vodiyi hijron aro.

Har necha to'foni isyonim chekar gardung'a mavj,
Kimsaga Nuh o'lsa kashtiybon ne g'am to'fon aro.

Ul habibingni shafi'im qilki, bo'lg'ay yuz tuman
Nuh muhtoji aning bu bahri bepoyon aro.

Ey Navoiy, jonni tufroq aylagil faqr ahlig'a
Istasang manshurluq ul xayli oliyshon aro.

6

Zihe buroqing izi mehru sayri barqoso,
Bu barq sayri bila po'yasi falakfarso.

Burun qadam bu makondin chu lomakon qo'ydung,
Ne nav' deyki, aning gomi erdi gardunso.

Visol subhi deyin, yo'q uruj oqshomikim,
Sabohdek edi ul barq nuri birla maso.

Qo‘lin bu barq yorutti, damin bu yel ochdi,
Agar sipehr uza Muso edi va gar Iyso.

Chu qoldi sayrida ruhu-l-amin, ne tong, ul ham
Gar o‘lmadi safaringning nihoyatig‘a raso.

Maloyik o‘lmadilar ul haram aro mahram,
Rijol xilvati davridin ul sifatki niso.

Navoiy asru buzulmish, boqib inoyat ila
Aning buzug‘lug‘ini bir ko‘z uchi birla yaso.

7

Bediling xayli rusul, sensen alarg‘a dilrabo,
Yo nabiy, ruhiy fidoka ahlan va sahlan marhabo.

Goh davlatliq boshingdin ketmayin chatri sahob,
Gah falakrav markabingg‘a yetmayin payki sabo.

Shomi vasling topmag‘ang‘a subhi sodiq har sahar,
Panjayi xurshid ila pirohanin aylar qabo.

Tufrog‘ o‘lmish, men qo‘yay deb ostonbo‘sungg‘a yuz,
Holima rahm aylabon qilma bu ranjimni habo.

Sheri gardun ul kishiga bo‘yni bog‘lig‘ bo‘lg‘ay it
Kim, eshicing itlarin topqay o‘ziga aqrabo.

Bo‘limg‘ay erdi tuyassar «Xamsa», ya’ni panj ganj,
Qilmasa erdi madad holimg‘a besh oli abo.

Ey Navoiy, chorayi dardingni qilg‘ay ulki bor
Ham rasulu ham amin, ham mustafo, ham mujtabo.

8

Kimki, yetkay ishq dardu dog‘idin ofat anga,
Dog‘ mehri saltanatdur, dard erur sihhat anga.

Ishq ko‘yi tufrog‘i bir kimiyyodurkim, erur
Yuz quyosh iksiricha, balkim fuzun qiymat anga.

Ishq dayri bazmining sing‘an safoli ichra may
Kim ichar, Jamshid jomin tanlamas himmat anga.

Har chubo‘lg‘an toridur aflok qasrig‘a kamand,
Ulki bo‘lsa ishq eski sholidin kisvat anga.

Chun tushar oshiq tanig‘a ishq o‘tining shu’lasi,
Uyla shahdurkim, erur zarbaftdin xil’at anga.

Har sharar ul shu’ladin bir barq erurkim, kul qilur
Lam’adin yuz shoh taxtu tojini hirqat anga.

Ishq o‘ti boshig‘a tushkankim, ul o‘tdin chiqsa dud,
Shoh zarrin toj ila chatrig‘a ne hojat anga.

Toj davlat bersa ishq o‘tidin, olib bir sharar
Buki o‘rtar o‘zugin, yetmasmu bu davlat anga.

Soqiyo, bir boda tut, do‘zax o‘tidek hirqati,
Lek jannat kavasaridek lavn ila safvat anga.

To ichib do‘zaxqa ham kirsam sirishkim saylidin,
Qolmag‘ay xalq o‘rtamoqda shiddatu hiddat anga.

Ey Navoiy, nazming asru soda erdi qo‘ydi yuz,
Shoh islohidin oncha zeb ila ziynat anga.

9

Ul pariypaykarki, hayron bo‘lmish insu jon anga
Kimki, hayroni emas, men telbamen hayron anga.

Ne ajab parvonadek kuysam yuzi sham’ig‘akim,
Ko‘p bo‘lubmen vasl ummidi birla sargardon anga.

Toiri hajring buzug‘ ko‘nglumnikim qilmish vatan
Chug‘zdekdurkim, nishiman keldi bir vayron anga.

Hajrida tah-tah ko‘ngul qon bog‘lag‘andindur nishon,
Nomai shavqumki tim-tim tomdi ko‘zdin qon anga.

Tiyrboroni g‘aming ko‘nglumgakim yog‘di erur,
Har tarafdin barqi ofat lam’aiy paykon anga.

Otashin gul chunki bulbul kuydurur yuz vajh ila,
Ne osig‘ faryodu afg‘on birla ming daston anga.

Ey Navoiy, ko‘ngluma amr etma tarki ishqkim.
Ul samandardur, emas o‘t furqati imkon anga.

10

Chin kiyigi desam ko‘zin, vah, nedurur itob anga,

Chunki qorasi ko‘rguzur har sari mushki nob anga.

La’li labingda ter bo‘lub obi hayot qatrasи,
Yoki Xizr suyi labing, qatra bo‘lib hubob anga.

Yopmadi ko‘zni ashkkim, boqmasun o‘zga yuzga deb,
Har sari ayni rashkdin yopti g‘aming niqob anga.

Jismim agar kuyar, ko‘ngul tolpinuri ajab emas,
Kimki uyiga tushsa o‘t, yo‘q ajab iztirob anga.

Oqmadi xo‘y uzoridin la’lig‘akim, hakimi sun’
Ezdi hayot sharbatin, emdi urar gulob anga.

Zulfi xayolidin ko‘ngul har yon etar havo, valek
Saydg‘a ne xalos chun bog‘lig‘ erur tanob anga.

O‘zlugining hijobidin kimki o‘zin xalos etar,
O‘zga qayonki solsa ko‘z, mumkin emas hijob anga.

Ahli mazallat ohining novakidin sipehr agar
Qochmadi muncha, bas, nedur ham bo‘lubon shitob anga.

Va’dayi vasl etib edi, tushta ayog‘in o‘pmisham,
Dema, Navoiy, ul pariy aylamasun hisob anga.

11

Vahki, hol oshufta qildi anbarin xoli manga,
Qo‘ydi yuz bir xol shavqidin ajab hole manga.

Ishq ko‘yida gadomen siymgun ashkim bila,
Budurur ishq ichra bo‘lsa joh ila mole manga.

Qayda imkoni hayotim, ey ko‘ngul, chun dam-badam
Sog‘ari furqat tutar bir hajri qattole manga.

Ne g‘animat suvrat o‘lg‘ay gar musavvir jon olib,
O‘xhash ul mahvashqa yozib bersa timsole manga.

Bulbulu parvona ishq oshubidin parvoz etib,
Bo‘ldilar g‘oyib, netaykim, yo‘q paru bole manga.

Ahli aysh oltun ayoq sofin ichib, kiydig harir
Kim, safoli faqr duri basdurur shole manga.

Yor jon olsa Navoiydin erur topshurmag‘i,
Ul gar ahmol aylamas, xud yo‘qtur ehmole manga.

12

Bukim qolibdur ul oy hajrida hayot manga,
Hayot qolmamish azbaski bor uyot manga.

Ulusni o'lturur ul sho'x iltifot aylab,
O'larmen ushbuki hech etmas iltifot manga.

Meni xud ayladi qatl, ushbudur vasiyatkim,
Ko'ngulni ham karam aylab yetursa bot manga.

Qush o'lmisham, yog'ibon hajr o'qi, vale ne osig'
Ki, bo'lmas ul taraf uchmoqqa bu qanot manga.

Tuganmagay yozilib mehnatim, agar bo'lsa
Firoq shomi qoravu falak davot manga.

Chu yor aylar emish barcha yerda jilvayi husn,
Teng o'ldi Ka'ba bila dayri So'mnot manga.

Navoiyo, chu emas nasya naqd birlan teng,
Behisht voizi purgo'g'avu Hirot manga.

13

Kelmay ul qotili zamona manga,
Bo'ldi hajr o'lgali bahona manga.

O'qi zaxm aylab o'tti ko'ksumdin,
Yara qoldi vale nishona manga.

Hajr aro navha aylaramki, erur
Nag'mayi aysh bu tarona manga.

Ishq ko'yida hamnafas bo'lmish,
Har nafas ohi oshiqona manga.

Ey ko'ngul, ishq o'tidin yonma,
Boru tashvish berma yona manga.

Hajr aro ashk tuxmini sochtim,
To ne bergay samar bu dona manga.

Tavbadin so'z, Navoiyo, demakim,
Hech yoqmaydur ul fasona manga.

14

Nechakim kuyar hajr aro jon manga,

Emas tarkini qilmoq imkon manga.

Agar bo‘lsa yuz jon fido qilg‘amen,
Nasib o‘lg‘udek bo‘lsa jonon manga.

Necha bo‘lsa ag‘yor hamsuhbati,
Erur bazmini ko‘rmoq armon manga.

Agar rashkidin sa’b bo‘lsa hayot,
Xud ul dam erur o‘lmak oson manga.

Qiliptur guli otashin g‘unchasi,
Ko‘ngulni o‘kush so‘zi hijron manga.

Ne kom olg‘amen, soqiyo, bodadin
Ki, davron tutar dam-badam qon manga.

Navoiy ketib, xilvat et uynikim,
Bo‘lur bu kecha yor mehmon manga.

15

Bordi rahm aylamay ul kofiri xudroy manga,
Gar tarahhum qilibon qaytmasa, voy manga.

Nechuk o‘lmayki, borur vaqtida ul umri aziz,
Barcha birla ko‘rushib, qilmadi parvoy manga.

Tiyradurmenki, parishon bo‘lubon vasl kunin
Shomi hajr ayladi ul zulfi sumansoy manga.

Mastu ovora ko‘ngul ittiyu rahm etmadi ul,
Bodapaymoy demay, bodiyapaymoy manga.

Yo‘q so‘zum charx ila, vah, qildi chu shabgir baland,
Ro‘zgor etti qora hajridin ul oy manga.

Soqiyo, sofi tarab ahli visol ichsunlar,
Hajr zindonida tut sang bas erur loy manga.

Hur zohidqa, Navoiy, ikki dunyodayu ul
Buti xudroy demay, sho‘xi xudoroy manga.

16

Ey ko‘ngul, telbarading emdi ne tadbir sanga,
Ul pariy zulfini gar qilmasa zanjir sanga.

Yuz balo kelsa chek emdi, chu bu ish man'i uchun,
Nechakim pand dedim, qilmadi ta'sir sanga.

Ixtiyore sanga ham yo'q edi, ne yozg'urayin,
Buyla chun yozg'an emish xomayi taqdir sanga.

Sen chu ishq o'tig'a kuydung, sanga emdi ne osig',
Aylamak maxlas uchun hiylavu tazvir sanga.

Meni kuydurdung esa, sen dag'i kuydung, netayin
Emdi yuklab bu ish oyinida taqsir sanga.

Bihil et sen dag'i men xastag'a, lekin deb edim
Har nekim keldi sening ollingga bir-bir sanga.

Buzdi ko'nglung uyini xonabarandozi firog',
Ey Navoiy, ne osig' pand ila ta'mir sanga.

17

Iydi ruxsoring ko'rub, bo'ldi ulus hayron sanga,
Ey ulus, iydi yuzung, jonim mening qurban sanga.

Sham' emas yerdin, kavokib charxdin bayram tuni
Kim, erur yer, ko'k tuman ming ko'z bilan hayron sanga.

Iydgahda gard emas, balkim yetishkach maqdaming,
Qo'pti yerdin sadqa bo'lmoq istabon maydon sanga.

Xusravi anjum degaykim, sekritur ko'k taysanin,
Iydgahda kimki ko'rsa raxsh ila javlon sanga.

Chatr shaklidin samoviy barcha ofat daf'ig'a
Tengri aylaptur nasib o'z hifzidin qalqon sanga.

Notavon jismimg'a bayramliq bila ber sihhate
Kim, ko'ngul ummidvoru muntazirdur jon sanga.

Necha bayramlarda kiygan jandasin faqr ahlining
Xor ko'rma, eyki xil'atdur necha alvon sanga.

Iydgah ahlin dame qilma parishon, ey sipehr
Kim, erur bu jam' bir-ikki zamon mehmon sanga.

Ey Navoiy, durri nazming xutbadek topqay sharaf,
Lutf ila qilsa nazar bayram kuni sulton sanga.

18

Tushkali qadding havosi boshima avbosh aro
Bosh aro kestim alif yozg‘an alifdek bosh aro.

Mevaedurkim nazar bog‘ida ba’zi tutti rang,
Qatra-qatra la’lgun bu dona-dona yosh aro.

Mehr qattiq ko‘nglung ichra qayda bo‘lsun, bo‘lsa ham
Filmasal bor ul giyah yanglig‘ki butkay tosh aro.

Bir-biriga boshlarin payvasta nevchun qildilar,
Fitnaangize agar yo‘qtur ul ikki qosh aro.

Kom topg‘an chog‘da vasling xonidin hajr og‘usi
Talx erur andoqli el sog‘ar icharlar osh aro.

Xayli zulmat ranjig‘a tushkan safo ahli erur
Uylakim, tong tuyg‘uni qolg‘ay surug xuffosh aro.

Gar Navoiy ohidin tan o‘rtanur, yuz churkanur,
Yetti ham hummo haroratdin bo‘lur ham moshiro.

19

Kirsa ul gul xirmani ag‘yor ila gulzor aro,
Men hamono tolpinurmen xirman etkan xor aro.

Jonni anglarmen balolar ichra o‘lsam ne ajab,
Ul zamonekim ko‘rarmen yorni ag‘yor aro.

Lojuvardu vo‘sma birlan zeb bergan qoshlaring
Jilvagar bo‘lg‘an iki tovus erur gulzor aro.

Zulfida sarrishtayi iymon badaldur kufr ila,
Ne tafovut tushsa Maryam rishtasi zunnor aro.

Za’flig‘ jismimda bilgurgan tuganlar hay’atin,
Angla yondashqan tugunlarning shabihi tor aro.

Tushti yel kayfiyatidin sug‘a gul yafrog‘lari,
Yo‘qsa maydin zohir o‘ldi gullar ul ruxsor aro.

Masjid ichrakim meni taxqir qilding, ey faqih.
Ko‘rgasen johimni kirsang kulbayi xammor aro.

May xubobi gunbadin bazm ichra ul dam doyir et
Kim, shafaq may zohir etkay gunbadi davvor aro.

Ey Navoiy, elga, bilgil, benavolig‘ boisi,
Har navokim zohir aylarsen fig‘oni zor aro.

20

Jonda qo‘ydum chirmag‘an maktubini hijron aro,
Bilman ul maktubdur yoxud alifdur jon aro.

Noma ermas erdikim, bor erdi ul hirzul-amon
Kim, g‘amim aysh etti, yetkach kulbayi ahzon aro.

Rishtayi oliki, chirmab erdi, ochib asradim
Xunfishon ko‘z raglaridek diydayi giryon aro.

Notavon jismim ko‘rundi za’fdin ul rishtadek,
Baski to‘lg‘andi iki ko‘zumdin oqqan qon aro.

Garchi jonondin aziz ermas, erur jondin aziz
Kim, vasila bo‘ldi mahzun jon bila jonon aro.

Ruq’ayi ehsondin, ey mun’im, gado komini ber
Kim, bu yanglig‘ ganj topmas kimsa bu vayron aro.

Ey Navoiy, nomayi maqsud yetti xushdil o‘l
Kim, xati ozodlig‘ budir g‘ami hijron aro.

21

Nuqtayi mushkdur bu yo xoli aning jabin aro,
Kufr savodini ne xush sizdi bayozi din aro.

Xotami la’l og‘zidur, lek hadisi jon olur,
Zahr nihon qilibdurur la’li magar nigin aro.

Sajdadadur yuzum vale jon aro ul sanam g‘ami,
Bo‘ynuma subhadur vale butdurur ostin aro.

Jonu ko‘ngul necha dedi asrali o‘zni, kelgach ul,
Vah, yana qo‘zg‘alishdilar ko‘rgach ani ichin aro.

La’li hadisida demangkim sifat ila kirpigin,
Og‘zima chunki sanchilur nesh bu angabin aro.

Aqlu havos erur adam, jonu ko‘ngulga yo‘q vujud,
Tafriqa tushkali menu ul buti nozanin aro.

Esdi magar xazon yelikim xam o‘lub vido uchun.
Voqiayi firoq erur sunbulu yosamin aro.

Bu chaman ichra har gulekim ochilur, fig‘onki bor
Hodisa tifli muntazir uzmak uchun kamin aro.

Belingu inju tishlaring hasratidin Navoiyning
Jismida ashki bordurur rishta duri samin aro.

22

Ey, g‘aming gavhari jonu tan aro,
Ikki dur yanglig‘ iki mahzan aro.

Bog‘ aro kirki, qiyomat solsun
Qomating sarv bila savsan aro.

Gul sari boqmadi bulbul, chunkim
Ko‘rdi gulgasht etasen gulshan aro.

Dilraboliq fanida mohirsen,
Dahrda sen kebi yo‘q bu fan aro.

Soqiyo, bodaki nazzora qilay,
Yor aksini mayi ravshan aro.

Istasang dushmaning o‘lg‘ay sanga do‘st,
Kirmagil do‘st bila dushman aro.

Ishq o‘ti ichra Navoiy kim ekin,
Bir gadokim kuyadur gulxan aro.

23

Qosidekim yordin bir so‘z rivoyat aylasa,
Istaram so‘rgan soni boshtin hikoyat aylasa.

Telbalar yanglig‘ gah o‘z holimdadurmen, goh yo‘q,
Ul pariydin har kishi bir so‘z rivoyat aylasa.

Ey ko‘ngul, ohingni dersenkim su aylar toshni,
Chin erur, gar ko‘ngliga aning siroyat aylasa.

Jong‘a basdur har nafas bir dog‘i nevchun bo‘lmasun,
Qoni’ ulkim, bir diram har dam kifoyat aylasa.

Topti Majnun shuhratu qoldi mening qissam nihon
Kim, o‘lar har kim fasonamni bidoyat aylasa.

G‘am sipah qasdimg‘a tortibdur, ne bo‘ldi piri dayr

Bir qadah birla bu mahzunni himoyat aylasa.

Ey Navoiy, faqrin bebahradur yuz g‘am yetib,
Solikekim shukr borinda shikoyat aylasa.

24

Yashil to‘n birla oltun tugmalardin zebu far anda
Qading noranji ra’no naxlidur butkan samar anda.

Bu xil’atkim qiliptur xo‘y chakon ruxsorani pinhon,
Erur gulbunki, pinhon butti bir gulbargi tar anda.

Taolalloh ne qaddur, qad emas, jannat niholidur,
Ochilg‘an gul yoshung‘an bargi gul butkan shakar anda.

Yuzung ravshan zuloledur, g‘azabdin chin aning mavji
Ki, niliy xoldin har yon ochilmish nilufar anda.

Ajab-gulshan erur ko‘yungki, jannat bog‘ida yo‘qtur
Niholekim, gulu sunbul ayon qilg‘ay magar anda.

Necha ovora ko‘nglumni so‘rog‘ ettim kishi bilmas,
Magar ko‘yiga yo‘l topsam, topilg‘ay bir xabar anda.

Toriqtim xonaqahda dayr sari yuzlanay emdi
Ki, munda necha zulmatdur, safodur sarbasar anda.

Qadah sofiyu piri dayr sofiy, mug‘bacha sofiy,
Ne ko‘rgay juz safo bir kimsakim, tutqan maqar anda.

Navoiy nazmi ranginu ravon ersa ajab ermas
Ki, maxlut o‘ldi ko‘z yoshi bila xuni jigar anda.

25

Jamoling jilva kildi, bor edi og‘zing nihon anda,
Quyosh chiqqach ne mumkin, zarra bo‘lmog‘liq ayon anda.

Qading hajrida yuz devor uza qo‘ydum chu za’fimdin,
Chekildi bir alif har qatra ashkimdin nishon anda.

Sabo zulfin ochib tarqatmagil majnun ko‘ngullarni
Ki, maskan aylamishlar bir surug behonumon anda.

Aning ko‘yiga borg‘an bilki menmen har qachon ko‘rsang,
O‘lim holida yotqan bir g‘aribi notovon anda.

Magar yel hojib o‘lmish gulshani ko‘yiga ul gulning
Ki, moni’dur borurg‘a xasta bulbuldin fig‘on anda.

Balo dashtidag‘i ovoralar sonin talab qilding,
Bu yanglig‘ xonumonidin jalolarg‘a ne son anda.

Chamanda yaxshi yoronlar bila sarmast emish, vahkim.
Emas mumkin sola olmoq o‘zumni men yomon anda.

Riyoyiy xonaqahda gar safo kasb etmading bir dam,
Fano dayrig‘a kirkim, yo‘q kudurat bir zamon anda.

Ko‘ngul jomi jahonbindur to‘la qil sof may birla
Ki, solg‘ay aks nekim bo‘lsa ahvoli jahon anda.

Jahon ahli nifoqidin qayon borsam emon emnn,
Tilarmen ul jahonni, topqamen shoyad amon anda.

Navoiy ming jarohat birla tun ul ko‘y aro kirmish
Ki, oqmish, yerga yuqmish tomg‘a har sari qon anda.

26

Yer tutqali ul kofiri xudkom ko‘ngulda,
Yo‘q menda ko‘ngul uylaki orom ko‘ngulda.

Ham gul isi, ham sarv bo‘yi ko‘ngluma yoqmas,
To evrulur ul sarvi gulandom ko‘ngulda.

Siymin zaqanu shu'lai ruxsorni yopkim,
O‘tlar yoqadur ul tama‘i xom ko‘ngulda.

To g‘unchadek og‘zingg‘a tutub zulfni ochding,
Qo‘zg‘atdn xirad xaylini har shom ko‘ngulda.

Ko‘nglumga dema zuhddin, ey shayxki, har kun
Kofir bachae may qilur oshom ko‘ngulda.

Ko‘nglumni bu dam jom ila bore tutayin xush,
Chun zohir emas suvrati anjom ko‘ngulda.

Mug‘ dayrida qildim vatan andoqli Navoiy
Kim, mug‘bachalar vaslidurur kom ko‘ngulda.

27

Budu nobudum agar teng bo‘ldi jonon ollida,
Zarra yo‘qu bori tengdur mehri raxshon ollida.

Ko‘zlarimning chashmasi ollida ummon hajr aro
Ko‘r biaynih uyladurkim chashma ummon ollida.

Vasl ichinda do‘zax o‘ti birla qo‘yg‘an toza dog‘
Otashin guldek gumon qil dog‘i hijron ollida.

Ey musulmonlar, ne holatdurki, ishq etmish zabun,
Yuz musulmon xanlnni bir nomusulmon ollida.

Ulki majnun deydilar, chindurki har dam ko‘rguzur
Chok bo‘lg‘an ko‘nglagin bu jismi uryon ollida.

Faqr ila shod o‘lki, har kim bo‘lsa ahli ma’rifat,
Dahr tufrog‘ birla teng bo‘lmoq ne imkon ollida.

Ey Navoiy, jon sabo ollida, qilg‘aymen nisor,
Bu gado holin desa yetkanda sulton ollida.

28

Yigitligimda edim mubtalo yigitlarga,
Qarib ham o‘zni tilarmen fido yigitlarga.

Yuzi sarig‘, boshi oq bir qari gar o‘lsa, ne hayf,
Engi qizil, ko‘zi, qoshi qaro yigitlarga.

Desang qarib bo‘layin zuhdu ofiyat birla,
Magarki bo‘limg‘asen oshno yngitlarga.

Tilar esang qariliq izzu rutbasini, magar
Ko‘ngulni bermagasesen dilrabob yigitlarga.

Nechaki bo‘lsa yigitlikda sho‘xliq matlub,
Vale adab bila xushtur hayo yigitlarga.

Qarig‘a har necha bo‘lsa sitam yigitlardin,
Ne bo‘lg‘usi qaridin juz duo yigitlarga.

Ne nav’ zuhd ila taqvoni asrayin mahfuz
Ki, uchradim qarilikda balo yigitlarga.

Yetar azob qarib, noxalaf o‘g‘ullardin,
Nechaki tutsam o‘zumni ato yigitlarga.

Chu husn bo‘ldi, vafo istamang yigitlardin
Ki, tengri bermadi husni vafo yigitlarga.

Nechaki mast yigitlarni ahli ishq tilar,
Valek ishqdurur porso yigitlarga.

Navoiyo, qarisang ham jahonda bir necha kun
Rafiq bo‘l, tilar ersang navo yigitlarga.

29

Xattu zulfu qoshlarining, ey dilbari chobuk, balo,
Ul ne yuzdurkim, erur davrinda yuz turlug balo.

Oshiq o‘lturmakka ul ko‘zdek baloe ko‘rmaduk,
Yo‘qsa oshiq bo‘lg‘ali olamda ko‘p ko‘rduk balo.

Ul ne ko‘zdurkim, erur nozu karashma jomidin
Bo‘lsa maxmur — ofat, ammo bo‘lmog‘i usruk — balo.

Ishq dashtida o‘lumdin qochmog‘ilkim, anda bor
Ming balokim, bu balodur barchadin o‘ksuk balo.

Ishq aro ko‘rduk nihoyatsiz baliyyat, ey ko‘ngul,
Hajrdin dushvor lekin ko‘rmamish erduk balo.

Ul balolarkim, chiqarg‘ay ofiyatdin kimsani,
Ishq erur qotil va lekin may erur kuchlug balo.

Ey Navoiy, tashlab o‘zlukni fano yo‘lig‘a kir
Kim, erur ul yo‘lda egningga bu og‘ir yuk balo.

30

Tifllar toshiki, jismim qildi sartosar qora,
Bo‘ldi savdog‘a savodi a’zam andin har qora.

Yoshdin angla yuzum, gar siyngundur, gar qizil,
Toshdin angla tanimni: gar ko‘k o‘lmish, gar qora

Dema ko‘nglung lavhig‘a yozg‘il xirad oyinini,
Baski, qo‘ydung dog‘i ishq ul safhadur aksar qora.

Panjayi xurshidni go‘yo qora et mish kusuf,
To qiliptur ilgin ul huri pariypaykar qora.

Dudi ohimdin demaykim zor jismim so‘zidin,
Kulki bo‘lmish o‘t tushub kuygan kebi bistar qora.

Umr yo‘q juz tiyralik isyondakim, hayvon suyi
Istamakdin ro‘zgorgi topti Iskandar qora.

Chun Navoiy ishq aro komillig‘in sabt ettilar,
Bo‘ldi baskim, ahli ishq ot yozdilar mahzar qora.

31

Ko‘zungga tani notavonim fido,
Ravonbaxsh la’lingg‘a jonio fido.

Labing rangi ollida qonim sabil,
Qading jilvasig‘a ravonim fido.

Belu og‘zing oldi tanu jonnikim,
Anga oshkoru nihonim fido.

Bag‘ir la’li, ko‘z durri ollingda sarf
Demaykim, sanga bahru konim fido.

Junun birla aqlim g‘aming sadqasi
Ki, ollingda yaxshi-yomonim fido.

Fano dashtida qani ovoralik
Kim, ul sayrg‘a xonumonim fido.

Navoiydin olding ko‘ngul, jonne ham
Sanga aylay, ey dilsitonim, fido.

32

Chu ishq dardu baloni jahong‘a urdi salo,
Naxustroq meni bexonumong‘a urdi salo.

Men oldim o‘n ulushidin to‘quz yarim ulushin,
Yarimki qoldi, ani insu jong‘a urdi salo.

Aning dag‘i yarmini oldi ofarinish eli,
Yarimini yona bu notavong‘a urdi salo.

Bu notavon ani ham jon bila qabul etti,
Chu qochtilar ani ham har qayong‘a urdi salo.

Ko‘ngul chu dardu balo tolividurur, gardun,
Agar yetishti ming ofat ham ang‘a urdi salo.

Fig‘onki, elga tutub boda soqiyi davron,
Chu davr yetti manga, barcha qong‘a urdi salo.

Navoiyo, sanga har yaxshiliqki mumkindur
Ki, yor mehnat o‘tin men yomong‘a urdi salo.

33

Har jafo qilsang to‘zarmen, qilmasang dag‘i vafo,
O‘zgalarga ne vafo qilsang to‘zarmen, ne jafo.

Elga gar va‘da vafo qilding, jafo men xastag‘a,
Elni bilman, qil manga har va‘dakim qilding, vafo.

Va‘dalar qatlimg‘akim qilding, tanimdin ketti za‘f,
Go‘yiy alfozing edi dardimg‘a oyoti shifo.

Orazing xurshididin tushmish qadingning soyasi,
Yoki yerga sudralib mushkin soching qolmish qafo.

Xurdadonlar aylamaslar fahm og‘zing ramzini,
Ne uchunkim, bordurur ul nuktada behad xaflo.

Tiyralikdur dahr ishi, sofiy fano jomiyu bas,
Ayyuha-s-soqiy lano da’ mo kadar xuz mo safo.

Ey Navoiy, jonig olg‘umdur desa qayg‘urmag‘il,
Jonga minnat tut, munung birla gar etsa iktifo.

34

Ko‘zumdin ashk tugandiyu bo‘ldi qon paydo,
Bag‘irdin anda bo‘lur poralar nishon paydo.

Jununum o‘lsa damo-dam taajjub etmangkim,
Ko‘zumga ul pariy o‘lur zamon-zamon paydo.

Nujumi husndurur xo‘blar vah ul soat
Ki, bo‘lsa ul yuzi xurshid nogahon paydo.

Munajjim axtari baxtimni qo‘yki, ohimdin,
Bu kun erur ne nujumu ne osmon paydo.

Ne za‘fdurki, so‘rar elga fahm o‘lur nola,
Valek ko‘zga emastur bu notavon paydo.

Ne yo‘l ekin buki har necha korvon bordi,
Birisidin ne asar bo‘ldi, ne nishon paydo.

Navoiy o‘ldi aning dargahida andoq gard
Ki, tufroq ichra emastur ul oston paydo.

Sharora xatlari sog‘inma dudi ohim aro
Ki, yirtibon yuzini kiydi motamimg‘a qaro.

Temur ko‘ngullug ulus qirmog‘ig‘a suhondur
Kaya xaroshki, zohir bo‘lur fig‘onim aro.

Chamanda barcha gul o‘rniga solg‘ay o‘t, bulbul
Mening fig‘onim ila bir kun o‘lsa nag‘masaro.

Munosib o‘ldi chu yondoshsalar kumush oltunu
Yuzumni ko‘ksungga qo‘ysang ne bo‘ldi, siymbaro!

Tanimni zaxm qilib ishq ahlig‘a yarading,
Tarahhum et qani bu notavong‘a dag‘i yaro.

Qilur gadolig‘ ul oy xoni husnidin ushshoq,
Nechukki shohi jahon bazmi ayshidin fuqaro.

Navoiy ohi navosozi shoh Abulg‘oziy
Sipehr martaba Sulton Husayn Boyqaro.

Labingg‘a aylamish ul xoli anbarin g‘avg‘o,
Nechukki shakkar uza aylagay chibin g‘avg‘o.

Bu nav’ kelmagay islom nahbig‘a kuffor
Ki, kufri zulfig‘a aylaptur ahli din g‘avg‘o.

Desam qiyomat aning ko‘yini ne aybki, bor
Qiyomat ahlicha ul ko‘yda kamin g‘avg‘o.

Xusho jununki, chu yuzlansam ul pariy sari,
Qilur boshimg‘a yuz atfoli mahjabin g‘avg‘o.

Ne ayb qo‘zg‘asa davronni buylakim, har tun
Ichib qadah solur ul sho‘xi nozanin g‘avg‘o.

Chu ishq nuktasi dermen, hujum etar ushshoq,
Nechukki dars der elga bo‘lur qarin g‘avg‘o.

Navoiy uzra g‘amu dard qo‘zg‘alur ne ekin,
Bu xastag‘aki qilur yoru hamnishin g‘avg‘o?

Ko‘z yuzidin olg‘animg‘a ashkdin qondur sazo,
Vasl aro shukr etmaganga dog‘i hijrondur sazo.

Telba ko‘nglum bilmagan bo‘lsa visoling qadrini,
Hajr anga yetkurdi inak ulcha imkondur sazo.

Gulshani vasling vatan erkanda gar shukr etmadim,
Dasht uza bo‘lmoq aloxonu alomondur sazo.

Oshkoror lutfu xulqungdin agar toptim g‘urur,
Furqat ichra emdi dog‘u dardi pinhondur sazo.

Hajr ila berma sazo gar vasl aro gustox edim,
Tig‘i kin birla siyosat qilki osondur sazo.

Oshiq ar qilsa gunah qilmoq sazo hijron emas,
Qatl tig‘i surki qilmoq g‘orati jondur sazo.

Vasl bazmida navo qadrin, Navoiy, bilmading,
Furqat ichra kecha tong otquncha afg‘ondur sazo.

38

Sen kebi bir gul topilmas kezsa yuz gulshan aro,
Qomatingdek naxli tar ming sarv ila savsan aro.

Sen qilursen nozu o‘lturg‘an tamoshlo qilg‘ali
Ruh shaxsidur, emas ko‘z mardumi ravzan aro.

Jonim ichra bo‘lmasa, ey siymtan, mehring sening,
Mehribonliq rasmida jonim kerakmas tan aro.

Qilmasa ravshan jamoling lam‘asi ko‘z mardumin,
Qo‘yman ul yuzi qorani diydayi ravshan aro.

Ganji husnung ichra muhlik g‘amza, ey sultoni husn,
Shohlarg‘a zahr bo‘lg‘andekdurur maxzan aro.

Muddaiylar ichrakim qatlimg‘a dushmanvor do‘st
Tig‘ surdi, do‘stkom etti meni dushman aro.

Layliyu Shirinu Azro noz sendin kasb etar,
Zufununlar ko‘rki, shogirdingdurur bu fan aro.

Aql ranjidin omon istab tutubmen maykada,
Ey xirad, qo‘ykim, tinay bir lahza bu ma‘man aro.

Ko'ksum ichra yo'q esa ko'nglum ajab yo'q, ey xirad,
Ne ajab devonani gar topsang maskan aro.

39

Bas ajabdur gar manga ul dirlrabo qilg'ay vafo,
Kimga umr etti vafokim, ul mango qilg'ay vafo.

Chun vafosizdur qora ko'zlar sanga ham, ey ko'ngul,
Mumkin ermasturki, ul ko'zi qoro qilg'ay vafo.

Men jafo tortarg'a xo'y ettimki, yo'q imkonikim,
Ul jafojo' to qila olg'ay jafo, qilg'ay vafo.

Chun mening dardim pariyyashlar jafosindindurur,
Ushbu dardimg'a magarkim ham davo qilg'ay vafo.

Kil vafo, ushshoqingga, ey sho'xkim, nogoh agar
Bir pariy ishqig'a zor o'lsang, sango qilg'ay vafo.

Davrning iflosidin may ichki, joh ahlig'a ham
Aylamon bovarki, bu dayri dag'o qilg'ay vafo.

Aytsa bo'lg'ay zamon nodoni, jono, anikim,
Jon berib ahli zamondin muddao qilg'ay vafo.

O'zga oylardin vafo naql etsalar man' aylaman,
Lek inonman anikim ul bevafo qilg'ay vafo.

Ey Navoiy, ko'p vafodin dema so'zkim, aybi bor,
Faxr ishq ichra agar bir benavo qilg'ay vafo.

BYe HARFINING BALOLARINING BIDOYATI «NAVODIR»DIN

40

Dahr bog'i aro ko'p istamagil ayshu tarab
Kim, guli shu'layi g'am, g'unchasing xori taab.

Sunbuli rishtalarin rishtayi maqsud dema
Kim, ko'ngullar qushi domig'a erur barcha sabab.

Arig'i ichra ushoq toshi agar inju erur,
Toyiri umrung uchun donavu su topti laqab.

Angla ziyrak qush anikim ko'ruba mundoq dom,
Bo'limg'ay tegrasida obxo'ru dona talab.

Dona yeb, hosil etib fazla, najas aylamagay
Bog‘ sahnini, riyat qilibon tarki adab.

Yo bo‘lub domg‘a muhkam topa olmay maxlas,
Urunub, tolpinibon aylamagay sho‘ru shag‘ab.

Chun Navoiy ko‘zi bog‘liq qush erur olam aro,
Bu chamandin anga uchmog‘ni nasib et, yo rab.

41

Topmish ul yuz qatra-qatra xo‘ydin o‘zga obu tob,
Qayda, vah-vah, muncha kavkab zohir aylar oftob.

Chiqma to‘qquz parda keynidinki, olam kuymasun,
Olsang olti-etti burqa’ qo‘yg‘il ikki-uch niqob.

Bir dam ul yuz naqshi giryon ko‘z aro topmas qaror,
Su aro xurshid aksidekki qilg‘ay iztirob.

To ko‘ngul devona bo‘ldi ul pariy la’lin ko‘rub,
Hifz uchun qaydig‘a qildim rishtayi jondin tanob.

Dardi ishqimdin suvol etti ul oy, faryodkim,
Yuz javobim boru yo‘q hushum demakka bir javob.

Bu chamanda g‘uncha ermas, angla, bulbul ko‘nglikim,
Shishladi ishq aylamakka otashin guldin kabob.

Ey Navoiy, gar desangkim g‘ussa barbod etmagay,
Bosh ko‘tarma bodadin zinhor andoqkim hubob.

42

Yeti hajr ayomi, qatlimg‘a nedur har dam itob,
Men xud o‘lgumdur yaqin, ey umr, ko‘p qilma shitob.

Elga mehringdin kuyarmen, menga qahring sahl erur,
Do‘zax ahlig‘a erur jannatni ko‘rmaklik azob.

O‘lturur chun hajr, beparvolig‘ing ortuqsidur,
Dard muhlikdur, ne hojat sharbat ichra zahri nob.

Nevchun eldek yo‘q menga mehringki, sarvu gul uza
Tushsa xoru xasni ham mahrum qo‘ymas oftob.

Bodpoying yo‘lida xoki tanim gard ayladim,
Vahkim, ul gard-o‘q murodim yuziga bo‘ldi hijob.

Ashk suyidin qading sarvini qildim sarbaland,
Vahki, hamul sudin ummidim uyin qilding xarob.

Ul quyosh hajri meni o‘lturgali bas, ey sipehr,
Sen quesh tig‘in chekib qilmoq ne hojat iztnrob.

Bu chamanda su masallik pokro‘ni charxdin
Ko‘rmadikkim, ko‘ngli sinmay qoldi andoqkim hubob.

Chun Navoiydin uzuldung yor, savob o‘lmoq anga,
Jonidin mahjur o‘lar vallohu a’lam bissavob.

43

El pariyu hurni degay gumon qilg‘ancha xo‘b,
Lek erur huri pariyzodim mening yuz oncha xo‘b.

Davr ichinda fitna ham ko‘p, xo‘b ham behad, valek
Bo‘limg‘ay mingdin bir ul sarfitnai davroncha xo‘b.

Kun bila tun yuz bila xattingcha xo‘b ermas yaqin,
Bo‘lsa bu gulshanda bo‘lg‘aylar gulu rayhoncha xo‘b.

Husnig‘a ushshoq agar mencha halok ermas ne ayb
Kim, kishi ul yuzni ko‘rmaydur meni hayroncha xo‘b.

Husnidin to‘ymog‘ emas mumkinki, behad xo‘b erur,
To‘yg‘ay erdim, bo‘lsa erdi Yusufi Kan‘oncha xo‘b.

Ey ko‘ngul, Farhodu Majnun bo‘lg‘ay erdi bizcha zor,
Bo‘lsa erdi Laylnyu Shirin bizing jononcha xo‘b.

Buki tarki ishq etarlar va‘da yolg‘on qilsa yor,
Qilsa bo‘lmas, bo‘lsa yor ul va‘dasi yolg‘oncha xo‘b.

Ey ko‘ngul, huru pariy vasfin eshittim, go‘yiyo
Hech qaysi odamiylig‘da emas insoncha xo‘b.

Ey Navoiy, ko‘yinnng xori ko‘zumga gulcha bor
Kim, erur ollimda ko‘yi ravzai rizvoncha xo‘b.

44

Ajab yo‘q o‘lsa qora zulf orazingg‘a niqob,
Quyoshqa tongmudurur bo‘lsa shomi tiyra hijob.

Ko‘zumga o‘t chaqilib koji g‘amdin, ashkim oqar,

Nechukki soiqa tushkach to‘kar yog‘inni sahab.

Magarki masjid ekandurki, bo‘ldi butxona,
Yuzungki, ikki qoshingdin to‘ridadur mehrob.

Soching‘ xayoli ko‘zum bahri ichradur, yo ishq
Ko‘ngul siyosatin istab, su ichra soldi tanob.

Yuzungki ayni haroratdin o‘ldi g‘arqi araq,
De ani chashmayi xurshid yo guli serob.

Xumor g‘olibu mayxona eshigi bog‘liq,
Tarahhum ayla manga yo mufattih-al-abvob.

Navoiyo, kelibon piri dayr ochsa eshik,
Ko‘tarma bosh oyog‘idin boshing gar o‘lsa turob.

45

Yor og‘iz ochmasqa dardim so‘rg‘ali toptim sabab,
Ko‘p chuchukliktin yopushmishlar magar ul ikki lab.

Chayqalib go‘yo tushar hayvon zuloli ichra mavj,
Iztirob ichra yuzungga solsa chin nogah g‘azab.

Ko‘hi dard ichra meni Farhod agar qilding xitob,
Chun seni dermen chuchuk jonim erur Shirin laqab.

Buki ko‘nglumni iting tishlarda og‘zin qochirur,
Yo o‘ti, yoxud aning islang‘ani erkin sabab.

Ishqi komil elni yo Farhod, yo Majnun qilur,
Gar erur ma’shuq yoxud armaniy, yoxud arab.

Eyki, faqr ichra qadam qo‘ydung talab vodiysig‘a,
Bo‘lmasa tolib sanga matlub, sud etmas talab.

Shah harimida, Navoiy, necha topsang ehtirom,
Bilgil o‘z haddingniyu behad rioyer qil adab.

46

Soching qorong‘u tun, ey sarvqaddi shirinlab,
Yuzung tun o‘rtasida jilva aylagan kavkab.

Yuzungda lab su aro o‘t erur, bu asru g‘arib,
Labingda xo‘y o‘t aro su erur bu asru ajab.

G‘amingda «yo rab»-«yo rab»ni ko‘kka yetkurdim
Qabul qurbini topqaymu, «yo rab», ul «yo rab».

Xayoli xasta ko‘ngul ichrayu manga qayg‘u
Ki, bu latifu yo‘q ul yerda g‘ayri ranju taab.

Yesun iting jigarimni uzub-uzub, negakim
Kesib-kesib qoshig‘a tashlamog‘liq ermas adab.

Ne kelsa charxdin ich bodakim tafovuti yo‘q,
Agar inoyat etarsen anga, yo‘q ersa g‘azab.

Navoiy, o‘lmaki, matlubung o‘lmasa tolib,
Sening ichingga nedin soldi muncha dardi talab.

47

Ul oyning gulshani husnin xazondin asrag‘il, yo rab,
Gulu shamshodin osebi zamondin asrag‘il, yo rab.

Baloyi ishq nogah uchrar, ushbu telbadin o‘zga
Ulusni bu baloyi nogahondin asrag‘il, yo rab.

Ul oy har yonki aylar mayl, ishq ahli hujum aylar,
Manga so‘z buki: ani barcha yondin asrag‘il, yo rab.

Nihoniy dardi aning muhlik ermis zahri qotildek,
Jahon ahlini ul zahri nihondin asragil, yo rab.

Manga nomehribonliq birla ul but qasdi din qildi,
Bari elni buti nomehribondin asrag‘il, yo rab.

Xaloyiq dini torojig‘a chiqti mast ul kofir,
Qayon mayl etsa islom ahlin andin asrag‘il, yo rab.

Chiqarmen telba itdek ofiyat ko‘yidin o‘t sochib,
Jami‘i yaxshilarni men yomondin asrag‘il, yo rab.

Jahon ahlig‘a qildim jon fidoyu qasdi jon ko‘rdum,
Ne mahzun jonki bor, ahli jahondin asrag‘il, yo rab.

Navoiyning fig‘oni o‘ti kuydurdi jahon ahlin,
Maloyik xaylin ul o‘tlug‘ fig‘ondin asrag‘il, yo rab.

48

Xating ham xo‘bdur asruyu xoling ham bag‘oyat xo‘b,
Labing ham xo‘b erur, la’lingda nutqung benihoyat xo‘b.

Boshingda ham binafsha, yuzda ham ul xollar xushtur
Ki, mushaf safhasi uzra ko‘runur ushru oyat xo‘b.

Chu so‘z rangindurur, xushtur sanamlar la’lidin xushrok
Ki, lab rangin esa andin kelur rangin hikoyat xo‘b.

Yuzung may nash’asidin xo‘b erurkim, oqcha yuzlarni
Nazarg‘a ko‘rguzur, chunkim yetar o‘tdin siroyat xo‘b.

Degach sendin birov afsonae bas shod o‘lurmenkim,
Ko‘ngul ichra nashotangiz erur bo‘lsa hikoyat xo‘b.

Kishiga dardi dil qilmon, ko‘ngulga tig‘lar ursang
Ki, ermas xo‘blardin notavonlarg‘a shikoyat xo‘b.

Qadah gar bermasang, ey dayr piri, ne osig‘ ranjim
Suluk etmas asar, gar pirdin yetmas hidoyat xo‘b.

Ulub erdim firoq oshubidin, lekin menga soqiy
Bir-ikki-uch labolab jom ila qildi himoyat xo‘b.

Tushub gul husnidin bulbulg‘a mushkil lol edi, qilding
Navoiy hallig‘a ul oy jamolidin rivoyat xo‘b.

49

Qaysi bir tuhmatki bizga qilmadi nisbat raqib,
Qaysi birnikim eshitqach qilmadi bovar habib?

Chun raqibimg‘a raqib erdi habib, erdim tirik,
Naylay o‘lmaykim, habibimg‘a habib o‘lmish raqib.

O‘z diyorinda g‘arib eldin yetar chun javru zulm,
El diyorinda g‘arib o‘lmog‘lig‘im ermas g‘arib.

Jon fido aylab dedim, vasling nasib o‘lg‘ay manga,
Bo‘lsa jonim qasdi qilg‘anlar nasibi, yo nasib.

Gar mening ishqimg‘a husnungdin vafoe yetmadi,
Yo‘q sening husnung mening ishqim nishoni anqarib.

Gulda chun rangi vafodin rangu bo‘e yo‘q emish,
O‘tmagay erding bu gulshan sari kosh, ey andalib.

Ey Navoiy, uddek har dam ko‘rarsen go‘shmol,
Go‘yiyo sen tifl rah, charxi muholifdur adib.

Nabotdin gazak etsang icharda bodayi nob,
Labingg'a yetkach, o'lur ul nabol la'li xushob.

Uchuqmudur buki, maygun labingda zohirdur,
Yo'q ersa may yuzida zohir o'ldi reza hubob.

Firoq yetmas edikim, raqib suhbati ham
Tamug' bas ermas edikim, izofa bo'ldi azob.

Sirishk oqar talabingg'a Yugursa payki nazar,
Nechukki tez borur el sayr vaqt qilsa shitob.

Qoshinda yer o'pa olman qoshig'a tushsa girih
Ki, sajda rost emas, egri chun bo'lur mehrob.

Ne tongki, olami arvo arvo junun tushkay
Ki, ruh bo'ynig'a ul zulf soldi yuz qullob.

Sipehr zulmini aylar zamon musoviydur,
Agar sen etsang anga xoh lutfu xoh itob.

Zamona kimga vafo qildikim, manga qilg'ay,
Zamone ayla vafo, soqiyo, ketur mayi nob!

Navoiy aylasa mug' dayrini vatan ne ajab
Kim, ul eshik anga ochmish mufattih-ul-abvob.

Og'zi ramzin bilmasam, ey xurdodon, ko'p qilma ayb,
Xurda tutmoq rasm emas fahm etmaganga sirri g'ayb.

Jonmu yo la'ling chuchukdur desam, achchig'lanmag'il,
Nukta mubham bo'lsa, ey jonu jahon, so'rmoq ne ayb?

Subh go'yokim yuzung gulzoridin keldi nasim
Qim, to'luptur atridi gulga etak, nasring'a jayb.

Orazing uzra iki zulfungni ochmoq ne edi
Kim, yaqin xurshidig'a yoqting sahobi shakku rayb.

Rostlig' irshodi bu yo'lda qilur tolibg'a pir,
Rost ul yanglig'ki, Musog'a aso berdi Shuayb.

Chun habibim chehra ochdi, shavq o'tig'a kuydilar,
Buzar o'lsun yoki Salmon, yo Anas, yoxud Suhayb.

Ey Navoiy qariding, chiqqil yigitlar bazmidin
Dim, shabob ayyomig‘a nisbat emas davroni shayb.

52

Gul chog‘i har gulga bir bulbul tarannum ko‘rguzub,
Toza qonlig‘ dog‘ ila ko‘nglum qushi afg‘on tuzub.

Bo‘ldi bir gul hajridin jismim ochilg‘an gulbune,
Juzv-juzvin baski tishlab-tishlab olmishmen uzub.

Hajring ohi ham ko‘ngulni buzdiyu ham qo‘zg‘adi,
Yel aningdekkim sovurg‘ay g‘uncha ajzosin buzub.

Za’fdin bukim yiqlimishmen qilurmen poybus,
Sarvdek ollimda qaddingning xayolin turg‘uzub.

Multafit bulbulg‘a sen, ey gul, tikanga yondashib,
Vah, necha o‘lturgasen har lahza ani tirkuzub.

Dayr piri ilgidin may durdi istarmen, valek
Roziy erman ichkali zohid ridosidin suzub.

Ey Navoiy, umr o‘tar yeldek, o‘zungni shod tut,
Yelga yetmak mumkin ermastur chu sur‘at ko‘rguzub,

53

Shomi g‘am yog‘dirdimu ohim shafaqni su qilib?
Yo falak qon yig‘lar ul oy ollida holim bilib.

Po‘ya hangomi samanding na’li uchqan turfadur
Kim, sharar ko‘rdiki chiqqay barq o‘tidin ayribil.

Tan uyida ko‘nglum andoqkim buzug‘da xorpusht,
Baski atrofida paykoning turuptur sanchilib.

G‘unchadek ko‘nglum bir ochilg‘uncha sensiz qon yutar,
Tah-batah a’zosi qon bog‘lab yoqasi yirtilib.

Har dam ul gulchehradin ashkim bo‘lur abri bahor,
Ko‘zlarimga ishq ilgi kojidin o‘t chaqilib.

Yo‘q sening zuhdung mening jurmumg‘a tag‘yir, ey faqih,
Chun quruptur xomayi qudrat yozilg‘an yozilib.

Nomavu qosid bila topmas Navoiy dardi sharh,
Chun tunganmas mehnati ne yozilib, ne aytilib.

54

Rahm etar kofir ko‘zung ul zulfa yuzda chirmalib,
Go‘yiyo bo‘lmish musulmon o‘tg‘a zunnorin solib.

Xirmani sabrimni qo‘zg‘ab, ko‘z yoshimni sochti hajr,
Uylakim har yon sochilg‘ay dona, xirman qo‘zg‘alib.

Zulfungga majnun ko‘ngul bog‘landi, xotir jam’ qil,
Telba qayda borg‘usi, zanjiri yerga sudralib.

Qatl chun qilding ko‘ngulni bu kafan tikmak ekin,
O‘qlaringkim qoldilar jon pardasig‘a tevralib.

Gar o‘yub olding ko‘zumni, sendin olmoq istaman,
Husn agar budur, kishi bo‘lmas ko‘zin sendin olib.

Qomating bordi tsazardin aylabon ko‘nglumni resh,
Rost ul o‘qdekki o‘tkay, lek zaxm andin qolib.

Soqiyo, hajr o‘lturur, may tutqil anda zahr ezib!
Mutribo, holimg‘a yig‘la navha ohangin chalib.

Qaddi shovqidin havo qilmoq tilar ko‘nglum qushi,
Necha tan zindonida mahbus qolg‘ay qiynalib.

Ey Navoiy, g‘am tuni ermas shafaqkim, charxni
Qildi gulgun qon yoshing daryosi har dam chayqalib.

55

Gulruhi ra’noqadim chun bog‘ tavf aylar borib,
Infiolidin guli ra’no qizarib, sarg‘arib.

Yuz shikof etting tanim, yo‘q erdi ko‘nglumdin nishon,
Uylakim o‘t topmag‘aylar kulni har yon axtarib.

Sovug‘ ohimdin yorug‘luq oz, vale ko‘p tiyralik,
Qishda ul yanglig‘ki, tun bo‘lg‘ay uzun, kun qisqarib.

Za’f vaqtি ko‘yidin chiqmoq taxayyul aylasam,
Ikki qatla har qadamda tinmoq istarmen horib.

Tutmadim bo‘g‘zim sabudek boda tarki aylabon,
May tilarmen piri dayr ollida balkim yolborib.

Soqiyo, lab tashnamen, andoqli, ko‘k jomi to‘la
Boda tutsang, sarnigun aylarmen ani sipqarib.

Ey ajal, hijron aro olding Navoiy jonini,
Lutf qilding, jonni andin ani jondin qutqarib.

56

Chun kular yoni so‘kulgan jismi zorimni ko‘rub,
Yig‘lag‘aymu yoni yemrulgan mazorimni ko‘rub.

Uyla g‘am dashtida tufroq o‘lmishamkim, ul taraf
Kelmagay Farhod ila Majnun g‘uborimni ko‘rub.

Hajr o‘ti to o‘rtadi ko‘nglumni aqlu hushu sabr,
Ittilar har yon qorarg‘an ro‘zgorimni ko‘rub.

G‘urbat ichra men o‘lar holatda demang zinhor,
Kelsa nogohon birov yoru diyorimni ko‘rub.

Uyla majruh o‘lmishamkim, qilmadilar tu‘ma ham,
Aylab itlarga asar jismi figorimni ko‘rub.

Soqiyo, ikki labolab jom ila tirkuz meni,
Dahr eli anduhidin muhlik xumorimni ko‘rub.

Ey Navoiy, dahr bo‘stonig‘a moyil bo‘lma ko‘p,
G‘am xazonig‘a badal bo‘lg‘an bahorimni ko‘rub.

57

Dudi ohim kecha-kunduz chu falak sari borib,
Subhg‘a dam tutulub, shomg‘a oraz qorarib.

Ishq bog‘ida firoq ilgi umidim naxlini,
Yo‘qli shoxin ushatib, balki tubin ham qo‘parib.

Seni istarga nazar payki yugurdi oncha
Kim, emastur yoshidin qatra ayog‘i qabarib.

Chirmashiptur o‘qig‘a pay kebi jon rishtalari,
Ey ko‘ngul, emdi bo‘lurmu ani tortib chiqarib,

Toshkim, yog‘di yalang jismima g‘am xaylidin,
Lolalar ochdi bu tufroq yog‘inidin ko‘karib.

O‘qining teshmagi ko‘nglumni bas ermas edikim,

Boshoq istarga dog‘i tig‘ ila har sori yorib.

Sargaron qildi meni uyla xumor, ey zohid
Kim, uyatdin boqaolman yuzunga bosh ko‘tarib.

Mayli dunyoki, solur kimsani tinmaslikka,
Tinibon ko‘ngli aning kimki, ko‘nguldin chiqarib.

Yorumoq istar esang avval arit ko‘ngulni,
Ey Navoiy, ko‘zi yorub kishikim, ko‘ngli arib.

58

Tig‘ ila xoki tanimni har taraf yording kelib,
Naqdi jon olmoqqa bu tufrog‘ni axtarding kelib.

Keldingu ko‘nglumni yuz chok etmaguncha bormading,
Ba’d umre, ey sitamgar, yaxshilar bording kelib.

Jon senga qurbanki, olib jon, ko‘ngul afg‘onidin
Ham o‘zungni, ham meni, ham elni qutqarding kelib.

Qatl bas erdi, tanim ul ko‘yдин sudramaking,
Ortuq erdi, ey jafojo‘, haddin o‘tkarding kelib.

Ey ko‘ngul, ozdur senga bu hamki, ul oy ko‘yidin,
Man’lar qildim vale yuz qatla yolbording kelib.

Soqiyo, yetkurmish erdi jonne og‘zimg‘a xumor,
Jon fidong o‘lsunki, bir may birla qutqarding kelib

Zuhd etib erdi Navoiyni xarob, ey mug‘bacha,
Tengri yoringkim, fano dayrig‘a boshqarding kelib.

59

Tuganmas mehri yo‘q hajrim tuni sharhin savod aylab,
Varaq aflok o‘lub, ul tun savodin-o‘q midod aylab.

Ulusni oqizur ashkim, falakni kuydurur ohim,
Chekib un yig‘lasam g‘am shomi ul mahvashni yod aylab.

Murodi nomurod o‘lmoqdin ortug‘roq emas mumkin,
Murodin gar topar ul sho‘x, bizni nomurod aylab

Inonib vaslig‘a hajrin unuttung, ey ko‘ngul, lekin
Dutulg‘aymu o‘lumdin, umrig‘a el e’timod aylab.

Meni xud ul pariy hajri qilib sahroda sargardon,
Chekib bechora Laylo ohu Majnun e'tiqod aylab.

Sovurg'il aql uyin, gardun, meni majnun agar o'lsam,
Tanim tufrog'iyu ohim yelidin girdbod aylab.

Oyog' yolang borib qilding imorat Ka'bani go'yo,
Oyog'ing o'pmagi birla buzug' ko'nglumni shod aylab.

Boshim ham zuhd uyotidin quyi tushmish ham andinkim,
Borurmen dayr sari xonaqahg'a xayrbod aylab.

Navoiy ko'nglini ko'p mehr ila oldi ul oy andoq
Ki, olg'ay mushtariy qalloshlar molin muzod aylab.

60

Ey ko'ngul, mast o'lali azmi xarobot aylab,
Dayr ko'yida gadoliqqa mubohot aylab.

Boda tutkim, bu ulug' korgah ahvolindin,
Hech fahm o'ljadi har necha xayolot aylab.

Xush maqom angla fano dayrinikim buyla maqom
Topmadi ahli vara' qat'i maqomot aylab.

Rindi mayxora qadah tuttiki, zohid hargiz,
Qilmadi buyla karam arzi karomot aylab.

Qo'yg'il o'zlukni gar odam esang, inak shayton
Kibr ila nayladi ko'r, oncha ibodot aylab.

Ganj ummidi bila tufroqqa el kirdi base,
Umr zoyi' qilibon fikri mahobot aylab.

Chekma ko'p ranj, Navoiyki, kishi topmaydu.
O'zidin xalqni xushnud muroot aylab.

61

Bahor elga ayshu manga iztirob,
Kulub holima barqu yig'lab sahab.

Solib tufrog' ustida bir gul g'ami,
Orig'liq sudek jismima pechu tob.

Ketib g'unchadek dag'i nargis kebi,
Og'iz birla ko'zdin manga xo'rdu xob.

Esib xalq sari nasimi visol,
Menga hajr o'tidin yetib iltihob.

Guli vasl agar dahr bog'ida yo'q,
Yetar qatlima hajr xori azob.

Ko'han dayr bedodu zulmi bila,
Darig'oki, o'tdi zamoni shabob.

Chu yo'q vasl, bexudlug' ovlodurur,
Qadah davrig'a ayla, soqiy, shitob

Ki, o'zni qilay necha sog'ar chekib,
Bu dayri xarob ichra masti xarob.

Navoiy, desangkim zamone tinay,
Zamon ahlidin aylagil ijtinob.

62

Ko'zungdin ham ko'ngul, ham jonda oshub,
Demay jonu ko'ngul davronda oshub.

Nechakim solsa oshub elga hayrat,
Uluscha yuz meni hayronda oshub.

Chamanga bormish ul gulruk emas yel
Ki, ohimdin durur bo'stonda oshub.

Hazin jonu ko'ngulda ko'zlarindin
Tushuptur munda ofat, anda oshub.

Ko'zum bulg'andi mavji ashkdin, voy,
Ko'rung ko'lakidin ummonda oshub.

Bo'lay sadqang, meni ko'p qilma muztar,
Necha bo'lg'ay bu sargardonda oshub.

Qadah tut, soqiyokim, asru tushmish,
Buzug' ko'nglum oro hijronda oshub.

Iligdin solma bir dam davr ayog'in,
Falakdin chun tushar davronda oshub.

Solur ko'nglum, Navoiy, ne ekankim,
Yana ko'ptur bu besomonda oshub.

Ko‘zum yoshimu oqib, ul quyosh sari.chu boqib,
Yo‘q ersa tobidin aning ko‘zumga termu oqib.

Ne ko‘zdur ulki, itiga solurda bag‘rimni,
Qiyib-qiyib olib, andin qiyoyi chu boqib.

Uzuldi tori hayotim mening, magar ul umr,
Uzunroq etkay ani zulfi rishtasini taqib.

Yetishsa koji firoq ko‘zumga o‘t chaqilib,
Ko‘ngulni o‘rtagali ham falak bu o‘tni chaqib.

To‘pamni sarzannsh ilgi teng etti yer birla
Ki, har kishiki, yetib, ko‘yida boshimg‘a qoqib.

Chu ishq o‘tin yoraliq ko‘nglum ichra yoqtisi ul oy,
O‘ngoldi zaxmi bu marham jarohatimg‘a yoqib.

Yashurmoq istamgil mayni mendin, ey soqiy
Ki, tiyra aylamagay ayshim ul quyosh uyoqib.

Jahonni bir kesak angla, havosi — gardi balo,
Bu garddin qutulub har kishi ani yiroqib.

Navoiyo, chu sipah chekti ishq ko‘nglumga,
Salohu zuhd ila taqvo buzuldilar uloqib.

Bu kecha bazmim aro turfalar ifsho aylab,
O‘rtadi ishq ikki ofat manga paydo aylab.

Biri dastorida gulrang o‘tag‘a sanchib,
Qon xayoli boshida erkanin imo aylab.

Birining boshi uza titraguch ul yanglig‘kim,
Titrabon ruh chu ul sari tamosho aylab.

Birisi sarxushu qoshida girih, ilgida tig‘,
Yuz ming imonu xirad mulkini yag‘mo aylab

Birisi gul uza oshufta qilib sunbulini,
Yuz tuman jonu ko‘ngul xaylini shaydo aylab.

Ishq gohi urubon jonima hayrat barqi,
Chun aning jilvayi husnini tamosho aylab.

Nafs gohi solibon ko‘ngluma ishrat havasi,
Chun munung davlati vaslini tamanno aylab.

Agar ul husn tamoshosig‘a bo‘lsam moyil,
Ruhni volih etib, aqlni shaydo aylab.

Yo‘qsa bu vasl tamannosig‘a bo‘lsam rog‘ib,
Komi fikri meni ofoqda rasvo aylab.

Manga ne ul bo‘lib alqissa tuyassar ne bu,
Goh ani zohir etib, gah muni ixfo aylab.

Ey Navoiy, dema ko‘p, harzavu qil istig‘for,
Tengridin ofiyatu tavba tavallo aylab.

65

G‘ozavu surmag‘a chun ko‘ngli borib,
Gul qizarib, dag‘i nargis qorarib.

Qoldi deb g‘amzam o‘qi ko‘nglung aro,
Istayu har sari ko‘ksumni yorib.

Ne quyoshdurki, xayol ichra yuzi,
Nazаримг‘а chu kelib ko‘z yosharib.

Ishq naxlini ko‘ngulda ektim,
Barchaning mayli niholin qungarib.

Talabingda yugurib payki nazar,
Onchakim boshtin ayog‘i qabarib.

Yor aksining o‘lub jilvagahi,
Kishikim xotiri mir’oti arib.

Dayr piri qulimenkim may ila
G‘ayr naqshini ko‘nguldin ketarib.

Shu’layi oraz ila mug‘bachalar,
Dayr aro dud boshimdin chiqarib.

Ko‘ksini qildi Navoiy chu shiyor,
Tuhmi mehringni bu mazra’da tarib.

66

Yor ul vaqt jafo rasmi tutub

Kim, vafo da'bu tariqin unutub.

Xalqni g'ofil etib qatl qilur,
Ko'z ochar fitnag'a elni uyutub.

Yuzu og'zing g'amidin ko'z yoshim
Chun oqib, gul ochilib, g'uncha butub.

Bo'lubon xayli malak parvona,
Chun qazo sham'i jamoling yorutub.

Furqating do'zaxig'a xotirni,
Bog'i jannat aro bo'lmas ovutub.

Bu fano dayrida ulkim ichmay,
Baski davron aro xunoba yutub.

Zahri g'am tutti Navoiyg'a firoq,
La'ling ummididin og'zin chuchutub.

PYe HARFINING PARIYVASHLARINING PARVOZI «NAVODIR»DIN

67

Ul pariyning chu bu majnundin erur vahshati ko'p,
Manga andin neki, ahbob ila bor ulfati ko'p.

Tushsa kuygan tanima soiqayi ishqqi ne tong
Kim, sharar birla bo'lur so'xtaning nisbati ko'p.

Ko'ngluma vasl zuloli bila bergil taskin
Kim, ani kuyduradur ishq o'tining hirqati ko'p.

Kuymagim daf'i uchun do'zax o'tin istarmen,
Negakim jonima yetti sharari furqati ko'p.

Jonni ul nav'ki tan orzu etkay behad,
Ruhbaxsh arninga jonimning erur hasrati ko'p.

Holatim sa'b esa ul pok g'amidin ne ajab,
Ishqning shiddati ko'p, husnning ar iffati ko'p.

Dayr piri chu karam birla talofiy aylar,
G'am emas gar yetishur mug'bachalar shiddati ko'p.

Bodayi sof bila daf'i kudurat qilsun,
Anikim tiyra qilur davr elining zahmati ko'p.

Ey Navoiy, chu o‘tar yaxshi-yomon, g‘am yemadeg,
Ulki davronda erur ishrati kam, mehnati ko‘p.

68

Avval ista manzili amnu harifi soda top.
Chunki bu ikki muyassar bo‘ldi, nuqlu boda top.

Iktifo qilma bularg‘a, istar ersang lahzae,
Nukta surmak bir harifi foniyi ozoda top.

Kim ko‘ngul sayd etsa, lo‘liy bo‘lsakim tut mug‘tanim,
Aytman arlot yo barlosdin mirzoda top.

Ey pariyruh, ishq kelmas taxt ila toj ahlidin,
Istasang oshiq meningdek bedili uftoda top.

Necha ishq ahlini aylab imtihon, rad qilg‘asen,
Har jafo aylarga ko‘nglum istavu omoda top.

Ey ko‘ngul, gar shayx ishqing man’ qildi, qilma ayb,
Olam ichra bore avval bir aningdek loda top.

Ey Navoiy, umrung o‘tti necha but zikrin demak,
Go‘shae tut emdi, bir tasbih ila sajjoda top.

TYe HARFINING TOROJGARLARINING TAMOSHOsi «NAVODIR»DIN

69

Chun qo‘yub ketkung jahon mulkin musaxxar bo‘ldi, tut,
Chun yotib o‘lgung falak taxti muyassar bo‘ldi, tut.

Bir ovuch su topmayin o‘lsang kerak chun tashnalab,
Bahr ila bar fathida o‘zni Sikandar bo‘ldi, tut.

Chun xumog‘a tu‘madur oxir boshingda har so‘ngak,
Ul xumo boshingg‘a besh kun soyagustar bo‘ldi, tut.

Afsaringni shomi tufroqqa urar chun davri charx,
Subh zarrin tojini boshingg‘a afsar bo‘ldi, tut.

Ne Faridundin asar chun qoldi, ne Jamshiddin,
Hashamating Jamshidu Afridung‘a hambar bo‘ldi, tut.

Ul gul aylar ro‘zgoring tiyra, o‘rtar bu sharar,
Bas muti‘i hukmu ra‘ying charxu axtar bo‘ldi, tut.

Ul bag‘ir qoni, bu ko‘z yoshi durur chun ofiyat,
Durru la’ling qon ila daryog‘a munjar bo‘ldi, tut.

Chun lagadko‘b qazo past etkusi tavsanalig‘ing,
Tavsani gardun rikobingga takovar bo‘ldi, tut.

Ey Navoiy, ich fano jomin, yo‘q ersa tengdurur,
Davri dun ra’ying bila gar bo‘lmadi, gar bo‘ldi, tut.

70

Bir maqomi amn top, anda burun orom tut,
So‘ngra tuz bazmu diloromingg‘a har dam jom tut.

Garchi kunduz mehr tobidin yorug‘roqdur jahon,
Buyla jomi ayshni, albatta, lekin shom tut.

Yori gulrux la’li serobiyu sog‘ar qonidin,
Ham mayi gulrang no‘sh et, ham mayi gulfom tut.

Bir nafas mutrib surudi dilkashidin boda tot,
Bir zamon soqiy aqiqi beg‘ashidin kom tut.

Bo‘lma bot usruk, g‘animat tut bu yanglig‘ kechani,
Jomiy may tun avvalidin to saharhangom tut.

Bo‘lsa bo‘g‘ay elga bu davlat tuyassar, ey ko‘ngul,
Bizga lekin dast bermakni xayoli xom tut.

Gar Navoiy voliyingdur, qovmag‘il, ey mug‘bacha,
Ani ham bu dayr aro bir rindi durdoshom tut.

71

Navbahor o‘ldiyu men hajrida, soqiy, may tut,
Toki yig‘lay qilibon arbada andoqli bulut.

Hajrdin abri bahoriy kebidur tiyra ko‘zum,
Ko‘z yumub ochqucha, ey barqi visol, ani yorut.

Sen sumanbarsenu men lola kebi qon arokim,
Doyaiy dahr beriptur manga qonu sanga sut.

Hajr anduhidamen, soqiy, ul oydin so‘z deb,
Meni bir-ikki to‘la sog‘ari may birla ovut.

Ikkn la’lingni o‘pay, dag‘i baho jon berayin,
Gar baho o‘ksuk esa, sen dag‘i nisfin o‘ksut.

Boda chun boisi nisyon emish oncha ichayin
Kim, manga har neki juz yordurur bo‘lsun unut.

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo‘liyvash,
Bekka qipchoqu og‘ar, shahg‘a qiyotu bilgut.

72

Yoshurun dardimni zohir qildi afg‘on oqibat,
Asrag‘an rozimni yoydi sayli mujgon oqibat.

Yoshurub erdim bag‘ir chokini, vahkim, qildi fosh
Har taraf ko‘zdin tarashshuh aylagan qon oqibat.

Tig‘i hajringdin nihon ko‘ksum shigofin, ohkim,
Elga ravshan ayladi choki giribon oqibat.

Voykim, ko‘ksum shikofidin ulusqa bo‘ldi fahm,
Ishq o‘ti bag‘rimg‘a qo‘yg‘an dog‘i pinhon oqibat.

Shavqidin dam urmayin bedodig‘a xursand edim,
Vahki, bo‘ldum hajridin rasvoyi davron oqibat.

Gar budur kofir ko‘zu zunnori zulfi, ey faqih,
Bo‘lg‘udek men dayr aro mastu parishon oqibat.

Ishq ko‘yida jununumni munodiy ayladi,
Hajr toshidin munaqqash jismi uryon oqibat.

Dahr bo‘stoni aro sarkash nihole ko‘rmaduk,
Soya yanglig‘ bo‘limg‘an yer birla yakson oqibat.

Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Ani kasb etmak fano bo‘lmay ne imkon oqibat.

73

La’lidin chunki takallumda tomar obi hayot,
Sovug‘ ohimdin o‘lur bog‘lasa muz habbi nabot.

Ul pariy ko‘zdin uchar, ko‘z dag‘i shavqidin uchar,
Vahki, men uchqali ham yo‘qturur egnimda qanot.

Zulfung ollida binafsha suda ko‘rgach aksin,
Qo‘ymadi yona boshin yuqori qilmoqqa uyot.

Boribon har necha bot kelsa, ko‘runur menga kech,

Kelibon har necha kech borsa, ko‘runur manga bot.

Sirri ishqiningni dey olman, yoza ham olmankim,
Tili ikki qalamu ko‘ngli qora keldi davot.

Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab,
Menga lo‘liy bila hindu, anga qo‘ng‘irotu qiyot.

Soqiyo, hush kerakmas manga hijron damida,
Boda tut, doruyi behush vale bodag‘a qot.

Tiladim yor, hayot aylay anga sarf dedim,
Vahki, ul dag‘i vafo qilmadi andoqki hayot.

Ey Navoiy, tilasang sayli fanodin maxlas,
Faqr dashtida kerak tog‘dek oromu sabot.

74

La’l emas shirin labingkim, jon topar andin hayot
Kim, so‘rub bildim ul ermish la’l gun qilg‘an nabol.

Lek ul yanglig‘ nabotekim quyar chog‘da ani,
Shirasi jon shirasi ermish, suyi obi hayot.

Oqsa ruxsorida xay, ne tong ko‘ngul to‘qtatmasam,
Tog‘ bo‘lsa topmas ul sayr ichra imkoni sabot.

Hajr dudidin qora bo‘lg‘an ko‘ngul ichra o‘qung,
Sharhi holim yozg‘ali bo‘lmish qalam birla davot.

Xo‘blar xayli aro har sari tushmanish rustaxez,
Go‘yiyo maydon ichiga chobukum sekritti ot.

Boqma ey zohid, haqorat birla ashyo sarikim,
Bo‘l mag‘an aning sifoti mazhari yo‘q hech zot.

Ey, Navoyi, ko‘rgali ani uchar har dam ko‘zum,
Lek ne sud uchmoq ul qushkim anga yo‘qtur qanot.

75

Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘at,
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o‘ynat.

Tishlabki, soching o‘rdung, ochqanda parishon qil,
Ofoq savodinda jon royihasin butrat.

Kulbamg‘a xo‘y afshon kel, zulfung qilib oshufta,
Anjum sipahin sindur, ofoq ulusin qo‘zg‘at.

Oraz quyoshin ochib ashki qurug‘an ko‘zni
Ko‘p hajrda yig‘latding, bir vaslda ham yig‘lat.

Bir oh ila kul bo‘ldum, ey charx, tilab topib,
Farhod ila Majnung‘a oshiqliq ishin o‘rgat.

Xoro tubiga yotqung, yo‘q sud agar yuz yil,
Ko‘k atlasi ustida jismingni yotib ag‘nat.

Bazm ichra Navoiy ko‘p yig‘lar esa, ey soqiyl,
Hush eltkuchi doru jomig‘a aning chayqat.

76

Menga begonadurur ul butu men ishqida mast,
Oshno bo‘lmayin etti meni begonaparast.

Labidin jon isi keldiyu men o‘ldum behud,
Vah, ne maydurki isi yetkach, etar xalqni mast.

Sabzxatlar bo‘yi qisqardi bo‘yung jilvasidin,
Sarvning tegrasida sabza ko‘rungandek past.

Tobg‘a tushti quyosh panjası husnung qo‘lidin,
Sidra gar hamqading o‘lsa, quyosh o‘lg‘ay hamdast.

So‘rma dayr ichra shikastimniki, bir mug‘bachaning
Zulfi zunnoridin o‘ldi menga bu nav’ shikast.

Tunu kun mast esam, ey shayx, meni yozg‘urma,
Sog‘ o‘lurmuk kishikim, ichti mayi jomi alast.

Ey Navoiy, seni chun qildi qazo kofiri ishq,
Forig‘ o‘l but qoshig‘a sajda qil emdi payvast.

77

Bodayi ishqining ko‘rub topti buzug‘ ko‘nglum shikast,
Sayl yetmasdin burun vayronim o‘ldi yerga past.

Goh g‘altondur, gahe uyqudadur usruk ko‘zung,
Yo‘q taajjub, goh g‘alton bo‘lsa, gah uyquda mast.

Ul sanamg‘a sajda qilsam, zohidi xudbin, ne ayb,
Butparast o‘lmoq ko‘p ortug‘roqki bo‘lmoq xudparast.

Soqiy ilgin berdikim, o‘ptum dag‘i ichtim qadah,
Naylasun ichmay qadah har kimga mundoq bersa dast.

Ko‘ksuma na’lu alif shakli imorat tarhidur,
Tashqari ham yetti ishqing mulkiga devori past.

Zohid ayturkim, may ichma, vah, aning hukmi bila
Sog‘ o‘la olg‘aymu masti bodayi jomi alast.

Ey Navoiy, ishq ila ko‘nglum xayol etti masof,
Ro‘baro‘ bo‘lg‘ach mening qalbim sari tushti shikast.

78

Ey ko‘ngul, dedimki, aylab azm jononimg‘a yet,
Demadimkim, turg‘ilu afg‘on bila jonimg‘a yet.

Boshing ol ket, lek chun ham bekasu ham xastamen,
Holatim so‘rmoqqa gohe bayt-ul-ahzonimg‘a yet.

Chunki ko‘rdungkim o‘lubmen, tutma motam, qayt bot,
Ul dami jonbaxshu la’li obi hayvonimg‘a yet.

O‘lganimni arz etib yig‘lab degilkim, ey Masih,
Aylabon lutf ul qatili tig‘i hijronimg‘a yet.

Kelmak o‘lsa itlari jismim tugatmasdin burun
Boshlabon ul kofiri qotilni vayronimg‘a yet.

Yetkach-o‘q chun tirkuzur, qo‘psam bo‘lay deb sadqasi,
Zinhor ul dam madad aylar uchun yonimg‘a yet.

Deb eding, yetkum Navoiyg‘a qatig‘roq tushsa ish,
Ushbu damkim, hajr qasd aylab turur qonimg‘a yet.

79

Tiyravu afsurdabiz, ey ishq tarqatqan bulut,
Bir balo barqi bila ham o‘rtal bizni, ham yorut.

Ko‘z necha bo‘lg‘ay quruq zuhd ashkidin ul zarq ila.
Shu‘la tortib, ey balo ohi o‘ti, ani qurut.

To qachon qilg‘ay ko‘ngulni ma’siyat dudi qora,
Bir charog‘i husn ila, ey ishq, ul uyni yorut.

Aylabon barbod zuhdu ilmni, ey piri dayr,

Tifli rahdek emdi bizga ishq alifbesin o‘qut.

Husn itibdur, ey musavvir, tortibon bir turfa shakl,
Qayg‘uluq ko‘nglumni ul suvrat bila gohe ovut.

Hosili umr, ey ko‘ngul, chun ishq emish o‘rgan ani,
O‘zga umrungda nekim hosil qiliptursen unut.

Ey Navoiy, bersa bir lo‘liyvashe savdosi dast,
Zinhor ikki jahon sarmoyasi tarkini tut.

80

Kim ekin maydonda, yo rab, ul to‘ni gulgun yigit
Kim, g‘amidin tosh urar ko‘ksiga yuz mahzun yigit.

Ne ajab xam qad bila sarg‘arsa ruxsorimki, bor
Dilbarim bir qomati ra’no, yuzi gulgun yigit.

Men chekarga ranju mehnat g‘am tuni ojiz qari,
Ko‘nglum olg‘an zulmu bedod ichra ro‘zafzun yigit.

Ey yigit, husnung zakoti so‘r qarilar ko‘nglini,
Kimsani qo‘ymas hamisha chun bu dahri dun yigit.

Men xarif bo‘lg‘an qarig‘a qayda mayl etgay birov
Kim, erur shaydosi g‘am dastida yuz majnun yigit.

Naylayin to‘rtunchi gardunning qari mehrinikim,
Ko‘rmamish olamda mohimdek to‘quz gardun yigit.

Men so‘zi kavn ahlig‘a afsonalig‘ qilg‘an qari,
Sen ko‘zi Kashmir eliga o‘rgatur afsun yigit.

Chun qaridnng, chiq yigitlar bazmidinkim, qarining
Kelmagidin yo‘q, boruridin durur mamnun yigit.

Ey Navoiy chun qari bo‘ldung ibodat kunji tut,
Elga xor aylab o‘zingni bo‘limg‘ingdur chun yigit

81

Ohkim, oldi qarig‘an chog‘da ko‘nglum bir yigit
Kim, agar jon bersam, istig‘nodin o‘lmas multafit.

Qasdima ul novak aylab tezu men sudrab aso,
Ko‘yida har yon yeshilgan o‘ylakim g‘anchiliq it.

Men kimu islom kim, sajjoda birla xirqani
Ayladi ul butning atfol xayoli titu pit.

Ashk hajrinda ko‘zum oq etdi andoqkim mamuq,
Jolayi ashk ul momug‘din yog‘di andoqkim chigit.

Bir nasihat bordurur, lekin qulog‘ingg‘a degum,
Yuz yaqin tut bu qaridin, ey yigit, bir pand eshit.

Qad chu xam bo‘ldi emas hech ish munosib juz ruku’,
Sajda o‘rnin oh ila, xoshak ila xasdin arit.

Ey Navoiy, chun seni kuydurdi charx, emdi ne sud,
Oh o‘tidin sen ani xohiy qizit, xohiy erit.

82

Habib g‘ayr ila may ichti, en ko‘ngul, qon yut,
El ichsa vasl mayin, boqu zahri hijron yut.

Chu hajr muhlik erur, boda ermas anga iloj
Tutayki, jomi may o‘rniga shirai jon yut.

Mengaki do‘st kerak, ey Xizr, yutarmen qon,
Sengaki umrdurur kom, obi hayvon yut.

O‘qidin, ey ko‘ngul, ich sharbat o‘rnig‘a xunob,
Ushoq muz o‘rnida ul sharbat ichra paykon yut.

Visol no‘shini to mumkin bo‘lg‘ay istar esang,
Firoq zahrini, bas, ulcha bo‘lg‘ay imkon yut.

Ichingda sirri haqiqatni yoshuray der esang,
Ulustin ul guhari bebahoni pinhon yut.

Navoiy, ayla aning ishqil tarkini, yo‘q esa
Chu g‘ayr ila may ichar, boqu zahri hirmon yut.

83

Chobukekim qatl uchun surdi yana maydong‘a ot,
Odamiy qolmas tirig solg‘an zamon javlong‘a ot.

Budurur ma’noki, shoyad qolg‘an erkin bir kishi,
To aning jonin ham olg‘aykim, surar har yong‘a ot.

Har kishini qatlkim aylar, o‘larmen rashkidin,
Vahki, bir ham yongilib surmas meni hayrong‘a ot.

Ne balo qattig‘ ko‘nguldurkim qatl el qonig‘a
Ot surar surgan masallik lolavu rayhong‘a ot.

Uylakim buzg‘ay quyunni o‘zga bir to‘fon kelib,
Ul sifat nobud etar surgach bu sargardong‘a ot.

Kimni o‘lturmakka otsang o‘q, mening jonim chiqar,
Bir dag‘i tirkuzgali men bedili bejong‘a ot.

Davrdin ko‘p ranjamen, usruk chiqib mayxonadin,
Raxshi himmat uzra solmoq istaram davrong‘a ot.

Shomi tufroqqa kirardin chora yo‘qtur, garchi subh
Kimki, sekritkay quyoshdek bu binik ayvong‘a ot.

Qo‘s uni tuttn Navoiy nazmidek ofoqni,
Go‘yiyokim sayr etarga chektilar sultong‘a ot.

84

Yetilmish, olloh-olloh, ne qomat, ul qomat
Ki, olam ahlig‘a soldi qiyomat ul qomat.

Qo‘ngarg‘ay asramayin bog‘bon nihollarin,
Chamanda sarvdek etsa iqomat ul qomat.

Chu qildi jilva, vafo sari hech qilmadi mayl,
Jafoda topqan uchun istiqomat ul qomat.

Xirom vaqtি xaloyiqqa fitna yog‘durdi
Ki, borcha fitnadin o‘lsun salomat ul qomat.

Boshimg‘a yettiyu o‘lgan tanim ravon topdi,
Bu ishni rostiy etti karomat ul qomat.

Chu noz jilvasini sarvdek qilur bilingiz
Ki, qatl etardin erur benadomat ul qomat.

Navoiy, emdi o‘zungdin ilig yuvkim, o‘lgung
Ki, zohir ayladi shaqqi qiyomat ul qomat.

85

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.

Buki aning ahdu paymonida men o‘lsam dag‘i

Yaxshi fursat topsang, ul bad'ahdu paymonimg'a ayt.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili
Kufr ila bo'l mish mubaddal nomusulmonimg'a ayt.

Buki qilmishmen jahonu jonni aning sadqasi,
Yuz tuman jonu jahondin yaxshi jononimg'a ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo'l mag'um,
Vaslig'a bir va'da qilg'andin pushaymonimg'a ayt.

Buki yuz ming fitnako'z lug bo'lsa paydo onsizin,
Qilmag'um nazzora hargiz ko'zi fattonimg'a ayt.

Buki chok aylab yoqa, usruk chiqar el qasdig'a,
Men o'lib el jon topar, bebok nodonimg'a ayt.

Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt.

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

86

Ishq soldi xonumonim ichra o't,
La'li otashnoki jonom ichra o't.

Nega yetkan yerga o'rtar xalqni
Bo'lmasa ohu fig'onim ichra o't.

Qo'nglum ermas tandakim, hajring aro
Tushti jismi notavonim ichra o't.

O'qlaringning kasratidin chektim oh,
Tushti andin naysitonim ichra o't.

Hajrdin kuydi so'ngaklar, vahki, ishq
Soldi xoshoki nihonim ichra o't.

Soqiyo, maydin su urkim, soldi davr
Joni benomu nishonim ichra o't.

Ey Navoiy, chun chaqildi barqn ishq,
Tushti andin xonumonim ichra o't.

87

Qildi dushman rahm, baskim qildi javr izhor do'st,
Ey ko'ngul, dushman top emdi, tutmag'il zinhor do'st.

Har zamon dushmanlarim ozurdadur, ey do'star,
Baski, har dam yetkurur men zorg'a ozor do'st.

Dushman ar jonimni afgor aylasa, qildi bihil,
Javr tig'idin chu ko'nglum aylamish afgor do'st.

Kecha dushmanlarg'akim, nolamdin uyqu kelmadi,
Ranjamen mundin dag'ikim, bo'Imadi bedor do'st.

Men o'lar holatda, dushmanlar ko'runub do'stvash,
Nevchun o'lmaykim, kelur boshimg'a dushmanvor do'st.

Kulsa dushman ayb emaskim, ko'rmadim oz ham vafo,
Garchi qozg'andim qilib jonim fido bisyor do'st.

Charxning mehriga mag'rur o'limg'ilkim, g'adri bor,
Hargiz o'lmas kimsaga ul dushmani g'addor do'st.

Soqiyo, qil do'stluq, tut bodakim yo'qtur g'ami,
Bo'lsa olam dushmani har kimga sendek bor do'st.

Itlaring g'avg'o qilur go'yo Navoiy o'ldikim,
Boshi uzra jam' o'lub afg'on qilurlar yoru do'st.

88

Eyki, fayz istarsen, o'zni sarvdek ozoda et,
Har parishon naqshdin safhangni guldek soda et.

Gar fano dashtig'a kirgungdur su xud ko'z yoshi bas,
Lekin avval zodsizliq zodini omoda et.

Tayyi arz etsang chokindek bir shararcha ko'rmagil,
Barqdek o'zni fano tufrog'ida uftoda et.

Bir fano ohi yelidin sarbasar barbod o'lur,
Gar havo uzra bulut ajromini sajjoda et.

O'zni rasvoliqqa qilmoqdur alam gar tug'unga,
Ko'k livosin shuqqqa dag'i sidra shoxin xoda et.

Ko'mgan o'lg'aysen boshingni bir ovuch tosh ostida,
Tojingga ziynat agar la'lu duru bijoda et.

Er ersang, bo'l sulbkim, ne moda bo'lg'ungdur, ne nar
O'zni gar yuz qatla olam ahlidek narmoda et.

Ofiyat kunjida erdimkim, dedi «ey mug'bacha,
Dinu islomim uyin buzmoqqa mayli boda et».

Naqd jannatdur Navoiy kavsaroso may ichib,
O'zni zoru volihi bir sarvi huriyzoda et.

SYe HARFINING SAMIN GAVHARLARINING SAMARASI «NAVODIR»DIN

89

Zamona erur chun mahalli havodis,
Zamone kerak bo'lmasang anda mokis.

Amal qasrini aylama anda ihdos
Ki, har lahza bo'lg'ay o'kush fitna hodis.

Chiqarg'a bu vayronadin chora yo'qtur,
Gar Odam vagar Nuhu gar Somu Yofas.

Bo'lur tiyra ko'zgung, to'lar zahrai joming
Tutaykim, bo'l Iskandaru Jamg'a solis.

Jahon shug'li sari talab qilma mujib,
Aning tarkini tutqali ista bois.

Fano xonaqohi aro somit o'lg'il,
Yo'q ulkim baqo darsgohida bohis.

Navoiy, amal xirmani ichra o't sol
Ki, bo'lmoq kerakmas bu mazra'da horis.

90

Falak havodisidin bo'lsa har balo hodis,
Ul oy vasilasidindur burun manga hodis.

Agarchi dard hudusidur ulcha mumkin erur,
Valek bo'lmadi bir dardima davo hodis.

Netib haramg'a qilay azm, dayr ichinda manga
Ki, bo'ldi mug'bachalardin yuz ibtilo hodis.

Baliyyat ahlini ozod aylamish gardun,
Nedinki barcha balosi bo'lur manga hodis.

Sipehrdin ne shikoyat erur chu qismi azal,
Agar vafo yetishur, gar bo'lub jafo hodis.

Sipehr fitna to'kar yerga, lek ul oydin,
Erur ne fitnaki bo'lg'ay jahon aro hodis.

Hudus topmadi erkan Navoiy emgagicha,
Jahonda ishq baliyyoti bo'ldi to hodis.

91

Mening rasvolig 'img'a bodayi gulgun erur bois,
Mayi gulgun icharga soqiyi mavzun erur bois.

Pariyashlar jafosig 'a gunah bil telba ko'nglumdin,
Bukim tosh yog 'durur atfol, anga majnun erur bois.

Falak bejurm erur, g'am kelsa bu mahzun sarikim, huzn
Topib o'z jinsini kelmakka bu mahzun erur bois.

Sovursam ko'kka tufroq, dard vodiysida tong yo'qkim,
Quyundek buylakim sargashtamen, gardun erur bois.

Ne tong bu telba og'zida so'zi doim ul oyningkim,
Pariy vaslig 'a aksar el aro afsun erur bois.

Labing jonbaxsh, ayog 'din boshinga qotil, ne ayb o'lsam,
Tirilmaklikdin o'lmaklikka chun afzun erur bois.

Raqibingga 'a desam la'nat, yeri borkim senga nohaq,
Mening qonimni to'kturmakka ul mal'un erur bois.

Rido dayr ichra rahn etkanga chun qnlding g'azab, ey shayx,
Yana yozg'urma borsam ul sari marhun erur bois.

Navoiy boda ichmas, lek chun soqiy qadah quydi,
Ul ofatshakl erur mujib, bu dilkash un erur bois.

JIM HARFINING JAMILALARINING JILVASI «NAVODIR»DIN

92

Zihe boshing uza va-sh-shams zevaridin toj,
Soching savodida tafsiri laylat-ul-me'roj.

Nujum javharidin toji johinga tarsi',
Sipehr atlasidin taxti rif'atingg'a duvoj.

Sahar yashil alamidin livong uza shuqqa,
Malak qalin hasharidin sipohingga afvoj.

Behisht sori kishi tiyra go‘rdin bormas,
Shafoating alifi tutmayin yo‘lig‘a siroj.

Hidoyating qo‘lidin sharbati shifo topibon,
Aniki illati kufr aylabon zaifmizoj.

Saloti xamsani adyong‘a aylading nosih,
Bu panja birla malakning yuziga urdung koj.

Navoiy o‘ldi chu muhtojing, ayla rahm angakim,
G‘aniy karim esa ibromg‘a emas muxtoj.

93

Ey gadoying ollida muhtoj ahli taxtu toj,
Ahli toj ollida andoqkim gadog‘a ehtiyoj.

Kim gadoyingdur bosh indurmas dag‘i tortar ayoq,
Charxi a’lo bo‘lsa taxtu mehri anvar bo‘lsa toj.

La’li serobing beriptur otashin rangi bila
Ofati jonim uchun o‘t birla sug‘a imtizoj.

Dardi hajrimg‘a buyurdi, sabr dardi yo‘q tabib,
Zahri qotil birla muhlik ranjima aylar iloj.

Oy yuzung birla talashdi buki ko‘ktur orazi,
Panjası birla quyosh go‘yo yuziga urdi koj.

Eyki, berding ishq sultonig‘a ko‘nglung kishvarin,
Anglag‘ilkim jonu aqlu din erur avval xiroj.

Xo‘blar o‘rgansalar, tong yo‘q, Navoiy nazmini
Kim, alarning husni aning ishqidin topmish rivoj.

94

Mayi la’lingga go‘yokim hayoti jon erur mamzuj
Ki, ul ermas zuloli chashmayi hayvon erur mamzuj.

Agar bag‘rim sudur, o‘lmay netaykim anda g‘amzangdin
Su bergen zahr birla qatraiy paykon erur mamzuj.

Ko‘rung g‘am bazmida xunobalar yutmoqki jomimg‘a
Bag‘irdin kelganu, ko‘zdin to‘kulgan qon erur mamzuj.

Labingdin barcha hijron va'dasidur, ko'rmaduk no'she
Ki, zahr ul no'sh aro tokim erur imkon, erur mamzuj.

Visol ichra mayi aysh o'lsa qisming, bo'lma ko'p emin
Ki, jomi vasl ila xunobaiy hijron erur mamzuj.

Shafaqgun may, hiloliy jom agar ko'rsang haris bo'lma
Ki, sofi hirs birla durdiyi hirmon erur mamzuj.

Navoiy ashkiga dersen ne yanglig' mazj topmish qon,
Bag'ir chok o'lsa, ul qon bu sug'a oson erur mamzuj.

95

Ko'nglumga ayla la'li shakarxand ila iloj,
Kilg'an kebi zaifqa gulqand ila iloj.

Ko'p ishq tarkidin dema so'z qo'yg'il, ey tabib,
Muhlik marazg'a qilmadi el pand ila iloj.

Onsiz o'larmen, ollima huru pariy ne sud,
Topmas aning g'ami anga monand ila iloj.

Qayd et ko'ngulga silsilayi zulfin, ey hakim
Kim, telbaga munosib erur band ila iloj.

Ul ko'ydin iti chu meni qovmaq istadi,
Bag'rimdin ayladim necha parkand ila iloj.

Davron jafosi daf'ig'a majnunu mast bo'l
Kim, yo'q ul ishka ra'yi xiradmand ila iloj.

Muhlik emish firoq Navoiy, magar sipehr
Qilg'ay bu qat'i dardini payvand ila iloj.

ChIM HARFINING ChOBUKLARINING ChYeHRAKUSHOYLIG'I «NAVODIR»DIN

96

Nargis ul ko'zdek emas, ey bog'bon, boqib ko'z och,
Ne uchunkim ul pariy qiymoch erur, bu bir taloch.

Ayladi oshufta savdoyiy dimog'im raglarin,
Tong yelidin andakim butrashti ul oshufta soch.

Zulfi egniga yetar gar sochi yerga sudralur,
Tengdurur qaydim uchun gar bir qarich, gar yuz quloch.

Kuydi jismu yig‘labon ko‘nglumda xatting shavqidur,
Garchi mumkin yo‘q ko‘karmak su bila kuygan yog‘och.

Ishq olamso‘z keldi, qo‘y fusunung, ey xirad,
Yetti chun yer-ko‘kni yirtib arslon, ey tulku, qoch.

Sarvnozim gul chog‘i gulshang‘a kirdi, ey nasim,
Ham ani yelpiyu ham gul yafrog‘in boshig‘a soch.

Qo‘yki, ul yuz xonig‘a nazzora aylay to‘yg‘ucha
Kim, ko‘zum bo‘lmish bu qahti husn ayyomida och.

Do‘st zikru fikrini qilg‘il g‘izokim yaxshiroq,
Hush ila tufroqkim g‘aflat bila kandiy kuloch.

Ey Navoiy, ko‘nglunga yetmas riyozatsiz safo,
Kulba ravshan istasang hasrat suyidin ro‘za och.

97

Qo‘ydi yuz shomi ajal zulfin parishon aylagach,
Umr xurshidi uyoqtি chehra, pinhon aylagach.

Surdi ko‘nglumni buzub xokiy tanim uzra samand,
Yelga berdi tufrog‘in, bu uyni vayron aylagach.

La’li hajri qildi qon bag‘rimni g‘amdin laxt-laxt,
Qatra-qatra to‘kti ko‘zlar yo‘lidin qon aylagach.

Ohkim, baxtim og‘ir uyqusidin uyg‘onmadi,
Garchi yuz ming fitna uyg‘ondi men afg‘on aylagach.

Qilmayin sarhush hanuz, en mug‘bacha, qo‘ymoq nedur,
Ollima zunorni dayr ichra mehmon aylagach.

Oshiq etkach shuhrayi shahr etti ul kofir meni,
Shahr kezdurgan kebi kofir musulmon aylagach.

Chekmadi bulbul Navoiydek fig‘onkim, yonmasun
Sayr uchun ul sarvi gulrux azmi bo‘ston aylagach.

98

Girih-girih chu tugarsen yetar oyog‘inga soch,
Girihlarin chu ocharsen tushar quloch-quloch.

Ko‘ngulni qiydi aning g‘amzasiyu qilmadi rahm,

Qiyo-qiyo boqibon ul iki ko‘zi qiymoch.

Chamanda kecha yotib mast orazin yopmish,
Ko‘p emdi tong yeli ul gulni lutf birlan och.

Qading chamanda ko‘rub bog‘bon agar sarvin
Ko‘ziga ilsa hamono keraktur anga yog‘och.

Junung‘a tushti sanavbar qadingdin, uylaki su
Bo‘lub ayog‘iga zanjir uzaldi boshida soch.

Sipehr la’l ko‘rub ko‘ksum uzra mehrobi
Balo o‘qig‘a hamonoki ayladi omoch.

Navoiyo, der esang ko‘rmayin vafosizliq,
Tavaqquf etmayu dahr ahlidin vafo kebi qoch.

99

Ko‘rub dardim tarahhum qilmading hech,
To‘kub ashkim tabassum qilmading hech.

Firoqing o‘ti ichra necha yig‘lab,
Fig‘on chektim, tarahhum qilmading hech.

Jahong‘a ohu ashkim soldi oshub,
Bu to‘fondin tavahhum qilmading hech.

So‘zung shavqidin erdim xasta umre,
So‘rarg‘a bir takallum qilmading hech.

Musallam ishq, ey ko‘nglum, sengakim,
Ko‘rub zulmin tazallum qilmading hech.

Muhabbat ahli qismin nevchun, ey charx,
Qilib mehnat, tana”um qilmading hech.

Navoiy sari, ey davri muxolif,
Navo savtin tarannum qilmading hech.

100

Ul turki xitoning erur andoqli ko‘zi qiymoch
Kim, nozdin o‘Imas demak ollindaki, ko‘z och.

Bag‘rimni qiyo boqmoq ila qiymog‘idindur,
Yo ayni takabburdin erur ko‘zlar qiymoch.

Ochliqdin ul oyning magar o‘ldi ko‘zi bemor,
Qon ichkali moyil nega bo‘lmish gar emas och.

O‘zbak, mo‘g‘ul o‘lg‘ay aning ollida musulmon,
Bilman ani qalmoqmudur, yo‘q esa tag‘moch.

Turmas ajal ul g‘amzai xunrez o‘qidin,
Joning kerak ersa senga, ey xasta ko‘ngul, qoch!

O‘pmakka yuzi xo‘bdurur, g‘abg‘abi ham xo‘b,
Chun og‘zi topilmasliq aro olmoq uchun boj.

Keynicha ko‘ngulsizdur erishmakka Navoiy,
Ul sho‘x chu o‘z mulkiga bordi ko‘ngul olg‘och.

HYe HARFINING HARAMIYLARINING HUSNOROYLIG‘I «NAVODIR»DIN

101

Bu chamankim, to‘kilur shom gul, ochilsa saboh,
Bodasiz shomu sabo o‘lmoq emas bizga saloh.

Davri ayyomg‘a yo‘q chunki vafo, ey soqiy,
Sen vafo aylayu bas, aylama davri aqdoh.

Bekaron ra’fat erur dahrda elga ofat,
Rohati behad agar istar esang topqil roh.

Piri xammor eshigi bog‘liq erur, men maxmur,
Rahm etib och bu eshikni yuzuma, yo fattoh.

Qilmag‘il qasd kishi qoniyu naqdig‘a valek
Aysh naqdini qadah qoni bila angla muboh.

Hasmkush keldi falak zoli bil, ey shayxu manga
Raz qizi borida ul koloni qilma nikoh.

Ey Navoiy, tilasang g‘am tengiziga sohil,
Kashtii boda burun topqilu bo‘lg‘il malloh.

102

Jonima yetkurdi ul la’li raxonoso farah,
Elga yetkurgan masallik la’lgun sahbo farah.

La’li yoquti mufarrihdur magar bilxosiya
Kim, xayolidin manga yo‘qtur nasib illo farah.

Qon yoshimdin demangiz so‘z kim mukaddar bo‘lmasun,
Bodadin topqan zamon ul sho‘xi mahsiymo farah.

La’li hijronida, ey soqiy, yana may tutmakim,
Tortsam kavsar mayi yetmas manga aslo farah.

Boisi g‘amdur labi hajrida la’li obdor,
May debon rangin su ichkan aylamas paydo farah.

Gar farah istar esang, mayxona azmi aylakim,
Andin o‘zga yerdin olmish gunbadi xazro farah.

Ey Navoiy, dayr piri tutsa, may lojur’ a ich,
Fikr qilmakim, sanga yetkay malolat yo farah.

103

Bo‘lsa bo‘lg‘ay sarv qadlar ichra har gulro‘ malih,
Sarvi gulro‘yum mening lekin erur asru malih.

Xol erurmu yo‘qsa tuz solg‘an siyohiy nuqtasi
Kim, erur vasmay aylagandin ortuq ul hindu malih.

Lablaring kulgach, to‘kar tuz birla shakkar tung-tung,
Olloh-olloh, bo‘lur ermish muncha ham kulgu malih.

Ko‘p malohat bobida Shirindin aytur Ko‘hkan,
Sabzshirimimcha ul bor erdi erkinmu malih.

Eyki Yusuf birla so‘rmishsen habibim husnidin,
Ul sabih o‘ldi latofat ichra, ammo bu malih.

Orazing ko‘rgach, ko‘zum sho‘roba to‘kkach, angladim
Kim, erursen sen malohat ahlidin ayru malih.

Ey Navoiy, achchig‘-achchig‘ yig‘larimni qilma ayb
Kim, erur ko‘nglumni olg‘an kofiri badxo‘ malih.

104

Axtarin ashk ettiyu sovug‘ nafasni oh subh,
Bo‘ldi go‘yo shomi hajrim holidin ogoh subh.

G‘am tuni muhlik g‘amim anglab yoqa chok ayladi,
Tong yelidin har nafas holimg‘a tortib oh subh.

Tiyra hijrondin chu yo‘qtur farq subhu shomima,
Xoh shom o‘lsun qorarg‘an ro‘zgorim, xoh subh.

Dudi ohimdin qorarg‘ay hajr shomidin batar,
Bo‘lsa hijron qat’ida bir kun manga hamroh subh.

Tiyra shomim daf’ qildi mehr zohir aylabon,
Yaxshi bordi mehribonlig‘larda shay’-uloh subh

Xushturur jomi sabuh, ey shayx, sen ham ichkasen,
Tutsa may soqiy bo‘lub bir mehr yuzlug moh subh.

G‘am tuni ko‘h balosidin magar bo‘lmish xalos
Kim, meningdek ko‘rguzur ruxsore chun koh subh

Subhdam bedoru giryon bo‘l, agar fayz istasang
Kim, sening uyqungg‘a xandon bo‘lmasun nogoh subh.

Ey Navoiy, ul quyoshning mujdayi vaslin berib,
Qilsa netkay, shomi hajrim mehnatin ko‘toh subh.

105

Hajrdin asru hazinmen, soqiyo, tutqil qadah,
Har necha sog‘ar ulug‘ bo‘lsa to‘la tutqil qadah.

Gar aning no‘sh aylarin ojiz o‘lsa ahli bazm,
Jam’ etib borini bir yo‘li manga tutqil qadah.

Qoni’ erman bir qadah birlaki, dardim sa’b erur,
Har kecha lojur‘a no‘sh etsam, yana tutqil qadah.

Bir nafas mast o‘lmasam hijron g‘ami aylar halok,
Jonima rahm aylabon bahri xudo tutqil qadah.

Gar tuyassar bo‘lsa bazmi vasl, lutf aylar esang,
Quy meni nazzorag‘a ko‘prak anga tutqil qadah.

Ulu men chun mast bo‘lduq ixtiyoring bordur,
Xilvat aylab ber ijozat, elga yo tutqil qadah.

Chun xarobot ichra tushtung chiqmog‘ing dushvor erur,
Ixtiyoring yo‘q ichib, ey porso, tutqil qadah.

Xirqayi zuhdin Navoiy qildi rahn, ey mayfurush,
Qo‘yma hush ilgida ani benavo tutqil qadah.

106

Subh dayr ichra mug‘anniy uyla tuzdi shaddi ruh

Kim, unidin bo‘ldi ruhullohga ohangi sabuh.

Toza bo‘ldi ruhlar ul nav’ shaddi ruhdin,
Kim lisoni holi ruhullohg‘a qildi toza ruh.

Yo‘qki, yolg‘uz shaddidin tushti qulub ichra kushod,
Har girifti dog‘i arvoh ichra soldi yuz futuh.

Dayr piri oncha tutti elga jomi ruhbaxsh,
Kim yaqindurkim ushatqay tovba bo‘lsa yuz nasuh.

Ruhi qudsiy erdi alfozi zuhur etkuncha fajr,
Vahy yaho erdi anfosi tulu’ etkuncha yuh.

Yo‘qki, may kashtiysi g‘am to‘fonidin aylar xalos
Kim, topar andin kishi bir qatra ichsa umri Nuh.

Sirri vahdat nuktasidur bas daqiq, ey porso,
May quyoshi lam’asi birla magar topqay vuzuh.

Ey mudarris, ishq sirri daftari bir nuktadur,
Garchi mingdin bir yozilmaydur yozib yuz ming shuruh.

Vaslsiz bo‘lmas Navoiy ko‘zu ko‘ngliga iloj
Kim, juruh uzra juruh o‘lmish, quruh uzra quruh.

XYE HARFINING XO‘BLARINING XIROMI «NAVODIR»DIN

107

Fano tariqida har kimki hosil etti rusux,
Riyovu zuhd aning ollida erur mansux.

Ne nav’ o‘zlugi mansux bo‘mag‘ay qoshida,
Birovki, do‘st shuhudig‘a hosil etti rusux.

Chu ishqisiz edi zuhd ahli keldi nobolig‘,
Erurlar atfol, el garchi der alarni shuyux.

Demakta voqi‘a yolg‘onu chin taxayyul etib,
Kishi ekanlarin andoqli yod qilsa musux.

Jahoni xokiy erur bir kesak, vale nopok,
Etak yeturmomak avlo mulavvas o‘lsa kulux.

Arit sirishk bila botiningda bor esa chirk,
Yu tavba suyi bila bo‘lsa botining aro shux.

Navoiy ahli fano ista, qo‘y riyo ahlin
Ki, nayshakar borida tuhfa qilmadi kishi lux.

108

Firoq o‘tiki, balo og‘zidur anga manfax,
Misoli do‘zaxu jannatdurur ul do‘zax.

Ne tong yoshunsa kecha zulfida quyosh ko‘yi
Agar bu nav’ esa chavgani zulfi go‘yi zanax.

Erur kirarga ko‘ngul xayli ul taraf bir-bir,
Tarog‘ sochingdaki yo‘llar yasab turur rax-rax.

Quyosh hamono ko‘k atlasin libos et mish
Va yo kiyiptur ul oy nilgun nasij ila nax.

Gaheki ko‘rguzasen zahri chashm tong ermas,
Bo‘lur chu bodomning donasi birarda talx.

Yuz ochsa aqlim eli to‘lg‘anur, nedinkim bor
Chinor panjas shal, oftob panjas shax.

Navoiy ohini zohid kam etmadi so‘z ila,
Nedinki, dud o‘lur afzun, qotilsa o‘t ila yax.

109

Sho‘x ko‘p yo‘q birisi, uylaki, ayyor ul sho‘x,
Sho‘xluq birla qilur elni giriftor ul sho‘x.

Boqib ag‘yorg‘a tishlar labini ishva bila
Yetkurur qatl uchun jonima ozor ul sho‘x.

Gul qizaripturu sunbul qoraripdur, go‘yo
Bog‘ aro qildi ayon zulf ila ruxsor ul sho‘x.

Xo‘blar butrashibon qo‘zg‘alishur ishq ahli
Mastu bebok magar bo‘ldi padidor ul sho‘x.

Kimnikim zor ko‘rar o‘lturur ul sho‘xi balo
Ne balo turfa ish o‘lmish buki, men zor ul sho‘x.

Dayr aro mug‘bachayi sho‘x ushatti tavbam,
Mast bo‘lman netayin bor chu xammor ul sho‘x.

Sho‘xliqdin ne desa chun unutur emin eman,
Garchi xud va‘dayi vasl aylasa izhor ul sho‘x.

Ey ko'ngul, dinu xirad naqlini asraki, erur
Zulf aro xoli kebi shabrvu tarrow ul sho'x.

Gar Navoiydin erur bexabar ul sho'x, ne tong,
Mastlig'din emas o'zdin chu xabardor ul sho'x.

110

Ey ko'ngul, chunki erur yor mayi furqati talx,
Kimki, bu mayni ichar bo'lsa, ne tong riqqati talx.

Sharbati sabr der ich nosihu yuz voyki bor,
Obi hayvon bila hal aylasa bu sharbati talx.

O'zgalar birla icharsen mayu men zorg'a ul
Bodaedurki, erur ta'mi achig', lazzati talx.

Soqiyi bazm, yana tutma manga jomi firoq
Kim, bu sog'arning erur choshniyi shiddati talx.

Talxkom o'ldum aning ko'yida bekaslikdin,
Ishq ko'yining erur chun qadahi g'urbati talx.

Xo'blar la'li xayolig'a chu churkanmaki, bor
O'zi har necha chuchuk, hajri aro mehnati talx.

Emdikim vasl arodur qo'yki, Navoiy, o'ldeg,
Ey ko'ngul, chunki erur yor mayi furqati talx.

111

Erur barot ila bayram ul oyg'a zulf ila rux.
Xush ulki tun-kuni bo'lg'ay bu ikkidin farrux.

Birin-birin netayin oyu sarv ila gulni,
Meningki mohim erur sarvqomatu gulrux.

Hadisi o'lturubon turguzurki, so'z so'rsam,
Agar achig'ilanur, ammo chuchuk berur posux.

Malohat o'lsa olur jonni lo'liyu hindu,
Gar o'lmasa qochurur mohi o'qchavu Xallux.

Yozar qalam kebi vodiy hajr aro qalamim.
So'ngakdururki, aning javfida quruptur mux.

Fano tariqida birdek emas bori ma'ruf,

Biriga Qarxdurur jilvagah, biriga kurux.

Navoiyo, erur ul sho‘xi turkman bas tund,
Navo tilar esang andin yugurma ordicha cho‘x.

112

Meni ishqdin man’ etar soda shayx,
Dema soda shayx, aytkim loda shayx.

May ustidagi xascha qilma hisob,
Agar su uza solsa sajjoda shayx.

Yorug‘luq emas mumkin andinki, bor
Zalolat tariqida uftoda shayx.

Riyo bahri ichra tama’ zavraqin
Soliptur asodin tutub xoda shayx.

Yeyar domi tazvir el saydig‘a
Qilib subhadnn dona omoda shayx.

G‘azabda sabu’, shahvat ichra bahim,
Agarchi erur odamiyzoda shayx.

Kirar odamiy sonig‘a qilsa no‘sh,
Fano dayrida bir qadah boda shayx.

Irodattin o‘lg‘ay edim bandasi,
Agar topsam erdi bir ozoda shayx.

Eranlardin o‘zni tutar, garchi bor
O‘kush zebu ziynat bila moda shayx.

Navoiy tilar soda yuzlug yigit,
Ne g‘am gar ani man’ etar soda shayx.

113

Xating sipohi chu chiqti nechukki mo‘ru malax,
Demaki, qochmasun arbobi ishqu urma zanax.

Qurudi mazra’i shavqum, chu zohir etting xat
Ki, dona ofatidur mazra’ ichra mo‘ru malax.

Yuzung o‘tiki bor erdi ko‘zumga ravza guli,
Tutun kebi xating ul o‘tni ayladi do‘zax.

Niqob aro yuzung erdi g‘ilof aro ko‘zgu,
Ne xatdurki, ani qildi kiyiz ichindagi yax.

Xatiki, xat-xat osilmishtur emdi ul ruxdin,
Ne rux deyin yuzinikim, bo‘luptur ul rax-rax.

Tasavvur etmaki, el o‘pmak orzu qilg‘ay,
Magarki mo‘china og‘zi labingdin olg‘ay max.

Jamoli zohir uchun o‘ldung, ey Navoiy, zor,
Chu yopti orazini xat, uyolding erkin, vax.

DOL HARFINING DILOROMLARINING DAVRONI «NAVODIR»DIN

114

Ey jamoling mehridin ravshan azaldin to abad,
Zarra yanglig‘ ul yorug‘luq ichra sargardon xirad.

Kunhi zotingdin xirad gar bo‘lsa a’mo ne ajab,
Zarrag‘a yuz ming quyosh mohiyatin bilmak ne had.

Ham xirad nuri topib husnung quyoshidin dimog‘,
Ham vara’ zo‘ri olib zikring g‘izosidin jasad.

Senga tolib, kimki azmi Ka’ba aylar, yo‘qsa dayr,
Sen murodi, kimki dayr ichra sanam der yo samad.

Xalq raddidin ne g‘am, topg‘ang‘a lutfungdin qabul,
El qabulidin ne sud aniki qahring qilsa rad.

Bo‘limg‘ay mumkin zalolat chohidin chiqmoq kishi,
Lutfung ilgi rishtayi tavfiq ila qilmay madad.

Quvvatingning ojizi gar piltan, gar sheri zo‘r,
Minnatingning shokiri gar guljabin, gar sarvqad.

Ham munojot ahlining ko‘nglida biyming behisob,
Ham xarobot ahli joninda umiding beedad.

Jurmu isyon chohidin chiqmoq Navoiy iltimos
Sendin aylar, negakim yo‘qtur sanga kufvan ahad.

115

Sitam ermas edikim, aylading ko‘nglumni yuz parkand,
Sitam budurki, tikmak birla istarsen anga payvand.

Ham ip kul bo‘lg‘ayu, ham igna su bo‘lg‘ay tikar bo‘lsang
Nedinkim bor alardin ahgari so‘zanda har parkand.

Jamolingg‘a quyosh o‘xshar valekin oncha ham ko‘p yo‘q,
Anga bo‘lg‘ancha oy monand, ul bo‘lg‘ay sanga monand.

Pariyro‘yimdin ayru, ey hakim, och qaydu bandimni
Ki, men dev o‘lmisham, devona ermankim, solursan band.

Habibim istayu gulshan aro har dam gul islarmen,
Meni Yusufdin ayru qildi qonlig‘ ko‘nglagi xursand.

Ko‘zumning mardumi odamdurur go‘yo qora bo‘lg‘an,
Bu yoshlarkim, bo‘lur zoyanda andin barchasi farzand.

Labing no‘shi zakotin hojat ahlig‘a berur bo‘lsang,
O‘lubmen hasratidin jong‘a yo‘q o‘lgancha hojatmand.

Deding gulqand, ey tarso hakimi, anglabon za‘fim,
Vale daf’ o‘ldi qilg‘ach mug‘bacha dayr ichra shakkarxand.

Alam yetkach, Navoiy, dahrdin, may bil aning daf’i,
Qabul etkan kishiga basdurur olamda bu bir pand.

116

Qayda qilg‘ay soyadek men telbayi xokiyni band
Kim, quyosh bo‘ynig‘a solmish sunbulung pechon kamand.

Qatlim etmaslar g‘amu darding vale taxqirdin
Mo‘r qatlin ajdahokushlar qachon aylar pisand.

Na‘lidin chaqilmas o‘t, balkim shararlar ayrilur,
Har taraf maydon arokim o‘t kebi sursang samand.

Tong yo‘q ohim ul quyoshning burqa‘in raf’ etmasa
Kim, bulutqa dud yetmas nechakim chiqsun baland.

G‘o‘tamu urmish ko‘zumning mardumi qon yosh aro,
Yo yoshurmish ul qora ko‘z orazin gulgun parand.

Istaguncha, ey ko‘ngul, har dam davo dard istagil
Kim, davo topmoq emastur mumkin o‘lmay dardmand

Bo‘lg‘ali xunobi hijrondin Navoiy talxkom
Gohe yig‘lar achchig‘-achchig‘, goh aylar zahrxand.

117

Nolonmen ochar bo‘lsa yuz ul huri pariyzod,
Bulbulg‘a ne tong gul ochilur faslda faryod.

Gulgun to‘n aro qomatimu jilvagar o‘ldi,
Gul bargidamu bo‘ldi nihon savsani ozod?

Ashkim suyining mavjini ko‘nglungga kechurkim,
Javhar bila xushroq ko‘runur el aro po‘lod.

Ko‘nglum zaqaning ichra ko‘rub yoyding anga zulf,
Choh uzra kabutarg‘a yoyer domini sayyod.

Bulbulni g‘aming qo‘zg‘asa shod o‘lmag‘il, ey gul
Kim, o‘t ham o‘char, kulni falak aylasa barbod.

G‘amzang meni bir tig‘ bila aylamadi qatl,
Bu fe’l qilur kimga azob aylasa jallod.

Ko‘nglini Navoiyning o‘qung kasrati buzdi,
Bu kulba yog‘in kasratidin qolmadi obod.

118

Bo‘ldi ko‘nglum shod topqach tig‘din ko‘ksum kushod,
Yo‘q ajab har kimgakim yetkach kushode bo‘lsa shod.

Xatting el ko‘nglini ko‘prak oldi, go‘yo xat emas
Yuz uza qilding ko‘ngul olmog‘liq afsunin savod.

Ul pariy ishqida men devona erman, devmen,
Ishq vodiysinda har ohim erur bir devbod.

Dema qochdim javrdinkim, baski tosh yog‘durdi hajr,
Gard o‘lub barbod bo‘ldi bu tani xokiynihod.

Nomurod o‘lsam ne tongkim ixtiyor etkanda ishq,
Ulki avval tarkin ettim, ermas erdi juz murod.

Yordin gar istasangkim ko‘rmagaysen g‘ayri vasl,
G‘ayr vaslin mutlaqo yod aylamakni qilma yod.

Ey Navoiy, mu’taqidsen qayda ko‘rsang pok yuz,
Yuz kishida yo‘q ekan bir sen kebi pok e’tiqod.

119

Gar ko‘ngulni aylasa ul qotili xunxora sayd.

Qatl uchun qoni to‘kulmay naylagay bechora sayd.

Ey ko‘ngul, ul sho‘x zaxm ursa davog‘a qilma sa’y,
Rasm bo‘lmas istamak marham, chu topti yora sayd.

Zulf aro sayd aylamak istar ko‘ngullarni ko‘zung,
Shabshikor ul nav’kim qilg‘ay kiyibon qora sayd.

Qatl qilmay kesti to‘sh-to‘shtin ko‘ngulni sho‘xlar,
Bismil o‘lmasdin burunroq bo‘ldi pora-pora sayd.

Bilgay ul kofir anga telmurmagimni, bilsakim
Ne tazallum birla qotilni qilur nazzora sayd.

Murshidi jozib tilab topmay gum o‘ldum, voykim,
Bo‘ldi bu sahroda sayyod istayu ovora sayd.

Telba qushdeqdur Navoiy ko‘ngli savdo dashtida,
Ani to sen aylamishsen, ey pariy ruxsora, sayd.

120

Dudi oh ermas ko‘ngul uyin qora qilg‘anda dard
Chun yiqildi ishq zulmidin havog‘a chiqtı gard.

Har taraf azm etmaging ko‘p dardlar darmonidur,
Kelki asru dardi dil izhor etarlar ahli dard.

Qaydakim tushsa nazar payki sirishkim saylidur,
Kim ko‘ruptur su uza bu nav’ payki rahnavard.

Lola yanglig‘ bo‘ldi gulgun bodadin ul yuz guli,
Vah, ne rangin ochilur ermish qizil su ichsa vard.

Uyla chiqting sekritib shabrangu tortib tig‘kim,
Shahsuvori charx yuz qaytardi bo‘lmay hamnabard.

Tez evur davrungda, ey soqiy, sipehroso qadah,
Barham urmasdin burun majlisni charxi tezgard.

Basdurur ul oyni ko‘rgandin ko‘ngul titratmasi,
Ey Navoiy, chekmagil sen dag‘i har dam ohi sard.

121

Ey, yuzung ollida behol xirad,
Vasfin aylarda bo‘lub lol xirad.

Chunki sen sekritibon tavsani husn,
Bo‘lubon yo‘lida pomol xirad.

Vahki, sen tifldin o‘ldi mabhut,
Uylakim piri kuhan sol xirad.

Ehtimom etti jununum sari ishq,
Nechakim ayladi ehmol xirad.

Ishq ko‘yida mazallat cheksun,
Tilasa davlatu iqbol xirad.

Soqiyo, mayki meni vasvasadin,
Ayladi sheftaahvol xirad.

To fano saylida bo‘lg‘ay nobud,
Ko‘rub ul javhari sayyol xirad.

Dayr piri mangavu mug‘bachalar
Necha ursa yuziga zomo xirad.

Yo rab, et ishq Navoiyg‘a nasib,
Ko‘nglidin lek burun ol xirad.

122

Ko‘ngul haroratin anglatdi ohi dardolud,
Uy ichra o‘t ekanin elga zohir ayladi dud.

Vujudum etti adam oqibat bu hayratkim,
Adamdek og‘zi aro so‘z ne nav’ topti vujud.

Ko‘zung shamoyilini nargis ar ko‘ra olmas,
Sanga ne fikr ko‘zi chiqsun ulki, bo‘ldi hasud.

Dame haram nafasi, dayr qasdi aylarmen,
Ne yerda yuz qo‘yar o‘lsam yuzungdurur maqsud.

Ko‘ngulni yorg‘a bog‘lavu raf” qil ag‘yor
Ki, bordur ulki aning g‘ayridur sarobu namud.

Malul o‘lubmen o‘zumdin, fano mayi tutqil
Ki, rangu atri vujudumni aylagay nobud.

Vagar sumursa Navoiyg‘a yetkay andoq sukr
Ki, farq topmag‘ay ollinda shohidu mashhud.

123

Zihe hajringda aylab bizni g‘am shod.
Xayoling xotiri g‘amginni ham shod.

G‘amingni lahza-lahza yetkurursen,
Qilursen xotirimni dam-badam shod.

Qilur munglug‘ ko‘ngulni dog‘i ishqing
Gadodekkim, bo‘lur topqach diram shod.

Agarchi bog‘ aro ozodadurlar,
Qadingg‘a bandadurlar sarvu shamshod.

Icharmen jomi may hijronda, garchi
Ki, bo‘lmas may bila ahli alam shod.

Safoli dayr durdidin sevundum,
Ne tong qilsa gadoni jomi Jam shod.

Navoiy savti ishq ahlin qilur xush,
Tong ermas qilsa dard ahlin nag‘am shod.

124

Ishq aro rasvolig‘im elga berur Majnunni yod,
Uylakim aylar ani ko‘rgan meni mahzunni yod.

G‘am tunida mehnati hijroni afzundur manga,
Har qachonkim aylasam ul husni ro‘zafzunni yod.

Qatra-qatra qon tomor ikki ko‘zumdin shavqida,
Dam-badamkim qilsam ul ikki labi maygunni yod.

Lutfi yo‘qtin ko‘ngluma bevazn erur shamshodu sarv,
Oh tortib aylasam ul qomati mavzunni yod.

La’li jonbaxshing degan so‘zni eshitkan qilmag‘ay
Obi hayvon birla bog‘lang‘an duri maknunni yod.

Har kishi no‘shi mayi la’lingdin ichsa jur’ae,
Qayda qilg‘ay o‘zga neshi gardishi gardunni yod.

Chun azalda sarnavisht o‘lg‘anni ko‘rmay chora yo‘q,
Har zamon aylab shikoyat qilma dahri dunni yod.

Azmi Bag‘dodu Buxoro aylagan ahbob uchun
Bersa tong yo‘q elga ashkim Dajlavu Jayhunni yod.

To Navoiyni junun dashtig ‘a soldi ul pariy,
Hazl uchun ham qilmadi bir qatla ul majnunni yod.

125

Ko‘ngulda yuz bila xatting gar o‘t solur, gar dud,
Munavvar o‘t tushar ul uydavu muanbar dud.

Firoq kulbasida tortaram damodam oh,
Ne ayb tutsa bu vayronani sarosar dud.

Falak yuzundaki har sari dudi ohimdur,
Firoq ahlig‘a bir shomi hajr erur har dud.

Xating quyosh kebi yuz uzra parvarish topti,
Ajab emastur agar bo‘lsa shu’laparvar dud.

Ulus qabuliyu raddi bila ishim yo‘q, lek
Necha ul oy manga maqbul, men anga mardud.

Zamona bog‘i gulu sunbulini islamakim,
Dimog‘ ofatidur shu’la farz qil, gar dud.

Navoiy ohidin ul oyni yoshyurung zinhor
Ki, xo‘blar tarafi mayl aylar aksar dud.

126

Zikring aylarda chekarmen har dam oh, ey sarvqad,
Uylakim, Qur‘ong‘a notiq tortg‘ay har lahza mad.

Vasli iqbolin xayol etkanda sen qayt, ey ko‘ngul
Kim, taxayyul birla qilg‘an ishka hojat yo‘q madad.

Yor hajru vaslini ne qilsa bo‘lg‘ay juz qabul,
Tengri bergen aysh yo mehnatni bo‘lmas qilsa rad.

Husn gulzorida bir-bir jola yoqqan lutfi bor,
Qatra-qatra dur kebi xo‘y birla ul gulfom xad.

Qolmisham zulfu yuzung shavqida subhu shom, lek
Ul biri subhi azaldur, bu biri shomi abad.

Ne xirad, ne hush bizdin istangiz, ey ahli zuhd,
Ishq lol etkan kishida qaysi hushu ne xirad.

Ey Navoiy, vasl aro o‘ltursam o‘zni, qilma ayb
Kim, emish muhlik kishi ko‘rmak o‘z-o‘zindin hasad.

Senu firdavs ichida kavsaru hur, ey zohid,
Menu mayxona aro bodaki tutqay shohid.

Telba kenglum yer o‘par yor qoshi ollinda,
Masti mehrob aro ul nav’ki bo‘lg‘ay sojid.

Ey ko‘ngul, har neki ishq ahlini man’ aylab eduk,
Ko‘rgach ul oyni bori bizga-o‘q o‘ldi oid.

Menmenu mug‘bachalar dayr ichinda vah netkay
Mundin o‘zga kishi butxonada bo‘lsa obid.

Men gado mastu xarobot aro ilgimda safol,
Boqsa Jamshid bu iqbolima bo‘lg‘ay hosid.

Bilsa Farhod ila Majnun jaza’ etkaylor edi,
Ishq bedodidin ulcha manga bo‘ldi vorid.

Ey Navoiy, bu chaman ichra vafo istamakim,
Ul mato’ o‘ldi bu bozorda behad kosid.

Ey, soching zanjirining savdosida majnun xirad,
Dam badam ko‘prak paryidek husnungga maftun xirad.

Aqlim uchdi ayladim to kasb ishqing ilmini,
Garchi elga ilm kasbidin bo‘lur afzun xirad.

Ey hakim, etma jununum aybkim, ko‘rgach ani,
To‘xtata olmas dimog‘i ichra Aflatun xirad.

Ey xiradmand, anglamassen holatin ushshoqning,
Ne uchunkim ishq tavrida erur Majnun xirad.

Ohkim, yetkach aning ishq tamomin qildi mahv,
Garchi qildi pand ila ko‘nglumni yuz afsun xirad.

Garmrav oshiqqa mardud o‘lsa, nosih, qilma ayb
Kim, keliptur ahli ishq ollida doim dun xirad.

Ey Navoiy, ishq ayog‘ining nisori aylagum,
Sochsa har soat nasihatdin durri maknun xirad.

ZOL HARFINING ZULHAYoTLARINING ZUFUNUNLIG‘I «NAVODIR»DIN

129

Qazo ne hukmki aylar jahongadurnofiz,
Jahonu bas demakim, insu jong‘adurnofiz.

Jahon aro baniy Odam netib xalos o‘lg‘ay
Kim, ul maloyikayi osmong‘adurnofiz.

Nafozi hukm shahi komrondin elga bo‘lur,
Ne hukm ul etsa, shahi komrong‘adurnofiz.

Agar yomonu agar yaxshi kimsa yo‘q ozod
Nedinki, buyrug‘i yaxshi-yomong‘adurnofiz.

Buzug‘ jahong‘a aning hukminofiz o‘lg‘andek,
Habib hukmi meni notavong‘adurnofiz.

Bo‘yin qo‘yubmen agar tig‘i qatl surgungdur
Ki, amri dilbarining har qayong‘adurnofiz.

Navoiy aylasa har yon azimat andin erur
Ki, buyrug‘ung meni bexonumong‘adurnofiz.

130

Qo‘nglum erur ul g‘unchayi serob ila multaz,
Ul nav’ki mast o‘lsa mayi nob ila multaz.

Lazzat topar ul sho‘x chuchuk jonim olurdin,
Atfoldek o‘lg‘an kebi jullob ila multaz.

Rangin labing ozurda ko‘ngul komidur, archi
Bemor emas sharbati unnob ila multaz.

Ko‘nglum yuzu la’lingdin o‘zin ayladi behush
Kim, subh bo‘lur xalq shakarxob ila multaz.

Sen bazmi nishot ichra mayi nob ich, ey sho‘x
Kim, bizni firoq ayladi xunob ila multaz.

Soqiy, qadahe tutqilu, ey turfa mug‘anniy,
Bazm ahlini qil bir necha mizrob ila multaz.

Ko‘p ravza bila hurni ko‘rguzma, yuz ochqil
Kim, xasta Navoiy emas asbob ila multaz.

Ey lablaring halovatidin jong‘a iltizoz,
Topqay yetishsa chashmayi hayvong‘a iltizoz.

Jon chunki lazzat aylar aning la’li yodidin,
Bersa ne tong halovati jonong‘a iltizoz.

La’lingni qilsa yaxshi-yomon orzu, ne tong,
Jondin bo‘lur chu oqilu nodong‘a iltizoz.

Davron eliga lazzat agar bo‘lsa, ne ajab,
Maydin chu bor ul ofati davrong‘a iltizoz.

Nutqung halovatini ne bilsun raqibkim,
Shirin hadisdin yetar insong‘a iltizoz.

La’ling himoyat etmasa ul yuz nazorasi,
Muhlik beripturur meni hayrong‘a iltizoz.

Sing‘an safol ichinda Navoiyg‘a bodadin,
Onchaki jomi Jam bila sultong‘a iltizoz.

RYe HARFINING RA’NOLARINING RUSTAXYeZI «NAVODIR»DIN

Zihe mazohir aro mehri orazingdin nur,
Quyoshtin uylaki zarrot xayli ichra zuhur.

Vujudung ayladi kavnu makon vujudin fosh,
Hamul sifatki quyosh qildi zarrani mashhur.

Xirad gar a’mo esa kunhi zoting ichra ne tong,
Quyoshni ko‘rmasa xuffosh bordurur ma’zur.

Sening jamolingga gul ko‘zgusida bulbul mast,
Sening zuhuring ila gul jamolig‘a mag‘rur.

Yo‘q ersa g‘unchag‘a hifzing nechukki parda arus,
Arusi pardanishin yanglig‘ o‘lmag‘ay mastur.

Seni tnlab tunu kun baski aylabon taku po‘y,
Nafaslarini ola olmayin sabovu dabur.

Boqib sujud aro qoshingg‘a gabr, agar mu’miin,
Tilab qadah aro aksingni mast, agar maxmur.

May ichra aksing aro sofchashg‘a ayshu nashot,
Qadahda nash’ang ila durdkashg‘a zavqu surur.

Chu sensiz o‘ldi haram ichra porso, ne osig‘,
Navoiy o‘lsa sening birla dayr aro, ne qusur.

133

Sarig‘ kog‘azmudurkim so‘zi hajrim ayladim tahrir
Va yoxud shu’la tushti safhag‘a ul so‘z etib ta’sir.

Magar havro sochin qildi qalamgun safhasin kog‘az,
Qilurda sun’ naqqoshi nigorim suvratin tasvir.

Boqib dermen: shikoyat aylayin ko‘rgach ani, qolmas
Ko‘zumga tobi nazzora, tilimga quvvati taqrir.

Meni hajr ofatidin qutqaru qatlimg‘a ta’jil et,
Nedinkim, biymi ofat keldi ishta aylamak ta’xir.

Deding: vasl ichra taqsir etmayin ishqim qabul etsang,
Chu bo‘ldum oshiq, etting hajr asiri qilmading taqsir.

Junun xatti muhiti ichra markaz bo‘lmag‘im ne sud
Ki, bu xat birla bo‘lmas ul pariyni aylamak tasxir.

Soching kufri xud imonimni oldi, vah, ne aysh o‘lg‘ay
Ki, ul zunorni bo‘ynumg‘a bog‘lab qilsalar takfir.

Meni gar mug‘bacha dayri fano ichra asir etti,
Chu taqdir ersa, ey shayx, haramni qilg‘amen tag‘yir.

Navoiyg‘a ne mumkin vaslikim, har tun bu fikr ichra
Ne tadbir etsa oxir ishqdin bori topar tag‘yir.

134

Ko‘ngul ichra g‘am kamligi asru g‘amdur,
Alam yo‘qlug‘i dag‘i qattiq alamdur.

Yema dardu anduhdin g‘amki, istab
Topilmas bu davr bo‘lsa bu mug‘tanamdur.

Xush ul dardkim, yuzlanur lahza-lahza,
Xush ul g‘amki, xotir aro dam-badamdur.
Jahon ichra hamdard kam bo‘lsa tong yo‘q
Ki, bedard ko‘p, lek dard ahli kamdur.

Manga ishq dardi emas muhliku bas
Zamon dardi, ahli zamon dardi hamdur.

Xarobot aro, ey xush, ul rindi sarmast
Ki, ollinda olam vujudi adamdur.

Maqom etsa tufroq uza — taxti Jamshid,
Safoliki ul may ichar jomi Jamdur.

Qadah vajhi gar shayxdin hosil ermas,
Ne g‘am dayr piri chu sohibkaramdur.

Navoiy ichar boda ul sho‘x tutqach,
Necha garchi taqvo bila muttahamdur.

135

Rangsiz xoling jamoling xonida, ey siymbar,
Yo adasdur, yo yopushmish bir adas chog‘lig‘ shakar.

Ko‘rgach ohimni, g‘azabdinmu qizardi ul uzor,
Yo‘qsa ul humrat bu o‘tning tobidin bo‘ldi asar

Novaking jismimg‘a sonchilg‘ach yetishti yuz balo,
Shox uza payvand qilg‘ach munchakim top mish samar.

Men ul oyg‘a mahv qolq‘ach, tan aro paykonlarin
Chekkan ermish xalqu hayratdin manga bo‘lmay xabar.

Ikki gavhardur qulog‘ingda vayo qilmish sipehr
Oyning atrofida ikki sa’d kavkab jilvagar.

Charx zulmidin ne tong so‘gum sabuhiy vaqtikim,
Subh ham bu g‘ussadin ynrtar yoqasin har sahar.

Ey Navoiy, hajr o‘tlug‘ dashti ichra angladim,
Anikim derlar saqardin qit‘ae ermish safar.

136

Sening husnung mening ishqim ajoyib uns tutmishtlar,
Magar bu shu’lani ul sham’ tobidin yorutmishlar.

Borib erdi iki kofir ko‘zung qatlim uchun va’da,
Hamono ayni usrukluqdin ul ishni unutmishlar.

Menu dardu balo, ey shodliq, borg‘ilki, hajrinda
Meni g‘am tunlari bekasligim vaqt vaqt ovutmishlar.

Ko‘ngulda yaralarkim butmadi har nav’ marhamdin,
Labing no‘shi havosin istimo’ etkanda butmishlar.

Tama’ uzmak iki shirin labingdin mumkin ermaskim
Ki, to ul shahddin totmishmen og‘zimni chuchutmishlar.

Sirishkim sayli ichra ishqu dardingdin zaif o‘ldi,
Bu su ichra ul o‘tlar go‘yiyo jismim qurutmishlar.

Chu men bezormen itkan ko‘nguldin demangiz, kelmish
Nega ul telbai rasvoni bu jonib yovutmishlar.

May ichkil, dag‘iy tutkil bevafovou mehrlar tarki,
Aningdekkim, alar mehru vafoning tarki tutmishlar.

Navoiy, may bila ko‘nglumga o‘t solkim, zamon ahli
Sovug‘luq oncha qilmishlarki, ko‘nglumni sovutmishlar.

137

Ham ko‘zum tortar, hamul mezon bila ko‘nglum solur,
Yo rab, ul kelgaymukim ko‘z yorutub ko‘nglum olur.

Tortsam ko‘nglum futuri shiddatidin qattig‘ oh,
Dahr bog‘i sovrulub, aflok dag‘i qo‘zg‘alur.

Vahki, zaxmining isidin mayl ham qilmas iting,
G‘ussa tig‘idin nechakim zor jismim to‘g‘ralur.

Toqatim gar qolmadi tortarg‘a mehnat tog‘ini,
Ne ajab bu yukni gar aflok cheksa tavshalur.

So‘zi hajring daf‘i ham bo‘lsa ko‘ngulda dog‘i bor,
O‘t o‘char, lekin asar yong‘an makon ichra qolur.

Bas to‘ladur joming, ey soqiy, ilig titratmakim,
Men ichay andinki, to‘kkungdur ani gar chayqalur.

Ey Navoiy, ishq o‘tin ko‘z yoshidin past aylaram,
Lek har dam ul quyosh yodi ichimga o‘t solur.

138

Tiyra shomim ichrakim barqi balolar chaqilur,
Har nafas ishq ajdahosi og‘zidin o‘t sochilur.

Hajr dashtin, vah, netib qat’ aylayinkim, har tikav

Bosh chiqarur orqasidin chun kafimg‘a sanchilur.

Ishq aro pand etmakim ne sud, ey ahbobkim,
Har fig‘onda band-bandim bir-biridin ayrilur.

Chun ilojim qilg‘ali holim so‘rarsen, ey tabib,
Bu hikoyatni birovdin so‘rki o‘z holin bilur.

Tog‘u vodiy ichra andoq sa’b holim borkim,
Ko‘rsa gar Farhod, agar Majnunki yuz hayrat qilur.

Ne qoradur shomi hajrimkim yorumas shammae,
Muncha o‘tkim, charx toqida damimdin chaqilur.

Nomadin mumkin emas, ey sho‘x, holim anglamoq,
O‘rtanur kog‘az, firoqim sharhi chunki yozilur.

Soqiyo, so‘zni uzatmay emdi tutkil bodakim,
Dostoni hajr qisqarmas nechakim aytilar.

Ey Navoiy, azmi dayr etkil tilar bo‘lsang farog‘
Kim, bu yanglig‘ gavhar andoq kon ichinda topilur.

139

Kechakim zulfung xayoli ko‘nglum ichra aylanur,
Tongg‘a tegru za‘fliq jismim yilondek to‘lg‘anur.

Dargahingda bir zaif it birla men har kechakim
Gah tanin boshim, gahi boshi tanimni yastanur.

Ey pariy, majnun ko‘ngul so‘zidin o‘zni asrakim,
Barqi ohidin maloyikning qanoti churkanur.

Men kimu uyquki hijron shomi ohim suridin,
Desa bo‘lg‘an so‘ngg‘i uyqu eltkan el uyg‘anur.

Gar zabun bo‘lsam ajab ermaskn, tushsa ishq aro,
Ajdaholar xoksor o‘lmoq tariqin o‘rganur.
Otashin ruxsor ila kuydurma elni asrukim,
Sham‘ yuz parvonani o‘rtar, o‘zi ham o‘rtanur.

Sarvqadlar jilvasi tong yo‘q Navoiy ohidin,
Doimo ashjor yel tahriki birla tebranur.

140

Firoq isitmasi andoq tanimdin o‘t chiqarur

Ki, gar tabib iligim tutsa, barmog‘i qabarur.

Emas bu chashmayi xurshidkim, ul oy g‘amida
Ko‘rub sipehr yomon holatin ko‘zi yosharur.

Sirishk kasratidin gar ko‘zum oqarsa ne g‘am,
G‘aming tunida chu yuz qatla har zamon qorarur.

Chekarmen ohim o‘tin hajr dardidin har shom,
Sipehr soriki, muncha nujum sham‘i yorur.

Desangki, hajr yukin tortqil, ne choram bor
Ki, Qof tog‘ini xas uzra qo‘ysalar ko‘tarur.

Iqomat istama bu manzil ichrakim, har kun
Musofir anda nechakim kelur yuz oncha borur.

Navoiy ohki, topmas visoldin xabare,
Xayol elchisini garchi yuz sari yuborur.

141

Ko‘ngul uyida yuzung naqshin aylaman tasvir
Ki, dudi ohim ila rangi topmag‘ay tag‘yir.

Bu naz’ doirani ishqing orasida xol,
Magarki hindu erurkim, pariy qilur taxsir.

Magar su obi hayot erdi, yel Masih dami,
Chu tiynatingni qazo ilgi ayladi taxmir.

Ne toshki, otsa, yaram chokidin ichimga solib,
Buzug‘ ko‘ngulni tilarmanki, aylasam ta’mir.

Chu keldi muhtasib, ey soqiy, aylagil meni mast
Ki, qilmag‘ay asar ul damki, aylagay ta’zir.

Ne kelsa ollinga ko‘p qilma daf‘ig‘a ko‘shish
Ki, jiddu jahd ila tag‘yir topmadi taqdir.

Navoiy o‘pti yuzungni tushida lutf aylab,
Degilki, ne ekin aning bu tushiga ta’bir.

142

Yetti jon og‘zimakim chiqmas uyidin ul hur,
Chiqmag‘an jong‘a umid, ushbu masaldur mashhur.

Oy yuzung ayladi burqa' qasabin yuz pora,
Soldi har porasidin yerga yuzung partavi nur.

Nafasing hashr kuni nashr bo'lur olam aro,
Bir nafasda nega yo'qsa tirilur ahli qubur?

Ishqning quvvati birla chekaram hijronni,
Yo'qsa bir mo'rg'a yo'q tog'ni chekmak maqdur.

Chun azal qismatin el komi bila qilmadilar,
Ishqdin tutsa bo'lur bizni xaloyiq ma'zur.

Tuz ko'ngulga basaru nutqi parokanda ne bok,
Tilu ko'z g'aybatidin g'oyib emas ahli huzur.

Bir nafas umrg'a bo'lmas mutaahhid bo'lmoq,
Ey Navoiy, ne balo g'ofil erur ahli g'urur.

143

Junun salosilida bo'ldi jismi zor haqir,
So'ngak xilolki bo'ynig'a taqdilar zanjir.

Fig'oni zorima rahm etti turfa ishdurkim,
Pariyni ayladi majnun fusun bila tasxir.

Ne tong ketursa manga ishq har dam o'zgacha hol
Ki, shu'la vaz'i aro dam-badam erur tag'yir.

Xating savodi aro ojiz o'ldi ahli qalam
Ki, yozdi kilki qazo birla kotibi taqdir.

Gar etsa jonni tama' uldurur hayoti abad
Qabul qilmasa, o'lmaktin o'zga yo'q tadbir.

Sen o'zlugung butin avval ushatqil, ey zohid,
Hamisha dayri fano ahlin etkucha takfir.

Navoiy andoq emish mastkim, xabar yo'q anga
Ki, muhtasib ani ko'y ichra aylamish ta'zir.

144

Chun meni majnun boshin atfol toshi sindurur,
Oh o'ti jo'lida sochimdin anga kiz kundurur.

Ahli dillar chehra ochdi, yor ochmang diydakim,

Har kishi ul yuzga ko‘z oldurdi ko‘nglin oldurur.

Ko‘rgach ul yuzni boshimg‘a urdi yuz tig‘i balo,
Ko‘rki, chiqqur ko‘z boshimg‘a ne balolar kelturur.

Ko‘zda asrabmen bag‘ir qonin tilar bo‘lsang xino,
Surtsam ko‘zni ayog‘ingg‘a hamul dam bilgurur.

Bul-ajab yig‘lar jununum ichra ko‘rkim, xalqni
Ishq bir dam yig‘latur holimg‘a, bir dam kuldurur.

Navbahori husndin topma fireb, ey sho‘xkim,
Charx davri navbahor o‘tmay xazonin yetkurur.

Ey Navoiy, hajr anduhida mast o‘l zinhor
Kim, ko‘nguldin g‘amni bir dam zoyil etkan maydurur.

145

Qaysi to‘biy jilvasi sarvi xiromoningcha bor?
Qaysi kavsarning zuloli obi hayvoningcha bor?

G‘unchada gul bargidek til, joladek tish dog‘i yo‘q,
Desa bo‘lg‘aymu anikim la’li xandoningcha bor?

Qayda sunbuldin nasim eskach, kirar jismimg‘a ruh
Kim, degaymen anikim zulfi parishoningcha bor?

Aylamas ko‘z mardumi hargiz quyosh ichra vatan,
Ani dey olmanki xoli anbarafshoningcha bor.

Novak ochmas gar tushar jon rishtasi ichra girih,
Demak ani bo‘limg‘aykim no‘gi mujgoningcha bor.

Demakim, ko‘nglungga qo‘yg‘um zulm ila dog‘i ajal,
Sen gumon qilma anikim dog‘i hijroningcha bor.

Ey ko‘ngul, qoningni istarsen tobonig‘a xino,
Ko‘zlarim xunobi rangi ham sening qoningcha bor.

Urma himmat lofini ollingda bu toqi sipehr,
Faqr ko‘yinda agar o‘z kunji vayroningcha bor.

Ey Navoiy, istasang davr ahli zulmidin xalos,
Ul fano dashtig‘a gomu bora olg‘aningcha bor.

146

Suda yuzungmu aksi yo chashma aro pariymudur?
Chashmayi mehr ichinda yo. lam'ayi mushtariymudur?

Ko'yi bihishti jovidon, o'zi bihisht ichinda hur,
Qomatu la'li anglamon, to'biyu kavsariymudur?

Jismim aro yangi tigan har sarimu ko'rindi yo
Har biri ishq avjining muxtariq axtarimudur?

Uyga hanuz kirmayin dinima tushti yuz xalal,
Buki kelur, ko'r, ey ko'ngul, ul buti ozariymudur?

Kuygan ichimda bodadin ishq o'ti bo'ldi shu'lazan,
Poralari bag'irning ul shu'laning axgarimudur?

Jomi jahonnamoyini vasf ko'p etting, ey rafiq,
Mehri munir jomi yo maykada sog'arimudur?

Eyki Navoiy, ulfati ravzag'a yo'qturur deding,
Asru taajjub aylama, Mirg'aniyn Hirimudur?

147

La'ling oyo ne ajab rangindur,
So'zi aning ne balo shirindur.

Ham qoshing taqvovu toatqa balo,
Ham ko'zung ofati aqlu dindur.

Hulla ichra badaningkim ko'runur,
Go'yo gulbarg aro nasrindur.

Qatlu turguzmak erur oyining,
Olloh-olloh sanga ne oyindur?!

Soqiyo, hajrida tutqil manga may
Kim, bu sudin o'tuma taskindur.

Mayu vasl ahliki bu davr ichra,
Bizga xunobi jigar ta'yindur.

Hajring ayyomi Navoiy tinmas,
Bir ko'runub anga ko'nglin tindur.

148

Dilbaro, sendin bu g'amkim, menda bordur, kimda bor?

Furqatingdin bu alamkim, menda bordur, kimda bor?

Mazrayi ayshim ko‘karmaydur samumi ohdin,
Yo‘qsa yoshdin muncha namkim, menda bordur, kimda bor?

Qo‘yma minnatkim, yuzumdek pok yuz hech kimda yo‘q,
Buyla ishqil pok hamkim, menda bordur, kimda bor?

Baxt ul oy qasrig‘a qo‘ymas, yo‘qsa dudi ohdin
Bu kamandi xam-baxamkim, menda bordur, kimda bor?

Qalbi ro‘yandud ila bay’ etsa vaslin, ey ko‘ngul,
Dog‘din muncha diramkim, menda bordur, kimda bor?

Bor ekin vobastayi tavfiq yo‘qsa, ey rafiq,
Bu qadar shavqi haramkim menda bordur, kimda bor?

Ey Navoiy, garchi jurmum ko‘pturur, leknn bu nav’
Xusravi sohibkaramkim, menda bordur, kimda bor?

149

Gul yuzung hajrida chiqsa o‘tlug‘ ohim gohlar,
Ko‘kta gulnorin bulutlardek kezar ul ohlar.

Ul buti zarrinkamar ishqida to bel bog‘ladim,
Za’f aro mendin qamishlardur nishon, bal kohlar.

Ul yuz ollida quyosh yuzluglar o‘lmish husn aro
Uylakim bo‘lg‘ay quyosh bo‘lg‘anda toli’ mohlar.

Nola tortarmen qachon otlansa ul sultoni husn,
Yo‘q ajab chekmak nafir o‘lg‘anda rokib shohlar.

Ko‘yi sori bordi ko‘nglum, balki ashku oh ham,
Vahki, qolib men, azimat qildilar hamrohlar.

Istasang uyg‘onmoq ul bedorlar hamsuhbati
Kim, bu g‘aflatni magar daf’ aylagay ogohlar.

Ey Navoiy, pora-pora bo‘lsa ko‘nglung yaxshidur
Kim, taraddudsiz olishqaylar ani dilxohlar.

150

Kufrdin zunnorlar gar turrasi tobinda bor,
Kirpigidin dag‘i saflar qoshi mehrobinda bor.

Bir kajakdur tortibon jam' etkali el ko'nglini,
Qaysi purxamkim, parishon zulfi qullobinda bor.

Terda ul yuz tobidin, lol o'lsa tong yo'q bog'bon,
Qayda mundoq o't aning gulbargi serobinda bor.

Dema la'li o'lturur turguzmas elni, ey Masih
Kim, bu kayfiyat ham aning bodaiy nobinda bor.

Nechakim jonbaxshliq la'ling shakarxandidadur,
Oncha jon olmoq dag'i ul ko'z shakarxobinda bor.

Ishq mulkida tilarsen naqdi jon zulm aylabon,
Sog'inursenkim magar ul ishq arbobinda bor.

Ey Navoiy, gar lisoni hol eshitmaysen, eshit
Kim, ajab holat bizing sozanda mizrobinda bor.

151

Oshkoroyuz tigan garchi tani zorimda bor,
Oncha yuz dog'i nihoniy joni bemorimda bor.

Istading ko'nglum ilojin aylayin deb, ey tabib,
Menda yo'q ulkim tilarsen, lek dildorimda bor.

Novaki g'amzangg'a paykon istasang, ey qoshi yo,
Kelki, andin benihoyat jismi afgorimda bor.

Yuz bo'g'un ermas so'ngakdin rishtayi jonio aro,
Iqli zulfungdin tiganlardurki, bu torimda bor.

Javrlarkim qildi ul kofir unutmaydur ko'ngul
Kim, hisobidin girihlardurki, zunnorimda bor.

Xirqavu sajjodani may rahni qilsam ne ajab
Kim, asar maxmurlug'din sho'xi xammorimda bor.

Gar Navoiyni qilib rad, nazmin istar shukrkim,
Menda gar yo'qtur qabul, oshufta guftorimda bor.

152

Xattu yuzung hajrida ko'zkin, bulut monandidur,
Chashmayi sabz ul biri bu bir guliston bandidur.

Qildi yuz parkand hajring tig'idin bag'rimni ishq,
Itlaringning har biri og'zida bir parkandidur.

Javr qilsang qil, meni bore eshikdin surmagil
Kim, ko‘ngulga vasl had yo‘q mehnating xursandidur.

Ishq ila paykonlari ichra balokash ko‘ngluma,
Yo‘q tafovutkim shararlar shu’laning farzandidur.

O‘qlaringg‘a yuqtı bag‘rim qonimu, ey qoshi yo,
Yo‘qsa anda zeb uchun har yon baqam payvandidur.

Charxkim, har subh el qatlig‘a aylar zahrxand,
Bu aning shirin tabassum birla shakkarxandidur.

Ey Navoiy, demakim ko‘nglungga qilmish qasdi jon
Kim, mening ko‘nglum aning jon birla hojatmandidur.

153

Ko‘ksumni chunki qildi labing hajri yaralar,
Har yara qon kebi oqizur la’lporalar.

Boshtin-oyoq junun ila o‘ldum, gar istasang,
Bu yerda xorlar topilur anda xoralar.

Gulrez edi yuzung g‘amidin hajr tunlari
Oh o‘tidinki, har sori sochtim sharoralar.

Usruk ko‘zung qoshida emas kirpik o‘qlari,
Bir mast hindu ollida ermish katoralar.

O‘ldi yuzung nazorasidin xalq, voykim,
O‘lturdi bizni dag‘i el etkan nazoralar.

Yozg‘urma, ey faqihki, yo‘l bermas onchakim,
Chiqmoqqa dayrdin qiluram istixoralar.

Bechoralig‘ tut emdi Navoiyki bo‘lmadi,
Dardimg‘a har nechaki tabib etti choralar.

154

Quyosh yuzinda xating sabzasig‘a maskandur,
Bu vajhdindur agar rangi sabz ravshandur.

Ko‘ngulda oncha o‘qungdin ukuldi paykonkim,
Boshoq bila bu balo mazraida xirmandur.

Qilib itobki, dushmanlarimg‘a bo‘ldung do‘st,

Alarki do'stlarim erdi, emdi dushmandur.

Uzun firoq tuni barqidin netib kuymay
Ki, ajdaho xasim ustiga shu'laafkandur.

Ko'ngul ne nav' balo toshidin omon topqay,
Figor jismim uyi ravzan uzra ravzandur.

Ko'ngulni raz qizining suhbati bilan sof et
Ki, dahr zoli ajab hiylasozu purfandur.

Navoiy o'ldi pariyo'yalar havosidakim,
Deduk xiradlig'u ul asru telba erkandur.

155

Qilg'ali azmi safar ulkim manga dilxohdur,
Ogah o'z holimdin ermasmen, xudo ogohdur.

Men chu hajridin chekib yuz mehnat o'ldum, vah, ne sud,
Buki shaydo ko'nglumu jonim anga hamrohdur.

Ey nasimi vasl esib jonimni jonon sari elt
Kim, firoqing za'fidin andoqki bargi kohdur.

Demang, ul oy uzra solmish soya bir mushkin bulut,
Go'yiyo men torthan hajrida dudi ohdur.

Har nafas o'rdu sari ko'nglum qushi aylar havo
Kim, olib ketkan ko'ngulni bir mahi xirgohdur.

Anglag'il ahbob qadrinkim bular bo'lmay ne naf',
Gar senga aflok ayji uzra taxtu johdur.

Ey Navoiy, bejihat yor etsa hijron ixtiyor,
So'z demak bo'lmas nedinkim sen gado, ul shohdur.

156

Sarv uza gul ochtikim, qad uzra ruxsorim budur,
Jong'a nutq o'rgatdikim, la'l ichra guftorim budur.

Yuz jafo, ming sho'xluq ko'rguzsa haddim qayda bor
Kim, desam bir qatlakim sho'xi jafokorim budur.

Sabr ila shovqumni aylay arz, mehmon bo'lsa yor,
Ishq iqbolida naylaykim, yo'qu borim budur.

Garchi men nobud bo‘ldum, eyki majnun suvratin
Safhada qilding raqam, bilkim namudorim budur.

Piri dayru xonaqah shanxiki yozdi ruq’alar,
Nomayi iqbolim uldur, xatti idborim budur.

Murshidekim, maxlasim kufri tariqatdin tilar,
O‘zlugumning rishtasin uzdegki, zunnorim budur.

Ey Navoiy, istasam zulfin parishon, qilma ayb,
Naylayin sarmoyayi baxti siyahkorim budur.

157

Chiqmasa jonon g‘amu anduhdin, jonim chiqar,
Zavqdin ul dam kirar jonimki, jononim chiqar.

Maqdamidin bog‘ o‘lur ham dashtu ham ko‘y andakim,
Jilva aylab bog‘din sarvi xiromonim chiqar.

Titrangiz, ey ahli din, islomingiz boshig‘akim,
G‘orati din etkali ul nomusulmonim chiqar.

Ko‘zda ermas furqatidin ashki gulgun qatrasи,
Balki ko‘zdin ham bag‘ir zaxmi kebi qonim chiqar.

Zaxm aro qolg‘an boshoq jonimg‘a yetmish, ey rafiq,
Rahm etib tengri uchun chek dag‘i paykonim chiqar.

Charx agar faryodu afg‘onimg‘a yetmas, ayb emas
Kim, aning bedodidin faryodu afg‘onim chiqar.

Soqiyo, ol bir qadah birla Navoiy ko‘nglini
Kim, bukun derlarki, sarxush ko‘nglum olg‘anim chiqar.

158

Sham’ ul oy hajrida tun kuymagim ogohidur,
Dudi ermaskim mening holimg‘a o‘tluq ohidur.

Chiqti jon roziy eman ko‘yungga borg‘ay, negakim
Har qayon azm etsa, dardu g‘am aning hamrohidur.

Gar samanding gardidin qolman ne tongkim, bordur ul
Kahraboekim, bu xasdek jism bargi kohedur.

Bir mahi xirgahnishin ko‘nglumni olmish, ey rafiq,
Yo‘q ajab gar xasta ko‘nglum nolasi xirgohimdur.

Yor ko‘ngli istamish ko‘nglumga surmak tig‘i kin,
Har ne dilxohi aning men telbaning dilxohidur.

Misri izzat istabon zindoni g‘amdin qochmakim,
Mohi Kan’on taxtig‘a bois mazallat chohidur.

Ey Navoiy, men xud asrabmen g‘ami ishqin nihon,
Aylabon zohir ko‘ngulning nolai jonkohidur.

159

Toza sarve bog‘ aro, derlarki, noz og‘oz etar,
Har dam ani ko‘rgali ko‘nglum qushi parvoz etar.

Nozining ovozasi o‘lturdi, oh, ul vaqtdin
Kim, ani ko‘z birla ko‘rsamkim, ne yanglig‘ noz etar.

Ko‘rmay andoq zormenkim, rashk o‘ti aylar halok,
Gar ko‘ngul jonimni ishqil sirrida hamroz etar.

Ozu ko‘p demay g‘idosi ayladim, bilman, hanuz,
Kim jafomu ko‘p etar, yoxud vafomu oz etar.

Qilg‘amen damsozlig‘ hajrida ming yil jon bila,
Anglasamkim, vaslida bir dam meni damsoz etar.

Ko‘z bila jon pardasin ko‘nglum muhayyo ayladi,
Go‘yiyo qo‘yg‘ach qadam kulbamg‘a poyandoz etar.

Charx mehru kiynasidin ne aziz o‘l, ne zalil,
Nechakim gohe seni izlolu gah e’zoz etar.

Dayr pirining muridimenki, har yon qilsa azm,
Rindlardin may ko‘tarmakka meni mumtoz etar.

Ey Navoiy, istiqomat yo‘q chu davron tab’ida,
G‘am yema gar goh mehru, goh sitam og‘oz etar.

160

Ul o‘tlug‘ chehrag‘a zarbaft xil’at ne yarashibdur,
Magar xil’atqa ul yuz lam’asidin o‘t tutashibdur.

Falakning borgohig‘a ko‘moch o‘lmish quyosh jirmi,
Anga ohim sutundek dudi mundoqkim ulashibdur.

Maloyik qushlari g‘am shomi qo‘zg‘almoq tong ermaskim,

Yetibdur ko'kka yuz ohim xadangi, balki oshibdur.

Balo dashti aro yuz ming o'luktur onda qotil ishq,
Xirad mag'lub xayli birla go'yokim savoshibdur.

Labingdin jon topay deb, ko'p talashti hajr aro ko'nglum,
O'lar holatda ul bemordekkim jon talashibdur.

Qadahqa boda taryokini quy toshquncha, ey soqiy
Ki, g'am zahri bila jomim to'luptur, balki toshibdur.

Navoiy gar labi yodi bila qon yutdi, jon tutdi,
Tabibo, bilki, bu sharbat anga behad yarashibdur.

161

Lojuvardiy qoshing uzra zarvaraq tobomudur?
Yo magar ko'k toqi uzra anjumi raxshonmudur?

Zulfimu ohim yelidin sovurur olamg'a mushk,
Yo sabo tahrikidin sunbul abirafshonmudur?

Xo'y chakon orazmudur, yo husni bandi zulf aro,
Yuz asir o'lg'an ko'ngullar holig'a giryonmudur?

Zarvaraqdin shu'lalardur har taraf ruxsorig'a,
Yo ul o'tlug' yuzda har yon bir ko'ngul so'zonmudur?

Hajri zolim shomi kavkabdinmu giryondur manga
Yo aning subhi g'arib ahvolima xandonmudur?

Eyki, mayli jannat etmassen mening ko'nglum kebi,
Notavon ko'nglung birov ko'yida sargardonmudur?

Bo'ldi qaddi yo Navoiyning, yuzi chun zarvaraq,
Lojuvardiy qoshing uzra zarvaraq tobomudur?

162

Ul quyoshtin ayru o'rtangan ichimda qayg'udur,
Ko'ngul ichra su kebi qon ko'z aro qondek sudur.

Tishlaringni sog'inib ko'p yig'larimdin ko'z yoshim
Bir-biri keynicha andoqkim tizilgan injudur.

Ko'z yoshim ichra yorug' ko'nglum qorong'u bo'lg'ali
Tong emas, nevchunki ul yoshlarg'a tushkan ko'zgudur.

Ul tugankim telbarab itkan ko‘ngulga o‘rtadim,
Qay sari borsa ul oyning qullug‘ig‘a bilgurur.

Ko‘zuma kelmas ochuq kelganda ul yuz ollima,
Oncha yaxshi anglamas ko‘zkin, quyoshqa o‘trudur.

Qayg‘u o‘lturdi meni, tutqil ayoqchi to‘stag‘on
Kim, chog‘ir qayg‘uni o‘lturmakka achchig‘ og‘udur.

Deb eding, olg‘um Navoiy ko‘nglin, olg‘ach o‘rtading,
Yaxshilar olmoq yomonlar ko‘nglini mundoqmudur.

163

Dud yanglig‘ dema, ko‘nglum ohi dardoludidur
Kim, ko‘ngul uzra tigan qo‘yg‘an fatilam dudidur.

Abri hasrat yomg‘iriyu tiyriboroni fano,
Kisvati mavtu halokim xirqa toru pudidur.

Dard naqshin qildi har dog‘im uza sultonli ishq,
Ul diramlarning bu go‘yo sikkayi behbudidur.

Ishqning savdosi jonimg‘a ziyondur demakim,
Har kishi mundoq ziyon ishq ichra qilsa sudidur.

Xo‘blar ko‘yida istig‘no yelidin har g‘ubor
Kim, qo‘par bir notavonning jismi g‘amfarsudidur.

Javhari jonim olib tut jur’ae, ey mug‘bacha
Kim, bu naqd ahli fanoning budiyu nobudidur.

Der Navoiy bo‘lsa mug‘ dayrida mastu jomachok
Kim, tirigliktin bu sultonlig‘ aning maqsudidur.

164

Ko‘k binafshazorini anjum chu nargiszor etar,
Nargising birla binafshang hajri ko‘nglum zor etar.

Chun Zuhal toli’ bo‘lur xoling xayoli fitnadin,
Jonom ichra yuz ming oshubi balo izhor etar.

Jilva qilg‘ach Mushtariy, ko‘zni uzoring yodidin
Yuz saodat axtaridin har zamon durbor etar.

Chun chiqar Bahromi qotil, ko‘zlarining andishasi
Xasta jonomni qatili xanjari ozor etar.

Mehrdin topmay nishone senda ham, gardunda ham,
Bu musibat ko‘zuma yorug‘ jahonni tor etar.

Zuhra holimg‘a surudin navhag‘a anlab badal,
Changining sochin yonib, durri sirishk izhor etar.

O‘limgim anglab Utorid holima deb marsiya,
Sharhi dardim nazmidin har lahza yuz tumor etar.

Oy halokimga tutub motam, kiyib tundin qaro,
Orazin sill bila ahli azokirdor etar.

Tiyya aylab benihoyat kecha umrum sham’ini,
Vasl subhi hasrati ranjim yuz ul miqdor etar.

Rostlig‘ uldurki yetkach ul quyosh rahm aylagay,
Ulcha ahvolimg‘a har tun charxi kajraftor etar.

Ey Navoiy, ishq dardidin shikoyat qilmakim,
Joningga javru jafosin har nechakim bor etar.

165

Netib tuz etay qadkim, jiisminda shikanlardur,
Naylab tuz uray damkim, bag‘rimda tikanlardur.

Tirnog‘ ila xatlarkim ruxsorim uza chektim,
Yuz bog‘ida gullardin har sari chamanlardur.

Yuz yoptiyu jon oldi, ochqanda ravon oldi,
O‘lturgali oshiqni bilman bu ne fanlardur.

Zulfungda tugun ermas, ko‘yungda g‘ubor ermas,
Aftoda ko‘ngullardur, farsuda badanlardur.

Yuz ahd ila mahvashlar ko‘nglumni olib, emdi
Qatl ayladilar asru bad’ahd ekanlardur.

Mayxonada har sari bir mastki, bosh qo‘ymish,
Kirpichlari go‘yokim jonlarg‘a vatanlardur.

Jismida Navoiyning har momuq ila marham,
Bir necha o‘qung zaxmi bir necha tiganlardur.

166

Yuzungdek qamar yo‘qtur, qadingdek shajar yo‘qtur,

Shajar bo'lsa ham anda, labingdek samar yo'qtur.

Ko'zum ashkining rudi oqar tezu tund andoq
Ki, gar uyqu ko'z sari kelur ham guzar yo'qtur.

Otin tutalar nogoh ketar uyla hushumkim,
Badan ichra ruhumdin, degaysen, asar yo'qtur.

Ko'ngul so'rg'ali keldi, tabibo, muni bilkim,
Ul ovoradin sendek manga ham xabar yo'qtur.

Yo'lungga nisor ashkim, agar oz erur gar ko'p,
Itingg'a g'izo ko'nglum, agar bor, agar yo'qtur.

Bu gulshanda, ey dehqon, necha ozmun ettim,
Vafo naxli ekkanga bajuz g'ussa bar yo'qtur.

Navoiy firoqingdin aningdek zaif o'ldi
Ki, o'mida el boqsa degaylar magar yo'qtur.

167

Ul savodi xatmudur yo sabzayi jannatmudur?
Yo quyosh uzra yozilg'an oyati rahmatmudur?

Buki sensiz kuydurur jonimni bilman yaxshikim,
Yuz tomug'ning o'timu yo shu'lani furqatmudur?

Eyki dersen lablarimdin hojating nedur, degil
Men — susiz, ul chashmayi hayvon demak hojatmudur?

Demakim ne erkin ul oyning quyoshqa nisbati,
Bir-biriga ikkisin o'xshatqucha nisbatmudur?

Qaddini ko'rgach ham o'ldum, ham tirildim ollida,
Rost gar dersen qiyomat de ani qomatmudur?

Da'viyi himmat qilib ulkim tilar olamda joh,
Qilmoq oluda najosatqa o'zin himmatmudur?

Gar Navoiy mehnati hijronda o'ldi ayb emas,
Yuz tuman muhlik balo degil ani mehnatmudur?

168

Ko'zung sarfitnayi olam tushuptur,
Qoshingdek bir yangi oy kam tushuptur.

Sepibsenmu gulob ul yuzga yoxud
Guli suriy uza shabnam tushuptur.

Ko'ngullar zaxmidin solib chekarga,
Magar qoshing uchig'a xam tushuptur.

Labing hajrinda bag'rimdin borur qon,
Magar ul zaxmdin marham tushuptur.

Emas yeldinki sayri bog' etarda
Ayog'ingg'a suman gul ham tushuptur.

Iting sing'an safolida may ichsam,
Ne tong ilgimga jomi Jam tushuptur.

Navoiyni qovub istar raqibin,
Gado mahrumu it mahram tushuptur.

169

Yana hamdamim shulayi g'am bo'luptur,
G'amim shu'lasi jong'a hamdam bo'luptur.

Ko'ngul pardasi ustida dog'i ishqing,
Bu tug'ro uza naqshi xotam bo'luptur.

Qilib xoki ko'yungni balchiq sirishkim,
Tutashqan yalang tang'a marham bo'luptur.

Netib kuymayinkim g'aming kovkovi
Yetibtur, ko'ngul uyi barham bo'luptur.

To'luptur ko'ngul ishqing o'qidin andoq
Ki, ko'p o'q dag'i o'qqa muhkam bo'luptur.

Tutub bir qadah anglat, ey dayr piri
Ki, bu korgah sirri mubham bo'luptur.

Navoiyg'a rahm aylagil, ey pariyyash
Kim, ul telba rasvoysi olam bo'luptur.

170

Furqat ichra sharbati la'ling visoli kam bo'lur,
Garchi derlar: talx daryoda chuchuk su ham bo'lur.

Zulfu ruxsoring g'ami ne tong buzug' ko'nglum aro,
Ajdaho gar bo'lsa vayron ichra, mahzan ham bo'lur.

Ko'ksuma otsang bir o'q, ot yona bir yonindakim,
Ul dag'i ko'nglumni shod aylar, bu ham muhkam bo'lur.

Ul pariy ishqin maloyikdin yoshursam ne ajab,
Dardi yo'qlar dard ahlig'a qachon mahram bo'lur.

Ohu ashkimdin shikoyat ko'p qilur hamsoyakim,
Dud ravzandin kirar uyning binosi nam bo'lur.

Gar egilsa qomatim ishqing yukidin, qilma ayb
Kim, sipehr uzra bu og'ir yukni qo'ysang xam bo'lur.

Olam ahlidinkim, ul oyni Navoiy tanladi,
Bilmadikim ishqidin ovorayi olam bo'lur.

171

O'tlug' yuzidin ul oykim burqain oliptur,
Kofirlig'in ko'rungkim, mushafqa o't soliptur.

G'am yo'qliki, ko'yi gardin ko'zlardin oh uchurdi
Kim, ashk balchiq etkan bir go'shada qoliptur.

Sabrim sipohu hayli kirpiklari safidin,
Qo'rgach ko'zi qorasin, har sari qo'zg'aliptur.

Ko'hi g'amini ko'nglum chekkanda ko'rmadi ranj,
Hajring g'ami yukining ostida tavshaliptur.

Islomu, aqlu dinim naqdini so'rmangizkim,
May vajhig'a bu bori dayr ichra sayg'aliptur.

Noyu nafir unidin mag'rur bo'lma, ey shah,
Kim bu navoni tuzgan ko'si fano chaliptur.

Ul gul payomini yel dey olmas, ey Navoiy,
Yo'l po'yasidin aning bag'ri magar toliptur.

172

Qachonkim bodano'shum may icharga iztirob aylar,
Burunroqkim, o'zin mast aylagay, bizni xarob aylar.

Guli ruxsorini may shabnami aylab taru toza,
Latofatda quyoshning chashmasin beobutob aylar.

Meni g'amgin qayon gom urmog'im g'am dashtida so'rmang,

Quyunni kimsa anglarmuki, qay sari shitob aylar.

Tilib bag‘rimni ishqing tig‘i hajring o‘qig‘a tevrab,
G‘amim bazmi uchun ko‘nglum o‘ti ichra kabob aylar.

Har ohim dudikim, ko‘k sari azm aylar, ani ishqing
Balo selobi kelturmak uchun mushkin sahab aylar.

Degil umrum quyoshi hajri shomida bo‘lur g‘orat,
Qachonkim orazing xurshidi zulfungdin niqob aylar.

Mazohirdin jamoling mehri gar zohirdurur tong yo‘q,
Qachon zarrot xayli man‘i nuri oftob aylar.

Qulimen dayr piriningki, pinhon ishqim anglabtur,
Agarchi mug‘bacha hamdamlig‘imdin ijtinob aylar.

Navoiy, xonaqah do‘zaxcha bordur, shayx anga molik,
Ne tong gar andag‘i elga nasihatdin azob aylar.

173

Har gahki qadahno‘shum mayli mayi nob aylar,
Mujgon o‘qig‘a shishlab bag‘rimni kabob aylar.

Hajrim tuni bedodin anglar kishikim, har tun
To subh birov yodi jonig‘a azob aylar.

Kech kelmagidin o‘lsam jononning emas tongkim,
Ul umr darang aylar, bu umr shitob aylar.

Betob ko‘ngullardin qon oqsa ajab ermas,
Mashshota aning zulfin bu nav‘ki tob aylar.

Hay qatralari yuzdin la’lingg‘a bo‘lub moyil,
Jonim uchun ul mayg‘a mamzuj gulob aylar.

Bu dayrda ayb etma, gar masti xarob o‘lsam
Kim, har ne imoratdur, dahr ani xarob aylar.

Mast ayla Navoiyni, anglay der esang komin,
Vasling tama‘in hushyor aylarga hijob aylar.

174

Jong‘a yo‘q ko‘nglumdinu ko‘nglumga yo‘q jondin xabar,
Menga ne o‘zdin xabar, ne ko‘nglum olg‘andin xabar.

Uyla masti nozdur ul sho‘xkim bilmas o‘zin,
Ne ajab gar yo‘q anga men zori hayrondin xabar.

Voizo, do‘zax o‘ti dog‘in o‘garsen angladim
Kim, senga yo‘qtur hamono dog‘i hijrondin xabar.

Garchi qosid labzi jonafzo edi, lekin meni
Qildi jondin bexabar, gar qildi jonondin xabar.

Uyla mahvung bo‘lg‘an ermishmenki, bo‘lmaydur manga
Zaxm aro paykonlaringni tortib olg‘andin xabar.

Soqiyo, davr ahli javri sa’b erur, mast et meni
Ul sufatkim, bo‘lmaq‘ay o‘lguncha davrondin xabar.

Ey Navoiy, shoh lutfidin ko‘ngulni jam’ tut,
Gar parishon kelsa bok ermas Xurosordin xabar.

175

Qosidekim yetkurur ko‘nglumga jonondin xabar,
Uyladurkim bergay o‘lgan jismg‘a jondin xabar.

Dema hajrimdin xabarsizmu ekansenkim, menga
Bor edi o‘lmaktin, ammo yo‘q edi andin xabar.

Ne ajab ochilsa ko‘r o‘lg‘an ko‘zum Ya’qubdek
Kim, nasimi subh berdi mohi Kan’ondin xabar.

Shodmen go‘yo firoq ayyomi bo‘ldi murtafi’
Kim, habibim kelmagiga yetti har yondin xabar.

Ohu ashkimdin xabarsiz bo‘lmang, ey olam eli
Kim, berurlar ul biri sarsar, bu to‘fondin xabar.

Soqiyo, quy davr ayog‘in, o‘ylakim no‘sh aylasam,
To qiyomat topmag‘aymen ahli davrondin xabar.

Ey Navoiy, tong yo‘q o‘lsamkim, o‘tuptur necha kun
Kim, menga yo‘q ne ko‘ngul, ne ko‘nglum olg‘andin xabar.

176

Quydi ko‘ngulki, qolmadi ashkda qonidin asar,
Qon demayinki, ko‘zda ham ashki ravonidin asar.

Hush asari yo‘q erdi gar elga ko‘ngul fig‘onidin,
Ohki, qolmamish aning emdi fig‘onidin asar.

Boshig‘a, ey Masih, yet xastangniki qolmamish
Jonda hayotidin ramaq, jismda jonidin asar.

Yuz quyosh o‘lsa ketmagay yer yuzidin qorong‘uluq,
Qirsa jahon aro ko‘ngul hajri zamonidin asar.

Bo‘lg‘ay ulus aro ul o‘t birla qiyomat oshkor,
Bo‘lsa bu joni zorning ohi nihonidin asar.

Gum bo‘l agar visolning tolibisenki, topmag‘ay
Kimki fano yo‘lidadur nomu nishonidin asar.

Bordi, Navoiyo, aning ko‘yiga yaralig‘ ko‘ngul,
Ko‘rgil agar inonmasang yo‘l uza qonidin asar.

177

Bizga jahon bog‘idin ul sarvi gulandom yetar,
Ul chu yetar soyayi sarvu mayi gulfom yetar.

Bazm bu nav’ o‘ldi esa nuqli hadisin demakim,
G‘uncha bila nargisidin shakkaru bodom yetar.

Din ulusi qatli uchun kufr eli hojat emas,
Ey falak, ish gar budur ul ofati islom yetar.

Har nafas, ey ishq, aning dardi o‘tin ko‘ngluma yoq,
Bo‘lsa bu marham chu aning ranjig‘a orom yetar.

No‘shi visoling bila ahbobni qil komravo
Kim, menga darding mayi xunobasidin kom yetar.

Tog‘ kebi tort qanoat etagi ichra oyog‘,
Davri falakdin senga bir qurs agar shom yetar.

O‘tti ko‘p ayyomu Navoiyg‘a ishing fitna edi,
Muncha-o‘q, o‘lg‘ay sitam, ey fitnayi ayyom, yetar.

178

Yori birla boda ichkan no‘shi jondurkim, ichar,
Yorsiz no‘sh ichsa rangin boda qondurkim, ichar.

Har kishikim bazmida soqiy erur no‘shinlabe,
Javridin gar qon ichar, la’li ravondurkim, ichar.

Xizr umriyu Skandar mulki topqan yorsiz,

Obi hayvon ichsa, zahr begumondurkim, ichar.

Hajr aro bexud bo‘lay deb ko‘nglum istar jomi may,
Demangizkim, soqiy ul nomehribondurkim, ichar.

Ey sabo, g‘avg‘odurur bog‘ ichravu mahrummen,
Go‘yiyo mahramlari birla falondurkim ichar.

Xonaqahda boda ichkan emin ermas shayxdin
Kim, fano dayridadur dorul-omondurkim, ichar.

Ey Navoiy, har dam ar qon ichsa ko‘nglum qilma ayb,
Bodayi la’lidin ul oyning nishondurkim, ichar.

179

Ko‘ngluma hajringda jannat gulshani zindon erur,
Ko‘zuma sensiz gulafshon bog‘ xorafshon erur.

Daf’ a-daf’ a gul sochilmaydur gulafshon bog‘ida
Kim, mening gulgun yoshimdin qatra-qatra qon erur.

Bahru tog‘ etmang gumonkim, ul biri ko‘zumga yosh,
Bu biri ko‘nglumga dardu mehnati hijron erur.

Dema bir damda bulut ko‘kni ne nav’ aylar nihon
Kim, bu mushkil dudi ohim ollida oson erur.

Buki har yon chaqilur barqu g‘irev aylar bulut,
Ko‘ngluma ul shu’la ohu bu biri afg‘on erur.

Yo‘qli, turmas bir zamon yomg‘urki, bir oy hajridin,
Ashkbor ikki ko‘zum selobidin to‘fon erur.

Aqlingiz bor esa qilmang yor hajrin ixtiyor
Kim, bu ishni ulki qildi men kebi nodon erur.

Kim mayi vasl ichtikim, hijron xumorin chekmadi,
Xorsiz gul dahr bog‘i ichra ne imkon erur.

Do‘stlar, qilmang Navoiyg‘a nasihatkim bu kun
Hajr dardidin bag‘oyat besaru somon erur.

180

To‘rt rangi muxtalifdin hullakim, jonon kiyar
To‘rt unsur kisvatidur go‘yiyokim jon kiyar.

O‘zbakiy gulg’ori to‘ndin kuydum, ammo o‘lturur,
Lemuyiy terlik aning ostidakim, jonon kiyar.

Ikki yonimni shikof aylapturur bu rashkkim,
Ikki yonidin shikofin bog‘lamay qapton kiyar.

Gul bila savsan katon yanglig‘ bo‘lur mahtob aro,
Ko‘nglaki gulgun yelak chun savsaniy katton kiyar.

Oraz uzra sho‘xluqdinmu yopar sanjobini,
Yo‘qsa sanjobi bulutdurkim mahi tobon kiyar.

Har chubulg‘an toridur sarrishtayi izzu sharaf,
Eski sholekim, fano ko‘yida bir uryon kiyar.

Gar Navoiy jandasin shoh oldi, tong yo‘q, chunki ishq,
Poku beg‘ashdur gadoning kisvatin sulton kiyar.

181

Kimki aning bir malaksiymo pariyvash yori bor,
Odamin bo‘lsa, pariy birla malakdin ori bor.

Kecha ulkim chirmanur bir gul bila ne tong, agar
G‘unchadek har subh o‘lub xandon nashot izhori bor.

Yo‘q ajab bulbulg‘a gul shavqidin o‘lmoq zorkim,
Pardin-o‘q jismig‘a sanchilg‘an adadsiz xoribor.

Belingu la’ling xayoloti bila ko‘nglum erur,
Ankabutekim aning jon rishtasidin tori bor.

Sunbuli zulfi agar oshuftadur, ayb etmakim,
Gul yuzida yotqan ikki nozanin bemori bor.

Aylab o‘zni mastu bexud chiqmasun mayxonadin,
Kimki, mendek davr elidin ko‘nglida ozori bor.

Ey Navoiy, yor uzar bo‘lsa muhabbat rishtasin,
Kelmas o‘lsa ul sening sari, sen aning sari bor.

182

Yuz olman yo‘lidin qatlimg‘a chun tashrif yor eltur,
Namoz ichra o‘lumluk maks etardin ro‘zgor eltur.

Qachonkim masti loya‘qil chiqar, vahkim, anga berman
Ko‘ngulni ixtiyorim birla ul beixtiyor eltur.

Itiga tu'ma darboyist bo'lg'ay deb qayon borsa,
Ko'ngul saydini fitrokiga anlab ustuvor eltur.

Mening majnunlug'umni ul pariy ishqida man' etmang
Ki, aqli kulli savdo dashtig'a devonavor eltur.

Shabistonningda anjum mahramu kun bo'lg'ali mahrum,
Bu gul-gul ochilib har kecha ul bir xor-xor eltur.

Nasimi subh xayli sunbuli zulfungni tarqatqach,
Savodi tuncha mushki sudadin har yon g'ubor eltur.

Yuzu zulfung tilab bog' ichra ohim otashin guldin,
Uzar yafrug'lar o'tdin dud andoqkim sharor eltur.

Meni mayxonag'a bording debon yozg'urma, ey zohid
Ki, usruk shahnadek ulyon qazo ilgi tutar eltur.

Qazo narrodi ko'k tosinda oy-kun ka'bataynidin,
Dushash naqshi bila el naqdi umrin beshumor eltur.

Navoiy qatlig'a chun va'da qilding, vafo qilkim,
Yo'lungda telmurub umredururkim intizor eltur.

183

Sarig' libos aro ul no'shlabki, xandondur,
Erur Masihki, xurshid ichinda pinhondur.

Libosu jism ila ul gul'uzor ko'rguzdi,
Xazon ichida bahoreki aql hayrondur.

Libosi o't kebi asfar, tani hayot suyi,
Ajoyib o'tki, arosinda obi hayvondur.

O'shul dur orzusidinki, zarvaraq kiymish,
Yuzumnung oltunida durri ashk g'altondur.

Firoq dashtidag'i lolalar sarig' butmish,
Magarki dog'lari barcha dog'i hijrondur.

Yuz ul etakdin agar olmasam ne tongki, somon
Chu qahrabog'a yetar, qo'ymog'i ne imkondur.

Sarig' yuzumdek etib subh o'zin sog'indikim,
Sovug' nafas bila mehrin yoshurmoq osondur.

Navoiyg‘a berur el pandu ul muni derkim,
Sarig‘ libosi falon sho‘xning ne chaspondur.

184

Xasta ko‘nglumningki, zulfung shomida oromi bor,
Bo‘lsa beorom tong ermaksi, muhlik shomi bor.

Ro‘zgori mendek o‘lsa tiyra, subh ermas ajab,
Bir quyosh hijronidin ulkim qarong‘u shomi bor.

Ul pariy tong yo‘q maloyik qushlarin sayd aylamak,
Yel havog‘a uylakim oshufta qilg‘an domi bor.

Qaddu andomim ushaldi jilvasidin, do‘stlar,
Vah, ne dilkash qomatu ne dilfireb andomi bor.

Har kishikim nomu benang o‘lsa, kirsun dayr aro,
Xonaqah tutsun g‘animat, ulki nangu nomi bor.

Og‘zig‘a olmas tahuro sharbatin, ey mug‘bacha,
Har kishikim bodayi la’li labingdin komi bor.

Telba deb qovma yalang ko‘rsang Navoiy jismini,
Ne uchunkim Ka’bayi ko‘yung sari ehromi bor.

185

Ko‘ngul ko‘zlar yo‘lin tutmoqqa hajringda shitob aylar,
Birin tutquncha birning sayli olamni xarob aylar.

Qazo tashbih etarga orazingg‘a charx bog‘idin,
Agarchi o‘xshamas bir-ikki gulni intixob aylar.

Ul oy hajri shikanjida tanobi zulfi yodidin,
Falak o‘z davri hanjori bila jismimni tob aylar.

Ko‘karturga muhabbat dashtin ashkim yamg‘uri birla,
Har ohim dudidin ko‘k bir bahoroyin sahob aylar.

Ko‘ngulga hajr zaxmikim urub o‘zdin yiroq solding,
Bo‘g‘uzlab tashlag‘an qushdek to‘kub qon, iztirob aylar.

Ketur, ey hurvash soqiy, mayi kavsar zulolidek
Ki, do‘zaxdek xumori hajr jonimg‘a azob aylar.

Qulimen dayr piriningki, jurmum behisob o‘lsa,
Hisob etmas, vale ehsonu lutfin behisob aylar.

Erur kosib habibulloh vale qilg'an fano kasbi,
Yo'q ul kosibki, dunyo molu johin iktisob aylar.

May ichra g'arqadurmen to boshimda may havosidur,
Qani rindki may uzra tamoshoyi hubob aylar.

Sanga maqsud agar haqdur, ulustin kechki, bu yo'lda
Topar maqsudin ulkim mosivodin ijtinob aylar.

Navoiy ul ko'zu labning xarobidur, ajab ermas,
Agar mast o'lg'ali har dam havoyi la'li nob aylar.

186

To dayr ichinda mug'bachalardin nishonadur,
Ey piri dayr, boshimu bu ostonadur.

O'zdin borib fig'onim emas tongki, dayr aro,
Har sari boqsa zamzamayi bexudonadur.

Gah piri dayr bois erur, goh mug'bacha,
Yo'q-yo'qki, boda komimu ul-bu bahonadur.

Dayr ichra yo'q safol ila oltun qadahda farq,
Shohu gado teng o'ldi ajab korxonadur.

Asrori vahdat ista xarobot piridin
Kim, shayx va'zu pandi fusunu fasonadur.

Gar ko'nglum ichra soqiyu may o'rt solmamish,
Har lahza ohidin bu ne o'tluq zabonadur.

Ul umr bir zamonlig' erur, istama vafo,
Afg'onki, ul ham uylaki ahli zamonadur.

Ko'zdin sochildi ashku ko'ngul o'ti berdi bar,
Ul nav' o't chiqardi ajab tavr donadur.

Otashgah etti kufr eli ko'nglum uyini magar
Kim, umr o'tti o'chmay ul o't anda yonadur.

Istar Navoiy o'zni mayu ishqdin xalos,
Moni' valek soqnyu jomi mug'onadur.

187

To turrasi torinda har sari tugunlardur,

Za'f ichra so'ngaklardin har sari bo'g'unlardur.

Daryovu bulut ermaskim, oh ila ashkimdin,
Ham yer yuzida ko'llar, ham ko'kta tutunlardur.

Shak yo'qki, yorutqaysen kulbamdag'i zulmatni,
Hajringda manga, ey on, bilsangki, ne tunlardur.

Ovoravu sargardon ishq ahlig'a boq har yon
Kim, vodiyi dard ichra ne nav' quyunlardur.

Bo'rk o'rnida bosh eltur, naqd o'rning'a jon olur,
Atfoli g'amming ichra bas turfa o'yunlardur.

Jismimda tuganlarni ayb aylama, ey zohid
Kim, sabr iligi tikkan xirqamda yurunlardur.

Ichkanda Navoiy may dayr ahlig'a sur o'l mish,
Solg'il qulqoq, ey nosih, ul yonki ne unlardur.

188

Ko'z qonidin dema, etagim lolavordur
Kim, ko'hi dardning etagi lolazordur.

Har lola bir axgar erur, lek siynaso'z,
Qay ko'hi dard aro bu sifat lola bordur.

Bir gul yuzi firoqida xunobi ashk ila
Yuz za'faroni ichra ko'zum lolakordur.

Ey poymol etarlar uzub dashtu tog' aro,
Baskim, yuzung guli qoshida lola xordur.

Qon ichra g'arq bag'rim aro dog'u dasht uza,
Bekasligim chog'ida manga lola yordur.

Soqiy, ketur surohiy ila lolagun qadah,
Xossa bu damki subh yeli lolabordur.

Tegramda ohdinki erur, ey Navoiy, o't,
Ko'z qonidin dema, etagim lolavordur.

189

Harorat jonima ul otashin la'li axgarindindur,
Anga taskin ham ul yuz ravzasining kavsarindindur.

Sochingning tiyra shomidin yuzung subhida yo‘l topmoq,
Banogo‘shungdag‘i durri shabafro‘z axtarindindur.

Tahuro bodasi derlar erur jonbaxshu ruhafzo,
Magarkim choshniy ul mayg‘a la’ling sog‘arindindur.

Shabiston subhi davlatdin yorug‘roq bo‘lsa tong ermas
Ki, partav anda ul ruxsor sham‘i anvarindindur.

Yuzung ochqach shamimi lutf olam ichra butratding,
Magar bu atr ul o‘t uzra xoling anbarindindur.

Bahor ayyomini besh kun g‘animat angla, ey bulbul
Kim, muncha so‘zu tobing otashin gul mijmarindindur,

Navoiy, qilmag‘il bas nazm birla durfishonlig‘kim,
Maoniy bikrig‘a zevar hadising gavharindindur.

190

Ikki ko‘zumki dardu balo jo‘yboridur,
Ohim buxoriy ustida abri bahoriydur.

Ushshoq tiyra axtari har yon shafaq aro,
Go‘yo sipehr sabzasining lolazoridur.

Bilmay deding uzulmish ekan subhayi aqiq,
La’ling g‘amida qon kebi ashkim qatoridur.

G‘am gulshanida qaddim erur ul yag‘ochkim,
Paykonu bori hajring aning bargu boridur.

Har kimki Yusufum g‘amidin o‘ldi dasht aro,
Har tun magar bo‘ri ko‘zi sham‘i mazoridur.

Bu dasht tufrog‘in dema mushkinki, har ovuch
Bir mushkbo‘ g‘izola tani xoksoridur.

Bergil tutub piyola Navoiyg‘a ruhkim,
Jonin yeturgan og‘zig‘a la’ling xumoridur.

191

Jonda ishqing bo‘lg‘usi, to tanda jon bo‘lg‘usidur.
Tanda jondek jon aro ishqing nihon bo‘lg‘usidur.

To tirikturmen ichiga jola tushkan g‘unchadek,

Xasta ko‘nglum durri ishqingg‘a makon bo‘lg‘usidur

Dardu ishqing dog‘i ul soatki o‘lsam jon aro
Jonning ikki nuqtasi yanglig‘ nishon bo‘lg‘usidur.

Qildi ashkimni shafaqgun hajr bepoyon tuni,
Xullasin chek tongning, ey gardunki, qon bo‘lg‘usidur.

Ul Masih anfosi jonbaxshu labi hayvon suyi,
Olloh-olloh, necha jonim notavon bo‘lg‘usidur.

Mehr sham‘i dudidin qissamni yoz, ey charxkim,
Ziynati avroqing ushbu doston bo‘lg‘usidur.

O‘qidin ko‘nglung qachong‘a tegru zaxm o‘lg‘ay demang,
To bu qush bo‘lg‘usidur, ul oshyon bo‘lg‘usidur.

Gul qulog‘in chun og‘ir qilmish kirib shabnam suyi,
Necha, ey bulbul, ishing doim fig‘on bo‘lg‘usidur.

Ey Navoiy, ko‘kka tegru dardi ohimdin shikanj,
Yetkali ul oyg‘a go‘yo nardbon bo‘lg‘usidur.

192

Donayi ashkimki, yog‘mog‘lig‘ bila afsonadur,
Tuxmi mehrin ekmak uchun ham yog‘in ham donadur.

Ishq komil bo‘lsa, ma’shuq arg‘uvonhad bo‘lmasun,
Qahrabo sham‘ig‘a harkahbarg bir parvonadur.

Shishadek ko‘nglumki, to‘lmish bodayi hajring bila,
Go‘yiyokim o‘limgim uchun to‘la paymonadur.

Ishq atfoli ko‘rub kog‘azda Majnun suvratin,
Qildilar g‘avg‘o, gumon aylabki bu devonadur.

Dahrning begonavash zolig‘a bo‘lma oshno
Kim, seni to oshno etti o‘zi begonadur.

Ul sanam ko‘yida kunduzgum kecha soyir ko‘ngul,
Shapparedurkim anga kunduz maqrar butxonadur.

Ey Navoiy, mujibi sargashtalik ermish junun,
Ichkali bu mayni har soat boshim aylanadur.

193

Markab ermaskim sabo mandonda gardangiz erur,
Rokib ermas, bargi guldurkim, sabodin tez erur.

Tashladi har yon ulus jonini sargardon qilib,
Girdbodi fitna go‘yokim g‘uborangiz erur.

Na’l emas ravshan hilole el ko‘zin yorutqali,
Po‘yada har sari shabrangiga dastovez erur.

Rokibu markab yuzu a’zosidin termu oqar,
Yo bulut durbor o‘lub, xurshid anjumrez erur.

Bodayi gulgun keturkim, shomi hijron men kebi,
Yuz tuman Farhodni past aylagan Shabdez erur.

Oshiqib terlab ilojimg‘a yetishting, ey Masih,
Ne ajab gar sharbati la’ling gulob omez erur.

Gar yana mast otlanib ko‘nglakcha javlon qilmadi,
Bas quloq sol shahr sarikim, ne rustoxez erur?

Hiyla ojizlig‘din aylar oshiq, angla, ey ko‘ngul
Kim, zabunroq ishq aro Farhoddin Parvez erur.

Ey Navoiy, yor agar mayxoradur yuz qatla shukr
Kim, emassen porsovou xasta ne parhez erur.

194

Ne lo‘liyvashdur ul qotilki, qon to‘kmakkadur yaksar
Qiyo boqmoqlari poki itik, mujgonlari-nishtar.

Yuzidinkim xijildur gul, parishon har taraf kokul,
Sochib gulbarg uza sunbul, to‘kub kofur uza anbar.

Yugurmaklikda har gunbadi sekrir ul mahi gulxad,
Guli mehr oldarar behad uyolur gunbadi axzar.

Chu la’b asbobini tuzdi, salomat rishtasin uzdi,
Qamardek hola ko‘rguzdi, uzori davridin chambar.

Libosi nozi chaspondur, gahe tuz qaddi chavgondur,
Zamone go‘yi g‘altondur, zihi chobuk, zihe dilbar.

Boshig‘a siym o‘lub parron, tushub girdig‘a anjumson,
Tulu’ etkan kebi har yon, qamar atrofida axtar,

To‘kub qon nishi g‘am birla, ochib maydon sitam birla,
Olib tablu alam birla, ko‘ngullar kishvarin yaksar.

Junun sham’in qilib ravshan, ko‘ngulga telbalikdur fan,
Pariydek bo‘lg‘ali parranda, ul sho‘xi pariypaykar.

Navoiy bo‘ldi lo‘liyvashki, kelmish anga lo‘liy xush,
Qani bir jomi lo‘liykashki, lo‘liy tutsa bir sog‘ar.

Tama’ qilma falakdin komkim, xanjar qilur oshom
Yangi oy shaklidin har shom ul lo‘liyi boziygar.

195

Menda bir o‘tdurki, gar dam ursam aflok o‘rtanur,
Asrasam ko‘nglumda jonu jismi g‘amnok o‘rtanur.

Mehr emas ohim o‘tidnn ko‘kka yetmish bir sharar,
Ayb emastur gar desam, dam ursam aflok o‘rtanur.

Bas tanim o‘rtarga qonlig‘ novaking, hijronni qo‘y,
Barq ne hojat, bir uchqun birla xoshok o‘rtanur.

Sham’ o‘ti mohiyatin anglay degan parvonadek,
Orazing mehrini fahm aylarda idrok o‘rtanur.

Ishq aro ko‘nglum necha tolpinsa, ortar shu’lasi,
O‘tqa tushkan telba qilg‘an soyi topok o‘rtanur.

Ashk yub jismim kuduratdin, qurutmish oh o‘ti,
Lam’ae tushgach uzoring barqidin pok o‘rtanur.

Ey Navoiy, chun rutabdek otashin la’li aro
Xasta ko‘nglum tushti, tong yo‘q, gar bo‘lub xok o‘rtanur.

196

Bu toza tugankim g‘amidin ko‘nglum oradur,
Ko‘nglum qushi g‘am dashti aro bag‘ri qoradur.

Jismim aro paykoning emas har sari, go‘yo
Har go‘shada yomg‘ur suyi g‘am tog‘i oradur.

To bog‘i halokimda ne gullarki ochilg‘ay,
Zaxmim dog‘i qon su kebi tinmayki boradur.

Jonimni chiqarmoqqa agar yo‘l yasamas ishq,
G‘am tig‘i nedin har sari ko‘ksumnn yoradur.

G‘am shomi demang subhki ko‘k sham’in o‘chirgan,
Ashkim suyidur ulki yiroqtin oqaradur.

Kir vodiyi ishq ichra yengilrakki, bu yo‘lda
O‘zluk yukini tashlamog‘an asru horadur.

Mayxona Navoiyg‘ayu zohidg‘a iki kavn
Kim, anga g‘araz ikki sarodin bu sarodur.

197

Orazing husnin fuzun qilg‘an hiloliy qosh erur,
Yoxud ul oy sham’ini yorutqali minqosh erur.

Ko‘z yoshim durri yatimin mahrami ishq aylaman,
Har nechakim pok gavhardur valekin yosh erur.

Oncha yog‘durdı balo toshin tanimg‘a ishqkim,
Yuz ming el ishq ahli gar ko‘ksiga ursa tosh erur.

Ho‘blar la’li xayolotin pishirmaktur ishim,
Shu'laliq ko‘nglum bu sog‘arlarg‘a go‘yo dosh erur.

Qoldi avval tog‘ aro Farhodu Majnun dasht aro.
Ishq yo‘linda manga ikki ajab yo‘ldosh erur.

Ul Masih anfosi tarso saydidur ko‘nglum quushi
Kim, malak dayri ravoqi kunjida xuffosh erur.

Chun og‘iz ochti Navoiy ko‘ngli har yon zaxmidin,
Ne ajab gar yoshurun dardi el ichra fosh erur.

198

Telba ko‘nglumga xirad ahli maoshi qaydadur,
Telbaga ro‘ziy bajuz atfol toshi qaydadur.

Subhu shomim sa‘b ekanni bilgay ulkim, bilmagay
Kim, kecha oyи qayon, kunduz quyoshi qaydadur.

Ul ko‘zu qoshi qorag‘a oyni tashbih aylamang,
Oyning ofatlig‘ ko‘zi, purfitna qoshi qaydadur.

Betahoshiy jon olur deb ko‘p meni qo‘rqutmangiz,
Jon berurda menda ham bori tahoshiy qaydadur.

Gar quyosh hajrida tun yuzinda anjum ashki bor,

Mendek ul gul hajrida gulrang yoshi qaydadur.

Dahr gulzorida gul ishqig‘a bulbulning uni,
Gar biyik bo‘lg‘ay fig‘onimdek xaroshi qaydadur.

Ko‘yida itlar uzushtilar Navoiy xastani
Kim, emas zohirki, jismi qayda, boshi qaydadur.

ZYe HARFINING ZYeBOLARINING ZIYNATI «NAVODIR»DIN

199

Ey jalolu rahmatingdin gar zalilu, gar muazzaz,
Safhayi kavnayn o‘lub oting tarozidin mutarraz.

Yuz bu olamcha yaratmoq qudrating ollinda joiz,
Sadyakin ijod qilmoq o‘zgalarga yo‘q mujavvaz.

Muncha xil’at maxzani in’omu tashrifingdin o‘ldi.
Charxu tog‘u bahrg‘a atlas vagar xoro vagar xaz.

San’ating sabbog‘idin ko‘k zoli kiygan hullayi moviy,
Hoshiya bo‘lg‘an shafaqdin zaylig‘a rangi gul gaz.

Ofarinishni ihota aylabon andoq vujudung
Kim, muhit ul doira ko‘k nuqtadekkim bo‘lsa markaz.

Bog‘bong‘a chun g‘ino aylab nasib ehsoning ilgi,
Xo‘sha-xo‘sha gah zumurad, goh la’li nob osib raz.

Nafs xor et mish Navoiyni, aziz et faqr birla,
Ey jalolu rahmatingdin gar zalilu gar muazzaz.

200

Sarv yanglig‘ jilva qilsang noz ila, ey sarvinoz,
Jonlar etkaylar ayog‘ingg‘a fido ahli niyoz.

Tanda har na’l ichra bir til shakli zohir ayladim.
Der uchun jismim g‘ami ishqiningda har til birla roz.

Nuri ruxsoring ko‘ngulni qildi su, vah, ko‘rmaduk,
Sham’ tobi uylakim andin lagan topqay gudoz.

Ul sanamkim, qasri atrofida el bosh qo‘ydilar,
Ka‘badekdurkim qilurlar barcha saridin namoz.

Yo sipand et yuz o‘tig‘a ko‘zlarimning mardumin,

Yo yuzungni yopib ayla el ko‘zidin ihtiroz.

Ishq agar komildurur ma’shuqni mahkum etar,
Bo‘lmayin Mahmud, bo‘lmoq istama yoring Ayoz.

Gar Navoiy yig‘lasa, ishqing majoziydur dema
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdур majoz.

201

Shahsuvorim tavsani aylarmu oyo po‘ya tez,
Yo quyosh turki falak raxshin qiliptur garmzez.

Ul shihob ermaski maydoni aro go‘y o‘lg‘ali,
Sa’d kavkablar tushar yerga qilib ko‘ktin gurez.

Gardlig‘ chavgon xamida axtar o‘lg‘an uylakim,
Go‘yi g‘abg‘ab davrida chavgon zulfi mushkbez.

Markabi ter qatrasи birlaki haryon sochilur,
Bir sahobi durfnshondur yer yuziga qatrarez.

Go‘yi chavgon zarbidin tutmoq bila har dam havo
Biym erurkim shishayi gardunni qilg‘ay rez-rez.

Soqiyo, may berki bu davron aro go‘y urdi ul
Kim, falak chavgoni birla qilmadi mardum sitez.

Go‘y uchun indi kavokib gardidin yer tutti avj,
Ey Navoiy, voqif o‘l go‘yoki bo‘ldi rustavez.

202

Qush keturdi nomangu, ko‘nglumni qildi shu’laxezi,
Ayladi go‘yo qanotining yeli bu o‘tni tez.

Zor tandin ming tugan solmish qora, o‘lsam ne tong,
Gulbuni umrumg‘a bu yanglig‘ki bo‘lmish bargrez.

Sarsari hajringkisovurdi kulumni, yo‘qturur —
Ishq ila dard ahlig‘a mundoq nasimi mushkbez.

Eyki dersen chiqmamish ul masti kofir qatl uchun,
Bas nedin islom aro bu nav’ tushmanish rustavez.

Gar salomat istasang nekim yetar taslim bo‘l
Kim, sitez ahlig‘adur andin yetar ko‘proq sitez.

Istama menden damodam boda ichmak, ey rafiq
Kim, nashotim sog‘arin g‘am toshi etmish rez-rez.

Ey Navoiy, chun zaruratdur bu maskandin rahil,
Xoh tutqil go‘shae, xohiy jahon mulkini kez.

203

Sovug‘ ohimdin o‘lsang betahammul ko‘zga keltur yuz
Ki, anda ablaq etmishmen murattab tegrasi qunduz.

Yurak qoni sirishkim birla ko‘zdin chiqtı g‘am shomi,
Kecha daryoda rahbarlik qilur sohil sari yulduz.

Qachong‘a tegru sarvu nargisu gul jilva qilg‘aylar
Chaman ichra xiromon qad bila ko‘z ochu yuz ko‘rguz.

Raqibu vasl no‘shi, menu hijron nishi, vah, rahm et,
Ani ham gah-gahe o‘ltur, meni ham gah-gahe turguz.

Qorong‘u chahda Yusufsen, yorug‘ gulshan aro tong yo‘q,
Bo‘lurlar jilvagar doim qamar aqshom, quyosh kunduz.

Agar sen hamdamim bo‘lsang ikovlik yaxshidur, yo‘qsa
Abad umri agar topsam o‘zumni istaram yolg‘uz.

Girih sarrishtayi vaslingg‘a har dam istamas bo‘lsang,
Taalluq rishtasin ahli jahon birla jahondin uz.

Dame bazmim tuzuk, ayshim zulolin istaram sofiy,
Mug‘anniy sen dag‘i tuz rudu soqiy, sen dag‘i may suz.

Navoiy sevdi bir lo‘liyni kezdeg rub‘i maskunda,
Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz.

204

Chu noma chirmadim yozib yuzung shavqida sho‘rangez,
Damimdin o‘t tushib bir boshig‘a qildi ani gulrez.

O‘tum gar lahza-lahza tezdur ermas ajabkim, bor
Samanding tez ayog‘idinki sekrir shu’la andin tez.

Och ul gulrang orazniki andoq, hech suvratda,
Qazo naqqoshi ne chehrakushoy o‘lmish, ne rangomez.

Chiqib sarxush, chopib abrash kirar maydong‘a ul mahvash,
Ajab ermas agar tushsa bori olamg‘a rustahez.

Malak xayli bo‘lur devona ko‘rgach ul pariyyashni,
Meni majnun‘a shayxi bexirad talqin qilur parhez.

Erur mazlumu zolim qatli ishq ollida ko‘p oson,
Agar Farhod o‘ldi, qatl topmay qoldimu Parvez?!

Agar jon pardasi kirpiqlaringdin bo‘ldi parvezan,
Bu ham xushturki, ruxsoring xayolidin erur gulbez.

Meni xilvatdin, ey zuhd ahli, mug‘ dayri sari boshlang
Ki, behad xushhavodur kup terilgan gunbadu dahlez.

205

Bas ettim ashkfishonlig‘ chu zohir etting yuz,
Nechukki mehr ko‘ringach, nihon bo‘lur yulduz.

Jafog‘a qo‘ptungu tushti oyog‘inga zulfung,
Nechukki, soya zamoneki, mehr turg‘ay tuz.

Mug‘anniyo, necha ohangi hajr, vah, bir ham
Visol torish birkit, firoq rishtasin uz.

G‘arib tiyradurur bazmi aysh, ey soqiyl,
Qadah quyoshin olib boda lam‘asin ko‘rguz.
Falakni sog‘ar etib tut, vale bu shart bila
Ki, tomsa to‘qqizu oqsa, ichur menga o‘ttuz.

Harif bo‘lmasa, zinhor mayg‘a so‘nma ilig
Ki, zahrdur, kishikim bodani ichar yolg‘uz.

Navoiy atlasi gardundin etsa maypolo,
Chu dayr durdkashimen demangki, bodani suz.

206

Chun qo‘yarmen ul jahon oroyishi bazmig‘a yuz,
Aysh bazmin, soqiyo, bog‘i Jahonoroda tuz.

Sarvda yo‘q gul kebi ruxsoru gulda ko‘zu qosh,
Husn aro, ey gul‘uzori, sarvqadsen sen to‘kuz.

Tig‘ agar cheksang surar yerning dag‘i yaqini bor,
Yolg‘uz ermas iltimosi qatl agar cheksam bo‘g‘uz.

Telbadur nokas raqibing, qatl erur vojib anga,
Mundin o‘zga yo‘q iloji itkim, ul bo‘lg‘ay qutuz.

May uchun zuhdum ridosin ol garav, ey piri dayr,
Dema naylay, chun xarobot ahli ichsa boda suz.

Chun yeti qat yerga kirgung oqibat, holo ne sud,
Gar sipehr ajnosidin olingg'a tortarlar to'quz.

Vahki, to bir ko'rdi ul yuzni Navoiy, ey rafiq,
Sabri yuzdin birga keldi, shavqi bo'ldi birga yuz.

207

Motam o'z holimg'adurkim, o'lтурur ul rahmsiz,
Tiyra idborim palosidin ko'rung bo'ynumda kiz.

Ul pariy birla ikov qochsaq xaloyiq topmag'ay
Kim, uchar ul, za'fdin paydo emastur menda iz.

Vahki, yuz ochqach ul otash pora rag'mimg'a mening,
Elga andoq soldi o'tkim, chiqtan mendin jizu biz.

Ko'z qorasin yusa ashkim bahrining mavji ne tong,
Charxdin anjumni yur ko'lak urg'ach bu tengiz.

Nukta durriyu kamar la'li erur bas turfakim,
Bel anga ma'lum emas, ma'lum erurkim yo'q og'iz.

Chiqtan ko'nglum saydi ollidin agarchi yara yeb,
Qovsa nogah ozmasun, ey ishq, aning qonin tomiz.

Qilma raz farzandini ko'p hamdamu damsozkim,
Pardadardur asru bu shohidvashu makkora qiz.

Jism ayvonida xattu naqsh ila zeb istasang,
Chek fano xattiniyu benaqshliq naqshini siz.

Ey Navoiy, topti bedillar xabar o'z ko'nglidin,
Bu majonin ichra g'oyibdur bizing ovoramiz.

208

Sarvqadlar agar biru gar yuz,
Yuzdin ermas biri bizning bila tuz.

G'arazim ul sanamg'a sajda durur,
Yer o'pay deb qoshida qo'ysam yuz.

Yuzidin zulfig'a ko'ngul bormas,

Kimsa shabravlug‘ aylamas kunduz.

Ne birov bo‘lsa hamrahing toqat,
Ne tahammulki, kezgasen yolg‘uz.

Har ko‘zum ul quyosh firoqi tuni,
Bir falakcha ayon qilur yulduz.

Bormen, ey piri dayr, bas maxmur,
Karam ayla, karomate, ko‘rguz.

Qaddi hajrinda tortsang nola,
Rost ohangi, ey Navoiy, tuz.

209

Qilur paykonlaring ko‘nglum o‘tin tez,
Agarchi qatra bo‘lmas shu’laangez.

Tanimg‘a ul bahori husnidin o‘t
Tushub har dam urarmen barqdek xez.

Erur rul bargi uzra obi hayvon,
Labing ul damki bo‘lg‘ay bodaomez.

Demang, la’li mayidin ijtinob et,
Ne sud etkay manga o‘lguncha parhez.

Osig‘ yo‘q joni shirin bersa, Farhod,
Chu Shirin la’lidin kom oldi Parvez.

Vafosizdur bahori husn, soqiy,
Mayi gulrang uzra uyla gulrez.

Ul oy vaslin tilar bo‘lsang Navoiy,
Ham o‘l shab zindadoru ham saharxez.

210

Ko‘runur otashin la’ling dilafro‘z,
Magar ollida chektim ohi jonso‘z.

Topilmas nur aro olamda xurshid,
Ko‘rungach ul jamoli olamafro‘z.

Visol ayyomi tong yo‘q ochsa ruxsor
Ki, doim ochilur gul bo‘lsa navro‘z.

Quyosh ostida gardun sabz xingi —
Ko‘runmas, mahvashim chun minsa ko‘kbo‘z.

Ko‘ngulga g‘am toshidin berma ramkim,
Hanuz ul sayd erur murg‘i navomo‘z.

Qadahni davridin tindurma bir dam,
Ko‘ngulni dahrdin topsang g‘amando‘z.

Ko‘p otting novaki dildo‘z, vahm et,
Navoiy ham chekardin ohi dildo‘z.

211

Deman, ey xo‘blar, vafo qilingiz,
Javr ham qilsangiz, manga qilingiz.

Hojatim qaddingiz xiromidurur,
Qo‘pubon hojatim ravo qilingiz.

Bo‘lmasun mendin o‘zgaga bore,
Gar vafo aylang, ar jafo qilingiz.

Yuz tuman dardg‘a davodur vasl,
Netti bir dardima davo qilingiz.

Jon berib vasl topmag‘anlarni —
Desangiz, mendin ibtido qilingiz.

Sanag‘anlar visolu kom ahlin
Bizni ul zumradin sivo qilingiz.

Netti jam’eki oshnolarisiz,
Bizga ham ani oshno qilingiz.

Xonaqah shayxidin ochilmas ish,
Dayr piriga iltijo qilingiz.

Telbarabtur Navoiy, ey ushshoq,
Ul edi garchi burno oqilingiz.

212

Do‘sstar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,
Mehri gardun bo‘lsalar ko‘z nuridin yorutmangiz.

Gar shah o‘lsin, gar gadokim, solmangiz yuziga ko‘z,
Yodini balkim ko‘ngulga har taraf yovutmangiz.

Zulm ila yuz chok qilg‘an tang‘a gar marham yoqib,
Butqarurbiz, desalar, ul zaxmlarni butmangiz.

El jafosining maloli qilsa har dam qasdi jon,
Ko‘nglungizni g‘ayri bekaslik bila ovutmangiz.

O‘ksudi el mayli mendin, bir yo‘li, ey dardu g‘am,
Gah-gahe siz bore boshimdin qadam o‘ksutmangiz.

Hajr o‘tin jonimg‘a yoqtim ko‘rsangiz usruk meni,
Endi, ey pand ahli, do‘zax o‘tidin qo‘rutmangiz.

Chun Navoiy dasht tutti emdi zinhor, ey vuush
Kim, bashar jinsini ul majnun sari yoputmangiz.

213

Do‘stlar, olam eliga yoru hamdam bo‘lmangiz,
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo‘lmangiz.

Oshnolig‘ aylabon o‘z joningizga har zamon,
Boisi yuz ming balovu mehnatu g‘am bo‘lmangiz.

Yeb pariyashlar firebin, so‘ngra topmay iltifot,
Men kebi devonavu rasvoyi olam bo‘lmangiz.

Vaslu aysh obod qilsun xalqni, ey dardu g‘am,
Siz buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerga mahram bo‘lmangiz,

Ey visol ahli, ul oyning dardi hajridin meni,
Ko‘p ko‘rub g‘amnok siz ham asru xurram bo‘lmangiz.

Ey xarobot ahli, yo‘q insonda imkoni vafo,
Mastlig‘din dev o‘lung, zinhor odam bo‘lmangiz.

Gar Navoiy vasl aro bo‘ldi zalil, ey ahli vasl,
Emdi navbat sizgadur, muncha muazzam bo‘lmangiz.

214

G‘am shomi gar o‘tumg‘a bo‘lur sham’ ashkrez,
Parvonalar qanoti yeli aylar ani tez.

Ne shomdurki, mehr anga kofur sepmayin,
Har dam Zuhal uzori bo‘lur anda mushkbez.

Mahshar klinikim jaza‘i akbar o‘lg‘usi,

Hajringda keldi ko‘ngluma yuz oncha rustaxez.

Xatting malohati qoshida sabzayi Eram,
Bil sabzai Eram yonida shu'laliq fariz.

Har gomidin jahon yorusa elga tong emas,
Ul solikeki barq kebi bo‘lsa garmxez.

Bu ko‘hna dayr ichra desang, ranja bo‘lmayin,
Bo‘lg‘il rizo maqomidavu qilmag‘il sitez.

Vasl istasang, Navoiy emas shart bodiya,
Bo‘l dayr arovu doim aning yodi birla kez.

215

Ne ayb jon manga behol bo‘lsa jononsiz,
Ne holi bo‘lg‘ay o‘lug jismi zorning jonsiz.

To‘quz falakdin o‘tar garchi novaki ohim,
Qilurmen ani ul oyg‘a chekarda paykonsiz.

Ko‘ngul aro biri o‘tmay, biri yetar g‘amu ishq,
Bu uyda bir nafas erman aziz mehmonsiz.

Jahonni tutti visolida shodlig‘ ashkim,
Bahor saylikim, o‘lmish jahonda tug‘yonsiz.

Ichimda kirpigi gar nola aylasam tong yo‘q,
Ko‘ngulga nish tikilsa, bo‘lurmu afg‘onsiz.

Manga qadahni damodam yeturgil, ey soqiy
Ki, g‘am halok qilur bor esam dame onsiz.

Navoiy o‘lsa demang xo‘blarki kimdin edi,
Siz etingiz yuragin choku bag‘rini qonsiz.

216

Onsiz o‘lmoq, erur o‘lmoq jonsiz,
Bo‘layin jonsizu bo‘lmay onsiz.

Qoshi bu chok ko‘nguldin ayru,
Filmasal yoye erur qurbonsiz.

Ohkim, dard yuzidin chiqmas,
O‘q emas bo‘lsa erur paykonsiz.

Ishq daryosig‘a, eykim, kirding,
Bilki, bu bahr erur poyonsiz.

Yorsiz ko‘nglum erur oshufta,
Mulk oshub topar sultonsiz.

Suyu o‘t ichra siz, ey ko‘zu ko‘ngul,
To ul oy orazig‘a hayronsiz.

Gar Navoiy chekar un hajr tuni
Yo‘q ajab tun emas it afg‘onsiz.

217

Ey shikibu sabr, bir kun xud manga yor erdingiz,
Yorlig‘ ham bo‘lmasa telegramda xud bor erdingaz.

Kelsa erdi har balo ollimg‘a asrab qo‘ymayin,
Ohu afg‘on qilg‘ali mendin xabardor erdingiz.

To asiri ishq bo‘ldum, qochdingiz ul nav’kim,
Manga to bor erdingiz, go‘yoki ag‘yor erdingnz.

Pandingizdin emdi ermasmen malul, ey do‘stlar,
Doimo men xastag‘a mundoq sitamgor erdingiz.

Demang, ey jonu ko‘ngulkim, xorbiz yor ollida,
Gar erur ul yor to bor erdingiz, xor erdingiz.

Ey xarobot ahli, demangkim nedin g‘amnokbiz,
Mast o‘lungkim, g‘am edi hargahki hushyor erdingiz.

Bir yo‘li qovmang Navoiy ko‘nglini, ey sho‘xlar
Kim, gahi ul benavoning ko‘nglin asrar erdingiz.

218

Dedi: ko‘zum qichishur, aytdimki: boda tomuz,
Dedi: ne hojat anga boda, mast erur onsiz.

Butar gul ichra gahe g‘uncha, lek ochilmas,
Yuzungda turfadurur kulgusi bila ul og‘iz.

Ko‘zum yoshin aritib gar tiganmasa tong emas,
Ajabdurur sochibon suyini qurusa tengiz.

Yuzung quyoshmu ekin yo quyosh yuzungmu ekin
Ki, qaysi, qaysi ekan farq emas, nechukkn egiz.

Iting iziga ko‘zum surtsam g‘arib ermas
Ki, ayn shakli bila naqsh o‘lur ayog‘din iz.

Halol ona sutidekdur gar o‘zbakim tutsa,
Tobuq qilib yukunub to‘stag‘on ichinda qimiz.

Hamisha mug‘bachavu raz qizi fidosi bo‘lay
Ki, dayr pirig‘a arzir bu nav’ o‘g‘il bila qiz.

Chu davri charx erur boisi g‘amu mehnat,
Ko‘ngul farog‘atini jom davridin olingiz.

Nechuk yiroq bo‘lali piri dayru mug‘bachadin,
Navoiyo, chu alarning muridu bandasibiz.

219

Bo‘ldi shomu jong‘a ul oy hajridin qayg‘u hanuz,
Yetti subhu ko‘zlarimga kirmamish uyqu hakuz.

Obi hayvoning g‘amidin toki za‘fim bo‘ldi sa‘b,
Bormamish bir qatra bo‘g‘zum ichra, jono, su hanuz.

Javr o‘qin otting, vale, biym erdi hijron tig‘idin,
Yetti ul ham boshima ko‘nglumdin o‘tmay bu hanuz.

Novaking umredurur ko‘nglumda xandon bo‘lg‘ali,
Bor aning mufrift jununidin munga kulgu hanuz.

Sehr ila ul ko‘z qilib zulfung kamandin ajdaho,
Buzdi olam xalqin, bas aylamas jodu hanuz.

Shohidi maqsud aksi ko‘ngluma tushmas deding,
G‘ayri naqshidin magar pok ermas ul ko‘zgu hanuz.

Dedi: bo‘l fonyi visolim istasang, bo‘ldum fano,
Ey Navoiy, so‘rki mundin ortuq istarmu hanuz.

220

Bo‘lmas qora ko‘z eldin tutmoq kishi vafo ko‘z,
Sendin netib vafo ko‘z tutqaymen, ey qaro ko‘z.

Tushti ko‘zum ko‘zungga, qoldi ko‘ngul balog‘a,
Afg‘onki, ikki yondin bo‘ldi manga balo ko‘z.

Gul birla sarv ermas hargiz ko‘zumga maqbul,

Ey sarv qaddi gulrux, o'rgangali sango ko'z.

Ey kosh, raxshi gardi olamni tutsa, tokim
Ul ko'zga kirsa har yon solg'ach bu mubtalo ko'z.

Ko'zni o'yub, ko'ngulni o'rtayki, yor istab,
Soldi ko'ngul meni bu darmondaliqqa yo ko'z.

Ul ko'ydin kelur yel ko'zlarni ravshan aylab,
Yeldin ne bo'ldi tutsam men dag'i to'tiyo ko'z.

Maydin ko'zumga tomiz bir qatra to ochilsun
Kim, tiyradur bag'oyat hajring aro mango ko'z.

Aylar nazar tavaqqu' ko'yung gadoyidin shah,
Tutqan kebi biaynih shahdin nazar gado ko'z.

Ko'z olmasa Navoiy ermas ajab yo'lingdin,
Tiknish yo'lungg'a chunkim ul zori benavo ko'z.

221

Yopilmas gar menga qonlig' sudin ko'z,
Senga lekin ochilmas uyqudin ko'z.

Yuzung lavhida vajhulloh ayondur,
Ne tong gar olmasam ul ko'zgudin ko'z.

Boqa olman yuzung ollimg'a kelsa,
Qamashur mehr ko'rgach o'trudin ko'z.

Ko'zung el qoni to'kkandin hasad yeb,
Ne qonlarkim to'kar ul qayg'udin ko'z.

Emassen holima xandonu giryon
Qi, yosharmish senga ko'p kulgudin ko'z.

Qadah charxida may mehrini, soqiyl,
Solib yorut manga ul yog'dudin ko'z.

Navoiy mast ko'nglin ashk oqizdi,
Gum etdi oxir aning bexudin ko'z.

222

Ishq yuki ayladi torami a'loni ko'j,
Ne ajab, ar aylasa men kebi shaydoni ko'j.

Tori sirishkim chekib dard qadim qildi xam,
Uylakim, el chillani tortib etar yoni ko‘j.

O‘lmadim onsiz, o‘yot boshim etibdur quyi,
Za’f gumon etmakim, qildi bu rasvoni ko‘j.

G‘am yukidin za’flig‘ shaxsim egilsa, ne tong
Kim, bu yuk etmish base jismi tavononi ko‘j.

Jismima kirganda dard «dol»i kebi bo‘ldi xam,
Kimki erur naqbrav charx qilur oni ko‘j.

Egma qaddimg‘a boqib rahm qil, ey sarvkim,
Davr base ayladi qomati ra’noni ko‘j.

Qildi Navoiy unin egri kebi tori hajr,
Aylagali noladin changdek a’zoni ko‘j.

SIN HARFINING SUMANBARLARINING SAVDOSI «NAVODIR»DIN

223

Jud emas ko‘p bazl uchun ko‘p mol qilmag‘lig‘ havas,
Kim berur ko‘ptin ko‘p, ozdin oz ani bil judu bas.

Razl taqdim etsa yo‘q ahli safog‘a hech bok,
Sug‘a ne nuqson, gar aning ustida yer tutsa xas.

Yor isidur kom keltursin sabo yoxud shamol,
Do‘st, taqririg‘a roviy xoh Buzar, xoh Anas.

Tojvarlar oq uyida sokin o‘lsa, ahli ishq
Uyladurkim bulbulu hudhudg‘a bo‘lg‘ay bir qafas.

Korvoni dard ila qat’ et muhabbat dashtini
Kim nidoe mujdayi vasl aylar anda har jaras.

Surma ul shabxez ayog‘i gardin, etkim kechalar,
Itcha yo‘q ko‘yida gar xud shahna bo‘lsun, gar asas.

Dayr piri jur‘asin gar tutsa bizga mug‘bacha,
Naqdi jondin o‘zga o‘trusida yo‘qtur dastras.

Ey Navoiy, ishq sIRRIN kim havas qilsa, dema
Kim, eshitmakka bu so‘z loyiq emas har bulhavas.

224

Bog‘ aro ne sarv etarmen orzu, ne gul havas,
Dahr bog‘idin manga bir sarvi gulruxsor bas.

Ul kechakim yor ila yorutg‘amen sham’i visol,
Zinhor, ey subh, agar bo‘lsang Masih, urma nafas.

Kuydi ham tan, ham so‘ngaklar tushkach ul yuz lam’asi,
Barq o‘tig‘a naylagay bir tor ila bir necha xas.

Nahli qadding unla oliydurki, termak mevasin,
Bo‘lsa dog‘i dastras mumkin emastur dastras.

Oncha tig‘i ishq chokidur tanim atrofida
Kim, ani ko‘nglum qushig‘a dard aylaptur qafas.

Ul mahi mahmilnishin havdajda, ko‘nglum tashqari
Ne ajab gar tinmay afg‘on cheksa andoqkim jaras.

Ey Navoiy, iltimos etma sanamlardin visol.
Gar desang ko‘p kuymanin bizdin eshit bu multamas.

225

Jong‘a la’ling mayi jomidur multamas,
Ne Xizr suyi, ne jomi Jamdur havas.

Qotilim tig‘i ko‘zgusi zang o‘lmasun,
Ey Masih, o‘lg‘onim ko‘rsang asra nafas.

Ko‘z tutarmenki, bu su yo‘li berkitgay,
Ko‘yidin yel uchirsa nekim xoru xas.

Ko‘nglum ul xol asiri chu bo‘lmish erur
Ankabuteki, sayd etmish ani magas.

Ne sharaf otingg‘a bo‘lg‘oli poymol,
Ne iting poybo‘sig‘adur dastras.

Kech topardin talab ahli maqsadg‘a yo‘l,
Go‘yiyo tinmayin nola aylar jaras.

Ey Navoiy, taning ichra jon yo‘qsa ajab,
Kim ko‘rubtur iki bulbulu bir qafas.

226

Ko‘ngul har tun farog‘ istab balo tog‘ini yostanmas,

Agar har dam necha qatla ul oy ko‘yini aylanmas.

Vale bu turfadurkim, gar fig‘oni charxdin o‘tsun,
Ul oy noz uyqusidin chiqmag‘uncha mehr uyg‘onmas.

Ko‘ngulga loyi ishqingdin necha berding o‘lum xavfi,
Bu yanglig‘ va’da birla gar so‘rarsen emdi ham tonmas.

Labi la’ling xayoli hajr aro bag‘rimni qon qildi,
Jihat budur hamono qon yutardin gar ko‘ngul qonmas.

Ajal tig‘i ne bo‘lg‘ay elni maydon ichra qatl etsa
Ki, el g‘avg‘osidin chobuksuvorim emdi otlanmas.

Aningdek telba ko‘nglum ul pari ko‘yiga yuzlan mish
Ki, gar zanjirlar birla chekarlar xalqkim, yonmas.

Nasime lolaro‘yim mahmiliga mayl qilmaskim,
Quyundek rashkdin xoki tanim yuz qatla to‘lg‘onmas.

O‘tub ishq ichra umrum, zohido, qo‘y zuhd irshodin,
Kishi mundog‘ ulug‘ san’atni ulg‘oyg‘anda o‘rgan mas.

Gadolar silkidin ko‘yi xarobot ichra xorijdur,
Birov kim ilgiga tushsa qurug‘ non bodag‘a monmas.

Hujum etti jahon mehnatlari, tut boda soqi ykim,
Qadah chekmay kishi bu xaylning daf‘ig‘a qotlanmas.

Muhabbat o‘ti el birlaki yoqding, o‘rtanur joni,
Navoiy yo‘qsa hijroning o‘tidin oncha o‘rtanmas.

227

Menga bir sarvi gulrux bo‘ldi munis
Ki, hayrondur ko‘zi ollinda nargis.

Chu g‘am bazmida maydek qon yutarmen,
Erur la’ling hadisi nuqli majlis.

Ko‘zu zulfu yuzu qadding g‘amidin
Meni bexudqa barbod o‘ldi besh his.

Falak toqidek etti qomatim xam,
Qoshing mehrobini tuzgon muhandis.

Daqoyiq ishq ilmi ichra ko‘ptur
Ki, tafhimida ojizdur mudarris.

Asarsizdur ko‘ngulda shu’layi zarq
Bo‘lur uchun qalb ro‘kash aylagan mis.

Navoiy erdiyu jon naqdi olding,
Tirik mumkin emas bu nav’ muflis.

228

Gulgun may ichib sunbuli chun gulga yopilmas
Ul gulshan aro bizga ne gullarki ochnlmas.

Gulzor jamolidaki paydo emas og‘zi,
Ul nav’ gul ochildiki, bir g‘uncha topilmas.

Anfosi Masiho kebi ul nutq nasimi,
Esmas berikim, jon isi olamg‘a yoyilmas.

Ey piri xirad, ko‘ngluma ko‘p qilma nasihat,
Nevchunki, junun ahlig‘a aql ahli qotilmas.

La’ling mayi to ichti, ko‘ngul holini so‘rma,
Kim mastdur andin berikim o‘zini bilmas.

Hushyor ani bilgil bu fano dayrida ey shayx
Kim, to‘lg‘ucha paymonasi bir lahza oyilmas.

Ko‘yi sari har kechaki azm etsa Navoiy,
Oy sham’in o‘chur, charxkim ul uyni yongilmas.

229

Bizga ul mahvash tiliyu ko‘ngli birla yor emas,
Ko‘ngli ichra har nekim aning tilida bor emas.

Tilga kelmon ko‘nglum o‘tinkim, menga ul bag‘ri tosh,
Til bila g‘am yer, ko‘ngul birla vale g‘amxor emas.

Ko‘ngli o‘zgadur, tili o‘zga ne chora qilg‘amen,
Ko‘nglida yuz fikru til birla biri izhor emas.

Ne tilim, ne ko‘nglum ahvolin bilur ul sho‘xkim,
Ko‘ngli g‘am neshi, tili oh o‘tidin afgor emas.

Yor uldurkim, tiliyu ko‘ngli aning bo‘lsa bir
Kim, tili o‘zgayu ko‘ngli o‘zga, ul yor emas.

Kimki ko‘nglin istamas g‘amgin tilini asradeg

Kim, tilni tiyg'an kishining ko'nglida ozor emas.

Demakim dardingni sharh et yo ko'ngul, yo til bila,
Ko'nglum ermasturmu bexud yo tilim nokor emas.

Qaysi til birla deyin ko'nglum tilaydur xonaqah
Kim, tilu ko'nglum aro juz kulbai xammor emas.

Shoh madhida Navoiy ko'ngli — ganju til — kalid,
Yo'qsa ko'ngliyu tilida nuktavu guftor emas.

230

Jong'a la'lingdin bir o'pmakdur qiyosan iltimos,
La'linga ham jonni kuydurmoq alohozal-qiyos.

Ko'ngluma zarbaft xil'at shu'lasidurkim, erur,
Tosh aro bo'lmoq nihon Farhodqa xoro libos.

Dedi, ko'nglum kecha tong yo'q pos agar tutsa ko'zum,
Vahki, uyqum yo'qturur tundin o'tuntur necha pos.

O't sochar ishqing haroson bo'lsa ko'nglum, yo'q ajab,
Ajdahodin tong emastur mo'rg'a bo'lmoq haros.

Ko'nglum ichra mazrai sabrim o'rulmay qolmag'ay,
Har so'ngak yonimda chun qat'ig'a aning keldi dos.

Xizmat ettim xonaqah shayxig'a, qadrim bilmadi,
Dayr piri bandasimenkim, erur bas haqshunos.

Ey Navoiy, kisvati faqru fano sol egninga,
Yo'qsa xirqang tengdurur gar atlas o'lsun, gar palos.

231

Gar meningdur yor lo'li bo'lsa shoh etmon havas,
Naylay ul shahniki, har lo'lig'a bo'lg'ay hamnafas.

Shikva qilman gar jafodin boshima yog'dursa tosh,
Toqatim yo'q elga qilsa bargi gul urmoq havas.

Yordin har necha bedod o'lsa aylarmen qabul,
Lek bo'lsa g'ayr birla multafit maqbul emas.

Jonni qo'ymasmen chibindek la'li uzra rashkdin,
Ul shakar uzra chibin qilsam taxayyul xol bas.

Bu baloni ko‘rmasun oshiqki qilg‘ay iltimos,
Vaslin aningkim birov bo‘lg‘oy anga ham multamas.

O‘z nigori mahmildin qilmasun deb ko‘z xato,
Ishq dashti ahlig‘a har dam nido aylar jaras.

Ey Navoiy, ishq atvorida budur zulmkim,
Gul maqomi bog‘ o‘lub, bulbul yeri bo‘lg‘ay qafas.

232

Ko‘yi toshi boshima hayf aylasam uyqu havas,
It uyur bo‘lsa, ayog‘, ilgi, boshin qo‘ymoqqa bas.

Chun dedim: zulfung kamandin bo‘ynuma solg‘il, dedi:
Itka bo‘lmas Ka’ba qandili tanobidin maras.

Oh o‘ti o‘rtarga jismimni ne moni’ ko‘z yoshim,
Barq urg‘och o‘rtanur gar bo‘lsa daryo uzra xas.

Choklar bo‘lg‘an tanim qon la’liyu ko‘z durridin,
Bulbuli ruhumg‘adur gavharlar o‘tkargan qafas.

Qo‘ysa mufrat za’f aro og‘zimg‘a ul yuz ko‘zgusin,
Urmag‘aymen tiyra bo‘lmoq vahmidin o‘lsam nafas.

Dard aro o‘lsang davo ahli zamondin istama
Kim, topilmas dahr aro bechoralarg‘a choraras.

Iltimos etsam labingdin jon topay deb, qilma ayb
Kim, Navoiyg‘a budur o‘lguncha, ey jon, multamas.

233

Manga manzil ko‘han dayri fano bas,
Yonim ostida eski bo‘ryo bas.

Guli zavq elga bog‘i aysh arokim
Menga g‘am dashtida xori balo bas.

Azaldan chunki qismim rindliqdur,
Qil emdi pandni, ey porso, bas.

Vafo gar qilmasang jonimg‘a bore,
Jafoni qilmag‘il, ey dilrabo, bas.

Ko‘ngul dog‘ig‘a qo‘yman marham, ey ishq,
Anga nevchunki ham dard-o‘q davo bas.

Erur bir nukta ishqu olam ichra.
Deb o'lmas hargiz andin mojaroo bas.

Navo ishq ichra sen top, ey Navoiy
Ki, bizga benavoliqlar navo bas.

234

Qilmon ul bebok kesgan na'lni o'pmak havas
Kim, samandi na'lini o'pmak tuyassar bo'lsa bas.

Olam ahlig'a yetar faryodu ohim har kecha,
Ohkim, yo'qtur manga olamda bir faryodras.

Uyla kuydi hajr aro jismimki, yo'q andin asar,
Qayda topilsun chu tushti do'zax o'ti ichra xas.

Gar sabuh etsam ne tongkim, sofu sodiq xaylidin,
Bodadek bir hamdamim yo'q, subhdek bir hamnafas.

Jam' etar ovoralarni choklig' ko'nglum uni,
Yo'ldin ozg'anlarni ul yanglig'ki afg'oni jaras.

Gulshani vasl istagan ko'nglum qushig'a tordur,
Charx yuz ming ravzani birla agar bo'lsa qafas.

Bersa ul guldin xabar xohi sabo, xohi shamol,
Desa payg'ambar hadisin xoh Buzar, xoh Anas.

Xirqa uldurkim, kecha kezsang, chu bo'lg'on torig'a
Bog'lag'aylar o'zni gar xud shahna bo'lsun, gar asas.

Ey Navoiy, olam ichra benavolig' ko'rmadi,
Ulki hargiz qilmadi olam elin ko'rmak havas.

235

Tong emas gar chin yuzinda qahrdin mavjud emas,
Ko'zguning chunkim ko'runmak javhari ma'hud emas.

Dasht aro ohim sari etkan musofir yuzlanib,
Fahm qilmaskim erur ohim buxori dud emas.

Ko'ksum ochtim har taraf qildi gumon ul tiflkim,
Lolalar birla bezabmen, dog'i xunolud emas.

Ishq bozorida savdo ahlig'a juz naqdi vasl,

Har nafas bir ganj agar uchrar ziyondur, sud emas.

Vasl ichra demakim ushshoqni rad qildi yor,
Hech kim mendekki, hijronida men mardud emas.

Mayda aksindur ko‘z andin olmasam, soqin, ne tong,
Toki diydor o‘lsa mandin mastliq maqsud emas.

Zarbi ishqidin muzayyandur yuzumning oltuni,
Ey Navoiy, demagilkim sikkai behbud emas.

236

Ey, firoqingda hayotimdin menga ozoru bas,
Har dam ul ozordin o‘lmak tilab men zoru bas.

Dog‘u qon ham bo‘ldi ul yuz lolasi hijronidin,
Yo‘qli hajring neshidin ko‘nglum erur afgoru bas.

To dedim bir qatla kufri zulfini tark aylagum,
Kufr aytqandek hadisim bo‘lmish istig‘foru bas.

Olamedur xush junun ichra taxayyul, ey ko‘ngul
Kim, anisimdur tunu kun ul pari ruxsoru bas.

Qon to‘kar yuz nav’ ul qotil demangkim boisi,
Xanjari xunrez erur yo g‘amzai xunxoru bas.

Mastkim egri xirom aylar ul oy ham qatl etar,
Qotilim yolg‘uz emastur charxi kajraftoru bas.

Eyki dersen dayri piri xizmatig‘a bog‘la bel,
Uyla xizmatqa maras bilkim, erur zunnoru bas.

Charxdin yoqqon havodis toshlarig‘a har kishi,
Kim panoh istar, erur ul kulban xammoru bas.

Ishq aro rasvolig‘i olamg‘a nevchun bo‘ldi fosh,
Chun Navoiy ishqini qildi senga izhoru bas.

237

Dahrdin mehru vafo qilma havas,
Elidin g‘ayri jafo qilma havas.

Yetsa har dam senga yuz muhlik dard,
O‘lsang o‘l, lek davo qilma havas.

Ey ko‘ngul, vasl havas qilding, o‘l
Zorlig‘lar bila yo qilma havas.

Aylagan ishq havas kuch birla,
Yuz tuman dardu balo qilma havas.

Ko‘yi tufrog‘i erur mushki Xito,
Istagan ani xato qilma havas.

Ishq dashtini desang qat’ qilay,
Zodi rah g‘ayri fano qilma havas.

Benavolig‘da, Navoiy, o‘lsang,
Bazmi vasl ichra navo qilma havas.

238

Ko‘nglum ichra dardu g‘am avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas
Kim, ul oyning hajri ham avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ne sitamkim, qilsa rahm maxfiy erdi zimnida,
Emdi qilsa har sitam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Demangiz Shirinu Layli oncha bor husn ichrakim,
Xo‘blikda ul sanam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o‘zga yor,
O‘lmishamkim, bu alam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ishq aro Farhod ila Majnung‘a o‘xshatmang meni
Kim, bu rasvoi dijam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ko‘yining ehromidin ko‘nglumni man’ etmang yana
Kim, anga azmi haram avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ey Navoiy, qilma Jamshidu Faridun vasfikim,
Shoh G‘oziyg‘a karam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

239

Har necha kuysam ul oy ko‘nglumni paydo aylamas,
Aylasa ham o‘lsam ani oshkoro aylamas,

Ishvasidin iltifot ahvolima zohir bo‘lur,
Zorlig‘ ko‘rguzsam andoq ishva paydo aylamas.

Jong‘a bir kuymoqchadur har kimga parvo qilmog‘i,
Yana yuz o‘lmakchakim qatlimg‘a parvo aylamas.

Sho‘xlug‘lar birla sabrim xirmanig‘a o‘t solur,
Husn ila yolg‘uz meni-bedilni shaydo aylamas.

Qayda yuzlansam junun hangomasidur xalq aro,
Ul chu yetti ko‘z uchi birla tamosho aylamas.

Aylamas to husni bir sendekni olam ofati,
Ishq bir mendekni ham olamda rasvo aylamas.

Men ayog‘i tufrog‘ig‘a naqdi jon aylay nisor,
Ne ishimkim, ul qabul aylamas.

Naqdi islomim olib bir jur‘a tut, ey mug‘bacha,
Bo‘l ravonkim hech kofir buyla savdo aylamas.

Muddatedurkim, Navoiydur ayog‘ing tufrog‘i,
Poybo‘sung gar topar, ortuq tamanno aylamas.

240

Xo‘blar ming bo‘lsalar, men xastag‘a bir yor bas,
Anda mehr atvorining mingdin biri gar bor bas.

Aytmonkim, har vafo qilsam, jafoe qilmasun,
Har vafog‘a ming jafo gar aylamas izhor bas.

Har vafog‘a ming jafo ham qilsa qilsun, munchakim,
Yor anga mahrumu mahram bo‘lmasa ag‘yor bas.

Ey visol ahli, sizu izzat saririkim, menga —
Hajr ko‘yi itlari ollida bo‘lmoq xor bas.

Men kimu no‘shi labingdin istamak quti hayot,
Aylasa g‘amzang sinoni qatl bu miqdor bas.

Ey ko‘ngul, g‘amgin esang kup quysa soqiy og‘zingga
Zarfni, sipqarmag‘uncha qilmag‘il zinhor bas.

Yuz balo kelsa boshingg‘a sabr qilg‘il, ey ko‘ngul,
Yo xaloyiq ixtilotin qil Navoiyvor bas.

241

Nigorim dardima nazzora qilmas,
Nazora qilsa dag‘i chora qilmas.

Tilab og‘zin emas bir damki ko‘nglum

O‘zini g‘unchadek yuz pora qilmas.

Meni g‘am dashti ichra ishq iturdi,
O‘zin el kuch bnla ovora qilmas.

Ko‘ngulni aylagandek zaxm g‘amzang
Pichoq, balkim qilich ham yora qilmas.

Meni devona to qilmish ko‘ngulga
Nelarkim ul pari ruxsora qilmas.

Ne yersen dahr zolining firibin,
Vafo chun elga ul makkora qilmas.

Navoiydek yuzungga kim solur ko‘z
Ki, zulfung ro‘zgorin qora qilmas.

ShIN HARFINING ShO‘XLARINING ShAMOYILI «NAVODIR»DIN

242

Jamoli nurini chekkan tarozu oyu quyosh,
Magar bu birida nur erdi, ul birisida tosh.

Gar oyda tosh emas erdi, quyoshda nurindin
Kudurat ichra qolib oy, munavvar o‘ldi quyosh.

Quyoshqa nurki yuqmish hanuz erur ul nur,
Hanuz oy ichra hamul tosh erurki, bo‘lmish fosh.

Uruj aqshomi tegrangda oyu kavkablar,
Masih girdida andoqli, bir necha xaffosh.

Yuzi tubon tushubon markabing izig‘a malak,
Yer uzra qursni qilg‘on kebi gadoy talosh.

Chu qurb qofiq‘a yetting, yetishmadi Jibril
Ne nav’ hudhud Semurg‘ ila bo‘lur yo‘ldosh.

Ayog‘ig‘a chu maloyik boshin qo‘ya olmas,
Navoiyo, qo‘ya ko‘r itlari ayog‘ig‘a bosh.

243

Qo‘ymadi shomi xumorim tiyralikdin aqlu hush,
May quyoshin xum sipehridin chiqar, ey mayfurush.

Istamon hud hush, lekin yo‘qli hush olg‘ay xumor,

May to‘la quyg‘ilki, aylay mastlig‘din tarki hush.

Jomi no‘sho-no‘sh xushtur ul sifatkim, dayr aro
Boda olib mug‘bacha, no‘sh aylabon qildursa no‘sh.

Un chekib may tut, deb ersam dayr toqig‘a sado,
Demakim ham ushbu ma’nini nido aylar surush.

Arbadamdin gar toriqting, soqiyo, tut bodakim,
Bo‘limg‘ungdur bo‘limg‘uncha masti loyaqil xamush.

Muhtasib ta’zir etar vaqtin tanim qildi yalang,
Dayr pirining qulidurmenkim, uldur aybpo‘sh.

Gar Navoiy bir ayog‘, gohi ichar g‘am daf‘ig‘a,
Zohid andin o‘zni g‘amgin tutsa ichtek emdi qo‘sh.

244

Do‘sstar, ko‘nglumni vasl ummidi behol aylamish,
Orzu xayli hazin jonimni pomol aylamish.

Shoh lutfi uzrini qo‘lmoq emas mumkinki, shavq
Hushum etmish zojilu nutqumni ham lol aylamish.

Bas munosibdur bahori vasl aro ko‘z yoshini,
Kisvatin qondin xazoni hajrkim ol aylamish.

Zulfi ichra bo‘lg‘amen pur pechu xamliq tordek,
Za’fliq jismimnikim, hijron yuki dol aylamish.

Har zamon ul yon qilur ko‘nglum havokim qush kebi,
Hajr o‘qi paykonlarin har yon paru bol aylamish.

Necha kunluk hajri to‘fon aylabon ashkim suyin,
Meni ul daryoda kishtibong‘a timsol aylamish.

Hajrida onsiz tiriklikdin uyatlig‘men, valek
Menda yo‘q taqsir, ajal bu ishda ehmol aylamish.

Ul iki lab hajrida maykim, ilojig‘a hakim
La’l ila yoqutni mahlulu sayyol aylamish.

Ey Navoiy, hajr mushkil bo‘lsa g‘am yo‘qturki, haq
Shoh lutfin bo‘yla mushkillarga hallol aylamish.

245

Sabzai xat orazing bog‘ini xazro aylamish,
Gulshani ruxsoring o‘zga rang paydo aylamish.

Har dam o‘lmish xattu la’lingdin yuz oncha oshkor,
Har ne ishkim umrida Xizru Masiho aylamish.

Vah, ne shaydovash yigitdurkim chiqib oliftavor,
Yuz tuman oliftani ishqida shaydo aylamish.

Qomatim yo yuz uza ashkimdin etmish novlar,
Ulki aning kirpikin novak, qoshin yo aylamish.

Ne tamoshodurki yuz ming xalq o‘lmish har qachon
Kim, ain el, yo‘qsa ul elni tamosho aylamish.

Bo‘lmamish paydo meningdek zoru sendek rahmsiz,
Tengri to mehru muhabbat rasmi paydo aylamish.

Ey salomat ahli, butrongkim, meni bir mug‘bacha
Dayrdin usruk chiqib bu nav’ rasvo aylamish.

Fard bo‘lkim ul kishi dunyoda bo‘lmish ahli tarx
Kim, fano yo‘lida tarki ahli dunyo aylamish.

Ko‘p Navoiyning musallou ridosin so‘rmakim,
Birni rahni boda, birni boda polo aylamish.

246

Shomkim tun pardasinda ayladi ixfo quyosh,
Parda olib yuzdin ul oy ayladi ifsho quyosh.

Yo‘qli chun kirdi shabiston ichra zulfi shomidin,
Orazi chun bo‘ldi paydo, bo‘ldi nipaydo quyosh.

Bazm chun tuzdi jamoli lam’asindin yo‘qli sham’,
Balki zohir ayladi bir sog‘ari sahbo quyosh.

Subhg‘a tegru yuzidin ravshan erdi bazmi aysh,
Uylakim, el xotirig‘a kelmadi aslo quyosh.

Lam’ai ruxsoridin qasrida har ayvon aro,
Zarvaraqdin shamsalarmu erdu, bilmon, yo quyosh.

Mast o‘lub orazni chun xnlvat aro ildi nihon,
Sarg‘arib titrab chiqardi pardadin siymo quyosh.

Ohkim, biz rub'i maskundin chiqib, ko'p bo'lg'usi
Jilvagar to'rtunchi toramdin Masih oso quyosh.

Qilma, ey g'avvos, ko'p ishq ahlining man'ini ko'r
Kim, senu g'alton guhar andishasi ushshoqu yosh.

Bil, Navoiykim, tafovutdur quyoshtin oyg'acha,
Aylasang nazzora ul oy orazidin to quyosh.

247

Husn bog'i ichra qadding sarvi bo'lmos'liqqa tush,
Har havo qilg'an ko'ngul ul qad uza sarv uzra qush.

Umrlarkim bo'lg'an ovorang yetishmish ollinga,
Marhabosig'a ilik sun xud dey olmonkim quchush.

Ko'ksuma g'am tog'ida ishqing balo mismorini
Berkiturda ayladi Farhod metinin cho'kush.

La'li shahdig'a havo qilg'anda, ey jonim qushi,
Gar desangkim topmayin maxlas chibin yanglig' yopush

Ko'yidin bizni chiqarmoqqa, raqibo, yig'ma xayl,
Xasni qavmoqqa nasime bas, emas hojat urush.

Ishrat etkim, charx ollinda tafovut yo'qturur,
Xoh bazm ichra simo' et, xoh kunj ichra tumush.

Dema hajrimdin Navoiy g'amsiz ermas bir zamon,
Istasangkim g'amdin ayrilg'ay aning birla qovush.

248

Ul parivash odamivashlig'lar anlab qildi xash,
Har sarikim bir malakvash bor edi devonavash.

Aytmon jom og'zinga yetkach, mening og'zimg'a quy,
Umri joqid istasam basdurki, bo'lsam jur'agash.

La'li hijronida ko'nglum bexud o'lsa qilma ayb
Kim, jarohatdin chu qon ayrlisa tong yo'q bo'lsa g'ash

Yor chun jonimda maxfiydur tafovut io'qturur,
Jilva qilsa zohiran gar ming yog'och, har bir arash.

Chun malohat jon olur husn ichra ani istagil,
Xoh dilbar kishvari bo'lsun Xo'tan, xohi habash.

Soqiyi davron chu oxir to‘ldurur paymonamiz,
Emdidin varzishqa o‘zni aylali paymonakash.

Ey Navoiy muhtasib dayr ichra kirdi bermasang,
Rahnu maypolog‘a bas loyiqtur ul dastoru fash.

249

Mehr emas, gardun yuzung hijronidin dog‘ o‘rtamish,
Oy emas, marham uchun momuq mudavvar aylamish.

Ko‘nglum andoq chok-chok o‘lmishki, go‘yo to‘‘ma deb,
Hajr tig‘i itlaringga bir-bir ani to‘g‘ramish.

Bismil etmish zori ko‘nglum saydini qilg‘och shikor,
Ul shikor afkan hazin ko‘nglum bu yanglig‘ ovlamish.

Lola ro‘yum asramay ko‘nglumni gar azm ayladi,
Yodgor andin tunganlar chok ko‘nglum asramish.

Yer yuzin tutqan bahor ayyomi ermas lolazor
Kim, yuzung hijronidin giryon ko‘zum qon yig‘lamish.

Dema, soqiy ilgidin sofimumu xushdur yo‘qsa durd?
Har ne andin keldi, ul xushturkim ani tolg‘amish.

Gar Navoiy yoridek yo‘q olam ichra, ne ajab
Kim, kezib olamni mahvashlardin ani tanlamish.

250

Yuz sihr qilsa kimgaki ellikdin o‘tti yosh,
Atfol sahrasi qilur atfoldek maosh.

Ulkim soqol bo‘yar havasi tushti boshig‘a,
Bo‘lmoq soqol qora, ne osig‘, chun oqardi bosh?

Go‘yoki molu jon chin erur negakim qori,
Chun yetti jon talashqali, ul mol etar talosh.

Hojib netar birovki ko‘zi bo‘ldi munzaviy,
Ev go‘shasida dog‘i anga hojib o‘ldi kosh.

Yuzdan to‘kar su ulki ko‘zi, og‘zi, burnidin,
El ollida oqar sho‘lakay birla suyu yosh.

Eykim, yuzung quyosh edi, sarg‘ardi shaybdin,

Bilgilki, sarg‘arur uyoqur chog‘ida quyosh.

Ollingda bas qattiq yo‘lu qat’ig‘a yo‘q guzir,
Gar shoh, gar gado bo‘lu gar tundu gar yovosh.

Bilkim, bu yo‘lda zod erur a’moli xayru bas,
Yo‘q ilmu fazlu mansabu molu urug‘-qayosh.

Yuz biymu oqibat ishi ma’lum emas kishi,
Tug‘masa erdi yo tug‘ubon o‘lsa erdi kosh.

251

Tun ham kechu yo‘l dag‘i yiroq, sen dag‘i sarxash,
O‘lturki dame o‘lturali, ey buti mahvash.

Yillar chekibon hajr dame vaslingga yettuk,
Sen dag‘i dame zorlaring ko‘nglini tut xash.

Manzil dag‘i amnu ko‘ngul ashobdin emin,
May dag‘i erur beg‘ashu ruh andin yetib g‘ash.

Ma’lum emas tongla kim o‘lg‘usiyu kim yo‘q,
Tinsun qadamingda nafasi necha balokash.

Hayhot bu xilvatda kishi bo‘lsa o‘larmen,
G‘ayr o‘tsa xayolimg‘a qilur meni mushavvash.

Bir naqsh bu yanglig‘ menga ko‘rguzmadi gardun,
Chehramni qilib qon ila yuz nav’ munaqqash.

Qilmadi Navoiyg‘a bu iqbolni ro‘zi,
Ulkim varaqi qismat uza bo‘ldi raqamkash.

252

Donai xoli labing ko‘nglum qushin rom aylamish
Kim, ani tutqanda jonim rishtasin dom aylamish

Anbarin xattingg‘akim, andin kelur bo‘yi vafo,
Jon fido garchi umidim subhini shom aylamish.

Lablaringdin ruhparvar nutq zohirdur magar,
Ruh qudsi obi hayvoi ichra orom aylamish.

Humrat etmish oshkor ul usruku xunxora ko‘z,
Qon ila mamzuj may go‘yoki oshom aylamish.

Sarvu gulga bog‘ aro dermenki aylay jon fido,
Toki jonio qasdi bir sarvi gulandom aylamish.

Chiqti, vah, usruk yana ul kofiri bebokkim,
Har qachon chiqqonda qatli ahli islom aylamish.

Dayrni qilmish ko‘zumga gulsiton, ey mug‘bacha,
Ul mayi gulgunki ruxsoringni gulfom aylamish.

Kom vaqt tarki dunyo aylagan topmish hayot,
Yo‘qsa yetkanda ajal xudkomu nokom aylamish.

Qani rasvoe Navoiydek agarchi ani ishq,
Neknom eldindurur deb, buyla badnom aylamish.

253

Go‘yiyo bir-biriga oshiq erur ul ikki qosh
Kim, qo‘yar bir-birisidir ollida bosh.

Yuzni bir tifl uchun atfolg‘a maydon yasadim,
Yo‘qsa ne vajhdururkim yugurur yuz sori yosh.

Ulki bazm ichra sochar boshig‘a gul ne bilgay,
Holin aningki falak yog‘duradur boshig‘a tosh.

Qo‘zlarin davrida mujgoningga ul nav‘i hulsum,
Nedurur qilmasalar fitnaning ustida talosh.

Istabon xush zamon mehnatidin, ey soqiy,
Jomima dorui behush ezib qotsang kosh.

Faqr dashtida fano yo‘lig‘a hamrah tilama,
Yo‘l chu ma‘lum emas, qayda topilsun yo‘ldosh.

Ey Navoiy, yuzidin deki ochiq yorug‘ erur,
Zulfidin demaki ham tiyradurur, ham chirmosh.

254

So‘z demay ikki shakardek labikim band o‘lmish,
Kula olmastin ishi emdi shakarxand o‘lmish.

Ko‘ngluma barcha shikoyat yeri yo‘q, andinkim
Tig‘idin chok esa, o‘qi bila payvand o‘lmish.

Guldin olman ko‘zu islarmen ani nevchunkim,
Rang ila bo‘yi mening yorima monand o‘lmish.

Butun ermas bu ko‘ngul shishasi ahdingdekkim,
Sinmishu har sinuq andin necha parkand o‘lmish.

Yuzi birla labini ko‘rsa qilur ko‘nglum za’f,
Gar ko‘ngul quvvatining mujibi gulqand o‘lmish.

Ul pari to meni devonavu rasvo qildi,
Vahki, Majnun mening ollimda xiradmand o‘lmish.

Ranja bo‘lma tilab ortuqli erur osuda,
Ulki haq, har ne nasib ayladi xursand o‘lmish.

Xossa ma’nilarim el qilsa tasarruf qildik,
Kishi farzandi qachon kimsaga farzand o‘lmish?

Qovma, ey shayx, Navoiyni eshitmas deb pand
Kim, sening panding eshitmaslik anga pand o‘lmish.

255

Vafodin cheksa bosh ul sarvi mahvash,
Ajab ermastur o‘lmoq sarvi sarkash.

Zamona ablaqi qolg‘an ravishdin,
Ul oshubi zamon sekretsa abrash.

Kecha zulfungni tush ko‘rdum parishon,
Bu kundur xotirim asru mushavvash.

Jahon qo‘zg‘oldi ofat sarsaridin,
Yigit joning uchun otlanma sarxash.

Maqomirvash harife ko‘nglum olmish
Ki, g‘ash qilg‘on soyi ko‘nglum qilur g‘ash.

Ko‘ngul vahdat mayining jomi er mish,
Bu sog‘ar soda yaxshi, yo‘q munaqqash.

Navoiyning jununin ayb qilmang
Kim, ani telbarat mish bir parivash.

256

Necha oh ursam bo‘lur ko‘zdin bag‘ir xunobi fosh,
Esnamak bu ersa ko‘zda ne ajab ul nav’ yosh.

Ey pari, atfol toshi dema bu majnung‘akim,
Charx zulmi yog‘durur boshim uza har lahza tosh.

Suda andoqkim quyosh aksi tushar, go‘yo erur,
Obgun charx ichra ul ruxsorning aksi quyosh.

Gar kabutardek emas tutmoq uchun ko‘nglum qushin,
Nevchun ochmish qulochin har taraf ul ikki qosh.

Tund erur ul butki, qo‘ymishmen boshimni ollig‘a,
Qiblag‘a bosh indururga menda yo‘qtur ikki bosh.

Bo‘lma kun qursin tilab aflokdek sargashtakim,
Bir fatiri xom ila oson o‘tar har kun maosh.

Olg‘ali ko‘nglin Navoiyning taloshur xo‘blar,
Shohlar andoqki bir mulk uzra qilg‘oylar talosh.

257

Ishq ichinda juz o‘lum mushkilkn, bo‘lg‘an bizga ish
Kim, bo‘lubtur jon bila g‘amzang aro borish-kelish.

Qon oqar har yon tanimdinkim firoq ayyomida,
Qo‘ymadim uzmay taabdin har qayon urg‘onda tish.

Ko‘yida mash‘al yurutkandek ko‘rindi tongg‘acha,
Ul xud o‘tlug‘ zor sargardon mennng ko‘nglum emish.

Kecha oy davrida ikki sa’d kavkab ko‘rmagan,
Ko‘r yuzu ikki qulog‘i durlarin kiyganda kish.

Za’fliq sargashta jismimdin ajab yo‘q chiqsa o‘t,
Chunki o‘t zohir qilur ko‘p davr topqondin qamish.

Dahr issig‘-sovug‘idin gar farog‘at istasang,
Obi otash rangni qo‘yma ilikdin yozu qish.

Ey Navoiy, chobukungning istasang pobo‘sini,
Bo‘ynunga ip toqmoq ummidi bila itdek erish.

258

Zulfig‘a har yon girih tushkan erur bas turfa ish,
Necha yerda telba ko‘nglum qasdig‘a bel bog‘lamish.

Ravshan aylar shu’la ustidin ko‘rungan dudni,
Mahvashim egnida oltoyi bila boshida kish.

Yori jonim qasdig‘a har damki tishlar la’lini,
Mahkam aylarmen, fig‘on qilmay debon, bag‘rimg‘a tish.

Zori jismimg‘a, ne tong, sargashtalikdin tushsa o‘t,
O‘t ayon aylar ilikda davr ko‘p topqon qamish.

La’lidin jon olg‘ali bording, kelibsen jon berib,
Ey ko‘ngul, mardona bording ul borishqa bu kelish.

G‘arrai husn o‘ldung, ey gul, bilmading bu bog‘ aro,
Har bahori kelsa andin so‘ng xazoni bor emish.

Qon isi keldi Navoiy nazmidin, ermas ajab
Kim, bag‘ir qoni bila ko‘nglida top mish parvarish.

259

Kuydumu toptim ko‘ngulni o‘tg‘a solg‘ondin bu ish,
Yo ko‘nguldindur menga yo ko‘nglum olg‘ondin bu ish.

Va’dai mehr etting oxir, har ne el qilsa xayol,
Kolgay, ammo kelmagay sen ahdi yolg‘ondin bu ish,

Der emish ko‘ngli to‘la shikvam mayidin bo‘lmish oh,
Qayda kelgay men kebi ko‘ngli usholg‘ondin bu ish.

Andin ayru o‘lmayin ko‘rganda jon qildim fido,
Qilmangiz tahsinki, qilmishmen uyolq‘ondin bu ish.

Telba ko‘nglum qochsa savdo dashtig‘a ayb etmangiz,
Qildi g‘am zindoni ichra ko‘p qabolg‘ondin bu ish.

Garchi muhlik ishq aro tushtum, ko‘zumni ham o‘yung
Kim, boshimg‘a keldi ko‘z ul sori solg‘ondin bu ish.

Gar Navoiy hajr aro o‘lturdi o‘zni yo‘q ajab,
Qildi yori naslidin novmid qolq‘ondin bu ish.

260

Menmudurmenkim quyosh kulbamni ravshan aylamish,
Obi hayvon zulmatobodimni gulshan aylamish.

Yuz falakcha topsa rif‘at bayti vayronim, ne tong,
Yuz quyosh chunkim bu vayronimni maskan aylamish.

Ko‘z tegurmang, ey parilarkim, ko‘zum sarchashmasin,

Ul pariyu huri rizvon rashki ma'man aylamish.

Mundin o'tmas do'stluq garduni dushman shevadin
Kim, o'zin dushmanlarim qasdig'a dushman aylamish.

Mehrni bilmas edi nomehribonim, shukr erur,
Gar bu fan ta'lim anga davroni purfan aylamish.

Shevan erdi qismatim hijron tunidin go'yilo
Kim, qora kiymish mening rashkimga, shevan aylamish,

Ey ko'ngul, faryod ila ram berma, gar vayronima,
Chug'z yanglig' toyiri davlat nishiman aylamish.

Baxti jovid ushbu bo'lg'aykim ko'zum surtarga charx,
Itlarining yo'li tufrog'in muayyan aylamish.

Ey Navoiy, yo'q ajab, gar charx o'z davronida
Mehr birla bir qorarg'on ko'zni ravshan aylamish.

261

Labingni so'rg'ali muhri sukut og'zima tushmish
Ki, ul shakkar bila ernim biri biriga yopushmish,

Hayotim andin ekinkim chiqarg'a quvvati yo'qtur,
Zaif jonki labing hajridin og'izg'a yovushmish.

Yuzung xijolatidin arg'uvong'a tushti tag'ayyur,
Daraxti rangidin anglar kishiki qoni qurushmish.

Quloq durig'a xaridor edi yuzung ajab ermas,
Nashot el orakim Zuhra Mushtarig'a qovushmish,

Hayot mulkidin etmak safar ne mumkin angakim,
Kelib vatang'a safardin nigori birla quchushmish.

Ne bok pok ko'ngul sari charx solsa kudurat,
Zulol ko'zgusini soya tiyra qilsa ne tushmish.

Navoiyo, dema ishqing so'zin chiqarma og'izdin,
Yoshurmog'im ne osig', chun xaloyiq og'zig'a tushmish.

262

Mayki la'lidan tomizdi ul nigori bodano'sh,
Go'yilo, jon topqanidin tushti tufroq ichra jo'sh.

Ishva birla betahammul qilmasa ul mug‘bacha,
Nevchun dayr ahlidin bir lahza kam bo‘lmas xurush,

Raz qizi beboklikdin qilsa uryon xalqni,
Dayri piri zayli ehson birla keldi pardapo‘sh.

Lali mayning javhari ruh o‘ldi, chun har qatrasи,
Go‘yi e’jozi Masiho zohir aylar mayfurush.

Mastlig‘din elga yuz so‘z der, vale bir so‘z desam,
Ko‘z yumub ham mastlig‘ birla o‘zin aylar xamush.

Turmadi shayxi riyoiy, chun yetishti piri dayr,
Qochmayin Iblis netsun, chun nuzul etti surush.

Ey Navoiy, demakim, jonu ko‘ngulni naylading,
Ikkisin qildim fido, chun bodano‘shim tutti qo‘sh.

263

Surohi to mayi la’ling visolin orzu qilmish,
Ani bu orzu devonai jo‘lidamo‘ qilmish,

Chibinlar shakkari la’lingda yo‘q jon qushlaridurkim,
Su ichmaklikka hayvon chashmasi uzra g‘ulu qilmish.

Adamdur ul og‘izkim xurdabini aql topmaydur,
Vujudin garchi ul qatlim ishida guftugo‘ qilmish.

G‘aming jon pardasin chok aylagach, gardun, ne yanglig‘kim
Labing oritting aning rishtasi birla rafu qilmish.

Ko‘ngulkim tashnai la’li labingdur, vahki, su etmas,
Anga garchi visoling va’dasi bag‘rimni su qilmish.

Labing yetkan qadah taryoqidin yetkurgil, ey soqiy
Ki, hajr achchig‘lig‘i jomim aro mayni og‘u qilmish.

Visoling no‘shi birla o‘zgalarga no‘shi jon bo‘lkim,
Navoiy joni muhlik hajr neshi birla ho‘ qilmish.

264

Shabistonimda jom ichra yuzung aksi charog‘ o‘lmish,
Charog‘img‘a va lekin jom zarfu boda yog‘ o‘lmish.

Diram uzra diram to‘kkan kebi pinhon xirad ahli
Girihlik ko‘nglum ichra ishqdin dog‘ uzra dog‘ o‘lmish.

Iloj aylay desang, qo'y islayin sebi zanahdoning,
Mengakim sunbulung savdosidin za'fi dimog' o'lmish.

Ko'zung nargis, uzoring gul, qading sarvu soching sunbul
Buzug' ko'nglum xayolidin bularning turfa bog' o'lmish.

Ne qilsang emdi qil ko'nglumgakim, toroji ishqingdin,
Shikibu ilmu aqlu zuhdu taqvodin farog' o'lmish.

Ajab Farhod erur shirin labing shavqida ko'nglumkim
Anga paykonlaring metinu ishqing qofi tog' o'lmish.

To'la quy jomi gardunvashqa may, ey soqiyi mahvash
Ki, g'am xaylini g'arq aylar tengsiz bu nav' ayog' o'lmish.

May ichkim, dardu g'am bir lahza sog' o'lmoqqa qo'y maydur,
Anikim, bu ko'han mayxonada bir lahza sog', o'lmish.

Navoiy tiyra shomin kavkabi ashki qilur ravshan,
Bu yulduzlar anga go'yoki durri shabcharog' o'lmish.

265

Qaysi vodiykim tanimni ashk sayli surmamish,
Qaysi tog' avjig' akim mavji boshimni urmamish.

Qaysi hijron shomikim har lahza hijron sarsari,
Bir-bir avroqin falakning har taraf sovurmamish.

Qaysi damkim xotirimg'a chun o'tub gulzori vasl,
G'unchadek ko'nglumda hijron yuz tikon sindurmamish.

Qaysi hijron dashtikim qasdimg'a tortib g'am sipoh,
Ul cherikning o'tin ohim shu'lesi yondurmamish.

Qaysi bir majliski, may tobiyu oraz barqidin,
Elga o'tlar solib, ul qotil meni kuydurmamish.

Qaysi birga olam ahlidinki qildim jon fido,
G'ussa olam-olam o'tlug' jonima yetkurmamish?

Ey ko'ngul, dayri fano azmi muborak azm erur,
Qo'y qadamkim, topqon ul yo'lni vatanda turmamish.

Dayr pirining qulimenkim, xarobot ahlidin
Necha ko'rmish jurm alarning yuziga kelturmamish.

May tutub ko‘nglumni tindur bir zamon, ey mug‘bacha
Kim, zamon bedodi ani lahzai tindurmamish.

Zulf aro asra Navoiy ko‘nglin eldin istama,
Telbani band ichra zoming‘a kishi topshurmamish.

266

Telbalik sensiz, ey pari, menga ish,
Ko‘ksuma tosh urarmen, egnima tish.

Naxli ayshim qo‘ngordi uyla g‘aming
Kim, makonida qolmadi qirtish.

Novaking kasrati ko‘ngul ichida,
Uylakim naysiton ichinda qamish.

Yo qoshing birla qildi chun da’vi,
Qatl uchun bo‘g‘zig‘a solildi kerish.

Zulfu jismingg‘a rangu nozukluk,
Ko‘rinur ul sifatki, qoqumu kish.

Ne uchun bo‘ldi la’lgun ashkim,
Gar yurak qoni ermas anda qotish.

May ko‘p ichsam ajab yo‘q, ey soqiy,
Qon yutarlarda qilmisham varzish.

Bargi gulkim sochildi ko‘yi aro,
Ul mening pora-pora ko‘nglum emish.

267

Orazing hijronidin kelmas manga gulzor xush,
Gulsiz andoqkim emas gulbunda yuz ming xor xush.

Xastadur ko‘nglum ko‘zungdin uylakim mumkin emas,
Lablaringdin sharbat olmay bo‘lg‘ay ul bemor xush.

Ko‘yida vayronae topib yiqildimkim, kelur
Qasri jannatdin menga ul soyai devor xush.

Ko‘yidin man’ aylar erdim chun o‘larmen, ey ko‘ngul,
Emdi berdim ruxsating, har qayda borsang, bor xush.

Har kishi maqsadg‘a bir sarrishta istar, ey faqih,
Subha gar xushtur sanga, bordur manga zunnor xush.

Hirqavu zuhdu riyo ahlig‘a xushtur xonaqah,
Lek aning rag‘mig‘a keldi kulbai xammor xush.

Ey Navoiy, may bila xush tut o‘zungnikim, emas
Bu fano dayri aro bo‘lmoq dame hushyor xush.

268

Oshiq o‘ldum, bilmadim, yor o‘zgalarga yor emish,
Olloh-olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Qaddig‘a el mayli bo‘lg‘ondin ko‘ngul ozurdadur,
Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Elga novak urdi, men o‘ldum, erur bu turfakim,
Jonom etkan resh el bag‘rig‘a kirgan xor emish.

Rishtakim muhlik yaram og‘zig‘a tiktikim, angladim
Kim, kafan jinsi qirog‘idin suvurg‘on tor emish.

Ko‘yi devoridin og‘riq tang‘a tushkon soyadek,
Seli g‘amdin emdi soya o‘rnig‘a devor emish.

Jong‘a taxvif ayladim tig‘i halokidin aning,
Bilmadim, bu ishtin ul o‘lguncha minnatdor emish.

Ey Navoiy, xo‘blarni ko‘rma osonlig‘ bila
Kim, birovkim soldi ko‘z, uzmak ko‘ngul dushvor emish

269

Menga emdi sarv ila gul muddaosi qolmamish,
Sarv bo‘yluq guljabinlarning havosi qolmamish.

Uyla buzmish mehnatu g‘am xayli ko‘nglum kishvarin
Kim, nashot anda sig‘ing‘uncha fazosi qolmamish.

Men baliyat ichramen, el shod, go‘yo charxning
Emdi dard ahlig‘a yetkuncha balosi qolmamish.

Yorkim qilmas jafozu javr ermas rahmdin
Kim, manga ko‘rguzmagan javru jafosi qolmamish.

Baski har torin balo atfoli uzdilar chekib,
Vahki, uryon jism uza mehnat palosi qolmamish.

Gul chog‘i bog‘ingg‘akim yo‘l bermading, ey bog‘bon,

Chinmudur day bo‘lg‘ali derlar safosi qolmamish.

Ey Navoiy, gar vafosi qolmamish aning sanga,
G‘am yemakim, anga ham husni vafosi qolmamish.

270

Ko‘ngulni bu kecha bir oy xayoli mubtalo qilmish
Ki, uyqu xaylini ko‘zlar savodidin jalo qilmish.

Ko‘ngulga toza qo‘yg‘on dog‘lardinmu savod o‘lmish,
Yo‘q ersa hajr dudidin falak yuzin qaro qilmish.

Vujudim xirmanin o‘rtarg‘a bir barqi balo urmish.
Ko‘zumga hajr ilgi kojidin har o‘tki choqilmish.

Vafosizliq muhabbat ahli oridur xusho, ulkim,
Hayoti naqdini bir qotil ollinda fido qilmish.

Ayog‘i tufrog‘ining qiymatin jonlar degan hayhot,
Hayot iksirini tufrog‘ birla teng baho qilmish.

Gadolig‘ aylamish yillar ko‘zum ul xo‘blar shohi,
Qachon bir ko‘rguzub oraz, aning komin ravo qilmish.

Visol istar esang qochma baliyatdinki, ko‘rguzmish
Niyoz ahli vafo, har necha noz ahli jafo qilmish.

Tarab jomini tutmas dayr piri bo‘lmayin foni,br/>Birov bu fayz topmishkim yerin dayri fano qilmish.

Navoiy benavo bo‘lkim azal qassomi qilg‘onda —
Xaloyiqqa navo taqsim, bizni benavo qilmish.

SOD HARFINING SANAMLARINING SIYTI «NAVODIR»DIN

271

Birovki dayr sori zohir ayladi ixlos,
Burung‘i naf‘i bukim xonaqahdin o‘ldi xalos.

Xalos istasang andin ayon qil ixlosing
Ki, yo‘q kishiga xalos etmayin ayon ixlos.

Avom zohiridek qilmag‘ang‘a zohirini
Muyassar o‘lmadi botin ishi nechukki xavos.

Birovga xos inoyat bu yo‘lda om o‘ldi

Ki, om suvrati birla o‘zini ayladi xos.

Simo’ vajd ila gar bo‘lmasa muassir emas
Ki, kulgu boisidur qilsa fil o‘zin raqqos.

Baqo durin tilabon terga g‘arqaliq ne osig‘,
Budur toparg‘a fano bahri ichra bo‘l g‘avvos.

Navoiy, istasa qatling habib, sen yana o‘l
Ki, ishq tig‘i shahidig‘a buyla keldi qasos.

272

Husn oyatiki keldi yuzung qissasida nas,
Tong yo‘q, desamki sha’nidadur ahsan-ul qisas.

Mushafni o‘rtadim deding o‘tluq uzor ila,
Ko‘nglum qabul qildi kaloming nachukki nas.

Ko‘nglum qushini tig‘i g‘aming qildi chok-chok,
Bilman ko‘ngulni qushmudurur emdi yo qafas.

La’ling nigini sharhidadur go‘yiyo fusus,
Har juzvida nishonai vaqf ayladi bu fas.

O‘ldumki, qatlinga nega ushshoq bo‘ldi xos,
Tirguzdi buki yona meni aylading axas.

Taqvii ishq aro chu azimat tilar ko‘ngul,
Avval kerakki, bir taraf etsang borı ruxas.

273

Qatl uchun elga chu ta’mim ila berding tanqis,
O‘lgum erdi meni gar qilmasang erdi taxsis.

Hirsi ul sho‘xning el qatlig‘a bordur oncha
Ki, ajal hojat emas aylamak ani tahrис.

Hajrdin ishq o‘tida topmadi ko‘nglum maxlas,
Garchi o‘t birla bo‘lur qalbg‘a bermak taxlis.

Yor hajrig‘a davo guldin emaskim, bermas
Kimsaga Yusuf isi qon aro har pora qamis.

Garchi bildimki haris o‘ldi jahonda mahrum,
Bo‘lmamoq mumkin emas yor visoliga haris.

Qil fano darsi aro o‘zni mulaxxaski, emas
Sud kashfida bu ma’nining o‘qumoq «talxis».

Yordin ayru Navoiy o‘ziga istar o‘lum,
Ey ajal, joning uchun berma anga ko‘p tanqis.

274

May meni qildi riyoyi porsoliqdin xalos,
Porsoliq yo‘qli, ujbu xudnamoliqdin xalos.

Xonaqah ahli yo‘luqsa mastlig‘din taniman,
Shukrkim, bo‘ldum alarg‘a oshnolig‘din xalos.

Ishq xilvat kunjidin soldi meni mayxonag‘a,
Qildi zindon go‘shasida mubtalolig‘din xalos.

Dayr piri jur’asin topmayki, uldur shohliq,
Dayr aro gar orzu qilsam gadoliqdin xalos.

Ey jafigar, bir vafo qilkim ikovlon bo‘lg‘abiz,
Men jafo chekmaktinu sen bevafoliqdin xalos.

Soqiyo, hajru xumor ichra yetibmen jonima,
Bir qadah birla meni qil bu oralig‘din xalos.

Ey Navoiy, benavo istab seni dildoru sen,
Gar navo istarsen, o‘lma benavolig‘din xalos.

275

Kishiga bersa g‘amu mehnati davron tanqis,
Yaxshiroqkim anga bergay g‘ami hijron tanqis.

Bersa tanqis g‘ami hajr dog‘i oncha emas
Kim, berur rashk bila g‘ayrati jonon tanqis.

Istasam o‘qini ko‘ksumda budur vahmimkim,
Topmag‘ay tiyra ko‘ngul habsida jonon tanqis.

Men urub po‘ya junun dashtida, lekin ne osig‘
Kim, erur ko‘ngluma g‘am chohida pinhon tanqis.

Ko‘yidin raxti safar bog‘lasa ag‘yor ne tong,
Bog‘u gulshanda ko‘rar g‘uli biyobon tanqis.

Charxdin za’fim ila bo‘lsa malolim ne ajab,
Ko‘rar ul Zol bila Rustami doston tanqis.

Ey Navoiy, bas erur telbalik emdi, berma,
Ul parivashqa chekib nolavu afg'on tanqis.

ZOD HARFINING ZAMIRON BUYLARINING ZIYOSI «NAVODIR»DIN

276

Qila olg'oncha riyo ahlidin etkil i'roz,
Yaxshiroq sidq ila osiki, riyoliq murtoz.

Mujrimi sodiq erur uzr bila qobili fayz,
Mu'jibi zuhdqa bo'lmas mutajalli fayyoz.

O'zlukung salbidin axloqi zamimingni ketur
Kim, ketar mushil ila necha muxolif amroz.

Bosh oqardi, ko'z oqardiyu oqarmas ko'nglung,
Tiyrasen har nechakim tutti savodingni bayoz.

Chek riyoza vale ish o'rnida tutma anikim,
Bu riyoza durur, ulkim evazi keldi riyoza.

Barcha ish vaqtida haq bo'lsa keraktur g'arazing,
Bu g'arazdin chu bo'lur daf' kerakmas ag'roz.

Ikki barmoqqa tutar siymni miqroz kebi,
Faqr torin dog'i qat' etkuchidur ul miqroz.

Har ne ollingg'a kelur haqdin erur chun oriz,
Bas tahammul qilibon aylama har dam i'roz.

Jahl aybini Navoiy netibon yoshurg'ay,
El ko'zi ochiq erur, gar o'zi etkay ig'moz.

277

Istasam bo'se labidin, jon tilar jonon evaz,
Ko'ngli birla desa jonon ozdurur yuz jon evaz.

La'lin og'zimg'a olo olmon, ayog'i tufrog'in,
Topsam etmon maks agar jon istasa jonon evaz.

Poybo'si ham emas haddim ayog'i tufrog'i,
Gar tuyassar bo'lsa jon bermak bo'lur oson evaz.

Itlarining xoki poyin ko'rgali ham rozimen,
Gar tilar oldik qaroru hushu xonumon evaz.

Vasli gar bo'lmas tuyassar, yuz tuman jonu jahon,
Gar berilsa o'truda bermak emas imkon evaz.

Soqiyo, tut la'lgun may bahridin zavraq bila
Kim, erur bir jur'asig'a naqti bahru kon evaz.

Ey Navoiy, ishq tarkin aylagil, nevchunki, men
Vasl uchun jon berdimu bo'ldi manga hijron evaz.

278

Orazingdur oftobi olamorodin g'araz,
Jonfizo nutqingdur anfosi Masihodin g'araz.

Ochmag'aymen ko'z meni devona husnung bo'lmasa,
Har pari paykar jamolig'a tamoshodin g'araz.

Uq tikilsun ko'zlarimga bo'lmasa o'qdek qading,
Bog' aro har dam havoi sarvi ra'nodin g'araz.

Shomi hajrim zulfi mushkiningdin o'lsun tiyraroq,
Gar emas ko'nglumda zulfung mushki sarodin g'araz.

Jon berib la'limni istardim, g'araz nedur dema
Kim, base zohirdurur, jono, bu savdodin g'araz.

Dardu mehnat chekmakimdin qasdim aning ko'yidur,
Ka'badur solikka qat'i ko'hu sahrodin g'araz.

Ey Navoiy, yorning mehru vafosin istama,
Qilmag'an bo'lsang ko'ngulga zulmu bedodin g'araz.

279

Gar budur qomati ra'no bila zebo oraz,
Sarv bo'y chekmasu ochmas guli ra'no oraz.

Orazin sabzag'a har gulshan aro surtarmen,
Sanga to sabzai tar ayladi paydo oraz.

Toqatim yo'q iki o't birla meni o'rtarga,
Otashin la'l manga ayla ayon yo oraz.

Parda yopqilki, xating ayladi behol meni,
Men xud o'ldum qila olmasqa tamoshlo oraz.

Orazimni bir ayoq birla qizort, ey soqiy,

Necha surtay ayog‘ingg‘a meni rasvo oraz?!

Oyg‘a gulguna magar surtti mashshotai charx
Yo sanga maydin erur gul kebi hamro oraz.

Ey Navoiy, tilasang davlati boqiy topmoq,
Olmag‘in dayri fano yo‘lidin aslo oraz.

TYe HARFINING TANNOZLARINING TAROVATI «NAVODIR»DIN

280

Desangki, faqr tariqini aylayin mazbut,
Kerakki, zuhd ryo birla qilmasang maxlut.

Bu yo‘lda shart fanodur agar qadam qo‘ysang,
Kerak bajoy ketursang nekim erur mashrut.

Qishiki zohiri oshuftadur zamirig‘a boq,
Basoki ma’ni erur poku lafz nomarbut.

Qo‘ngul sahifasidin raf’ qil xavotirni
Ki, safha zoyi’ o‘lur chun chibin qilur manqut.

Desang o‘zumdin itay g‘ayr suvratin isqot,
O‘zungdin ayla burun o‘zlukungni-o‘q masqut.

Fano riyozatida qaddin aylagan chavgon,
Qoshida go‘ycha yo‘qtur bu gunbadi maxrut.

Navoiyo, der esang tongla bo‘lmayin maqbuz,
Bu kun jahon eliga o‘zni aylagil mabsut.

281

Qildi botil mehrdin har necha qildi yor shart,
Shart ko‘p buzdi nedinkim ayladi bisyor shart.

Sharti mehr aylar bukun andoq unutur tonglakim,
Hargiz etmaydur degaysen ul pari ruxsor shart.

Ko‘yida kim poybo‘si birla izzat istasa,
Bordur anda aylamak tufrog‘dek o‘zin xor shart.

Ayladi sharti vafo, lekin qachon bor e’tibor,
Mastliqdin har ne qilsa kofiri xunxor shart.

Ishq tarkida qilib ko‘p shart buzdung, ey ko‘ngul,

Ishki qilmoq mumkin ermas, qilmag‘il zinhor shart;

Dayr piri xidmatig‘a, ey ko‘ngul, bel bog‘lading,
Balkim ushbu bog‘lamoqqa bor edi zunnor shart.

To tirikmen tarki ishq etmay debon shart ayladim.
Shart qilg‘on ayladik bore Navoiyvor shart.

282

Oy yuzung ko‘zguvu atrofini tutqan zang xat,
Ne yarashibdur ul oy davrig‘a minorang xat.

Sabzai tardekki sudin bosh chiqarg‘ay lutfi bor,
Orazingdinkim, chiqarga aylamish ohang xat.

Maydin o‘lsa orazing gulgun, bo‘lur xattingg‘a zeb
Kim, topar chun safha gulgun bo‘ldi o‘zga rang xat.

Uylakim marg‘ulalar ko‘rguzdi ul mehrob uza,
To‘tiyodur xirmani gul uzra urg‘an chang xat.

To qamar davrida ne ofatlar o‘lg‘ay oshkor,
Buylakim, ul yuzda aylar fitnavu nayrang xat.

Chiqqali xat elni qatl aylar chiqarmish, go‘yiyo
Xalqning qonig‘a ul xunrez sho‘xi shang xat.

Husn mulkida shah ul yuz chatr mushkin bo‘ldi qosh,
Ne ajab, bo‘lsa zumurraddin anga avrang xat.

En ko‘ngul, sof ayla safhangni tilar bo‘lsang uruj:
Kim, nabig‘a ordur bilmoq savodu nang — xat.

Sabzavu gul sari mayl etmas Navoiy xotiri,
To chiqarmish yuz uza ul sho‘xi sabzarang xat.

283

Xollarining nuqtasidin topti zeb ul turfa xat,
Garchi xat uzra bo‘lur bir nuqtavu bo‘lmas nuqat.

Yuz uza xattin nazzora aylagil gar ko‘rmading,
Ey ko‘ngul, kun safhasida tun savodi birla xat.

Hajr shomi oyni ruxsoring sog‘insam qilma ayb
Kim, basar hissi qorong‘u kechada qildi g‘alat.

Sarv chun asru biyik, savsan bag‘oyat past edi,
Qomating xayrul-umur oyinidin topti vasat.

Sayli ashkim ro‘di ikki bo‘ldi olam mulkini,
Go‘yiyo olam erur Bag‘dodu ashkim sayli Shat.

Tavsani himmat bila qat’ aylagil dashti fano,
Yo‘qsa bu yo‘lda bo‘lubtur tavsani gardun saqat.

Ey Navoiy, may bati qonin oqiz bazm ichrakim,
Gar kabob aylar va lekin elni mast aylar bu bat.

ZYe HARFINING ZARIFLARINING ZUHURI «NAVODIR»DIN

284

Ne nutqi dilkash erur, vah, ne dilrabo alfoz,
Masih nutqida yo‘q buyyla jonfizo alfoz.

Erur xujasta so‘zung fayz mavjining tengizi,
Tengizda har sarig‘i durri bebaaho alfoz.

So‘zungda lafzin eshitkach arab fasihlari,
Birisi qilmadilar so‘zga ibtido alfoz.

So‘zungda piri xirad topmayin g‘alat ahkom,
Tilingga sahv ila ham o‘tmayin xato alfoz.

Sanga nadim o‘lubon Jabrail ham keturub,
Bir oshno qoshidin barcha oshno alfoz.

Sipehr javfida daryo vujudung ichra so‘zung,
Bu bahr ichinda javohir so‘zung aro alfoz.

Navoiy ayladi na’tingni, vird bo‘lsa, ne tong,
Anga kalomi ravonbaxshu muntaho alfoz.

285

Labingdin bo‘ldi bu mahjur mahzuz,
Aningdekkim, shakardin mo‘r mahzuz.

So‘zungdin topsa haz ko‘nglum ajab yo‘q
Ki, sharbatdin bo‘lur ranjur mahzuz.

Emas hajring kuyuk ko‘ksum iloji
Ki, bo‘lmas shu‘ladin mahrur mahzuz.

Sochingdin orazing ko‘rguzki, elni
Qorong‘u tunda aylar nur mahzuz.

Labingg‘a jon fidokim, qildi jonni
Bu aqshom asru nomaqdur mahzuz.

Xumor o‘lturdi, soqiy, tut qadahkim,
May o‘lmay bo‘lmadi maxmur mahzuz.

Navoiy ko‘nglini buzdung, qil emdi,
Etib vasling bila ma’mur mahzuz.

286

Necha yolg‘on so‘zu muzhik harakot, ey voiz,
Majlis ahli yuzidin yo‘qmu uyot, ey voiz.

Dedilar: pand ila tavsanlig‘in elning o‘ksut
Kim, dedi: tepkilu minbarni ushot, zy voiz.

Huru jannatni ko‘p o‘qdung magar ul yon, elni,
Yuborurga qilasen qat‘i hayot, ey voiz.

Yoshurun dardima dur ashku emas nutqingning —
Asaridin yuzum uzra qatarot, ey voiz.

Kecha ichmak mayu kunduz demak ichmang ani,
Hikmat ichra bu erur yaxshi sifat, ey voiz.

O‘zgacha bo‘lmoqu o‘zgacha o‘zin ko‘rsatmoq,
Ko‘z tut o‘z holinga tafzihni bot, ey voiz.

Dayr piri qulidurmenkim, agarchi may ichar
Bori bor o‘z ishida anga sabot, ey voiz.

Elni chun zarq namozi so‘ziga jam’ etting,
Tortg‘il tafriqag‘a emdn salot, ey voiz.

257

Chekti bulbul kebi ming lahn ila doston hofiz,
Yo‘q aningdek yana bu davrda xushxon hofiz.

Davr o‘qir chog‘da ajab fitnalar izhor,
Yo‘q aningdek yana sarfitnai davron hofiz.

Hofiz etkan kebi haq lutfi ani qur’onda,
Bo‘ldik aning dog‘i har holida qur’on hofiz.

Jon olur na'masi ul ruh g'izosi birla,
Xalq jonin qilur o'z bazmida mehmon hofiz.

Gar unung jon olur ani desa bo'lg'aymu darig'
Kim, fido boshtin ayog'ingg'a sening jon hofiz.

Sendadur na'mai Dovud ila anfosi Masih,
Bordurur yo'q esa davronda farovon hofiz.

Ey Navoiy, dema lahnig'a nedin bo'ldung sayd,
Halq saydig'a qoni uyla xush alhon hofiz.

AYN HARFINING IYOLARINING ALOMATI «NAVODIR»DIN

288

Izzat tama' kim aylasa tark etmayin tama',
Ul xorliqqa mujib erur azza man qana'.

Tuxmi tama'ki xorliq o'lmish aning bari,
Sen buyla xor tuxmin ekib qilma gul tama',

Nafsing halokin istayu topsang ani halok,
Zinhor motam ahli kebi qilmag'il jaza'.

Nevchunki to tirikdurur ul zolimi lain,
Ko'nglunggadur halokatu joningg'adur vaja'.

Ruhungg'a sihat o'lsa maloyik bo'lur sipoh,
Nafsingg'a quvvat o'lsa shayotin bo'lur taba'.

Tark etma uzru ajzg'a ko'nglungni solsa fisq,
Qo'yg'il riyovu ujbg'a gar bosh chekar vara'.

Joh ahli, faqr ichra Navoiyg'a iqtido —
Aylangki, bu tariqa anga keldn muxtara'.

289

Mehr ila gar keldi charx ayvoni rif'atdin mani',
Jom qo'yg'on dayr toqin anglag'il andin rafi'.

Dayr jannatdur, ko'r anda jilvagar har mug'bacha,
Shaklikim zohir qiliptur huru g'ilmondin badi'.

Soqiyo, chun davr aro solding hiloliy jomni,
Bilkim, ul sayr ichra bor o'zga kavokibdin sari'.

Gar chiqib masjiddin o‘ldum but qoshida g‘am yemon,
Shoyad ul jurmumg‘a ushbu toatim bo‘lg‘ay shafi’.

Menki dayr o‘ldi, manga taqviyu toat buq’asi,
O‘lganimda kufr go‘ristonin aylarmen baqi’.

Bo‘ldi soqiyning gul ruxsori gul-gul bodadin,
Tut g‘animatkim yigitlik faslidur fasli rabi’.

Xonaqahdin kim Navoiydek borur mayxonag‘a,
Anda-o‘q qo‘ydik riyovu ujbdek fe’li shani’.

290

Qildi uqor o‘tog‘asin ul qotili shijo’.
Xurshid orazig‘a hamono xati shio’.

Ul minmayin hanuz takovarg‘a, voykim,
Medin qaroru sabru ko‘ngul qildilar vido’.

Maydong‘a chopti tavsанин ul nav’kim, degil
Kim, charx shahsuvori bila qilg‘usi nizo’.

Yuz fitna soldi g‘ayri mukarrarki, aylamish
Bedodu zulm tavrida yuz nav’ ixtiro’.

Jonni oti ayogig‘a dedim, nisor etay,
Lek ermas edi ko‘zga ko‘runguncha bu mato’.

Sarkashlik etma shu'ladek o‘rtarga elnikim,
Asru bod inhibitot topar andoq irtifo’.

Boshtin, Navoiyo, chiqar o‘zluk xayolini,
Gar sarzanish bila der esang ko‘rmayin sudo’.

291

Lablaringdin har zamon jonni tilarmen muntafi’
Munqati’ bo‘lmay nafas, bo‘lmas umidim munqati’.

Ko‘z yumub ochquncha, vah, yuz qatl qilmoq yo‘q edi,
Buyla san’atlarda mahvashlарg‘a sensen muxtari’.

Ko‘ktadur ohim quruq tandin itib munoglug‘ ko‘ngul,
Shu’la daf” o‘lmay o‘tundin dud bo‘lmas murtafi’.

Ishqu dardu shavq ko‘nglum ichradurlar, ohkim,

To ne qilg‘aylar bo‘lub mundoq balolar mujtami’.

Ishq eli g‘avg‘osidin dardim desang, ma’lum emas
Xossakim, ulkim anga dermen xud o‘lmas mustami’.

Istasang dayri fano sirrig‘a topmoq ittilo’,
Mastlig‘din bo‘lmag‘il davron ishiga muttali’.

Ey Navoiy, qil fano ilmini yaxshi kasbkim,
Aylagaysen daf’ agar taqvo buyursa mutbadi’.

292

Ko‘rub orazing yig‘lasam yo‘q badi’,
Kelur sel bo‘lg‘onda fasli rabi’.

Necha ishq aro bor esang tangdil,
Erur ul uy ikki jahondin vasi’

Gumon qilma ishq ahlini xoksor
Ki, himmatlaridur falakdin rafi’.

Damim o‘ti ko‘kka chiqar uyla tez
Ki, barq inmagay yerga andoq sari’.

Yuzung ollida gul hadisin demon,
Xush ermas latif elga lafzi shani’.

Agar zuhd edi jurmum, ey piri dayr,
Ne g‘am bo‘lsa jurmumg‘a lutfung shafi’.

Navoiy agar yor erur bazlago‘y,
Badi’ eldin ermas badoe’ badi’.

293

Hajr o‘tidin shom agar mendek emas bexob sham’,
Rishtai jonig‘a nevchun soldi pechu tob sham’.

Bir quyosh hajrida gar kuymas nedin bas men kebi,
Kavkabi ashkin to‘kar andoqki durri nob sham’.

Mahvashimdek demakim, bo‘lmish libosi la’lgun,
Men kebi qon yoshdin o‘ldi g‘arqai xunob sham’.

Kechaikim tiyra kulbamni yorutqay ul quyosh,
Tong emas anjumdek o‘lsa ul kecha noyob sham’.

G‘am tuni ul oy xayolidin buzug‘ ko‘nglum yorur,
Go‘shai vayrong‘a bastur partavi mahtob sham’.

Tiyra shoming fayz nuridin desangkim, yorug‘oy,
Tutqil ul yanglig‘ki tutmis go‘shai mehrob sham’.

Ey Navoiy, ul quyosh qo‘yg‘och shabistonimg‘a yuz,
Rashkdin siymob ashkidek bo‘lur siymob sham’.

294

Torttim ranji xumor aylab mayi ahmar tama’,
Ul kishidekkim, qozar tog‘ aylabon gavhar taml’.

Lola jomi durdidek ham dast bersa yaxshidur,
Davrdin gar aylay olmon lolagun sog‘ar tama’.

Soqiyo, jomi labingdin el tama’ qilg‘onda no‘sh,
Bizga g‘amzangdin erur bir jonsiton nishtar tama’.

Qatlima andin qila olmon tama’, ber zahri chashm,
Men kimu la‘li labidin aylamak shakkar tama?!

Desangizkim, bo‘lmag‘aysiz men kebi devonavash,
Odamizod ichra qilmang bir pari paykar tama’.

Piri dayr ollida qo‘ydum naqdi jon, ey mug‘bacha
Kim, manga bor erdi sendin la‘li jonparvar tama’.

Istadim vaslu vafo, dedi: Navoiy qilmag‘il —
Bu tama’, qil, gar qilursen mundin o‘zga har tama’.

G‘AYN HARFINING G‘IZOLALARINING G‘AVG‘OSI «NAVODIR»DIN

295

Zihi buroqing izidin qamar uzorida dog‘,
Muayyan ikki qarog‘ingg‘a surmai mozog‘.

Chu yorutub yuzung o‘ti falak shabistonin,
Uyotidin o‘churub har taraf nujum charog‘.

Shamimkim sochibon zulfi anbarafshoning,
Bo‘lub savomi’ qudsi eliga atri dimog‘.

O‘tub chu qaddu uzoring sipehri axzardin
Bu nav’ sarv ila gul topmayin yana ul bog‘.

Ulusqa zulmati kufr ichra iztirob erdi,
Yuzung quyoshi furug‘idin o‘ldi muncha farog‘.

Kitobing o‘zga kutubdinki bordurur ablag‘,
Balog‘atingg‘a munosib haq aylamish iblog‘.

Bu baski ayni inoyat bila ko‘zung tushsa,
Tamug‘ o‘tig‘a Navoiyni sudrab eltur chog‘.

296

Garchi yo‘qtur lolazori ashkima paydo qirog‘,
Dudan ohim bila qo‘ymoq bo‘lur borig‘a dog‘.

Gullar o‘lmish otashin to o‘tlug‘ ohim tortibon,
Aylamishmen orazing hijronidin gulgashti bog‘.

Zulf aro ul oraz uzra zarvaraq har yon erur,
Shom andoqkim yoqilg‘ay suda har jonib charog‘.

Oshiq o‘ldum ul malak siymo pari ruxsorig‘a,
Uylakim, o‘t shu’lasidin elga garm o‘lg‘an dimog‘.

G‘amdurur ko‘nglumda ul Shirin sanamni ko‘rgali,
Tog‘ aro Farhod o‘lur kim ko‘rdi Farhod ichra tog‘.

Davr ranjidin desangkim, lahzae sog‘ o‘lg‘asen,
Davr ayog‘i ichmakidin bo‘lmag‘il bir lahza sog‘.

Ey Navoiy, chun ko‘ngul bir dam ochilmas bodasiz,
Istasang ul uyni ravshan dam-badam tutg‘il ayog‘.

297

Xazon faslida ul oy jismu ruxsorimni ko‘rgan chog‘,
Degaykim, bir qurug‘ shox uzra qolmish bir sarig‘ yafrog‘.

Uchamda oy tutulg‘an dog‘dek qoldi asar, go‘yo
Ulug‘ ermish fatila asru chun ko‘ksumga qo‘ydum dog‘.

Gunahsiz o‘lgan el qoni tutubtur shastini, yo‘qsa
O‘shul qotil xino birla qizil qilmaydurur barmog‘.

Guli ra’nodin etti kisvatin sarvi ravon yoxud
Sarig‘ terlik uza ul sho‘xmu kiymish qizil shirdog‘.

Yuziga mehrdin yo‘qkim, yuzidin mehrga nogah,
Harorat yetmasun derkim, solur har saridin qalpog‘.

Qo‘zi ul sho‘xning chun bo‘ldi ham bemoru ham usruk,
To‘la tut davr ayog‘in, ey ko‘ngulkim, men ham o‘lmay sog‘.

Ko‘z och, ashki nadomat soch o‘z ahvolingga‘kim, bordur
Tunung tiyra, ko‘zung xira, yo‘lung burtog‘, oting oqsog‘.

Qadam qo‘yma adabsiz bu xazon ko‘rgan chaman ichra
Ki, bir gul rang yuzning safhasidur har sarig‘ yafrog‘.

Magarkim ko‘yida yolang ayog‘ ul oy xirom etmish,
Navoiy ko‘zlariga surma bo‘lmish ul qora tufrog‘.

298

Oh o‘ti birla yuzung hajrida qilsam gashti bog‘,
Lola yanglig‘ o‘rtagay bir-bir sharar gullarga dog‘.

Ko‘rgach ul orazni yig‘larmen tushub mag‘zimg‘a jo‘sh,
Uylakim guldin yosharg‘ay ko‘z, qiziq bo‘lg‘och dimog‘.

Yuzgakim sanchib binafsha istading husnungg‘a zeb,
Go‘yi ul ko‘kurd birla ravshan aylarsen charog‘.

Dog‘u qonlig‘ chok-chok o‘lg‘on ko‘nguldadur g‘aming,
Lola tog‘ ichra bo‘lur kim ko‘rdi lola ichra tog‘.

Ikki gavharkim banogo‘shungdadur anjum kebi,
Husn aro oydek yuzung ollida tutmishlar charog‘.

Bodadin bir dam farog‘at istama, gar istasang
Davr ahli mehnatidin topqasen bir dam farog‘.

Yor ayog‘in sug‘a chun soldi, ko‘zum to‘ldi sirishk,
Ey Navoiy, buyla bolig‘qa kerak mundoq bulog‘.

299

Baski qo‘ndung ko‘ksuma ko‘nglumni olg‘on chog‘ dog‘,
Jismim o‘lmish xirqam ul yanglig‘ki maydin dog‘-dog‘.

Demakim, ne dog‘dur ko‘nglungdakim, o‘tlug‘ ko‘zung,
Qo‘ydi anda ko‘rguzub yuz loba birla log‘-dog‘.

Dog‘lar qo‘ydum, chu mastu oshiq o‘ldum nechakim,
O‘zni asrab qo‘ymas erdim bor ekanda sog‘ dog‘.

Arg‘uvoni to‘n bila to jilva qilding, vahki, bor

Hayratingdin arg‘uvon shohig‘a har yafrog‘ dog‘.

Solg‘ali o‘t bag‘rimu ko‘nglumga hajring bor emish,
Tortmoq ko‘nglumdin ohu bag‘rima qo‘ymog‘ dog‘.

Go‘yiyo Farhoddek hamroz uchun barq o‘tidin,
Lola ermas bag‘rig‘a har sari qo‘ymish tog‘ dog‘.

Ey Navoiy to‘kma o‘tlug‘ ko‘nglung uzra ashkkim,
O‘rtanur ko‘prak kuyar holatda quysang yog‘ dog‘.

300

Zaif jismim aro bir-birining ustiga dog‘,
Qurug‘ yog‘och uzadur yafrog‘ ustiga yafrog‘.

Evursa har sari, tong yo‘q yuzini ohimdin
Ki, chayqalur yel, agar usruk tund bo‘lsa charog‘.

Chamang‘a g‘amzada ko‘nglumni chekma, ey bulbul
Ki, keldi chug‘zg‘a vayrona kunji go‘shai bog‘.

Yaram fatilasi zaxmimni kuydurur har dam,
Magarki qon anga xosiyat ichra bo‘lmish yog‘.

Kerakki qo‘ymasa bir dam piyolani qo‘lidin,
Zamone ulki tilar bu zamona ichra farog‘.

Yetishti burnig‘a ofatki, tutti burnin el,
Yorug‘lug‘i bila chun sham’ bo‘ldi kunddimog‘.

Xayoling etti Navoiy boshinda manzilgah,
Nedinki bir tepada joriy erdi ikki bulog‘.

301

Onchakim ul g‘amza surdi ko‘rguzub bedod tig‘,
Surmas elga qatli om o‘lg‘anda yuz jallod tig‘.

Shu'laliq ko‘nglum aro ko‘r xanjari ishqningnikim,
Buyla otashkorliq qilmaydurur haddod tig‘.

Qatl etib kund o‘lmadi, vah, ne itikdur tig‘i ishq
Kim, aning qoshinda narm ohincha yo‘q po‘lod tig‘.

Menmenu ko‘hi g‘amimkim tog‘ tig‘i basdurur,
G‘am sipohi harbig‘a istar esa Farhod tig‘.

Tig‘i ishqing olam ahlin o‘lturub kund o‘lmadi,
Hech qotil olam ichra buyla bermas yod tig‘.

Tig‘i g‘amzangg‘a ajal suyi magar bermish qazo
Kim, yasay olmas itik ul nav’ hech ustod tig‘.

Shasti g‘amzang birla bahri ashk aro tutqoch meni,
Kesma boshimkim balig‘qa surmadi sayyod tig‘.

Yo‘q bu gulshan ichra imkoni farog‘at buylakim,
Barginin har yon chekibtur savsani ozod tig‘.

Ey Navoiy, bo‘g‘zinga hayvon suyidin yaxshiroq,
Gar surar qatl etkali ul sarvi hurizod tig‘.

302

Sarg‘aribtur lolaro‘yim ranji to bo‘lmish qotig‘,
Lola bu yil gulshani umrumda ochilmish sarig‘.

Ko‘p osig‘ umrum bahori mevasidin istadim,
Mevag‘a yetmay xazon bo‘ldi bahorim, ne osig‘.

Sharbat etsam shirai jonim zuloli Xizr ila,
Der achig‘lanibki: ne uldur chuchuk, ne bu orig‘.

Ey Masiho, urma dam ul ko‘zda sufrat daf‘ig‘a,
Kahrabo keltur quyoshtin, Hut burjidin bolig‘.

Vasfi ul ko‘zning qoralig‘ birla erdi, voykim,
Emdi sarig‘liqqa mansub etmish ani xastalig‘.

Derki, safro kasratidin bo‘lmish og‘zim ta’mi talx,
Ne tong, o‘lsamkim bu nav’ o‘lmish chuchuk jonim ochig‘.

Budur ummidimki, ham haq lutfi bo‘lg‘ay dastgir,
Nabz tutmoq mayli qilma, ey tabib, ilgingni yig‘.

Gar quyoshim bo‘lsa rokib bo‘lg‘udek emganmasun,
Tavsani aflok nevchunkim erur behad cholig‘.

Ey Navoiy, bo‘lsa yuz jonim, qilurmen sadqakim,
Bo‘ldi jonon za’fidin ayshim ochig‘, holim qotig‘.

FYE HARFINING FITNALARINING FUSUNI «NAVODIR»DIN

303

Tog‘ oshiqliq yukidin xam bo‘lurg‘a yo‘q xilof,
Ko‘rki, ne nav’ o‘ldi xam chun qoldi ishq ostida Qof.

Ishq dashti mo‘ridin aylar hazimat ajdaho,
Ajdaho birla nechukkim mo‘r eta olmas masof.

Yer tutar qottig‘ ko‘ngulga ishq o‘tining uchquni,
Barq tig‘i tog‘ni ul nav‘kim aylar shikof.

Ulki do‘zax o‘tidin ishq ahlini taxvif etar,
Ishq o‘tin chun ko‘rmamish tutmoq bo‘lur ani maof.

Ishq tig‘i chun ko‘runmay sanchilur el jonig‘a,
Xo‘blar mujgonidin go‘yo anga keldi g‘ilof.

Eyki, oshiqsen birovga kelsa har dam yuz balo,
Shukrdin o‘zga ne so‘zkim aytsang bordur gazof.

Ey Navoiy, bermayin jon ishqdin dam urmakim,
Har nekim der o‘lmayin oshiq erur ul barcha lof.

304

G‘amzadin ko‘p tig‘ urdung aylabon ko‘ksum shigof,
Naycha yanglig‘ tng‘ uchun go‘yoki qilding bir g‘ilof.

Ne ajab, tig‘ing balo ruxsorig‘a mir’ot esa
Kim, ko‘runur suda yuz aksi qachonkim bo‘ldi sof.

Vah, ne qotillardurur saf-saf aning mujgonikim,
Har yumub ochquncha ko‘z zohir qilurlar bir masof.

Oshiqu majnunlug‘um jurmig‘a o‘lturdung meni,
Garchi bor el ollida Majnun bila oshiq maof.

Ishq vodiysinki oson deb emishsen, ey Masih,
Sen azimat qilki, men ajzimg‘a qildim e’tirof.

Ulmayin ishq ichrakim lof ursa bovar qilmag‘il,
Gar desakim, tarki lof ettim, erur ul dog‘i lof.

Ey Navoiy, zulfu qaddin gar demishsen mushk bid,
Yor afv etsunki, aytibsen xato birla xilof.

305

Orazing xurshidi keldi axtari burji sharaf,

Davrida xat shomi mushkoso yuz urmish har taraf.

Dog‘ima otqan o‘qung gar tegmasa jismimdadur,
O‘jni band aylargadur tufroq uza qo‘yg‘an hadaf.

Ulki yub ketmas qo‘lidin baski nohaq to‘kti qon,
Vah, ne hojatkim xino birla yana rang etsa kaf.

Gar ato Yusuf, ano bo‘lsa Zulayxo filmasal,
Mumkin ermas, ey habibim, sen kebi kelmak xalaf.

Qamdur, ey gulrux, mug‘anniy husni savting janbida,
Yangi oy birla quyosh jirmidin o‘lsa changu daf.

Ey fano ko‘yiga ozim chun tavakkul bo‘ldi rost,
Har necha bu yo‘l maxuf o‘lsa, qadam ur lotaxaf.

Gar talaf bo‘ldi Navoiy umri ishq ichra ne g‘am,
Shukr, bore bo‘lmadi zuhdu riyo ichra talaf.

306

Ne nav’ ko‘nglum o‘lur ishq xayli birla harif
Kim, ul shah asru tavono, bu munglug‘ asru zaif.

Latofating erur ul hadg‘akim, badandin ruh.
Necha latif esa, sen ruhdinsen oncha latif.

Pari nihondurur eldin vale bu devona
Paridin o‘ldi nihon, baski bo‘ldi zoru nahif.

Fido sanga menu yuz mendek o‘lsa za’f bila
Kerakki, sihhat aro bo‘lsa ul mizoji sharif.

Seni ne nav’ zarofat bila kishi o‘gsun
Ki, haq boshingdin ayog‘ingg‘a tegru qildi zarif.

Yigitlar ichra qari necha xiffat etsa erur,
Saqil avlo erur ulki aylagay taxfif.

Navoiyo, senga ul pok ila ne nisbatkim,
Sen asru bodag‘a oludasen ul asru afif.

307

Novaking tokim erur kuygan ko‘ngulda mu’takif,
O‘rtagan yo sabt qilg‘an dog‘ aro bo‘lmish alif.

Yoshurun kofir ko‘zung din qasdi aylar, vah, ne sud,
Hiyla aylab sheva mehrob ichra bo‘lmoq, mu’takif.

Deb emishsen o‘lturay kim desa oshiqmen sanga,
Tig‘ surgilkim men o‘z jurmumg‘a bo‘ldum mu’tarif.

Egri boqmoq birla ul ko‘z qatl etar ushshoqni,
Go‘yiyo bemorliq qilmish mizojin munharif.

Yor vaslin istagan qilsun ibodat, demakim
Munda bir maqsud erur, lekin rivoyat muhtalif.

Shayx aytur bir karomatini har dam o‘zga nav’,
Go‘yiyo nisyon bo‘lur g‘olib kishi bo‘lsa harif.

Markabi ishqu navo mendek Navoiy zinhor,
Qil inon azmini sen mayxona sari mun’atif.

308

Tong yo‘q, urmoq yuz bu sargardonu mahzun har taraf.
Ne ajab, ursa quyundek po‘ya Majnun har taraf.

Ko‘zlarim bog‘i guliston bo‘lmish ul yuz shavqidin,
Bargi gullardur sochilg‘an ashk gulgun har taraf.

Dasht aro Majnunmen, ammo tog‘ aro Farhod edim,
Tog‘lar dardim yukidin bo‘ldi homun har taraf.

Aqlu hushum kishvari gar bo‘lsa vayron, yo‘q ajab,
Qo‘z yoshimdinkim oqar andoqli Jayhun har taraf.

Hajri shomi anjum ermasturki ohim o‘tidin,
Qatra terlardurki zohir qildi gardun har taraf.

Ey xusho, mug‘ dayrikim din naqdi toroj etkali,
Zohir etkay jilva bir tarsoyi mavzun har taraf.

Qo‘yiga topmas Navoiy yo‘l raqibi ta’nidin
Go‘yiyo ul it xurubdur aylab afsun har taraf.

QOF HARFINING QIYomatlarining Qironi «NAVODIR»DIN

309

Jahon zoli ham makr etar, ham nifoq,
Ani to‘rt mazhabda qil uch taloq.

Nechuk deyki, ruxsoridin olma ko‘z
Ki, men aytmankim, aning sari boq.

Sening so‘gungga yoymish oq sochini,
Emastur yuzi mehr nuridin oq.

Qoshi uzra qavsi quzah vo‘smasi
Vafo rangidin keldi, albatta, toq.

Desang qolg‘ay obod dining uyi,
Bu bedin bila bo‘lmag‘il hamvisoq.

Tajarrud tariqini bil mug‘tanam,
Taqayyud g‘ulusidin o‘lg‘il yiroq.

Navoiy, o‘zungni qil ul nav’ fard
Ki, o‘zlukni ham sol o‘zungdin yiroq.

310

Chehra gulgun safhasig‘a qilding afshon zarvaraq,
Yo magar raxshon kavokib zohir aylabtur shafaq.

Gar varaq ziynat topar xatdin vale xat yozmayin,
Turfa suvrat birla olam ofatidur ul varaq.

Gulshan ichra qismat etsa la’lidin jon shirasi,
Sifra gar gul ochsa, gul yafrog‘laridindur tabaq.

Xo‘ydin ar bo‘lmish jamoling sham’i ravshanroq, ne tong,
Chun tushar o‘t ichra aylar shu’lani afzun araq.

Ishq abvobin yozarg‘a yaxshi jismim xomasi,
Xossakim, tig‘i firoqing ayladi boshimni shaq.

Ishq darsin garmravlar bildi yo‘q afsurdalar
Kim, kishi to o‘rtamas o‘zlukni bilmas bu sabaq.

Bulbulu gul de Navoiy birla dildorinikim,
Ul iki mafhumg‘a yo‘q bu ikkidek mosadaq.

311

Mushkil ishdur uyda bir g‘oyibni har dam yo‘qlamoq,
Lek muhlik yo‘qlag‘andin so‘ngra istab topmamoq.

Kimgakim yuzlansa bu shiddat ne tong olam yuzin,
Ohu ashki sarsaru to‘foni birla qo‘zg‘amoq.

Telba itdek hajr so‘zidin kelurmen o‘t sochib,
Ofiyat ahlig‘a avlodur yo‘lumdin tarqamoq.

Ne junundur ul quyoshtin ayru hijron dashtida,
Goh qo‘rqub soyadin qochmoq, gah ani qavlamоq.

Tog‘ etakinda gar ag‘narmen junun ifrotidin,
Istaram ul pardani uryon tanimg‘a chirmamoq.

Turfadur tog‘ avjida har lahza kulmak barqdin,
Chun bo‘lur mufrit mening birla bulutqa yig‘lamoq.

Men chu kechtim ishq aro boshtin malomat qilmangiz
Kim, ajabdur boshsiz elning qulog‘in to‘lg‘amoq.

So‘zni angla, soqiyo, mast et meni ul nav‘kim,
Bo‘lmag‘ay mumkin manga davr ahli so‘zin anglamoq.

Senda noz o‘ldi, Navoiyda niyoz ermas ajab,
Bas sen ani qarg‘ag‘an soyi, seni ul alqamoq.

312

Vaslinga kechrak yetishsam, lutf etib uzrumg‘a boq
Kim, qadam o‘rnin supurmay ko‘z bila qo‘ymon oyoq.

Qat‘ qilmoq ishq vodiysin erur bas turfa ish,
Xossa majruhki, ham bemor bo‘lg‘ay, ham yayoq.

Sog‘inurmen yor xaylidur ko‘runsa har qora,
Garchi hayrat sayli ashki ko‘zlarimni qildi oq.

Vahki, salmo noqasi ildamdurur, men xastahol,
Lutf etib, ey sorbon, fitrokini bo‘ynumg‘a toq.

Eyki dersen, hajr dashtig‘a yaroqsiz kirmagil,
Bori degilkim, emas bu dasht aro kirmoq yaroq.

Tashna lablar holi bu vodiya ne bo‘lg‘ayki, su
Ko‘z yoshidur, dog‘i o‘tluq lolalar jomi ayoq.

Ey Navoiy, bu biyobon qat‘in oson aylading,
Ashkdin mundoqki har manzilda chekting yuz buloq.

313

Sipehr bog‘in nujum vardi chu qildi ul nav‘ikim Xavarnaq,

Yuzidin ul sham' anjuman ichra soldi yuz ming safo ravnaq.

Qamar masallik yuzi shabistonimizni andoq yorutti, go‘yo
Ki, charx bog‘i quyoshtin andoq munavvar o‘lmaydur erdi mutlaq.

Uzori mehrig‘a turrai shomini har taraftin qilib mutarro,
Bu turfakim mehr chashmasidin zaqan hubobin osib muallaq.

Xirom vaqtida sur’atidin yuziki terlab bo‘lub biaynih,
Gul uzra shabnam yo‘q ersa, xurshid uza sochilg‘an sig‘or ziybaq.

Tilida un loba bo‘lsa muzmar yuzida yuz husnu lutf mudg‘am,
Ko‘zida yuz g‘amza bo‘lsa mamlu, qadig‘a ming nozu jilva mulsaq.

So‘ng ilgida bir safina, lekin bu xasta ash’oridin muhallo,
So‘ng ilgida shisha ichra may, lekin o‘z mani la’lidek muravvaq.

Bu shakl ila kirdi kulbam ichra yonimg‘a keldiyu tutti maskan,
Hasad o‘tidin yaqin edikim erib to‘kulgay sipehri azraq.

Ne xush qoldi manga, ne toqat, ne sabr qoldi manga, ne orom,
Chu ko‘rdi o‘lgum, kulub to‘la qildi boda daryosi ichra zavraq.

Ichib manga dog‘i tutti, chun behud erdim og‘zimg‘a quydi ani,
O‘lub esam ham tirilsam ul dam yaqin mening jonim erur haq.

Mangaki ishq ichra buyla kom o‘lsa tarkin etmaq erurmu mumkin,
Nechaki taklif qilsalar shayxi loda birla faqihi ahmaq.

Navoiy, ishq tarkin etma, qadahni ham qo‘ymag‘il iligdin
Ki, dahr muxtiyda mundin o‘zga erur ne qilsang xatoyi mutlaq.

314

Gar qo‘yosh orazig‘a sa‘bdurur ko‘z solmoq
Ul quyosh orazidin mushkil erur ko‘z olmoq.

Ne quyoshtur buki, chun chiqtı ko‘ngullar xayli,
Bo‘lsa yuz ming ishidur zarra kebi qo‘zg‘almoq.

Sarsari ohdin ashkimga taharruk ne ajab,
Yel chu tez o‘ldi, bo‘lur bahr ishi chayqalmoq.

Ey visol ahli, fig‘onim eshitib kulmangkim,
Hajr zindoni aro mushkil erur qiynalmoq.

Soqiyo, dema tugatkilki, emastur mumkin,
Hajr lab tashnasi jomida tarashshuh qolmoq.

Ey mug‘anniy, qadahu sham’u bu behud sari boq,
Bu bo‘lur muzhiku mubkiyu munavvim cholmoq.

Sola olmaydur aning sari Navoiy o‘zini,
Ey ko‘ngul, fonda yo‘q, bo‘lmas o‘zungni solmoq.

315

Ul pari paykarki bo‘lmish insu jondin xo‘broq,
Bor aningdek xo‘bkim, mumkin yo‘q andin xo‘broq.

Gulshan ichra orazu qadingg‘a moyilmenki bor,
Bu guli ra’nodin ul sarvi ravondin xo‘broq.

Ishq jurmig‘a gar o‘lturgung birovni bil yaqin
Kim, bu ishga yo‘q kishi men notavondin xo‘broq.

Hajr vodiysinda ulkim bir musofir yori bor,
Yo‘q ani istarga tarki xonumondin xo‘broq.

Xo‘blug‘din jon olib o‘zni yiroq tutmaqqa yo‘q
Xo‘blar xaylida, billahkim, falondin xo‘broq.

Xo‘b edi ko‘nglumni istar bo‘lsa andin o‘zga xo‘b,
Xo‘broq budurki, yo‘q ul dilsitondin xo‘broq.

Ko‘p jafo chektim ko‘nguldin, yetkuray desam jazo,
Topmag‘umdur kimsa ul nomehribondin xo‘broq.

Bir zamon vasl o‘lsa yo hijron zamona ahlidin,
Tut g‘animatkim, zamon yo‘q ul zamondin xo‘broq.

G‘ar junun dashtida hajr anduhi kam bo‘lsun desang,
Ey Navoiy, topmag‘ung ohu fig‘ondin xo‘broq.

316

Ulki kofur bo‘lub mushki qilur ra’noliq,
Oq soqolig‘a kular xalq, zihi rasvoliq.

Chun soqolsizliq erur lozima ra’noliqqa,
Qirqmoq lozim erur ani zihi ra’noliq.

Umr ellikka chu yetti yana ellikdin emas,
Yog‘iliq tengrigavu amrig‘a noparvoliq.

Kim yigitlikda qilur tovba, yigitlik uldur

Qari bulg‘or soqolin qilsa qadah paymoliq.

Tengridin qo‘rqmay ulkim, qaribon boda ichar,
Yaxshiroqdur bu musulmonlig‘din tarsoliq.

Budur insofki, chun bo‘ldi quvo za’f pazir,
Yo‘qturur hech mufarrihda nashot afzoliq.

Qila olmas qori debo kiyib o‘zni zebo,
Shol ham kiysa yigitka yarashur zeboliq.

Qariliqda iki ishtin kishi bor elga aziz,
Biri zuhdu birisi xalq aro nopaydoliq.

Ey Navoiy, qariding go‘sha tutub, toat qil,
Bo‘lmayin xor desang aylama bazm oroliq.

317

Sanga ne g‘am men kebi majnuni shaydodin yiroq,
Ish mangadur sen parivash hur siymodin yiroq.

Hajr dashtida quyundek har taraf sargashtamen,
To tushubmen ul xiromon sarvi ra’nodin yiroq.

Oy jamolin istamonkim, ko‘rgamen olam aro,
Bir dam o‘lsam ul jamoli olamorodin yiroq.

Degesen: shomi ajal umrum quyoshin yoshurur,
Gar zamone bo‘lsam ul zulfi sumansodin yiroq.

Gar meni rasvo o‘larmen sensiz, ey oromi ruh,
Ham yiroq ermas agar bo‘lsang bu rasvordin yiroq.

Qilma ko‘p, ey shayx, aybim xonaqahg‘a yetmasam
Kim, xarobot ahli xushroq ahli taqvordin yiroq.

To yiroq tushmish Navoiy yor agar yod etmadi,
Qilma ko‘nglidin muning, yo rab, aning yodin yiroq.

318

Hajr aro rahming kebi bo‘lmas manga kam ishtivoq,
Balki husnungdin bo‘lur afzun damo-dam ishtivoq.

Ishtivoqing bahridin olamg‘a tomsa qatrae,
Jong‘a yetkaylor chekardin ahli olam ishtivoq,

Garchi bo‘ldum dard tog‘i, lek qaddim za’fdin
Ayladi ostig‘a qolg‘an qofdek xam ishtiyooq.

Hajridin yolg‘uz emas kuymakligimkim, onsizin,
O‘rtagan jonimni ham hijron erur, ham ishtiyooq.

Ishtiyooqim xirqatig‘a chorae qil, ey rafiq
Kim, xarob aylabturur holimni muhkam ishtiyooq.

Dilrabolar otashin la’lidadur andoqki o‘t,
Furqat ahlining qotiq jonig‘a mubham ishtiyooq.

Oh dudidin qora ermas Navoiy kisvati
Kim, aning ollig‘a solmish bo‘yla motam ishtiyooq.

319

Ashkdin bo‘ldi qorarg‘an kulbai vayronam oq,
Kulbai vayron demaykim, didai giryonim oq.

Ishq o‘tining dudidin hindu bo‘lubmen yorg‘a,
Ashk yug‘ondin nechuk bo‘lg‘ay tani uryonim oq.

Baski ko‘z bog‘iga berdi orazing hijroni su,
Har sari gullar ochibtur bu iki bo‘stonim oq.

Sabr.tifli maktabimen o‘rgana olmon sabaq,
Yig‘lamaqdin chun bo‘lur lavhi dabiristonim oq.

Vah, ne kun bo‘lg‘ayki nogah ul quyosh aylab tulu’,
Yuzidin bo‘lg‘ay qorarg‘an hujrau ayvonim oq.

Shomi hajrim qilsa, tong yo‘q, nogahon gar subhdek,
Jilvagar bo‘lsa libosin aylabon jononim oq.

Chun oqizding zor jismimni bahori sayldek,
Yor ko‘yi jonibi, ey ashk bo‘lg‘on qonim, oq.

Ro‘zgorim dayr aro qildi qora chun mug‘bacha,
Qolmag‘an bo‘lsa tong ermas chehrai imonim oq.

Ey Navoiy, xalqni baskim o‘qurda yig‘latur,
Ashk saylidin bo‘lur bo‘lg‘on soyi devonim oq.

320

Yuzung quyoshig‘a bu nav’ esa ayon bo‘lmoq,
Parig‘a mumkin emas xalqdin nihon bo‘lmoq.

Tasavvur aylasam egnimda nuqtai mavhum,
Belim sinarg‘a yetar ongla, notavon bo‘lmoq.

Magar bu hiyla bila poybo‘sung aylagamen,
Yo‘lungda komim erur xoki oston bo‘lmoq.

Jahonda har kishi ovora maqsadi ul ko‘y,
Hasaddin istaram ovorai jahon bo‘lmoq.

Netib qoshinda ko‘ray devlarki, bordur ishim
Maloyik o‘tsa aning sari badgumon bo‘lmoq.

Vafo chu gulda yo‘q, ey bulbul, ayt g‘uncha kebi,
Ko‘ngul qachong‘a senga laxt-laxt qon bo‘lmoq.

Chu xonaqahdin o‘ttung, Navoiy, o‘tkarma
Mahalni, dayr sari istasang ravon bo‘lmoq.

321

Ochibon ko‘ksumni yorg‘il qilmasam dog‘i yozuq,
Aylagil bori xayoling manzilin ochuq youq.

Bulajabliqlardurur ishq ichrakim aql anglamas,
Yo‘q esa issig‘ ko‘ngul ohi nedin bo‘lg‘ay sovuq.

Qatra-qatra qonki sensiz yuttum, aylarman bihil,
Yoribon ko‘ksum itingga bersalar qoshuq-qoshuq.

Zaxmig‘a yer ko‘rsaturmen chiqsa ul badmastkim,
Manglay uzra barmog‘imni eltid aylarmen topuq.

Kulsa og‘zing, bo‘lsa ham yorug‘ uzoring yaxshikim,
G‘uncha xandon turfaroq, gul dog‘i xushroqdur ochuq.

Zavraqi maydin meni mast etti piri dayrkim,
Charx jungidur tag‘oru bodasi uzra qayuq.

Bir dam ermaskim visoling istamasmen tengridin,
Bu hadisim qilmasang bovar erur tengri tonuq.

Kimki vosil bo‘ldi, raf” o‘ldi arodin qurbu bu’d,
Ka’ba sukkonig‘a no‘l xohi yiroq, xohi yovuq.

Ey Navoiy, kir fano dashtig‘avu tin barchadin
Kim, yayoqliq anda markab, to‘saszliqdur ozuq.

KOF HARFINING KOFIRLARINING KAMOLI «NAVODIR»DIN

322

Sanovu zoting ichra topib ajz, ahli idrok,
Gahi louhsn aytib, zamope mo arafnok.

Ne yanglig‘ ahli idrokki chun gardung‘a surdi,
Ko‘ziga surma qildi g‘uborin xayli aflok.

Zuloli sun’ung ichra sipehru sidra shohi,
Tengizda ul hubobe, bu ham andoqki xoshok.

Kamoli qudratingda xirad ul nav’ o‘lub lol
Ki, hayratdin hamisha qilib isba’ni misvok.

Firoqing so‘gi ichra kecha ko‘zdin sochib ashk,
Visolnng hasratidin yaqosin subh etib chok.

Yarimchuq pashsha nishi bila ojiz qilursen,
Nechakim pil yanglig‘ qaviydur xasmi bebok.

Chu tuzdung husn bog‘in uzoru qadin qilding
Birin gulbargi ra’no, birisin sarvi cholok.

Visoling ko‘zgusiga jilo berding kulidin,
Aningkim ishq o‘tidin vujudin o‘rtading pok.

Navoiy hamding aytur ajab yo‘q gar tiliga,
Inoyat lujjasidin ketursang gavhari pok.

323

Qolibmen za’fin baskim ul oy otti manga novak,
Teri birla so‘ngak, lekin so‘ngak o‘qlar, teri ko‘nglak.

Chidarmen har necha zaxm ursa ul qotil, vale bo‘lmas
Chidamoq, gar birin o‘z uzvida, qilsa birov o‘lchak.

Maloyik domi zulfidin qutulmas, vah, qutulg‘aymu,
Hazin ko‘nglum qushig‘a aylasa ul halqadin ilmak.

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo‘lg‘ay
Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu kelturur cho‘pchak.

Men o‘ldum noladin, noz uyqusidin yor ochmas ko‘z,
Ne sud andinki, hijron shomi bo‘lg‘ay ko‘zlarim sergak.

Qora qayg‘u meni eltib qora zulfung uchun har tun,
Qora boshni tutub ovuch qora yerga kirib tirsak.

Yeman g‘am telba ko‘nglum ranjidin muhlik jafong ichra
Ki, men o‘lgay edim o‘lsa kishi chekmak bila emgak.

Agar husn o‘lsa qotil zor ne darveshu ne sulton,
Vagar ishq o‘lsa komil, yor ne hinduvu ne o‘zbak.

Erur ahbob ishqining qusuri husn nuqsidin,
Jamolu noz to ko‘prak, niyozu shavq ham ko‘prak.

Desang ogah bo‘lan mandin o‘zungni hech bilmas qil
Ki, g‘aflatdur fano tavrida o‘zni bir nima bilmak.

Navoiy ul yuzu lab shavqidin nogah navo cheksa,
Dam urmas bulbulu to‘ti, ki budur kachcha ul piltak.

324

Hajrkim har dam meni bevahmu bok aylar halok,
Gar munga rozidur ul xunrezi bebokim ne bok.

Qaddi shavqidin dedim ko‘ksumga tortay bir alif,
Ishq tig‘i tez edi, ko‘ksum sarosar bo‘ldi chok.

Tiyrboroni firoqingdin tanimni istamon
Kim, ko‘zumga uchrag‘aykim bo‘lmish asru dardnok.

Husn mir’otin ochar kuygan ko‘ngul xokistari,
Nechakim ul bo‘lsa nuri pok, bu bir tiyra xok.

Ishq o‘ti ta’sir etar el necha nohamvor esa,
Barq sayrig‘a ne g‘am yer gar biyikdur, gar mag‘ok.

Poki husnung qadrin usruk ko‘nglum anglar, nevchun
Kim, balo soqiylaridin ishq jomin ichti pok.

Dema kim, erkin Navoiy xasta ko‘ngliga talab,
Ey ko‘ngul, zaxmig‘a marham, oyn matlubiy sivok.

325

Telba kim ko‘rdi meni shaydodek,
Parin ul huri malak siymodek.

Istasam sen kebi pokiza guhar,
Bo‘lmay o‘lg‘aymu ko‘zum daryodek.

Bo'ston sarvi gar o'lsun to'bi,
Emas ul naxl qadi ra'nodek.

Xo'blug' mulkida yuz shoh o'lsa,
Biri bo'lg'aymu bizing mirzodek.

Tengri ishq ahli shikastig'a magar,
Xo'blar ko'nglin etar xorodek.

Ishq Majnunni ko'p etti rasvo,
Qilmadi lek meni rasvodek.

Ey Navoiy, tilagan zuhdu saloh,
Qo'ziyu ko'nglini ham asradek.

326

Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok,
Kirpikim shabnam to'kulgan sabzadin namnokrok.

Bu ko'ngul g'amnokidin to shodmon ko'rdum seni,
Istaram har damki, bo'lg'ay xotirim g'amnokrok.

Layli andin qo'ydi Majnun ko'nglida raxti g'amin
Kim, yo'q erdi manzil ul vodiyda andin pokrok.

Uyla mujgon xanjarig'a yopishibdur durri ashk
Kim, magar andin yatime yo'qturur bebokrok.

Lablaringdnn jon olurda barcha el quldur sanga,
Jon berurda bir qulung yo'q bandadin cholokrok.

Odamiliq tufrog'in bersa fano yeliga charx,
Ohkim, yo'qtur kishi ahli vafodin xokrok.

Necha o'qlasang Navoiy ko'ngli zaxminroq bo'lur,
Ko'rmatuk zaxmeki tekkan soyi bo'lg'ay chokrok.

327

Ne hush ummidekim uryon nigun qad birla ursam tak,
Parilarg'a junun tumoridur bo'ynumda silkinchak.

Teri jismimda haryon toza dog'u qon ila go'yo,
Qazo majnung'a tik mish lolalar ya frog'idin ko'nglak.

Yara ko'zlar bo'lub tanda chu bo'ldi xira ul yuzdin,

Yasabmen har taraf eski tugonlar shaklidin aynak.

Yulub par jon qushidin, oh paykonin yig‘ib ko‘nglum,
O‘qung sing‘onlarin go‘yo yasar afg‘on uchun novak.

Nazar solsa yuzungdin o‘zga yuzga ko‘zni ko‘r aylay,
Qilibon tig‘ ila mardumni aning nuqtasidek hak.

Havo qilg‘anda zulfung halqa domidin ko‘ngul, bildim,
Bu qushning ham ayog‘, ham bo‘ynida muhkam emish ilmak.

Izin yerdin ketar deb asradim raglar kebi ko‘zda,
Olib jon rishtasi birla ayog‘i o‘rnidin o‘lchak.

Falak zarfin to‘lo berdi qazo ul oy mayi ishqin,
Bu maydin bizga, vahkim, tegmadi bir qatradin ko‘prak.

Liqo mumkin esa uchmoq tomug‘din qochmakim bo‘lmas,
Kishiga hech maqsude tuyassar chekmayin emgak.

Chu bo‘ldum ishqida fonyi, hadisin so‘rmangiz mendin
Ki, qolmas zikri zokir bo‘lsa mazkurinda mustahlak.

Tilarsen o‘zlukungning juzu juzzin munfak etkaysen,
Navoiy nazmining juzvini qilg‘il juzvi loyanfak.

328

Yuzung ochib ne ajab yuz xonumonni o‘rtamak
Kim, bo‘lur bir sham’ o‘ti birla jahonni o‘rtamak.

Chun ko‘ngul sayd aylading, jismimg‘a o‘t solmoq nedur,
Rasm bo‘lmas qushni olib oshiyonni o‘rtamak.

Za’fliq jismimni o‘rtab bo‘lma ohimdin malul,
Xosiyat juz dud ne bo‘lg‘ay somonni o‘rtamak.

Bil shafaq o‘tiyu anjum uchqunidin g‘am tuni
Kim, qilibtur mayl ohim somonni o‘rtamak.

O‘rtadi ko‘nglum tan ichra o‘qlaringni uylakim,
Tushsa o‘t ul nav‘i bo‘lmas naysitonni o‘rtamak.

Xalq o‘lub oshiqa sanga men o‘rtanurmen, vah, necha,
Elga solg‘an o‘t bila men notovonni o‘rtamak.

Charx ohim o‘qidin yuz ming tushukdur, ey ko‘ngul,
O‘rtamak ani ham uldur parniyonni o‘rtamak.

Nevchun gul bo‘ldi o‘t, ashjor o‘tun, sunbul tutun,
Istamaydur gar falak bu bo‘stonni o‘rtamak.

Solma o‘t ushshoq jonig‘a Navoiy borida,
Nevchunkim yaxshidur avval yamonni o‘rtamak.

329

Xalq ko‘ngli bo‘lmaq‘an ul sho‘xi kofir ko‘nglidek,
Uylakim kufr ahlida kuffori Xaybar ko‘nglidek.

Gulbuni mehnat aro qonlig‘ ko‘ngullar g‘unchadur,
Tandadur har sari paykoning aning har ko‘nglidek.

Garchi ul qad sarvdek ra’nodurur, lekin erur,
Anda bag‘lang‘an ko‘ngul xanli sanovbar ko‘nglidek.

Lola qonlig‘ yafrog‘iyu toza dog‘in ko‘rki bor,
Bu sifat birla shahiding ko‘nglaki gar ko‘nglidek.

Zaxmliq ko‘nglum labing shavqida bo‘lmish qon aro,
La’li rummoni bila yoquti ahmar ko‘nglidek.

G‘armrav ravshanravish el ko‘nglidin fayz istagil
Kim, yorutur dahrni xurshidi anvar ko‘nglidek.

Soqiyo, tutg‘il Navoiyg‘a labolab jomkim,
Bag‘ri dog‘i zaxmlar bo‘lmish sarosar ko‘nglidek.

330

Shikof emas buki ko‘ksumga soldi tig‘i halok
Ki, joni xasta g‘amingdin yaqosin ayladi chok.

Ulusqa o‘t solur ersang meni burun o‘rta,
Nedinki o‘tni tutashturg‘oli kerak xoshok.

Nekim boshimda edi, uchti, yetkaz ul chobuk
Yonig‘a bog‘lasa bori uzilmagay fitrok.

G‘amingni elga berib yo‘qli bizni shod etting
Ki, elni shod etibon bizni aylading g‘amnok.

G‘amingdin ohim o‘qi yetti charxdin o‘tti,
Nishon erur yeti kavkabki, ko‘rguzur aflok.

Ko‘ngul o‘ti bila zaxmin ko‘rub ne rahm etkay,

O'zin chu dog'u alifdin ayamas ul bebok.

Tikanda gul ochilur andalib yanglig' anga
Ki, ishq o'lsa tabiat xiyonatidin pok.

Ich ul behisht suyin mug' safolidinkim, aql
Tomug' o'tidin aning rangin etmagay idrok.

Navoiy ichti mayu forig' o'ldi o'zlukidin,
Ko'rung ne zahrni daf' ayladi ichib taryok.

331

Tang'a toshu qo'lg'a tish zaxmiki soldi telbalik,
Fosh qildi elga ko'nglaksiz badan, yengsiz ilik.

Gah junundin bandu gohi pand ila so'hon anga,
Bor emish savdoi ishq ichra base qottig' irik.

Har eshiqdin azm qilsam ko'yiga bog'liqdurur,
Boshimu ul ostondur to ochilg'ay bir eshik.

Rokib o'lg'ach qildi shabrangini har yon jilvagar,
Soya garchi ko'p zuhur etmas, quyosh bo'lg'ach biyik.

Dardi hajrimni ne bilgay chun yur ashkim safhani,
Ul musofir sari gohikim raqam qilsam bitik.

Lolagun maydin qizarmish ko'zlarin ul nav'kim,
Lolazor ustida har yon ag'namish bo'lg'oy kiyik.

Soqiyo mahzun men asru qilmag'il gardunni zarf
Kim, bo'lur kechrak nashot o'lg'an zamon sog'ar kichik

Olam ahlig'a o'lumdin chora chun imkoni yo'q,
O'lma olam fikridin bu lahzakim borsen tirik.

Ey Navoiy, ul Masihodam quyosh chun urdi zaxm,
Ani Iso ignasiyu mehr tori birla tik.

332

Qoching ul ko'zdin, angakim ul labi xandon kerak,
Ehtiroy etkay balodin gar kishiga jon kerak.

Zaxmliq ko'nglumni aylar chok-chok ul qoshi yo,
Axtarur go'yoki g'oyib aylagan paykon kerak.

Charxi kajrav uzra surma barqraftoringni kim,
Rostlar ko‘ngli fazosidin anga maydon kerak.

Ul pari ishqida ermastur malak ham mahramim
Kimki ishqı pok erur sirri aning pinhon kerak.

Za’fdin chiqmas damim netib og ‘irlay itlarin
Kim, qo‘larg‘a uzri mardumlug‘ bag‘rdin qon kerak.

Dayri pirin xonaqah kunjiga, ey shayx, istama
Kim, aning bazmig‘a gardun toqidek ayvon kerak.

Ey Navoiy, ul pari o‘ltursa ham ozdur seni,
Kimki insondur, aning mahbubi ham inson kerak.

333

Necha bo‘lg‘ay zaxmliq ko‘nglumni mahzun aylamak,
Zaxmi qonidin ko‘zum yoshin jigargun aylamak.

Necha la’ling hajridin qonlig‘ qadah ichkan soyi
Sog‘arimni ashk xunobidin afzun aylamak.

Necha pinhon aylabon orazni andoqkim pari,
Bizni rasvoi jahon andoqki majnun aylamak.

Necha bir oy ishqidin, ey dard, men sargashtani
Kecha-kunduz beqaror andoqki gardun aylamak.

Berdi muhlik dard ishqu qo‘ydi minnat jonima,
Muncha bo‘lg‘ay javr ila oshiqni mamnun aylamak.

Kimki dunyo ahli dunlardin tilar bo‘lg‘ay xalos,
Shart erur avval vido‘y dun aylamak.

Ey Navoiy, chun g‘ubori hajr o‘lturmas ne sud,
Bir ko‘zungni Dajla qilmoq, birni Jayhun aylamak.

334

Ul parivash erur andoq nozuk
Kim, quyosh partavidur jismig‘a yuk.

Garchi qotil ko‘zidin o‘lsa tirik,
Tirilur no‘shi labidin ham o‘luk.

Ko‘ngluma o‘q uzra o‘q otti ko‘zung,
Ne ajab bo‘lsa teshuk uzra teshuk.

Qotmangiz la’li uza obi hayot,
Garchi bu sharbat erur asru chuchuk.

Shavq o‘tin g‘ayr ila yorutti chu yor,
Ko‘ngluma tushti mening asru kuyuk.

Hullai ravza sanga loyiq emas
Kim, bo‘lur jins chu eskirdi churuk.

Soqiyo, boda labingdek tutqil,
Kayfiyatlig‘ dog‘i gulrang suzuk.

To ichib ani dame behud o‘lay
Kim, ichimda g‘am erur yuz turluk.

Tashlab o‘zlukni, Navoiy, qadam ur
Qim, yiroq yo‘lduru bu og‘ir yuk.

335

Chamanda sarvinozim jilva qilmoq aylamas ohang,
Jahon bo‘stonidin, billah, bo‘lubmen g‘unchadek diltang.

Mizojikim tilar xilvat, xudoyo, bo‘lmasun ofat,
Bihilmen gar qilib ishrat, ichar maxfiy mayi gulrang.

Yashil yafrog‘liq ashjor emas hajringda, ey dildor
Ki, ohim taffidin gulzor mir’oti tutuptur zang.

Solibtur chorbolish gul, tutuptur chorgah bulbul,
Ne sud ul shah ichay deb mul, musharraf aylamas avrang.

Malolat bo‘lsa jononda tikoncha bordurur jonda,
Agar har gul gulistonda ko‘rinsa bir harifi shang.

Bu gulshanda guli ra’no to‘kulmak vahmidin go‘yo,
Jamolin kech qilur paydo dema bulbuldin aylar nang,

Navoiy ko‘rmayin ani yetibtur og‘zig‘a joni,
Magarkim qilg‘ay afg‘oni gahi ul gul sari ohang.

336

Chamanda sabza manga xanjar o‘ldi sarvi-xadant,
Ko‘ngulni olg‘ali ul sarv qaddi sabzorang.

Agar gul islamas ul ko‘rkaboy hayrat emas,

G'anidurur to‘ni yuz pora eldin aylar nang.

Ko‘tarsa mahmili husnungni charx buxtiysig
Iki yonida munosibdur oyu kundin zang,

Nafas-nafas qadah ichmasni jazm etarmen, lek
Netayki, ishva qilur lahza-lahza soqiyi shang.

Sinuq safol ila vayron aro gado Jam erur,
Ul anga jomu bu Jamshid bag‘lag‘an avrang.

Bu bazm ichinda navo ul toparki xidmatda,
Qadi xam o‘lsa dog‘i ko‘ngli xoli uylaki chang.

Badan anosirining chorgohin et xorij,
Navoiyo, desang aylay falak sari ohang.

337

Yo‘q dahrda garchi yor sendek,
Dushman dog‘i qayda bor sendek.

Ey xasta ko‘ngul, sanga kerak vasl,
Yo‘q hajrda chunki zor sendek.

Ne ishq aro xoksor mendek,
Ne husn aro shahsuvor sendek.

Gulgun to‘n uza qora chavuk naqsh,
Ochilmadi lolazor sendek.

Gar dayri fanoda jom cheksang,
Yo‘q shohi Jam iqtidor sendek.

Ey gul, to‘kasen xumordin qon,
Ul nargisi purxumor sendek.

Yo‘q zulfig‘a tushkali, Navoiy,
Oshuftai ro‘zgor sendek.

338

Qo‘yung, tig‘i ko‘ksum shigofini yirdeg,
Firokida jonim arosig‘a kirdeg.

Demang hajr o‘ti sharhini noma yozkim,
Kuyar safhavu xoma ermas bitirdeg.

Quvonurmen ul oyni har necha ko'rsam,
Meni garchi ul necha ko'rsa yigirdeg.

Buyurg'ilki mashshota xoling qo'yarg'a,
Ko'zum mardumin tig' uchi birla qirdeg.

Yuzumda yurak koni dурdingki, keldik,
Ajal ilgi ul qonni andin siyirdeg.

Yuzung birla jono quyoshdek bir o'lg'ay,
Quyosh birla zarra agar bo'lsa birdeg.

Ayirmon soching band-bandin ko'nguldin,
Agar band-bandimni davron ayirdeg.

Qoshingning xayolig'a jon rishtasin ko'r
Ki, yopishti yoy uzra muhkam singirdeg.

Navoiyg'a hajringda motam surudi,
Bo'lubtur nashot ahli bazmida yirdeg.

339

Ne xayol edi yanakim ko'ngul qushi saydini havas aylading,
Badanimg'a har saridin xadang otibon anga qafas aylading.

Ko'ngul ichra shu'lai nshqkim yetadur falakka zabonasi,
Tanimu so'ngaklarim ul o'tingni yoqarg'a xoru xas aylading.

Ko'z ichindakim to'la qon edi, og'iz ichra dag'i tutundek oh,
Ani dam-badam qilibon fuzun, muni ham nafas-nafas ayladiig.

Yetib erdim o'lgalikim tirildim aning jafosi hadisiding
Nega uyqudin burun ul fasonani, ey rafiq, bas aylading.

Manga ishq aro o'lum erdi chorae hajrda bu ne ranjkim,
Ani daf' etarga firoq dardu g'amimni choraras aylading.

Chu gum o'ldi choku hazin ko'ngul g'ami hajr dashtida, ey falak,
Yo'l ozarga ahli salomat ul ko'ngul unini jaras aylading.

Chu firoq shiddati, ey ko'ngul, g'ami ishq lozimasi emish,
Ne yetishsa chek chu burun o'zung bu baloni multamas aylading.

Tunu kun sabu chekib, egnинг sol o'zungni xalqai dayr aro,
Chu belingga mug'bachalar kamandi xayolini maras aylading.

Chu zamona ahli aro vafo tilading chek emdi, Navoiyo,
Alamu balo, ne uchunki el ora yo‘q nima havas aylading.

340

Ko‘rdum og‘zingni manga qahr ila chun so‘z qotting,
Ko‘rmaganni bu g‘azab ichra manga ko‘rsatting.

Ishq paykonlarini yog‘durubon buyyla manga,
Su sepib zuhdu saloh uyqusidin uyg‘otting.

Bul ajab hol ila bilmonki junun dashti aro,
Meni majnung‘amu yo ani manga o‘xshatting.

Ofiyat qushlarining jamiyatি qolg‘aymu,
Muncha men telbagakim tafriqa toshin otting.

Dog‘lar demaki qoqturmoq ila ko‘ksuma tosh,
Ishq mismorlarin ko‘nglum aro o‘rnatting.

Sotqun oldim g‘ami ishqingni berib jon naqdin,
Meni olamg‘a bu savdo bila oxir sotting.

Ko‘rubon ko‘yung aro zorlig‘im tund bo‘lub,
So‘rgali tashqari itlarga meni sudratting.

Bir zamon do‘stqa o‘rganki, budur hosili umr
Kim, zamon ahlig‘a ko‘nglungni base o‘rgatting.

Ey Navoiy, magar ilgingni tutub chekkay pir
Kim, yigitlik xumining durdig‘a muhkam botting.

341

Ey ko‘ngullar zulf zanjirida qayd etmak faning,
Barchadin anda muqayyadroq vale ko‘nglum maning.

Su aro kun aksi yo ko‘k pardasinda mehrdek,
Bilgurur moviy katon ko‘nglak aro nozuk taning.

Bodadin ul yuz ne gullar ochti ko‘r, ey bog‘bon,
Ichma kavasar suyi mundoq gullar ochmas gulshaning.

Vajhi yo‘qtur tiyra bo‘lmoq, ey ko‘ngul, to ul quyosh,
Yuz chiqarg‘ach bo‘lg‘usi ko‘zlardin ikki ravzaning.

O‘rtabon parvonani, ey sham’, so‘ngra ne osig‘,
Yig‘lamoq chirmab qora motamliq eldek shevaning.

Bilki emin sen riyoy zuhd ujbi xavfidin,
Eyki dayr ichra fano mayxonasidur ma'maning.

Yorni ko'rgach Navoiy o'ldi, ishq atvorini
Vomiqu Farhodu Majnun bori andin o'rganing.

342

Tararda tob urar, turrai parishoning
Ki, obnus tarog' uyladurki mujgoning.

Ichimga tushti ko'ngul iztirobiddin ko'p zaxm
Kim, anda har sardin bosh chiqardi paykoning.

Ko'ngulni, vahki, netib daf'a-daf'a sendin uzay
Ki, aql ko'proq erur lahza-lahza hayroning.

O'par taxayyuli daf'ig'adur sinonlarkim,
Shuo' xatlaridin chekti mehr raxshoning.

Ko'ngul ne nav' dam ursun firoqing ofatidin
Xi, zaxmi og'zig'a muhr o'ldi dog'i hijroning.

Netib qaror tutay, ey ko'ngul, ki qo'zg'aydur,
Ichimda sabr uyini har dam ohi pinhoning.

G'am etti tiyra meni jomi may evur soqiy
Ki, ko'zlarimni yorutsun bu barqi raxshoning.

Chu subh nargis ochib ko'zni tutti oltun jom,
Sabuh favt o'ladur, nozaninlar, uyg'onning.

Navoiyo, chu g'animatdurur yigitlik dami,
Yigitlar ilgidin ich toki bo'lg'ay imkoning.

343

Manga bir lahza vafo aylamading
Ki, hamul lahza jafo aylamading.

Qomatingdin manga kom erdi xirom,
Vahki, komimni ravvo aylamading.

Otmoq o'q elga xatodur, lekin
Manga otqanni xato aylamading.

Elga lutfung manga gar bo'lsa jafo,

Ne jafolarki manga aylamading.

Gardi raxshnngg‘a baho jon tilading,
Ani tufroqcha baho aylamading.

Topmading mulki baqo to o‘zni,
Azimi dashti fano aylamading.

Yuz vafo va’da Navoiyg‘a qilib,
Ohkim, birga vafo aylamading.

344

Xizr xatting sabzasi, hayvon suyi no‘shi labing,
Ul su mavjidin bo‘lub bir davr tavqi g‘abg‘abing.

Yo jamoling chashmai xurshidu har yon bir hubob,
Har qulog‘ing durri, ya’ni ikki raxshon kavkabing.

Rokibi ne vajhdin xurshid erur na’li hilol.
Gar emastur tavsani gardun sabukrav markabing.

Ey ko‘ngul, bilkim chekarlar goh, yo rabki, fig‘on,
To malak xaylini yolqitti fig‘onu yo rabing.

To dabiston mayli qilding xalq o‘ldi go‘ynyo,
Qabr lavhig‘a qilur ash’or lavhi maktabing.

Qayt, ey so‘fiki, piri dayr durdi jomig‘a,
Bo‘lmog‘ing shorib agar sofpy emastur mashrabing,

Ey Navoiy, bordi ko‘ngling tanni ham ko‘yiga sol
Kim, itiga qalbing oz bo‘lsa yetishkay qolabing.

345

Chekib ko‘nglumni uzdung, andakim ko‘nglum uyin buzdung,
Bu mehnatxonani buzg‘on zamon mendin ko‘ngul uzdung.

Buzuldi ko‘nglum emdi g‘am sipohin chekma ko‘p, ey hajr,
Tuzukluk ko‘rmagil hargiz, bu yanglig‘kim meni buzdung.

Berib g‘am naqdi aylab dilrabolig‘ va’da qilding vasl,
Karam qilding, yiqlug‘ ko‘nglumni olding, lutf ko‘rguzdung.

Sog‘inding za’fu ul yuz ko‘zgusin yetkurdung og‘zimg‘a,
O‘lub erdnm yana bu vajh ila go‘yoki tirguzdung.

Visoling va'dasi birla firoqing dashtig'a solding,
Yetib mav'id chu qildim avd yitkon yerda turg'uzdung.

Balo dardin manga tutmoq uchun ayirding, ey soqiy,
Chu davron bazmida ahbob uchun ishrat mayi suzdung.

Navoiy jismini hajr emgakidin, ey ajal, qutqar
Ki, ashki durlariyu jonining naqidurur muzdung.

346

Jismimg'a varam hay'ati har tashki urdung,
Ul toshni go'yoki hamul yerda yoshurdung.

Ko'nglum buzulib sabru xirad bog'ladilar raxt,
Chun mulkni buzdung, elini dog'i ko'churdung.

Ey yor iti, uzrumni qabul etki, tanimda
Et topmadingu eski so'ngaklarni ko'murdung.

Ey telba ko'ngul, chiqmading ul zulf xamidin,
Go'yoki qorong'u kechada yo'lni iturdung.

Ko'nglum uyida sensenu yo'q kimsa hamono,
Kirpiklar ila g'ayr xayolini supurdung.

Sendin yuz evurmak manga mumkin yo'q, agarchi
Har saridin ollingga'ki keldim, yuz evurdung.

Matlubni bir dayri fano yo'lida ista,
Topilmadi chun bodiyada necha yugurdung.

Ey mug'bacha, dayr ichra meni mast eta ko'rkim,
Jon quti ko'ngul quvvatidur sofingu durdung.

Bir ko'rmaq o'lmaq bila, ey xasta Navoiy,
Ishq ahli orasinda yangi rasm kiyurdung.

347

Sarvga ra'no xiroming birla bedod aylading
Kim, qadingning qullugidin ani ozod aylading.

Gul dog'i husnungga erdi xo'shachin yuz vajh ila,
Ko'rmanin yuz xirmanin bir damda barbod aylading.

Qo'yma minnat bizga g'amgin aylabon ishq ahlini,
Bizni ham shod etmading, gar elni noshod aylading.

Aylading ko‘nglum imorat partavi ruxsor ila,
Ka’bani butxona qilmog‘liqqa obod aylading.

Aytmonkim, umr o‘tub, sog‘inmading bir dam meni,
Qatl etarda chun kerak bo‘ldi kishi yod aylading.

Tslbalik o‘ltursa ham bo‘ynungg‘a qonim, ey ko‘ngul,
Bor ekach odam nega mayli parizod aylading.

Yig‘lamoqdin ko‘r bo‘l, ey ko‘z, firoq ayyomida,
Ne uchun o‘zni xo‘blar husing‘a mu’tod aylading.

Benasib erding fano oninidin, ey shayxkim,
Do‘st vaslin toatu taqvog‘a nsnod aylading.

Ey Navoiy, o‘ldung armon birlakim, faryodingga,
Yetmadi ul no‘shlab har necha faryod aylading.

348

Yorab, ul oyniki el ko‘nglig‘a marg‘ub aylading,
Garchi ishqidin xarob etting meni, xo‘b aylading.

Shoh esam ishq ahlig‘a tong yo‘qli, ey gardun, meni
Ul shamol ahli shahi ishqig‘a mansub aylading.

Ne ajab boshtin ayog‘im dard bo‘lsa, ey qazo
Kim, nigorimni qadam to farq marg‘ub aylading.

Telbarab ermishsen, ey roqim, hamul kundin beri
Kim, jununumni parizodimg‘a maktub aylading.

Tuhmati zuhd aylabon, ey shayxi kozib, ne uchun
Begunah bizni xarobot ichra ma'yub aylading.

Jon berib bo‘lsam ajab yo‘q toliving, ey ishqkim,
Har ne matlubidur aning bizga matlub aylading.

Ei Navoiy, o‘zni solding itlari xayli aro,
Itni go‘yo odami haylida mahsub aylading.

349

Tiyra qilmish tun kebi ofoqni ohim mening,
To eshittimkim qilur shabgardliq mohim mening.

Tun qorasndek qora pashminadurmu sayrida,

Yo tutubtur ul jafogar sho‘xni ohim mening.

Uchramas har ko‘y boshida turup yo‘l asrasam,
Ravshan ermas, vahki, sham‘i baxti gumrohim mening.

Yo qochar mendin xaloyiq tanig‘ay deb nogahon,
Yorutur chun tunni har dam ohi nogohim mening.

Xidmatida nega yo‘l topmon ekinmen tiyra ro‘z,
Shomi mulkin chun musaxxar ayladi shohim mening.

Men dog‘i ahbobdek maqbuli erdim, ohkim,
Johi idbor o‘ldi ul iqbol ila johim mening.

Elga har lafzi Navoiy jonig‘a bir dog‘ erur,
Necha qo‘yg‘ay bag‘rima dog‘ ul yuzi mohim mening.

350

Necha ul ko‘y itlariga yetkay ozorim mening,
Kosh itlar tu’masi bo‘lg‘ay tani zorim mening.

Necha ul bazm ahlig‘a bo‘lg‘ay fig‘onimdin malol,
Kosh alar qurbanib bo‘lg‘ay joni bemorim mening.

Necha nozuk ko‘ngli kelgay yorning mendin batang
Kim, fido ko‘ngliga jonu jismi afgorim mening.

Necha ashkim yiqqay el sabri binosin ko‘yida
Kim, o‘ulg‘ay koshki, bu jismi xunborim mening.

Yo‘qu bor eldur jununum shaynidin ozurdadil,
Umr agar budur yo‘qum ko‘p yaxshikim, borim mening!

Ey fano tig‘i, vujudum naqshin andoq ayla haq
Kim, zamon avroqidin mahv o‘lsun osorim mening

Soqiyo, tutma Navoiyg‘a yana ishrat mayi
Kim, erur badmast ul majnuni xammorim mening.

351

Snng‘oli ko‘nglum oqar har lahza xunobi aning,
Shishakim sindi, chiqar turmay mayi nobi aning.

Solma ul ko‘y ichra qoshingg‘a girihkim, shubhadur
Toat aylar yerda tushsa egri mehrobi aning.

Bahri ashkim uyla daryodurki davri charxdek,
Bo‘lg‘ali loyiqdurur har sari girdobi aning.

Uyla zanjire durur zulfung qamar davridakim,
Tushkudek bo‘lmish qamar davrig‘a qullobi aning.

Qil kebi jismimki hajring so‘zi ichra to‘lg‘anur
O‘tqa tushkandin nishondur pech ila tobi aning.

Uyla qurbondur anga ko‘nglumki jon aylar fido,
Tig‘ olmastin burun ilgiga qassobi aning.

Piri dayr aylar sabuh, ammo ko‘z ochmas mug‘bacha,
Ayshni talx aylamish bizga shakarxobi aning.

Faqr erur bir lafzu sharhi yozilur yuz ming kitob,
Ne uchunkim xush kelur ayturda itnobi aning.

Ey Navoiy, topti mutrib sozidin ko‘nglum navo,
Go‘yiyo jon rishtasig‘a tegdi mizrobi aning.

352

Ko‘ngulki hajr tuni qo‘ymadi qarorin aning,
Muning ham ohi qora qildi ro‘zgorin aning.

Visol gulshani birla ko‘p o‘lmag‘il mash’uf,
Xazoni hajr chu barbod etar bahorin aning.

Tutub nashotu tarab chang zulfin etma surud
Ki, bir-bir uzgusi g‘am changi tor-torin aning.

Qadah nashoti uchun davr ichinda qon yutqan,
Chekarga bilki kiri aylamas xumorin aning.

Sipehr kom ila evrulmasa hazin bo‘lma,
Kishiga bermadi chunkim haq ixtiyorin aning.

Agar baqoi abad istasang fano yo‘li tut,
Yorut ko‘zungni qilib to‘tiyo g‘uborin aning.

Navoiy, ul kishi topti farog‘ olamdin
Ki, himmati ko‘zi teng ko‘rdi yo‘qu borin aning.

353

Yor kelsa, do‘stlar, ohangi raftor aylamang,
Infiolimdin nafas urmoqni dushvor aylamang.

Yolg‘uz uyda qayda yoro boqmag‘im ruxsorig‘a,
Holatim tag“yiridin sirrimni izhor aylamang.

Toki ko‘nglum iztirobiyu tanim titratmasi,
Sokin o‘lmas, nukta ayturg‘a meni yor aylamang.

Soate chunkim o‘tub bu nav’ kelsam holima,
So‘z aro oshiqliq alfozini takror aylamang.

Chunki bo‘lsa multafit chun yer o‘pub o‘lgumdurur,
Har jafo qilsam o‘zumg‘a man’ zinhor aylamang.

Emdikim o‘ldum tanim yor itlariga tashlangiz,
Lek ag‘yorin bu ma’nidin xabardor aylamang.

Qaysi oshiqkim Navoiydekdurur, ey ahli zuhd,
Ishq man’in aylabon ko‘ngliga ozor aylamang.

354

Vahki, o‘luq chehra ochib xonumonim o‘rtading,
Otashin la’lingdin otib nukta jonim o‘rtading.

Dema ne qildim, ne qildim notavon ko‘nglung olib,
O‘rtading, ey qotili nomehribonim, o‘rtading.

O‘t uza qil to‘lg‘onib kuygandek ul yuz shavqidin,
Nechakim tob urdi jismi notavonim o‘rtading.

Ko‘kda zohirdir shafaqdin shu’la anjumdin sharor
Kim ani, ey shu’laliq, ohu fig‘onim o‘rtading.

Bismil etgach saydni andoqli etkaylor kabob,
Zaxm etib ko‘nglumni chunkim oqtqi qonim o‘rtading.

Urg‘ali, ey ishqil zolim, barqi ofat jonima,
Har ne o‘zluktinki bor erdi gumonim o‘rtading.

Ey Navoiy, to belu og‘zi xayoli aylading,
Boru yo‘q, ya’niki paydovu nihonim o‘rtading.

355

Ey ko‘zu ko‘nglum, sirishku ohdin to‘fon qiling,
Jonu jismimning yiqilg‘ur kulbasin vayron qiling.

Qilsa bu ish ko‘zu ko‘nglum siz dog‘i, ey dardu ishq,

Ko‘zni ko‘r aylab, ko‘ngulga dard o‘qin parron qiling.

Har bahona birlakim bo‘lsa, hayotim qasrining —
Toqu ayvonin buzub, tufrog‘ ila yakson qiling.

Ya’ni aylab muncha bedodu jafolar shammae,
Hajr dardi shiddatin men xastag‘a oson qiling.

Zinhor ahbob, oshiq bo‘lmangiz, gar sahv etib —
Bo‘lmoq istarsiz, burun andishai hijron qiling.

Dermen, ey ahbob, tortay hajrdin bir tiyra oh,
Yer to‘big‘a oy ila kun ko‘zgusin pinhon qiling.

Hajrdin ko‘ngli to‘la kelmish Navoiy rahm etib,
Ey xarobot ahli, bir mamlu qadah ehson qiling.

356

May bila mayxonaning xishtin tosh uzra hal qiling,
Chun xumoridin sudo’ o‘lsa ani sandal qiling.

Har ne qolsa suda bo‘lg‘ay xishtdin ta’zim uchun,
Ip toqib har jonibidin bo‘ynuma haykal qiling.

Ey xarobot ahli, soqiy orazi aksi uchun,
Sof qilmog‘lig‘ bila may ko‘zgusin sayqal qiling.

Mug‘bacha ollida chun bo‘ldi sujud etmak ishim,
Mayg‘a marhun qilsangiz sajjodani avval qiling.

Sahl erur jon naqdini soqiy uchun qilmoq nisor,
Lek bir paymona to‘ldurmoq bila ashali qiling.

Mastu majnun chiqmisham mayxonadin, ey do‘stlar,
Komingiz gar hazl esa iynak meni mahzal qiling.

Ko‘yidin qavlang havosu aqlni, ey dardu ishq,
Anda sargardon Navoiyning vale ankal qiling.

357

Bir o‘t esaki manga jurmsiz vafoni kam etting,
Yuz o‘tdur ulki jihatsiz ulusni muhtaram etting,

Boshimg‘a tig‘ urubon naqdi dard ko‘ngluma solding,
Vafo tariqida taqsir qilmading, karam etting.

Yuzumni naqsh etibon ashk tiyra qonidin, ey ishq,
Toshimda qonlig‘ ichim sharhini yona raqam etting.

Fasonai g‘amu mehnat buyurdung aylamak azbar,
Qanoat etmay ulusqa meni fasona ham etting.

Ko‘ngulda ishqim o‘ti chun falakka tortti shu’la,
Balo livosi boshig‘a bu shu’ladin alam etting.

Dedingki, faqr yo‘linda topildi maqsadi asliy,
Vujud naqshini jon lavhidin magar adam etting.

Magarki yor seni istar, ey shikasta Navoiy
Ki, naqd jonne qilib tuhfa, farqdin qadam etting.

358

Samandi noz uza ul chobuki balog‘a boqing,
Pari boshinda malak parridin o‘tog‘a boqing.

Nachukki qavsi quzah davri mehr aksi erur,
Topib ham egnidin aylang‘an ikki yog‘a boqing.

Sadog‘i jonibikim ilgiga sinon tutmish,
Yuz o‘q yiloniyu bir qotil ajdahog‘a boqing.

Agar bu o‘qu sinon urmog‘in inonmasangiz,
Ochib tanimni adaddin fuzun yarog‘a boqing.

Bu shakl birla jahon buzmog‘i yaqin gar emas,
Ulusta har taraf oshubu ibtilog‘a boqing.

Bu bog‘ gullarini yerga sochmayin qo‘ymas,
Xazon yelini ko‘rung charxi bevafog‘a boqing.

Navoiy o‘ldi jahon ahlidin navo topmay,
Ne bo‘ldi bir nazar ul zori benavog‘a boqing.

359

Ko‘ngulkim har yonig‘a na’l kestim bo‘lg‘ali zoring,
Qushedur tallaning chambarlari ichra giriforing.

Ulus qatlidin ul ko‘z notavonroqdur, ne hol erkin
Ki, jon olg‘an bila mayl aylamas sihhatqa bemoring.

Yuzu zulfung chu din qasdi qilur kofir desam tonma,
Demon yuz uzra zulfung, balki mushaf uzra zunroring.

Ko‘zi ollida, ey bodom, qilding ishva da’vosin,
Magar kirpiklaridindur nishoni jismi afgoring.

O‘zungni sotmog‘ingda husn savdosidin, ey Yusuf,
Habibim yetsa erdi ne ushalg‘oy erdi bozoring.

Yuzung gul-gul bo‘lubtur bodadin, vah, ko‘zguga boqkim,
Ne yanglig‘ toza-toza gullar och mish bog‘i ruxsoring.

G‘amim ayturg‘a yore topmag‘andin soqiyo, o‘lgum,
Manga bir jur‘a birla yorliq qilsang xudo yoring.

Agar rangin may ichsam, ey qazo naqqoshi, yozg‘urma,
Ihota qilmag‘on ish qo‘ymamish, chun davri pargoring.

Navoiyni adam vodiysig‘a soldi fano sayli,
Iturbanlar ani ul saylining xoshokin axtaring.

360

Donai holing bila ko‘nglum qushin rom aylading,
Gardi yazdiy me‘jaringdin qasdig‘a dom aylading.

Sabzau gul istamon to vo‘smavu gulgunadin,
Qoshni aylab sabzagun, orazni gulfom aylading.

Husn bog‘ida qading bo‘lmish latofat gulbuni,
To‘nni gulgun, tugmani to g‘uncha andom aylading.

Qomatim dolu yoshim gulrang erur to noz ila,
Dolu gul tekkan niholi uzra orom aylading.

Yuz uza ochting soching zunnorin, ey kofir, magar
Fosh etib kufringni qasdi ahli islom aylading.

Tongla jannat huridin kech, ey ko‘ngul nokom ila
Gar bu kun dunyo arusi vaslini kom aylading.

Ey Navoiy, zulfig‘a bo‘ldung parishon oqibat,
Yaxshi jam‘iyat bu savdodin saranjom aylading.

361

Ey mug‘anniy, yor bazmida navo soz aylasang,
Jon fidong o‘lsun g‘amim sharhidin og‘oz aylasang.

Uddekkuyumakligim sharh et lisoni hol ila,

Nag'mada udung lisonin sehrpardoz aylasang.

O'zga olamdin xabar deb bizni turguzdung ne tong,
Bu risolat birla gar izhori e'joz aylasang.

Rozim ar sozing lisonidin ba'idul fahm esa,
Anga ruhafzo unungni dog'i hamroz aylasang.

Otlanib boshimni raxshingning ayog'i ostig'a,
Tig' birla solg'udek masti sarandoz aylasang.

Parda yop roz uzrau doxil bo'l ushbu bazm aro
Kim, erur xorij agar bepara ovoz aylasang.

Chekmading lahne Navoiy ko'nglun istab ayb emas
Anglab o'zungni navo ahlig'a shahnoz aylasang.

362

Vah, ne ruhafzo qadu dilkash xiromi bor aning,
Go'yijo jon gulshani ichra maqomi bor aning.

Ulmakimda bor anga go'yoki ummidi hayot,
Jon bila bu ishda baskim ehtimomi bor aning.

Qoldi ko'nglum g'am tuniga, subh vasl ahli qachon
Aylagaylar fahmkim, ne tiyra shomi bor aning.

Jonim uzra dog'lardin vah, qachon topqay xabar,
Ulki, gulbarg uzra xoli mushkfomi bor aning.

Beli birla og'zidin ko'nglumga bor ummidi kom,
Ne daqiq ummid ilo nobud komi bor aning.

Toptilar ruhi ravonim parvarish har lafzidin,
Olloh-olloh, ne ravon parvar kalomi bor aning.

Sen haram azmi qil, ey zohidki, ko'nglum mast erur,
Xossakim mayxonadek baytul-haromi bor aning.

To ko'ngul dayr ixtiyor etti bilbtur mug'bacha
Kim, aning vasli sari savdoi xomi bor aning.

En Navoiy, davlati zohirni doim topmog'ung,
Faqr iqboldurur, ulkim davomi bor aning.

363

Ul pari bu telba birla oshno bo‘lsa ne tong
Notavon Majnung‘a Laylidin vafo bo‘lsa ne tong.

La’li hajridin damodam xasta ko‘nglum qon yutar.
Ul marazg‘a buyla sharbat yo g‘izo bo‘lsa ne tong.

Dema qotildur labi, o‘zungga qilma qasdi jon,
Buyla qotil ollida jonio fido bo‘lsa ne tong.

Charxdin ko‘p bo‘ldi ohim dudig‘a bois raqib,
Yuzi aning ro‘zgorindek qora bo‘lsa ne tong.

Zulfi zulmat shomiyu davlat tongidur orazi,
Tiyra hajrim shomidin zulmatzudo bo‘lsa ne tong.

Qasdi dinu g‘orati imonim etmish mug‘bacha,
Ey musulmonlar, yerim dayri fano bo‘lsa ne tong.

Barcha ziyrak qushqa chun ul zulf domi bo‘ldi qayd,
Ey Navoiy, anda ko‘nglum mubtalo bo‘lsa ne tong.

LOM HARFINING LU’BATLARINING LATOIFI «NAVODIR»DIN

364

Zihni nihoyating oxir kelib abad avval,
Vale xabar bera olmay bidoyatingg‘a azal.

Ne qudrating jabalini qilib tazalzul past,
Ne hikmating quyoshig‘a berib zavol xalal.

Bo‘lub sifatingga mazhar jami’ maxluqot,
Alar mufassalu insonni aylading mujmal.

Jamol zevari qosh aylading, magar urdung
Bu ikki misqal ila uyla ko‘zguga sayqal.

Firoq shomini oshiqqa aylading tiyra,
Agarchi anjumidin yoqting anda ko‘p mash’al.

Bahor moshitasi sa’yi birla kiydurdung
Chaman arusi yuzu qaddig‘a huliyyu hulal.

Sipehr safhasin anjumdin aylabon afshon,
Bu safha ustiga chekting shihobdin jadval.

Yozarg‘a matla’i subh uzra nurdin tug‘ro

Quyosh tilosidin omoda aylading zarhal.

Navoiy ayladi hamdingg‘a nomalar irsol.
Ani rad aylamagil haqqi Ahmadi Mursal.

365

Qilsa jonon ollida jonio tufayl, o‘lmoqqa mayl,
Qosh yuz jon o‘lsakim, har dam birin qilsam tufayl.

Istasa kuygan ko‘ngul o‘tluq yuzungni qilma ayb,
Ixtiyori yo‘qtur aylarda samandar o‘tqa mayl.

Yo‘l qilur jismimda ashk, eltur so‘ngaklarni uzub,
Yer qozib xoshok oqizg‘andek qayon yuzlansa sayl.

Qatrai sahbo Suhaylidin labing maygun emas
Kim, aqiqedur bukim rang olur andin yuz Suhayl.

Bir muloib hindu o‘lmish har ko‘zungning mardumi,
Kirpiging hind ahlidin hangoma tuzgan ikki xayl.

Takya qilma taqviyu toatqa kim naf’ aylamas,
Fazldin yetmay bashorat Bishr bo‘lg‘il gar Fuzayl.

Shomi hajr ermas shafaq, balkim Navoiy g‘ussadin
Yig‘ladi qon anchakim gardung‘a rangin bo‘ldi zayl.

366

Uyla bo‘lmish gul yuzung yodi bila qonlig‘ ko‘ngul
Kim, tushar har qatra qon o‘rnig‘a andin bargi gul.

Dema ko‘nglung borkim jism ichra hajring tig‘idin,
Poralar bor aro bilman bag‘irdur yo ko‘ngul.

Sarvdek bo‘lsa bu gulshanda ato, guldek ano,
Mumkin ermas tug‘mog‘i sen sarvi gulruxdek o‘g‘ul.

Kuydumu kul bo‘ldum, ammo jonda la’ling shavqidur,
Andoq axgar hifzig‘a behad munosibdur bu kul.

La’ling ollinda sanamlar la’li rang etkan bilur
Kim, ichar xino suyin bo‘lg‘an zamon gulrang mul.

Qismdin ortug‘ tilab xor etma o‘zni, ey aziz
Kim, qanoatdin durur izzat, tama’din barcha zul.

Dayr piri birla may ichsang, Navoiy, asra dam
Bo‘lsa fahm ibriq unidin garchi qulqul lotaql.

367

Mening ko‘nglumni ishq, ul gul yuzin mul,
Bu qildi dog‘-dog‘, ul qildi gulgul.

Boshimg‘a chirmashur savdosidin dud,
Ne tunkim aylasam zulfin taxayyul.

Yuzung davrinda zulfungdin salosul,
Qilibdurlar ayon davri tasalsul.

Uqungdin zor ko‘nglum par chiqarmish,
Yuzungdek gulga xushtur buyla bulbul.

Tahammul yaxshi ul oydin yo‘q afg‘on,
Vale afg‘on chu bo‘lsam betahammul.

Fano dashtig‘a qo‘yma to‘shasiz yuz,
Vale to‘shang kerak bo‘lsa tavakkul.

Qadingning e’tidolidin Navoiy
Chekar gardung‘a oh etsang taodul.

368

Orazing shavqi damikim aylanur qonlig‘ ko‘ngul,
G‘uncha yanglig‘durkim, anda chirmashibdur bargi gul.

Anglamon gulrang ruxsoringda maygun labmudur,
Yo tomibdur ofarinish bazmida gul uzra mul.

Ayladi ko‘nglum gadoliqkim diram yanglig‘ tugan —
Qo‘ydi ishqing yo zakoti husnung ehson qildi pul.

Telbarab qochqon qulungmenkim, soching af’isidin
Ham ayog‘imda erur zanjiru ham bo‘ynumda g‘ul.

Ko‘zlarining turki tojik o‘ldi ko‘nglum multkida,
Zulm etar ul nav‘kim bir kishvar ahlig‘a chug‘ul.

Ne tafovut sifla eldin xorlig‘ yo ehtirom
Kim, bahoyimdin erur teng xohi izzat, xohi zul.

Noma ko‘p yozmish Navoiy kimsa yo‘q mahram magar
Kim, alar irsolig‘a ham tengri yetkurgay rusul.

Demonkim, meni yod etib shod qil,
Unutg'anlaringni birar yod qil.

Sanovbar sanga bandadur sarvdek,
Boshingdin erur dog'i ozod qil.

Vafo yo'qtur ul sho'xda, ey ko'ngul,
O'zungni jafosig'a mu'tod qil.

Qilur jonima hajr qasd, ey ajal,
Bu ishda anga sen ham imdod qil.

Manga ishq aro o'lmak oyin erur,
Raqibo, yana san'at irshod qil.

Parishonmen, ey oh, aflokdin
Bu abtar varaqqlarni barbod qil.

Chu buzdung ko'ngul kishvarin zulm ila,
Sirishkim suyi birla obod qil.

Falak davridin ranjamen, soqiyo,
Kel emdi qadah davri bunyod qil.

Gar ul sho'x faryodinga yetmasa,
Navoiy, shah ollinda faryod qil.

Gar labing ollida da'vo qilmadi izhor la'l,
Bo'yni nevchun bog'ilanib osildi mujrimvor la'l.

Go'yiyo to'ti xating birla labingdin so'rdi nutq
Kim, libos o'ldi zumurradgun anga minqor la'l.

Yo'q labing yanglig' biri go'yo demaykim ruh baxsh,
Ko'rmisham borib Badaxshon mulkida bisyor la'l.

La'l ollinda aningdekkim erur beqadr tosh,
Bo'l mish ul yanglig' labing ollinda bemiqdor la'l.

La'li jonbaxshing takallum vaqtı bir-bir sochtı dur
Olloh-olloh, kim ko'rubitur buyla gavharbor la'l.

Ko'zlarimdur bahru kon mehmonim o'lsang bir kecha,
Ham dur etkaylor fido ollingda, ham isor la'l.

Bir qadah may birla bo‘ldi surxro‘ ahli xumor,
Kup aro go‘yoki mahlul aylamish xammor la’l.

La’lgun may boshida bo‘lsa kishining, ey harif,
Naf‘i ko‘prakkim tikilgay tojida shahvor la’l.

Gar Navoiyning so‘zi shirinu rangindur ne tong
Kim, erur ko‘nglida doim ul shakarguftor la’l.

371

Uylakim gulgul qilur husn ahli ruxsorini mul,
Mulg‘a tushsa orazing aksi ochar yuz ancha gul.

Uylakim bo‘lmas ko‘ngul gulgundin uzmak g‘unchani,
Men ham ul naxli malohatdin uza olmon ko‘ngul.

Go‘yiyo huru malakdin hosil o‘ldungkim, emas
Odami xaylig‘a mumkin sen parivashdek o‘g‘ul.

Lam’ai tig‘idin o‘rtandim, agar qonimdin ul
Zang tutmish yoruturg‘a ham muhayyo bo‘ldi kul.

Chun raqib og‘itti ko‘nglumni anga dog‘ o‘rtadim,
Bog‘lag‘andek et jarohat aylagan ustiga pul.

Qirq yoshta faqr oyinin agar kasb etmading,
Arbain chekmak bila ul hosil o‘lmoqtin tungul.

Ey Navoiy, huru kavsar tongla taqvo ahlig‘a,
Sen g‘animat tut bu kun gulchehra soqiy birla mul.

372

Ey ko‘ngul, ul otashin orazg‘a ko‘p o‘rganmagil,
Nogah ayrilsa firoqi o‘tig‘a o‘rtanmagil.

Tut o‘zungga fardu bekaslik baloyu emgakin,
Yo birovga o‘rganib ayru tushub emganmagil.

Lozimi ishq o‘ldi hijron, bo‘lma oshiq kimsaga,
Emdikim bo‘lding tahammul aylabon kungranmagil,

Gul chog‘n gulbong ishdur chekmak, ey bulbul, sanga
Oyu yil faryod qilmog‘ni manga o‘tkanmagil.

Ko‘z yumub ochquncha sol uyg‘onmas uyqug‘a meni,

Nolishimdin hajr shomi har zamon seskanmagil.

Istasang ul mug‘bacha boshingg‘a yetkurgay qadam,
Dayr piri yo‘lidin tufrog‘dek tebranmagil.

Ey Navoiy, yor agar derkim o‘zungni o‘tqa sol,
Tan yulong aylarga kuyma jon uchun kuymaganmagil.

373

Ko‘ngul ichraki har dam qon to‘kar ul kofiri qotil,
Musulmon bo‘lmasun gar bo‘lsa ruhullo sari moyil.

Samandar qush bo‘lub anqocha zo‘ri bo‘lsa jazm ermas,
Bo‘la olmog‘lig‘i so‘zu g‘amim maktubig‘a homil.

Dedikim, javrdin so‘ng vasl erur, yuz tig‘i kin urdi,
Visolin istagach, dedi bu ermas javrg‘a dohil.

Bag‘ir pargolası rangi ne tong gar ashkdin ketmas,
Qachon gul bargining rangin qilur yamg‘ur suyi zoyil.

Degankim topti majnunluqqa Laylo oshiqi shuhrat,
Meni ishqingda ko‘rgach, bildi Majnun yor emish oqil.

Agar ul qoshi yo o‘q otsa chekmon oh ollinda
Qi, ohim dudi chog‘liq ham o‘qiga bo‘lmaq‘an hoyil.

Chu ushshoq ichra dermen darsi ishqin mehri tong ermas
Ki, derlar: ilm bahs aylar zamon rahmat bo‘lur nozil.

Qabul ahli qoshinda istasang maqbul bo‘lgaysen,
Fano iqboli birla avval o‘zni aylagil qobil.

Gadolig‘ aylaram, ey mug‘bacha, jomi mayi la’ling,
Agarchi rasm bo‘lmas javhari jon nstamak, soyil.

Ajal gar so‘ngg‘i dam bo‘lsa bu dam koming Xizr umri,
Bu noma’lum mav‘idqa bino qo‘yg‘on zihi g‘ofil.

Navoiy bir nafasda hajr zulmidin xalos o‘lg‘ay,
Agar ahvolidin bir nukta so‘rsa xusravi odil.

374

Ey ko‘ngul, har makr ila qochsang ulustin shukr qil,
Har vafog‘a ming jafo tortib qutulsang muft bil.

El tildin ko‘rdum ancha g‘ussakim, mingdin birin
Aytmoq bo‘lmas tanimda har sari mo‘ bo‘lsa til.

Nechakim olamda bedod o‘lsa olam ahlig‘a,
Gar muyassar bo‘lsa yuz oncha tasavvur aylagil.

Joninga bilkim jafodin o‘zga yetmas yilu oy,
Jon fido qilsang vafosinda alarning oyu yil.

Davr jomi zahridindur dog‘i tig‘i qonidin,
Sarvu gul bu bog‘ arokim bo‘ldilar yoshil, qizil.

Faqr vodiysig‘a kirgan tashlasun o‘zluk yukin
Kim, qilur yo‘l qat‘in osonroq nscha bo‘lg‘on yengil.

Ey Navoiy umr o‘tub ham mastu ham uyqudasen,
Hech bilmونkim seni uyg‘on deyin, yoxud oyil.

375

Ul zaqanni upayu gulgunadin nazzora qil
Kim, erur bir olmakim rangi erur oqu qizil.

Ojiz o‘lg‘ay zulfining savdolari taqriridin,
Gar qurug‘ jismim tarog‘ yanglig‘ sarosar cheksa til.

Necha o‘zni yoshurub chin yuzga solib g‘unchadek,
Tangdillarga boqib, xandon bo‘lub bir ham ochil.

Sochida shabnam burunchak, ey ko‘ngul, ermas ajab,
Sunbul uzra gar tushar shabnam taajjub qilmag‘il.

To kiyib sinjobi to‘n, gulgun o‘tuk qilding xirom,
Yo‘q seningdek kabki ra’no husn sahrosida bil.

Raz qizi hamdamlig‘idin oyu yil mast o‘lmag‘ing,
Necha bo‘lg‘ay o‘tti umr ar o‘lmagan bo‘lsang oyil.

Ko‘rmagan bo‘lsang, Navoiy, sarv uza gul, qil nazar
Kim, ul oy gulguna surtub, xil’atin qilmish yashil

376

Qurudi chekkali qondin ko‘zum niqob qizil,
Bale, yog‘insiz o‘lur chun bo‘lur sahob qizil.

Ko‘zumda loladek ul yuz g‘arib erur qon yosh
Ki, bo‘lsa gul qizil, o‘lmas anga gulob qizil.

Boshim sipehrdek evruldiyu qon yoshim sari boq
Ki, har zamon yugurur anda bir shihob qizil.

Ko‘zum qizardi, qizil ashk rangidin garchi
Qizil bo‘lur, suyu, bo‘lmas anga hubob qizil.

Ko‘ngulni churkadi ishqing valek erur to‘la qon,
Yolinda kuymishu kessang erur kabob qizil.

Bu qonki vodiyi ishq ichra oqti bo‘lsa ne tong,
Samum rangidek ul dasht aro sarob qizil.

Ne jilva erdi qizil to‘n bilaki qon yoshdin,
Libosin ayladi ishqingda shayxu shob qizil.

Labing g‘amida Navoiy o‘zin tilar behud,
Ne tong may ichsa aningdekki la’li nob qizil.

377

Qasdi jonim qildi hajr, ey qotili xunxor, kel,
Qon to‘kub jonimni olmoq istasang zinhor kel.

Ashk durrin ko‘zda, jon naqdin ovuchta asradim
Kim, qachon kelsang, yo‘lingda qilg‘amen isor kel.

Ruhum ayrl mish badandin gar tilarsen, ey habib,
Aylamak Isoyi ruhulloh damin izhor kel.

Aytmon kelgil dog‘i qilg‘il tavaqquf lahzae,
Kolgach-o‘q borg‘il, vale jonimni olg‘och, bor, kel.

Jon yetib tur og‘zima, dermen labingg‘a topshiray,
Lutf etib qilg‘il meni jon birla minnatdor kel.

Dayr aro may ichkali kelgum desam, der mug‘bacha,
But qoshida bosh qo‘yib bog‘lar esang zunnor, kel.

Jon Navoiyni, Navoiy jonni sensiz istamas,
Ani jonning, jonni aning ranjidin qutqor, kel.

378

Sarvdek xazro libosing birla, ey nozuk nihol,
To‘tiesen jilvagar, shakkar sanga shirin maqol.

Og‘zingu beling hadisu ramzini bilmay yaqin,

El aro paydoyu pinhon muncha tushti qilu qol.

Bilgurur yuzung tahidin turfa xatti mushkbo',
Sabzadekkim bo'lg'ay aning ustida ravshan zulol.

Ish aro topsam malolat sabrdin yo'q hayrati,
Darddin bemorg'a parhez erur ko'proq malol.

Ey ko'ngul, gar tori jismimda navo yo'q ne ajab,
Nola qilmas garchi pechu tob urar sargashta nol.

Hasrat ohidin falakka o't solurmen har nafas,
Ne ekin hikmat bukim topmas asosi ixtitol.

Begunah to'ksang Navoiy qonini yo'qtur g'ami
Kim, seni ko'rghan dami qonin sanga qilmish halol.

379

Ey jamoling ravzasi firdavs bog'idek jamil,
Lablaringning kavsari aynan tusammo salsabil.

Istamas bo'lsa muhabbat ahli yoshin Dajladek,
Nevchun chekti qazo mashshotasi ollingg'a nil.

Ko'zuma yulungda tufrog'liq tikankim sanchilur,
Bor biaynih surma ul tufrog', tikan andoqli mil.

Bargi guldek hulla jismingda sabo tahrikidin,
Titrar andoqkim kumush ustida bir muflis baxil.

Ey kabutar, vosil o'ldum, noma kelturmakni qo'y
Kim, harimi lomakonda mahram ermas Jabrail.

Orazing oyina, yuz mahvash safodin ursa dam,
Ko'zgu olkim, ko'rguzur yuz vajhdin ravshan dalil.

Ey Navoiy, boda ol ich xossa bu shukronag'a
Kim, salomatdur asolat gavhari sayyidi asil.

380

Gulshaningdin yeldek, ey ra'no nihol,
Men yomon bordim, vale sen yaxshi qol.

Men-menu bekasligu ayyomi hajr,
Sen bo'lu ahbobu davroni visol.

So‘rma holimning sabodin gah-gahi,
Ko‘nglunga o‘lturmasun gardi malol

Gar buzuq ko‘nglumni mardud aylading,
Bok emastur o‘zgalarining ko‘nglin ol.

Sig‘mayin ko‘yungda gar qovdung meni,
Asru keng sahrodurur dashti xayol.

Olam ahlida vafo mavjud emas,
Har nekim yo‘qtur, erur topmaq muhol.

Ey Navoiy, xushturur ozodaliq,
Qayd aro hushluqqa yo‘qtur ehtimol.

381

Beling solur dimog‘img‘a taxayyul,
Berur zulfung hadisimg‘a tasalsul.

Buyursa garchi ishqing tarkini aql,
Ul ishni men qila olmon taaqqul.

Yuzung hajrida ko‘nglum muztaribdur,
Ne nav’ etkay balig‘ susiz tahammul.

Ne tong sensiz yutub qon, g‘am yesamkim
Kerak ul bodag‘a mundog‘ tanaqqul.

Qading titratti xokiy paykarimni,
Qiyomat yerga solg‘andek tazalzul.

Emas moni’ fano yo‘lig‘a foqa,
Kerak rahravg‘a zodi rah tavakkul.

Navoiy bulbulu yori gul o‘lg‘ay,
Agar yuz poya qilg‘aylar tanazzul.

382

La’li jonbaxshingda bir gavhar agar topmisx xalal,
Javhari joniq qabul etsang anga aylay badal.

Qayda bo‘lg‘oy javhari jon ham badal ul durg‘akim,
Obi hayvondin chiqarmish ani g‘avvosi azal.

Ul ne gavhardurki, jon mulki xiroji topqasen,
Aql sarrofi agar qilsa bahosin filmasal.

Bo‘ldi gar bir gavhar o‘rni xoliy, ammo ko‘rki bor,
Nuktadin yuz durg‘a har soat musharraf ul mahal.

Lafzi durboring soliptur raxna gavhar silkiga,
Gar inonmaslar desang bir lafz o‘lur bu nukta hal.

Charh sarrofi qoshinda birdurur dur birla tosh,
Toshdek so‘z kelsa, durdek lafz ila qilma badal.

Ey Navoiy, silkidin tushkan yiroq dur bobida,
Durri ma’ni buyla nazm etmak emastur muhtamal.

383

Qasdi jon aylar damodamkim anga yuz jon tufayl,
Tifl uchun go‘yo qilur har dam chuchuklik sari mayl.

Gul yuzungdin kelsa ashking lolagun yo‘qtur ajab
Kim, bahor ayyomida rangin kelur, albatta, sayl.

Tushta ko‘z surtar edim yuzunga go‘yo xat emas,
Bo‘ldi mujgondin tikan birla to‘la husnungga zayl.

Barqdin bir lam’au xoshoku xasdin ko‘h-ko‘h,
Ishq yolg‘uz zuhdu taqvo chirikidin xayl-xayl.

Ul saodat axtarin ko‘rgach sirishkim qon bo‘lur,
Chun aqiekim ani rangin qilur tobi Suhayl.

Mazrai ishq ichra sochmoq qobiliyat donasin,
Ayladi ko‘k tosidin go‘yo qazo dehqoni kayl.

Zulfu yuzi furqati ayyomidin so‘rmang hisob
Kim, Navoiy ko‘ziga birdek bo‘lubtur yovmu layl.

384

Gar yetar ag‘yordin yuz ming jarohat, ey, ko‘ngul,
Chunki bordur yor uchun bor ayshu rohat, ey ko‘ngul.

Ka‘ba istarsen mug‘ilon cheksa tnl qayg‘urmag‘il,
Bemalomat topmadi kimsa salomat, ey ko‘ngul.

Menmenu ul oy g‘ami sen ham agar mardonasen,
Dardu g‘am chek, istama komu farog‘at, ey ko‘ngul.

Kimga yetkay vasl iqboli agar hijron aro,

Senda bo‘lsa g‘am chekarga sabru toqat, ey ko‘ngul.

Xurdai rozingni asra g‘uncha yanglig‘ qon yutub,
Har necha qilsa jafo ul sarvqomat, ey ko‘ngul.

Dema ishqisi so‘zi kam bo‘lg‘ay boshnmg‘a ursa tig‘
Kim, bu sudin sokin o‘lmas ul harorat, ey ko‘ngul.

O‘rtading oxir Navoiyni sharori oh ila,
Aiga nevchun muncha ko‘rguzdung sharorat, ey ko‘ngul.

385

Anglading yo yo‘qmukim aylar safar yor, ey ko‘ngul,
Vahki, bo‘lduq yona hajri ilgida zor, ey ko‘ngul.

Ul xud aylar azmu men ham xastadurmen, ham g‘arib,
‘Goh-gohi bo‘lg‘asen mendin xabardor, ey ko‘ngul.

Ne borurg‘a quvvatim bor, ne turarg‘a toqatim,
Bizni bu holatqa sen qilding giriftor, ey ko‘ngul.

Bora xud olmon turub ham chun tirilgum no‘qturur,
Bas vido‘ing qildim andin qolma zinhor, ey ko‘ngul.

Mahrami gar bo‘lmasang hushtur bu hamkim, bo‘lg‘asen,
Itlariga hamnishinu sohib asror, ey ko‘ngul.

Gar bo‘lubon nogahon toli’ musoid baxtiyor,
Topsang ul oy birla so‘zlashguncha miqdor, ey ko‘ngul

Iltimosim budururkim, barcha eldin yoshurun
Qilg‘asen miskin Navoiy dardin izhor, ey ko‘ngul.

Bo‘lsa senlik vasl yo‘qtur har necha qilsang talab,
Bo‘lmasa matlub erur ul dam talabgor, ey ko‘ngul.

386

Ey latofat kasbida husnungg‘a hojatmand gul,
Yuz guliston ichra yo‘q husnungg‘a bir monand gul.

Xil’ati xazro bila ul qomatu ruxsor erur,
Rost bir sarveki qilg‘aylar anga payvand gul.

Yuzu g‘amzangdin, mujamdin qon yosh ar zoyandalur,
Yo‘q ajab chun bor tikanga doimo farzand gul.

Jolalar ermas guli sadbarg uzakim aylamish,
Jismini tishlar bila hajringda yuz parkand gul.

Qaysi vajh ila yuzunga da'vo etkay chun erur,
Ganji husnungdin muhaqqar vajh ila xursand gul.

Sarv sen, ey gul'uzor, ar bo'lsa xushraftor sarv,
Gul sen, ey sarvi ravon, gar qilsa shakkarxand gul.

Ey Navoiy, gar so'zungni yor eshitmas ayb emas,
Turg'oni birla qulqodur, lek eshitmas pand gul.

387

Ey manga sensiz bahoru bog'u bo'stondin malol,
Qaysi bo'stonu bahoru bog'kim, jondin malol.

Sensizin ko'nglum tong ermas bo'lsa jannatdin malul,
Ne ajab bulbulg'a guldin ayru bo'stondin malol.

Bo'lmasa kofir ko'zung shaydosi majnun ko'ngluma,
Aqlu donishdin tanaffur dinu imondin malol.

Ishq tug'yonida yuz ko'rsatsa gulruxlar ne sud
Kim, topar muhriq isitqan mehri raxshondin malol

Kuydururlar dog'i daf' o'lsun maloli hajr deb,
Voy angaknm, voqi' o'lg'an dog'i hijrondin malol.

Kasrati paykonidin ko'nglum toriqmas, garchi bor,
E'tidolidinki o'tkach obi hayvondin malol.

Bazm aro har dam qadah ko'ngli to'la xunob erur,
Men kebi go'yo anga ham yetti davrondin malol.

Qiblai maqsad tilarsen dard o'qidin g'am yema,
Istagan tavfi haram ko'rmas mug'ilondin malol.

Charx anjumdin qulqoqa paxtalar tiqt magar,
G'am tuni topmis Navoiy chekkan afg'ondin malol.

388

Kecha ul oy birla erdim, vah, bu tushdur yo hayol,
Tush emas, chun yo'qturur uyqu xayoledur muhol.

Ishq izhor aylabon vaslin tilar munglug' ko'ngul,
Bir gado yanglig'ki, aybin ko'rguzub aylar savol.

Oraz uzra ayn yanglig‘dur uzoring uzra ko‘z,
Nargis uzra nuqta yanglig‘dur ko‘zung ustida xol.

Egma qaddim za’fi haddin oshti ul yuz qoshida,
Notavon bo‘lg‘an kebi xurshid vaslidin hilol.

Yig‘labon ul sarvning yo‘lig‘a tushsam noz etar,
Su bila tufrog‘din bosh tortqan yanglig‘ nihol.

Hajr tig‘idin quruq jismim qalamdek bo‘ldi shaq,
Lek bejon nolalar ko‘nglumdadur andoqli nol.

Kom erur joning‘a ul oludalig‘din pok lab,
Ey Navoiy, o‘lsam ichmon Xizr no‘sh etkon zulol.

389

Demakim, mastlig‘din, qaddi bo‘lmish har qayon moyil
Ki, ohim yelidin har yondur ul sarvi ravon moyil.

Yuzi ollida bosh sojid, chuchuk nutqig‘a til zokir,
Xati sabzig‘a ko‘z rog‘ib, labi la‘lig‘a jon moyil.

Quyundek po‘ya birla ko‘yin istarmen ajab ermas,
Vatang‘a bo‘lsa bir sargashtai bexonumon moyil.

Isitsam hajridin muhriq ul o‘tluq yuzni istarmen,
Nekim za’fin fuzun aylar, angadur notavon moyil.

Qiliching mayli tong yo‘q bo‘lsa joni xoksorimg‘a,
Ne yerkim pastroq, su ul yon o‘lg‘ay begumon moyil.

Maxol umid ila kulbamda doim muntazirdurmen
Ki, shoyad ul pari bu jonib o‘lg‘ay nogahon moyil.

Agar masjidda kirdim halqai zikring aro, ey shayx,
Vale mayxonayu mutrib sari men har zamon moyil.

Necha gumrahg‘a isyon bo‘lsa, lekin ko‘ptur ummidi,
Agar tuz yo‘lg‘a ko‘ngli goh-goh o‘lsa nihon moyil,

Navoiyning buzug‘ ko‘nglini manzil qildi g‘am xayli,
Nechukkim tushkali vayrong‘a bo‘lg‘ay korvon moyil.

390

Ancha bo‘ldi tan o‘qungdin ichkari, tashqari yo‘l

Kim, ajal kirmakka, jon chiqmoqqadur har sari yo‘l.

Doira atrofidin markazga chekkandek xutut,
Tiyr boroni falak ko‘nglumga top mish bori yo‘l.

O‘qlaring zaxm aylagandin tanda xayli g‘am kirib,
Uyla yerga yettilarkim, yo‘qtur andin nori yo‘l.

Ko‘ksuma hajr ichra tirnog‘larki chekti shohroh,
Bu taraf solg‘ay dedim ul shahsuvor ilg‘ori yo‘l.

Rishtai la’ling xayoli ko‘z sari kelmakkadur,
Buki har yon chekti ashkim qatrali qonlari yo‘l.

Qani mug‘ ko‘yiki, piri dayr birla mug‘bacha,
Uyladurlarkim topar ul yon yigitu qori yo‘l.

Gar Navoiy ko‘ksi chokin tiki budur qasdikim,
Topmag‘ay darding ichidin chiqqali toshqori yo‘l.

391

Ayladi ko‘nglum qushi ul shom gisu sari mayl,
Shapparak yanglig‘kim ul qilg‘ay qorong‘u sari mayl.

La’li hijronida ruxsorin tilarmen uylakim,
Bodadin maxmur bo‘lg‘on, aylagay su sari mayl.

Ishqima ushshoq shirkat qilmag‘aylar deb erur,
Ko‘ngluma bir qotili bebok badxo‘ sari mayl.

G‘ayrdin ko‘nglumni sof ettim yuzung aksi uchun,
Garchi xudbinsen sanga bo‘lmas bu ko‘zgu sari mayl.

Eshitib aqshom ko‘ngul afsonasin ushshoqdin,
Qildi men bedilg‘a navbat yetkach uyqu sari mayl.

Bu chamanda ne vafo bo‘lg‘ayki, har yon g‘unchasi
Zohir etmish bulbul ahvolig‘a kulgu sari mayl.

Har taraf moyildur ul sho‘xu Navoiy muntazir,
Kulbasi ichraki shoyad aylagay bu sari mayl.

392

Ne ajab mayl aylasam yo‘qluqqa har dam, ey ko‘ngul
Kim, yo‘q o‘lsam yo‘qturur yo‘qlar kishim ham, ey ko‘ngul.

Fikr etib bilman ne nav' erkin ko'ngul xurramlig'i,
Ko'rmadim hargiz seni bir dam chu xurram, ey ko'ngul.

Olam ahlig'a vafo ko'p qildimu ko'rdum jafo,
Ulfating bu xayldin sen bori qil kam, ey ko'ngul.

Gar takalluf qilmasang sendin edi har nechakim,
Jonima yuzlandi dardu mehnatu g'am, ey ko'ngul.

Qaydakim husn ahlidin olamg'a tushti ofate,
Ishqidin qilding meni rasvoi olam, zy ko'ngul.

Ko'zlarim sho'robasin, vahkim, oqizding yuz sari,
Bir malohat ahli to'kkach gulga shabnam, ey ko'ngul.

Har parikim ochti bir devonaning qasdig'a zulf,
Aylading zanjirini bo'ynumg'a mahkam, ey ko'ngul.

O'tkan o'tti bori, emdi ayla bu pandim qabul
Kim, yana qilma havoi jinsi odam, ey ko'ngul.

Chun yana sevsang birovni chun qorib tark etti ishq,
Bas, Navoiy uzrini tutqil musallam, ey ko'ngul.

MIM HARFINING MAHBUBLARINING MALOHATI «NAVODIR»DIN

393

Zihi mulkungnung o'n sekkiz mingdin biri kelib olam.
Bir uyluk qul sanga olam aro Havvo bila Odam.

Berib chun ofarinish mahvashig'a hikmating jilva,
Bo'lub ruxsori niliy bu mudavvar nilgun toram.

Gul ahmar, savsan azraq bu chaman ichra bo'lub andin
Ki, yeldin tarbiyat kojin alarg'a yetkurub muhkam.

Nuhud folin ko'rub anjumdin avvalg'i uchi mezon,
Chu amring charx zolin aylabon makkorai qadxam.

Chamang'a otashin guldin chu qo'ydung toza qonlig' dog',
Momuq oq guldin etting dog'i uzra qo'yg'ali marham.

Chu yozding subhig'a yorliq bosarg'a ol tamg'asin,
Shafaqdin hal qilib shingarf qilding, mehrdin xotam.

Kusuf ichra quyoshni tobiqun — na'l etting oy birla,
Xirad vahm ettikim, ham jins ikki harf erur mudg'am.

Chu bog‘lab bir-biriga hikmating bu korgah vasfin,
Xiradparvar muhandislarg‘a sirrin aylabon mubham.

Itingdur shohlar, yo‘qtur Navoiy itcha ollingda,
Alar ittin ko‘pu bu it ayog‘i tufrog‘idan kam.

394

Men gado maxmuru piri dayr elinda jomi Jam,
Aylasam ibrom, mendin kamligu andin karam.

Ey xusho, mug‘ dayrikim bordur aning atrofida,
Har sinuq soyil Jamu sing‘an safoli jomi Jam.

Yaxshiroq Jamshid bo‘lmoqin gadolig‘ dayr aro,
O‘zga qilmoq yaxshiroqkim, o‘zgaga qilmoq sitam.

Qayg‘u gar jon qasdi aylar jomi may daf‘in qilur,
G‘am nechakim muhlik o‘lsun bor esa dofi’ ne g‘am.

Ey xarobot ahli, dunlardin muruvvat istamang,
Dog‘i hirmon jonda xushroqkim, arozildin diram.

Shayx g‘aflatdin samad zikrin qilurdin yaxshiroq,
Mug‘ki dayr ichra degay ogohlik birla sanam.

Bir qadam nafs uzra qo‘yg‘il birni maqsadg‘a dedim,
Yo‘l uzun deb yema g‘amkim, asl erur avval qadam.

Da‘vii faqr etsang, ey zohid, gum o‘l mayxonadin
Kim, bu yo‘lda kimsaga bo‘lmas vujud o‘lmay adam.

Buki yor istar emish ishqu junun ahlig‘a qatl,
Ey Navoiy, shukrkim oshiq menu devona ham.

395

Ham subhi orazingdur vardiyatun-nasoyim,
Ham shomi sunbulingdur miskiyatush-shamoyim.

Vah, ul ne xo‘bluqturkim, qahr chog‘i sursa,
Yuz harfi nomuloyim, andin kelur muloyim.

Bir kecha tushta ko‘rdum ul zulf birla yuzni,
Baxtim kebi tilarmen, bo‘lsam hamisha noyim.

Dar kun xayolu doim budur murod hamkim,

Bo‘lsam qoshida har kun, boqsam yuziga doim.

Ko‘nglumdin oldi ul ko‘z oromu sabr naqdin,
Bir turkdekki olg‘ay toroj ila g‘anoyim.

Sufiy ko‘zu ko‘ngulni pok etmasa ne osig‘,
O‘tkarsa tunni qoyim yo bo‘lsa kunda soyim.

Yuz oh, ey Navoiy, kim ul quyoshqa yetmas,
Garchi yetar g‘amidin gardung‘a ohu voyim.

396

Ne itni ul buti begonavash itiki sog‘indim,
It oshnog‘a yoling‘on kebi ul itka yolindim.

Yuzi nazorasi daf’ ayladi sovug‘ nafasimni,
Yolang gadoy kebi oftobro‘da isindim.

Junun yo‘lida bu rasvog‘a yopma pardai ismat
Ki, yo‘l qolur agar andog‘ og‘ir libos yopindim.

Chu tig‘ chekti manga bo‘ldi qatl davlati ro‘zi
Ki, el qochib, anga-o‘q men za‘fu xasta sig‘indim.

O‘churdi shu’lai ohimni tig‘i shukrki bori —
Gudozu so‘zdin andoqki sham’ g‘am tuni tindim.

Burung‘i kom ajab yo‘q gar o‘lsa Ka’bai maqsad,
Talab yo‘linda bu damkim fano samandig‘a mindim.

Sochi ko‘chgul qushining har birig‘a bog‘ladi tore,
Navoiy, emdi sen o‘tkilki men bu nav’ ilindim.

397

O‘rtanur el furqatingdin navha bunyod aylasam,
Qo‘zg‘alur olam o‘kurmak birla faryod aylasam.

Yemrulur boshimg‘a go‘yokim falak g‘amxonasi,
Ul quyosh hamxonam erkanni qachon yod aylasam.

Hajr biymi chun yetar g‘amgin qilur beixtiyor,
Vasl umidi birla ko‘nglumni necha shod aylasam.

Charxu anjumdin kuyubmen ayb emas gar oh ila,
Bu necha ahgar bila ul kulni barbod aylasam.

Daf' etay dermen jahondin ashk ila g‘am tufrog‘in,
Bu buzug‘ni sayl ila istarmen obod aylasam.

Saltanatdin boda ortuqdur manga yuz qatlakim,
Xushroq el bedodidin o‘zumga bedod aylasam.

Ey Navoiy, hajr aro yetti ajal qilg‘aymu sabr,
Ul Masiho va’dai vaslini miqd aylasam.

398

Bu kun ahli jahondin xasta xotirmen jahondin ham
Demon ahli jahon birla jahon, billahki, jondin ham.

Meni jonu jahondin hajr vaqtikim malul etkay,
Vatan yo mulkin xudkim desun, bal xonumondin ham.

Ko‘nguldin jong‘a yettim, ey ajal, netkay xalos etsang,
Meni ul telbadin, ul telbani men notavondin ham.

Ne ayrilmox dururkim, yor to ayrildi, ayrilmish
Ko‘ngul mendin, fig‘on ko‘nglumdinu o‘tlar fig‘ondin ham.

Manga jononsiz o‘lmoq yaxshiroq, ey Xizr, yuz qatla,
Ketursang mujda o‘lmoq birla umri jovidondin ham.

Nafas qat’ o‘ldi ul yuz furqatidin, ko‘zgu kelturmang
Ki, men emdi qutuldim ibtilosiz imtihondin ham.

Yomon yaxshig‘a ko‘p zulm etmagilkim, gar budur davron,
Qutulg‘ung, kimki andin yaxshiroq yo‘q, men yomondin ham.

Itiga tu’ma, darbonig‘a bo‘lsun muttako o‘lsam,
Tanim ul ko‘ydin olmang, boshim ul ostondin ham.

Faqihu—Ka’ba, rindu — maykada, xushdur Navoiykim,
Sening yoding bila mundin erur ozodu andin ham.

399

Loladek yuzung xayolidin to‘la qondur ko‘zum,
Balki lola jomidek qon ichra pinhondur ko‘zum.

Ichida su tegrasida yosh qobarg‘an shakl ila,
Sensizin bir toza qo‘yg‘an dog‘i hijrondur ko‘zum.

Yel xam etkan sham’ o‘ti andomi birla o‘rtanur,
Yo‘q ajab gar kecha tong otquncha giryondur ko‘zum.

Shoxi marjondur qizil raglar, duri g‘alton sirishk,
Bu zarofatdin biaynih bahri Ummondur ko‘zum.

Har yoram jismimda bir hayron ko‘z o‘lmish holima,
Turfa ko‘rkim, muncha hayron ko‘zga hayrondur ko‘zum.

To to‘kar jonbaxsh la’lingning xayolidin sirishk,
Bahri ashk ermaski, ayni obi hayvondur ko‘zum.

Ko‘z nazar yo‘lin tilar tutqay vido’ ashkin to‘kub,
Ko‘z yumub ochquncha yuz ko‘rguzki, mehmondur ko‘zum.

400

Qadingg‘a to‘bi o‘lubtur mutiyu chokar ham,
Bu ishga adl tonuq sarv erur sano‘bar ham.

Bir uchig‘aki momuq chirmalibdurur boshog‘ing,
Ko‘ngul yarosig‘a bo‘lmish fatilaliq marham.

Ko‘ngulki, ohi tig‘idin qorardi paykoning,
Meni ul etti siyah ro‘zu tiyra axtar ham.

Yopishti qonima hajring palosi, uylaki bor
Shahidliqda kafan, xastaliqda bistar ham.

Ishimni mug‘bachalar ishqil ichra so‘rsa faqih,
Dengizki, bog‘ladi zunnoru chekti sog‘ar ham.

Ko‘ngulga sham‘i jamoling solibdurur bir o‘t
Ki, to‘zmagay anga parvona, bal samandar ham.

Xumor za‘fida may bahri ichra gar tushsam,
G‘ariq mumkin erur bo‘lmog‘im shinovar ham.

Gadoyi vasling erur bulbul, ayla rahm, ey gul
Ki, bir qaror ila qolmas gado tavongar ham.

Navoiy aytsa gah yova, goh lol o‘lsa,
Ne tongki, muztarib aylabsen ani muztar ham.

401

Chu yopsa na’shim uza mug‘ palosi idborim,
Belin tongorg‘a palos uzra yaxshi zunnorm.

Chekib may ahli xarobotu xirqa chok aylab,

Ko‘tarsalar yig‘ilib na’sh ila tani zorim.

Mug‘ona navha bila dayr sari azm aylab,
Chekib surudi fano yor, balki ag‘yorim.

Yasarda dayri fano dargahida qabrimni,
Borisig‘a budurur iltimosu zinhorim

Ki, dayr pirining ollida bosh qo‘yub, yer o‘pub,
Niyozlar bila arz etsalar bu guftorim:

Ki, men xud anglamay ish sirridin xabar o‘ttim,
Ish ul dururki, gahi bo‘lmasang xabardorim.

Qadam agar lahadim uzra qo‘ysang ermas tong
Ki, bo‘lsa ravzai jannat bu kulbai torim.

Umidim oxir erur dayr pirining karami,
Gar emdi mug‘bachalar birladur saru korim.

Navoiyo, boqibon fazl bahri mavji sari,
Xudoy uchun tilama tavba birla ozorim.

402

Ko‘ngluma yor istabon mehnat kelurni bilmadim,
Jong‘a yetmay ul hanuz ofat kelurni bilmadim.

Suvratin ko‘rmak tamanno aylabon ko‘rmay hanuz,
Ollima yuz ming ajab suvrat kelurni bilmadim.

Men yuzin ko‘rmay hanuz el vasl etar ermish tama’,
Ko‘ngluma mundoq qotiq holat kelurni bilmadim.

Ko‘rmay oxir tarkin ettim, vahki, munlug‘ jonima
Vasl yetmay jovidon furqat kelurni bilmadim.

Ishq ko‘yida balo ko‘p ko‘rmagin bildim valek,
Yor tarkin tutqucha g‘ayrat kelurni bilmadim.

Resh etib ko‘nglumni ulkim, dedi: marham kelturay,
Marham andin nishtari hasrat kelurni bilmadim.

Ul rafiqekim anga dedimki, jon aylay tufayl,
Muncha andin jonima vahshat kelurni bilmadim.

Ko‘ngluma ashob zulmi janbida, vo hasrato,
Charx neshin marhami rohat kelurni bilmadim.

Ishq shahrohig‘a kirmakni xayol etmak bila,
Ollima yuz vodiyi hayrat kelurni bilmadim.

Ey Navoiy, qilmag‘uncha mosivolloh tarkini,
Komim ichra jur’ai vahdat kelurni bilmadim.

403

Zulmati hijron qilur qat’i hayotim dam-badam,
Ey Masihi, Xizr pay boshimg‘a yetkur bir qadam.

Novaking ko‘nglum aro sing‘ay debon payvand uchun,
Ko‘z qorasi obno‘su qon yoshim bo‘lmish baqam.

Boshda tig‘ing jon aro novaklarining sharhini,
Yozaram doimki bor bu ishda hamdardim qalam.

Yor kelmish qabrima, har yon sog‘inmang lolakim,
G‘ayrini o‘rtarga g‘ayrat o‘tlari urmish alam.

Ruh uchar har yon, vale o‘rtar parki hijron o‘ti,
Oh, agar ul toiri davlat bu o‘ttin qilsa ram.

Eyki, shohid, ko‘zu zulfu og‘zig‘a oshuftasen,
Bir taammul aylakim, bordur bu maqsuding adam.

Gar Navoiy ishqি ortar ohidin sen vahm qil,
Kim o‘churur sham’ni garchi yorutur o‘tni dam.

404

La’lingki, sog‘indim ani jon rozig‘a mahram,
Bilmonki nedin xat chiqarur qonima har dam.

Terlab gul uza sabzang o‘lubtur taru toza,
Xat garchi hamisha buzulur bo‘lsa varaq nam.

Bosh sajdag‘a rog‘ibdur, ko‘z surmag‘a tolib,
Yo‘lungda ajab ermas agar bo‘lsa qadim xam.

El pand berur ko‘ngluma, sen novak otarsen,
Netkay edim ul zaxmg‘a bo‘lmasa bu marham.

Bilgilki, ko‘ngul shu’lasin izhor qilibmen,
Ul kunki, tutashqay g‘am o‘tidin bori olam.

Gar oqibat ahvolig‘a men voqif emasmen,

Kimdurkim anga qolmadi bu mas'ala mubham.

Gar itti esa xasta ko'ngul g'am yema, ey aql,
G'am yegali bordur, chu Navoiy, sanga ne g'am.

405

Hajridin ko'ksumni dermen uyla afgor aylasam
Kim, ichim holini toshimdin namudor aylasam.

Chun meni majnun shajar yafrog'idin qildim libos,
Avlo uldurkim giyahdin emdi dastor aylasam.

Istaramkim, ruq'asin g'amgin ko'ngul oromig'a,
Rishtai jonimg'a cheksam, dog'i tumor aylasam.

Har sari mo' bir til o'l mish ishqim iqrorig'a, voy,
Kim inong'ay emdi yuz til birla inkor aylasam.

Telba ko'nglum bexudu yor ul taraf yuzlandi, oh,
Dark qilmas neshlar sanchib xabardor aylasam.

Hajr selobi buzar gar ashku jismim tufrog'in,
Har nechakim sabr uyi tarhig'a devor aylasam.

Hajrdin ko'ksum erur ozurda sog'ar loyidin,
Surtubon marham tilarmen daf'i ozor aylasam.

Ne qazodin kelsa taslim o'lmoq avlo chunki yo'q
Sudi gar qilsam sitez, ar o'zni ko'p zor aylasam.

Ey Navoiy, mayni to tark ettim ortibdur g'amim,
Istaramkim emdi azmi ko'yi hammor aylasam.

406

Bordi your to'zmon el bormoqqa ham, turmoqqa ham,
Chin desam, rashk o'lturur tangriga topshurmoqqa ham.

Ko'rsam ul yuz ko'zgusin tag''yir vahmidin emas,
Qattiq oh urmoqqa had, sokin nafas urmoqqa ham.

Ul paridin lutf agar zulm o'lsa andoq telbamen
Kim, shuurim yo'q sevunmaklikka, qayg'urmoqqa ham.

O'lturub yonig'a men kimmenn yuzin o'pmoqqakim,
Yo'q hadim ko'yida yer o'pmakka, o'lturmoqqa ham.

Notavon jismimda yuz novak firoqing xaylidin
Kim, kuchim yetmas birin tortarg‘a, sindurmoqqa ham.

Demagil ishqin nihon tutqil meni uryong‘akim,
Tig‘i zaxmin yo‘q nimam bog‘larg‘a, yoshurmoqqa ham.

Tut Navoiy, ishqqi zulmin xush chu yo‘qtur ixtiyor,
Ul ko‘ngul olmoqqa ham, sen ko‘nglung oldurmoqqa ham.

407

Ul quyosh yuzlukni har tun yod qilmoqdur ishim,
O‘z-o‘zumga to sahar bedod qilmoqdur ishim.

Baski, faryod aylamaktin har dam o‘zdin boribon,
Holima kelgach, yana faryod qilmoqdur ishim.

Telbalardek har dam aytib ul pari afsonasin,
Topmayin maqta’ yana bun’yod qilmoqdur ishim.

Ashk etib sabrim uyin vayronu har dam oh ila,
Ul buzug‘ning tufrog‘in barbod qilmoqdur ishim.

Naxli qaddin chun xayol aylab qo‘yub tufroqqa bosh,
Sajdai ul sarvi hurizod qilmoqdur ishim.

Hajru shavqu charxi muhlik zulmi ichra har nafas,
O‘zni yuz bedod ila mu’tod qilmoqdur ishim.

G‘amdin o‘lmaslikka boisdur muhol andishakim,
Vasl umidi birla o‘zni shod qilmoqdur ishim.

Vahki, yer tutmas necha har lahza shaydo ko‘ngluma,
Sabru toqat shevasin irshod qilmoqdur ishim.

Yig‘lasam taskin topar ko‘nglum, Navoiy voykim,
Ul buzug‘ni sayl ila obod qilmoqdur ishim.

408

Gar aning vaslig‘a haddim yo‘q, erur xush yodi ham,
Ul meni yod etmasa, basdur aning bedodi ham.

Bog‘ aro ruxsoru qadding jilvasin to ko‘rdilar,
Bo‘ldi obu tobsiz gulbargi ham, shamshodi ham.

Layliyu Shirin bo‘lub sendin xijil, mendin dog‘i,
Ham aning Majnunidur hayron, munung Farhodi ham.

Oolloh-olloh, ne balodurkim, labu mujgon bila,
Yolg'uz el turguzguchi yo'qkim erur, jallodi ham.

Qatl uchun ko'nglumga kirdi qo'rquamkim o'tidin,
Toshdek ko'ngli su bo'lg'oy, xanjari po'lodi ham.

Ne balo berahmdur ul oyki, ko'nglumning anga
Yoshurun ohi asar qilmas, biyik faryodi ham.

Bandayu ozodg'a bedod etar bu bog'ning —
Sunbulining hindusi ham, sabsani ozodi ham.

Qilma zohir davlatiyu mehnatig'a e'tibor
Kim, aning dog'i vafosi yo'q, munung bunyodi ham.

Biymi hajridin, Navoiy, gar yo'q emin margdek,
Shukrkim ermas muayyan margdek miodi ham.

409

Kimsani dard ahli deb sirrimg'a mahram ayladim,
O'z-o'zumni kuch bila rasvoi olam ayladim.

Ahli roz el ollida odam desa bo'lmas meni,
Menki o'z rozimg'a mahram jinsi odam ayladim.

Bul'ajab sirrimni maxfiy asramoq dushvor edi,
Barcha gar Farhod ila Majnunni hamdam ayladim.

O'z g'amim ifshosidin olamnikim qildim qora,
Ish o'zumga demakim, olamg'a motam ayladim.

Ayladim jonimg'a yuz bedod, lekin o'limgi,
Sirrim ifshosi bila erdi, ani ham ayladim.

Elga rasvo bo'lmos'i bo'ldum ne sud emdi, agar
Yuz tuman mismor ila og'zimni muhkam ayladim.

Kofiri ishq o'lmoq ermish fosh qilmoq sirri ishq,
Nomusulmonliqni ko'nglumga musallam ayladim.

Shodmen ahli zamon birla zamondinkim, o'zum
Ayladim o'z qismatim anduh agar g'am ayladim.

Ey Navoiy, dema sirring kimsaga mundoqki, men
Kimsani dard ahli deb, sirrimg'a mahram ayladim.

Dam-badam har kun ul oy bedodini yod aylaram,
Kecha turluk-turluk o‘z jonimg‘a bedod aylaram.

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Zulfu yuzi hajridin g‘am shomi anjum gullarin,
Tund bodi ohdin har lahza barbod aylaram.

O‘zni qatl ummidiyu ag‘yor qatli biymidin,
Lahzae shod aylasam, yuz lahza noshod aylaram.

Qomatu ruxsoridin bo‘e toparmen, ey rafiq,
Buki har dam gulshan ichra mayli shamshod aylaram

So‘rmang, ey ushshoq, mendin nukta piri ishq deb,
Negakim kuymak bila o‘lmakni irshod aylaram.

Ey Navoiy, har jafo kelsa ul oydin elga ham,
Rashkdin majmu‘in o‘z jonimg‘a isnod aylaram.

Eyki avval qomating vasfini shamshod ayladim,
Sarvi jannat bo‘lki, emdi seni ozod ayladim.

O‘zgalarni davlati vaslingda xush tut, chunki men
Xasta ko‘nglumni g‘ami hijron bila shod ayladim.

Xoh sen yor o‘l manga, xoh o‘zgalarning yori bo‘l,
Chun men o‘z ta‘bimni bekaslikka mu’tod ayladim.

Mujda ber, ey shayxkim, tortib nadomat ohini,
Bulhavasliq juzvi avroqini barbod ayladim.

Necha men mahrum o‘lub bo‘lg‘ay anga mahram raqib,
Shukrkim, g‘ayrat tariqin oqibat yod ayladim.

Ul vafosiz ishqini tark etmaguncha tinmadim.
Ne yomon soatda bu shum ishni bunyod ayladim.

Ey Navoiy, hech bilmonkim, unog‘oymu ko‘ngul,
Anga muncha ajnabiyo so‘zlarki irshod ayladim.

Yetti so‘zi hajru chektim ohi dardolud ham,
Xasta jonio kuydiyu boshimg‘a chiqti dud ham.

Kim vafo ahlin sinuqtursa bilurmen onchakim,
Ko‘p ziyon qilmasa bore qilmag‘ay ko‘p sud ham.

Istagan Majnun mazorin, kelki andin kam emas,
Telba ko‘nglumni yoshurg‘on jismi g‘amfarsud ham.

Anjum ermas g‘am tunikim, ishrat abvobin sipehr
Mixdo‘z aylab, sarosar qildi qiyrandud ham.

Muddai ko‘p kulma idborig‘akim, yor ollida,
Sen kebi maqbul edim bir choq meni mardud ham.

Ko‘p toriqma, ey ko‘ngul, ul sho‘x hijroni aro,
Shoyad ushbu ishda-o‘q erdi ekin behbud ham.

Ey Navoiy, bo‘lmasa yore firoqingdin malul,
Ayrilurda yaxshiroqkim qilmasang padrud ham.

413

Yana firoq o‘tig‘a tushti tobliq‘ ko‘nglum,
Tarahhmeki qiladur xaroblig‘ ko‘nglum.

Sog‘insa g‘unchang uchun qong‘a evrulur har dam,
Bu yuz jarohat ila pechu tobliq‘ ko‘nglum.

Firoqu dard qachon tuzsa bazm kulbam aro,
Berur ko‘zum mayi la’lu kaboblig‘ ko‘nglum.

Erur sharoraki xurshid sari borg‘ay tez,
Yuzung visolig‘a jahdu shitoblig‘ ko‘nglum.

Yuzungni ko‘rdum esa su bila balig‘dek o‘lur,
Qarorsiz tanimu iztiroblig‘ ko‘nglum.

Fano yeli qanikim ochsa chehrai maqsud
Ki, tan g‘uborida bo‘lmish hijoblig‘ ko‘nglum.

Navoiy g‘am yediyu o‘ldi dog‘i topti visol,
Ne topmasun bu sifat xo‘rdu xoblig‘ ko‘nglum.

414

Kecha kuydurdil falakni shu’lai tobi tabim,

Kunduz ul oyg‘a yeta olg‘aymu, yo rab-yo rabim.

Yetkurur jonimg‘a ofatlar uzori uzra xol,
Rost andoqkim, qorarib sug‘a tushkay kavkabim.

Aytdim boshimni fitroqingga cheq, ey shahsuvor,
Dedi: bosh asrardek ermas tezlikdin markabim.

Tufrog‘ o‘ldum, ishq, agar qilsang imorat yaxshidur,
Xisht qo‘ymoqqa fano mayxonasida qolabim.

Dahr bozorida umre ishq tavrin kasb etib,
Aqlu din naqdinki oldurdum bu erdi maksabim.

Mast agar sajdang qilurmen yopma yuz, ey mug‘bacha,
Ne uchunkim dayr piri mazhabidur mashrabim.

Ey Navoiy, toza jon toptim hamono og‘zimg‘a
Durd jomidin tomizdi soqiyi no‘shin labim.

415

Hajri mundoqki, uzar bir-biridin payvandim,
Ko‘rgay el har itining og‘zida bir parkandim.

Tori umrum ajal ilgidin uzulsa g‘am emas,
Tori zulfungg‘a agar muhkam erur payvandim.

Qomating hojat erur jong‘a ravo qil anikim,
Noumid o‘lmasun ollingda bu hojatmandim.

Ko‘zga desam, nega yoshingni nazardin solding,
Derki, g‘ammozdurur garchi erur farzandim.

Soqiyo, o‘t kebi bodang bila kulbamni yorut
Kim, xumor ichra ul o‘t hasratidin o‘rtandim.

Aylayolmon safari dashti fano o‘zluk ila,
Ey Navoiy, negakim asru og‘irdur bandim.

Nosiho, oshiqu devonamenu masti xarob,
Sanga ne ot qo‘yar el, buki degaysen pandim.

416

No‘shi labini har necha so‘rdum, o‘sanmadim,
Ichmak bila hayot zulolini qonmadim.

Zohid dediki, rahn etibon xirqa dayr aro,
Qilmishsen anda butqa dog‘i sajda, tonmadim.

Mug‘ piri may berib, tiladi jonni mug‘bacha,
Har neki dedilar qiluridin tojonmadim.

Sarxayl edim bu kecha xarobot ahlig‘a,
Ul sultanatni lek o‘zumga inonmadim.

Aql etti man’ mug‘bachayu dayrdin base,
Ko‘p o‘gdi huru ravzani, lekin beganmadim.

Shukr, ey ko‘ngulkn, bo‘lmadim aflok javridin,
Oshufta holu johig‘a dog‘i quvonmadim.

Azm ettim, ey Navoiy, ul oy sari bu kecha,
Mahvashlar ochti shu’lai ruxsoru yonmadim.

417

Baqo dashti nechuk qat’ o‘lmasun aylab murur ayyom
Ki, har manzil anga bir kunduru, har dam anga bir gom.

Bo‘lur manzilda turmoq muddate gom urmamoq ko‘p vaqt,
Bu manzil qat’iyu bu gomdin bo‘lmas dame orom.

Ajoyib qat’i bir manzilda gomidurki, o‘rnidin,
Kishi tebranmayin ham qat’ o‘lur, ham solilur nokom.

Bu yanglig‘ manzilu gomi zaruriy chun erur voqi’,
Ham avlo Ka’bai maqsud sari bog‘lamoq ehrom.

Suluku sayrkim ko‘rmishki gar chillanishin qori
Va yoxud chilla ichra tifl tengdur anda subhu shom.

Erur bu turfakim mundoq suluku sayr aro solik,
Emas o‘z ixtiyori birla ne og‘ozu ne anjom.

Bu andin turfaroqkim, yetmayin maqsadqa mingdin bir,
Bu yo‘l qat’ida tufrog‘ o‘ldilar no‘l topmayin itmom.

Musofirkim bu yo‘l ollig‘a tushkan tarfatul-ayni,
Agar o‘z holidin g‘ofil bo‘lur, bo‘lg‘ay bag‘oyat xom.

Ilohiy, yo‘l erur behad qotiq, manzil yiroq asru,
Navoiy birla sen bo‘lsang, yetar manzilg‘a avval gom.

418

Tishlarimdin iki dandonaki charx ayladi kam,
Raxnalar bo‘ldi ajal kirgali jon chiqqali ham.

Har bino raxnasini tutsa bo‘lur turfa bukim,
Mumkin ermas bu iki raxnani qilmoq muhkam.

Turfaroq buki necha qilsa rioyat to‘kulur,
Bu fano raxnasining ikki yonidin har dam.

Demakim, bo‘ldi ajal kirmak uchun raxnavu bas,
Angacha yo‘l budurur kirgali ming turluk g‘am.

Yuz sitamdur manga tish raxnalaridin, go‘yo,
Tishni sinkim dedilar, bor emish ul sini sitam.

Yo‘qli tish sini sitam bo‘ldiyu bas, ko‘zda dog‘i
Qolmadi nuri ani dog‘i degil ayni adam.

Tish iki raxnasidin hasratu g‘am dudi chiqib,
Tutti go‘yo ko‘z iki ko‘zgusini zangi zulam.

Tiyralik birla shikastiki tishu ko‘z yo‘lidin,
Manga yuzlandi, demak bo‘lmas ani ko‘rmak ham.

Bo‘l, Navoiy, safar ohangiga omodavu chust
Kim, bular barcha ajal peshravidur fafham.

419

Menki har dam, do‘sstar, bedod etardin zor esam,
Do‘sstar ayb etmasunlar dushmanimg‘a yor esam.

Jon fido qilsam, qilurlar do‘sstar dushmanlig‘im
Ne ajab gar do‘sstuq oyinidin bezor esam.

Do‘sstlarg‘a qilmangiz taklif, ey dushmanlarim,
Za‘fdin og‘zimg‘a su tomizg‘udek bemor esam.

Yog‘dururlar tosh qotiq so‘zlar bila, vah ne ajab,
Sangsor o‘lg‘on kebi boshtin ayog‘ afgor esam.

Dushmanim jon olsa xushtur, do‘sst minnat qo‘ysa yo‘q.
Ne ajab dushmandin ar jon birla minnatdor esam.

Forig‘ aylar bu balolardin dame behushluq,
Bas, tong ermas sokini sarmanzili xammor esam.

Davr ayog‘idin meni turguz damodam, soqiyo
Kim, o‘larmen davr zulmidin dame hushyor esam.

Dilbarim Layli sifatdur anglangiz, ey ahli ishq,
Bu sababdindur agar hajrida Majnunvor esam.

Eyki, aytursen Navoiy xalqdin ozurdadur.
Yuz tuman ozor ko‘rdum, bor ekin men bor esam.

420

Qayu manzilki anda hosil o‘lg‘oy lahzae komim,
Bu hasrat o‘ltururkim, ne uchun yo‘qtur diloromim.

Qachon gul birla sarv andomig‘a boqsam chaman ichra,
Buzar ko‘nglumni yodimg‘a kirib sarvi gulandomim.

Taharruk topqali la’ling bila g‘unchang takallumda,
Ne jonim ichradur taskinu ne ko‘nglumda oromim.

Firoqing zulmidekdur shomi hajrim muddati, ya’ni
Davosiz dardim ul yanglig‘dururkim, subhi yo‘q shomim.

Ko‘ngul oldurmasunlar husn bog‘i gullarin ko‘rgach,
Sabo lutf aylabon ishq ahliga yetkur bu payg‘omim.

Xarobot ichra ishqu mastlig‘dur holim og‘ozi,
Ne bo‘lg‘ay bilman, ey piri xarobot, anda anjomim.

Riyoyi xonaqahg‘a kelmasam, ey shayx, tut ma’zur
Ki, gom urg‘on soyi ul yon keyinrak sirilur gomim.

Sizu no‘shi visol, ey do‘stlarkim, soqiyi davron
Firoqu dard zahridin to‘la qilmish mening jomim.

Navoiy, men kimu sofiy tarab manlu tamannosi,
Muqayyad chun emas mundoqqa masti durdiyoshomim.

421

May uchun dayrdadur oromim,
Dayrning eski safoli jomim.

Dayr piri qo‘lidin bir sog‘ar
Gar yetar, umrdin uldur komim.

Yoqa choku yalang‘och boshu ayoq,
Bul’ajab hol ila subhu shomim.

O‘ynatib mug‘bachalar mastu malang,
Kufr pomoli bo‘lub islomim.

Jomi rasvoliq ila har dam o‘lub,
Olam ahlig‘a saloyi omim.

Menmen o‘zluk yukidin emdi xalos,
Negakim qolmadi nangu nomim.

Ey Navoiy, kiringiz dayrg‘a deb,
Taqvo ahlig‘a yetur payg‘omim.

422

Ne yanglig‘ dey qoshinda arzi holim
Ki, qolmas ani ko‘rgach der majolim.

Xayolim vasldur gar topmasam ham,
Tutar hushhol doim bu xayolim.

Ko‘ngulni ko‘p malul etkanda hijron,
Visoling yodidur daf‘i malolim.

Topib jon soya go‘yo qolmas andin,
Xirom etkanda ul ra’no niholim.

Qolibmen g‘am yuki ostida ul nav‘
Ki, tebranmaklik ermas ehtimolim.

Falak zulmin desang ko‘rmay, may ichkil
Ki, bas mazlumkushtur charxi zolim.

O‘zin gar o‘lturur g‘amdin Navoiy,
Dema mufratkim, uldur e’tidolim.

423

O‘tub sanamlar aro bir-biriga ko‘z soldim,
Sening jamolingga yetkach ko‘zum, boqib qoldim.

Ne tig‘ solmoq erur chun yuzungga ko‘z solg‘och,
Boshimni dag‘i burunroq ayog‘ingga soldim.

Ne o‘tdurur buki yetmish ekoch erib oqtin,
Urarg‘a ko‘ksuma yerdin ne toshkim oldim.

Sarig‘ uzoru quruq jismima firoq yeli

Yetib somonnisovurg‘on misoli qo‘zg‘oldim.

Qadam yana talabingda boshimdin itkumdur,
Nedinki po‘ya urarda qadam bila toldim.

Ne bo‘ldi qofilasolor o‘zlukum yukidin
Xalos qilsaki, bu yo‘lda asru tovsholdim.

Navoiyo, dema jismingda muncha zaxm nedur,
Firoq xayli qitolida buyla to‘g‘oldim.

424

Zihi bihishti jamoling kelib mening chamanim,
Xatu yuzung bu bihisht ichra sabzavu sumanim.

Xating vafosida o‘ldum, ne tongki hashr kuni,
Vafo xati bila naqsh o‘lsa sarbasar kafanim.

Ne nav’ mo‘r kebi sudray o‘zni ko‘yung aro
Ki, mo‘r sudragudek bo‘ldi za’fdin badanim.

G‘aming nechukki ko‘ngul kunjini vatan qilmish,
G‘amingda go‘shai vayronaedurur vatanim.

Gar o‘lmasam iting ul zulf tobidin nedurur,
Yer uzra sudraladurg‘on bo‘yundag‘i rasanim.

Qadahg‘a sadqa bo‘lub boda sham’idin kuysam,
Emas g‘aribki, parvonamen, erur bu fanim.

Navoiyo, manga vasli mahol erur baskim,
Muyassar o‘lsa yiroqtin nazzora anlaganim.

425

Yo‘q dema, gar og‘zingni desam nuqtai mavhum
Kim, ancha dog‘n bo‘lmadi aql ollida mafhum.

Ruxsoring uza xatmu ekin yo qalami sun’,
Kun safhasig‘a tun raqamin ayladi marqum.

Jonimg‘a ko‘zung zulmi emas zulm, budur zulm
Kim, men turaturg‘och tilagaysen yana mazlum.

Tong yo‘q agar ul yuz yoritur tiyra uyumni,
Mehr o‘ldi chu mavjud qilur soyani ma’dum.

Hush ahli seni bilmasu men telba bilurmen
Kim, keldi pari shevasi devonag‘a ma’lum.

May vajhi ber, ey shayx, manga chun diraming bor
Kim, buxl erur barcha milal ollida mazmum.

La’ling mayi yodidin erur mast Navoiy,
Yo‘q davrda andoq yana bir fosiqi mahrum.

426

Qarog‘ ermaksi, qilmishmen ko‘zum sayli yo‘lin muhkam,
Sirishk ermaksi, ul yo‘l berkimay qilmish tarashshux nam.

Itining gar ayog‘i kuydi o‘tgan chog‘da qabrimdin,
So‘ngaklar tufrog‘imdin kuydurub aylang anga marham.

Ko‘nguldur ul paridin, ishq mulkining Sulaymoni
Ki, ham bor ohidin yel hukmida, ham dog‘idin xotam.

Quyoshning qurbin oykim hilol o‘lg‘ay erur andoq
Ki, bir mahvash sanga yetkach, yer o‘pmaklikka bo‘lg‘ay xam.

Parivash tifllardin har zamon ortar jununumkim,
Berurlar hushu aqlim qushlarig‘a tosh otardin ram.

Ulustin chiqtimu har dam qocharmen soyadin ham, vah
Ki, nogah ul quyosh sirrin desam ul ham emas mahram.

Shikof ermas qalamdakim firoqim sharhi yozg‘ondin,
Yoqa chok aylabon chirmab qora bo‘lmish anga motam.

Bu ersa mayki kuyduri vujudum kishvarin atri,
Yaqin bil, soqiyokim, jom sirrin bilmay o‘tmish Jam.

May ich dahr ichrakim ish sirridin anglay desang ramze,
Erur har zarraning mohiyati xurshiddin mubham.

Sahar kun ashhabig‘a chun keraktur poymol o‘lmoq,
Falak maydonig‘a har tun qamardek surdi tut adham.

Navoiy dardi holidin dam ochmas bo‘lsa, ayb etmang,
Ne dam ochsun birovkim, topmadi olamda bir hamdam.

427

Sarvi ozodimni bog‘ ichra xiromon istaram,
Sabzasin sarsabzu gulbargini xandon istaram.

Dard jononimda, balkim yuz alam joni dadur,
Yo'qki, jononimg'a, bal joni img'a darmon istaram.

Tiyradur vayronim onsiz, vah, yana bir qatla ham
Ul quyoshni baytul-ehzonimda mehmon istaram.

Naf' etar bo'lsa xino yanglig' kafi poyingg'a qon,
Chok etib ko'ksum ani bag'rimda pinhon istaram.

Ey Xizr, hayvon suyi tut dam-badamkim yor uchun,
Sadqa qilmoqliq uchun har lahza bir jon istaram.

Mujdae bergil mizoji sihhatidin, ey tabib
Kim, bu payg'oming uchun joni mn qurban istaram.

O'q kebi qaddin ko'rub aftoda chun ko'r o'l mading,
Ey Navoiy, ko'zlarining no'gi paykon istaram.

428

Chu berdim joni, qilma zulm rasmu qatl oyin ham,
Qatiling bo'ldum, urma novaki g'am, xanjari kin ham.

Labing shavqida bir devonai bandiy nabi Misr,
Soching savdosida bir po'stpo'she nofai Chin ham.

Yuzung vasfin deb o'tkan tun duri ashkim to'kar erdim,
Tutub tog' keynin oy kirdi, qaro tufroqqa Parvin ham.

Labing hushum olib qon yosh yuzumga to'ksa, ayb ermas,
Mukayyif la'l maydin mast o'lur el chehra rangin ham.

Chu sen sarxush chiqib ko'nglakcha raxshingg'a berib javlon,
Bo'lub shaydo ko'ngul behol aqli maslahatbin ham.

Ko'ngul so'zin qiliching qildi kam, ne ayb oh ursam,
Su urg'och o'tqa ortar dud topsa shu'la taskin ham

Jamolnngg'a nihoyat yo'qlug'i ishqim kebidurkim,
Emas mumkin demak miqdonin etmak, balki taxmin ham.

Necha nasrinbaru gulruk esang qilg'il vafo mayli
Ki, gul ham bevafolig' ko'rdi bu gulshanda, nasrin ham.

Navoiy mast butqa sajda qilsa ne ajab, ey shayx
Ki, chun dayr ichra kirdi aql uchi boshidin, din ham.

Yana ishq aro zordurmen, hazin ham,
Borib ishq torojig‘a aqlu din ham.

Badan darddin ranjavu xasta dog‘i,
Ko‘ngul hajrdin zoru anduhgin ham.

Yuzungdin chamanda su borib o‘zidin,
Qizarmish uyatdin guli otashin ham.

G‘aming toshidin yo‘qki, zaxm o‘ldi boshim,
Yo‘lung tufrog‘idin yopilmish jabin ham.

Ko‘zung Chin g‘azoliyu ostida xoli,
Aning nofasidin topib mushki Chin ham.

Bo‘lub sojid ul butqa shirk ahli yo‘q-yo‘q,
Demon shirk ahliki ahli yaqin ham.

Navoiy jahondin ne naf’ olsa bo‘lg‘oy
Ki, zindone erur marg aylab kamin ham.

Toqibon jon rishtasin ruq’angni tumor ayladim,
Zaxmliq ko‘ksumga andnn daf‘i ozor ayladim.

Ko‘nglakim yopnshti qonlig‘ tang‘a andoqkim teri,
Baski toshlar zaxmidin jismimni afgor ayladim.

Orazing hajrida qonlig‘ ko‘nglum o‘ldi loladek,
Dog‘idin savdoi ishqiningi namudor ayladim.

Joning olg‘um deb eding, muhlikdurur dardi firoq,
Qolmasun ko‘nglung sening avval xabardor ayladim.

Xirqavu daftarni keltur, mayg‘a rahn et, ey rafiq,
Xonaqahdin men chu azmi ko‘yi xammor ayladim.

Dazlati faqru fano vobastai tavfiq emish,
Bo‘lmadi har necha jiddu jahd izhor ayladim.

Ey Nazoiy, faqr yo‘linda uro oldim qadam,
To solib o‘zluk yukin, o‘zni sabukbor ayladim.

Sodavash yorim bag‘oyat purfan ermish angladim,
Oshkoro do‘st, pinhon dushman ermish angladim.

Men muqayyad hajr zindonidayu ahbob ila
Har kun ul gulruxqa azmi gulshan ermish angladim.

Menki bu hijron tunida o‘ldumu bo‘lmas sahar,
Sham’i mehr ohim o‘tidin ravshan ermish angladim.

Dam-badam ohim o‘tikim chiqtி ko‘nglum zaxmidin,
Uqidin bu kulba ravzan-ravzan ermish angladim.

La’lidin el jon tilab, men jon berib mardudmen,
Xotirig‘a qaysi ish mustahsan ermish angladim.

Bu chamanda ko‘nglakin gul chok aylardin ishi,
Bulbul ahvolig‘a har kun shevan ermish angladim.

Ey Navoiy, buki ko‘nglumni birav sayd aylamish,
G‘am yema, ul chobuki saydafkan ermish angladim.

432

Yor ma’lum aylamish oshiqlig‘u shaydolig‘im,
Vahki, zohir bo‘ldi rasvoliq uza rasvolig‘im.

Ul paridin ayru bas devonalig‘din devmen,
Za’fu qovmog‘lig‘ emas ko‘yida nopaydolig‘im.

Tufrog‘ o‘ldum, ul quyosh hajrindavу sud etmadi,
Charxi soyirdek ani istan jahonpaymolig‘im.

Garchi tushti sham’dek boshimg‘a o‘t, bo‘ynumg‘a tig‘,
Bo‘lmadi kam shomi hijroningda pobarjolig‘im.

Husn aro chun uyla fard o‘ldungki, yo‘q hamto sanga,
Ishqing ichra xush kelur dahr ahlidin yaktolig‘im.

Soqiyo, may berki bu dayri kuhan avzoida
Bo‘ldi o‘z nodonlig‘imni anglamoq donolig‘im.

Ey Navoiy, ko‘p nihon tutqum va lekin oqibat,
Yor ma’lum aylamish oshiqliqu shaydolig‘im.

433

Nega qon yoshim oqizdi dilsitonim bilmadim,

Ne gunoh aylab edimkim, to'kti qonim bilmadim.

Ozdi ko'nglum sayr etib chiqquncha ul oy ko'yini,
Qayda qoldi ul zaifi notavonim bilmadim.

Demadingmu, dema, rashkimniki boqting g'ayrima,
Bilmadim, ey kofiri nomehribonim, bilmadim.

So'rg'ali kelganda za'fimdin o'zumdin bormisham,
Chun so'rub qo'pti, ne yanglig' chiqti jonim bilmadim.

Ul pari to jilva qildi bordi ko'nglum, vah, qayon
Bo'ldi ul ovvorai bexonumonim bilmadim.

Do'stdin bildim nishon, to topmadim o'zdin nishon
Lek o'zdin toki bor erdi nishonim bilmadim.

Ey Navoiy, yor ko'ngli mehrmu qildi ayon
Yo asar qildi anga o'tluq fig'onim, bilmadim.

434

Qon yutub umre jahon ahlida bir yor istadim,
Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim.

Kimgakim jonim fido aylab, sog'indim, yor erur,
Ermas erdi yorlig'da chun vafodor istadim.

Bilmadim olam elida yo'qturur mutlaq vafo,
Vahki, umri ulcha yo'qtur sog'inib bor istadim.

Ulki topilmas bashar jinsida, vah, g'aflat ko'rung
Kim, pari xaylida men devonai zor istadim.

Sirri ishqimni, ko'ngul, ko'z birla fosh etmak ne tong
Qalbi tardomanni chun men sohib asror istadim.

Shayx birla xonaqahdin chun yorug'luq topmadim,
Dayr piri xizmatig'a ko'yi xammor istadim.

Ey Navony, chun rafiqe topmadim, bu g'ussadin,
O'zni bekaslik balosig'a giriftor istadim.

435

Lola ro'yum bordiyu ishqin nihoniy asradim,
Ko'zda qon ko'nglum aro dog'in nishoniy asradim.

Ayladi bir oh dudi birla elga oshkor,
Ishq o'tin nechaki ko'nglumda nihoniy asradim.

Har zamon ko'nglum halok o'lsa ne g'am, chun jon aro,
Lablari shavqidin obi zindagoniy asradim.

Zoyil ermas ishq bir soat ko'nguldin, voykim,
Ani jonioimg'a baloyi jovidoniy asradim.

Bo'lsa mehmonim iti, ko'nglumni qilsa tu'ma ham
Ayb emas nevchunki, mundoq kunga ani asradim.

Naqdi jonioini berib may kelturung, ey do'stlar
Kim, ani ichmak uchun bir do'stgoni asradim.

Xonumonim gar qora bo'ldi, Navoiy, ne ajab,
Men chu bir tun ul ko'zi, qoshi qorani asradim.

436

Chun o'larmen bir nafas ul dilraboni ko'rmasam,
Ne hayot imkon bo'lg'ay bir kun ani ko'rmasam.

Ko'nglum ichra topilur g'am novakidin yuz nishon.
O'qidin har kun tanimda yuz nishoni ko'rmasam.

Ko'ngul itti, ko'zni dog'i istaram ashk etsa ko'r
Kim, tilarmen hargiz ul yuzi qoroni ko'rmasam.

Sog'inurmen kufri zulfi mojarosidin base,
Gar dame ul sho'xi kofir mojaroni ko'rmasam.

Kim vafo gul chehralardin ko'rdikim, men ko'rgamen,
Bo'lmas ushbu ayb ila ul dilraboni ko'rmasam.

Har biri yuz minnat aylarlar, erur bu ham jafo,
Olam ahlidin ne kunkim, yuz jafoni ko'rmasam.

Ey Navoiy, ne balodurkim, o'larmen qayg'udin,
Gar dame ollimda ul sho'x baloni ko'rmasam.

437

La'licha emas og'zi qilur vaqt takallum,
Go'yoki qiliptur bu xijolatdin o'zin gum.

Hayvon suyining g'ulg'uliyu rashhasi yanglig',
La'lingg'a gahi qah-qahadur, goh tabassum.

Ishq ichra nechukkim menga yo‘q sabru tahammul,
Husn ahlida yo‘q sen kebi bemehru tarahhum.

Qaytarma, inon zulm etib, ey sho‘xki, qo‘ymish
Yo‘lung aro tufrog‘ uza yuz ahli tazallum.

Maydonda birovni, dedi, o‘lturgum urub tig‘,
Yetkuncha mening boshima o‘lturdi tavahhum.

Chun boda yiqor davrda ne sofu ne durdiy,
Chun davr o‘tar xoh alamu xoh tana’um.

Bulbullar olur nolani ta’lim, agar etsa
Bog‘ ichra Navoiy o‘z-o‘zi birla tarannum.

NUN HARFINING NOZANINLARINING NOZI «NAVODIR»DIN

438

Ey ko‘ngul, aylama dahr eski rabotin maskan
Kim, rabot o‘lmadi hargiz safar ahlig‘a vatan.

Navsafarsen senu maqsad yiroqu markab — lang,
Yo‘l maxuf, aylama zinhor ora yerda maskan.

Yo‘l bilur qofiladin tushmagil ayrukim, bor
Bu biyobon aro ham g‘ul ko‘pu ham rahzan.

Yo‘l erur jodai shar‘ dog‘i to‘shau su,
Sanga oyini ubudiyat, anga farzu sunan.

Yo‘l bilur qofila ul nav‘ki dilbar vaslin,
Tilabon qildi bori o‘ziga yo‘l qat‘ini fan.

Ey xush, ul rohravi garmki, bu yo‘l qat‘in,
Barqi hotifdek etar dahrni aylab ravshan.

Ishq vodiysi ajab vodiy erurkim, har mo‘r
Anda sherafkanu har pashsha erur pilafkan.

Soqiyo, o‘zluk ila mushkil erur qat‘i aning,
Dermen o‘zdin borayin jomima quy durdiydan.

Uyla o‘tkim, kishi ichkach boshidin chiqqay dud,
Kuygay andin xiradu donishu bal jon bila tan.

G‘ayr naqshidin etib lavhi zamirin sofiy,

Yor qolg‘ay dog‘i ul balki biri sirru alan.

Ey Navoiy, tilasang faqr yo‘lining qat‘i,
Urma ul sari qadam fonyi mahz o‘lmas ekan.

439

Onchakim Shirinu Laylidin sening husnung fuzun,
Menda ham Farhodu Majnundin fuzun ishqu junun.

G‘am emas chun xoki rohidin toparmen jon isi,
Garchi muhlik g‘am yuki qaddimni aylabtur nighun.

Zulfung ollida fusungar ko‘zlar har go‘shadin,
Go‘yi ul mushkin yilon qaydig‘a aylarlar fusun.

Yog‘durub novak buzug‘ ko‘nglum imorat aylading,
Go‘yiyo pilpo‘sh etib qo‘ydung anga har yon sutun.

Lablaring hajrinda giryon ko‘zlarimning qonlari,
Qatrae gar tomsa bir daryoni aylar la’lgun.

Husn ayyomida xush tut zarralarni, ey quyosh
Kim, bu kunlarni bag‘oyat qisqa aylar charxi dun.

Boshim uzra furqating toshini ko‘rsang bilgasen,
Nuqta zohir aylamish go‘yo Navoiy uzra nun.

440

Benavomen ayru xayli hamdamu hamrozdin,
Za’flig‘ ul tor yanglig‘kim, uzulgay sozdin.

Qoldimu noz uyqusinda tunu kun kofir ko‘zung,
Yo ochilmas notavonlar sari ayni nozdin.

So‘z demay jon baxsh la’lingkim o‘lukni turguzur,
Ko‘rsa Ruhullah ani dam urmag‘ay e’jozdin.

Hech jonib ko‘yidin ko‘nglum qila olmas havo,
O‘yla qush yanglig‘ki qolmish bo‘lg‘ay ul parvozdin.

Novak andoz o‘lg‘ali kofir ko‘zung, ey qoshi yo,
Kimsaga jon qolmag‘ay fahm ayladim andozdin.

To sirishkim qildi sirrim fosh ko‘zdin solmisham,
Ehtiroy, ey do‘stlar, vojibdurur g‘ammozdin.

Charx o‘rtangay quyosh o‘tig‘a ko‘rganni desam,
Ul quyosh bedodiyu charxi jafoparvozdin.

Qo‘rqutub elni tamug‘, lekin meni qismi azal,
Elga vahm anjomdin, ammo manga og‘ozdin.

Dahr aro ne ko‘pka chun topqung baqoni ozg‘a,
Ey Navoiy, ozu ko‘p so‘z dema ko‘pu ozdin.

441

Ulcha ko‘nglum ko‘rdi, ojizmen ani izhordin,
Ul quyosh raftoridin yo charxi kajraftordin.

Sarsari hijron esar, vahkim, soching savdosida,
Notavon ko‘nglum osilg‘ondek durur bir tordin.

To‘kti zaxmimdin bag‘ir qonini hijron nolishi,
Uylakim siqmoq bila el su oqizg‘ay nordin.

Rost ul yanglig‘ki so‘rgan yerdin urg‘ay sabza bosh,
Chiqti paykoning uchi har yon tani afgordin.

Menda biymi hajr, derlar naylali chorang degil,
Xalq so‘rg‘ondek vasiyat naql etar bemordin.

Kofiri maste yo‘lum urmishki, dayr o‘lmish yerim,
Dayr, aro ham balki chiqmon kulbai hammordin.

Chun men o‘ldum kofiri ishq, ey musulmonlar, dengiz
Kim, ne choram bo‘lg‘ay emdi but bila zunnordin?

Shayx imonin mening kufrum bila teng tutmasun
Kim, yaqindur kufrdin ham kechkamen bu ordin.

Ey Navoiy, bilki bo‘lmas chehrai maqsudni
Pardadin ko‘rmak, xususan pardai pindordin.

442

Garchi to‘kti qon ko‘zum sensiz hamon ko‘nglum hamon,
Ne ko‘nguldin bir zamon chiqting, ne ko‘zdin bir zamon.

Chun tanimni hajr o‘ti kuydurdi, oh ursam ne tong,
Dud qilmai naylagay ahgar uza tushkan somon.

Hajr o‘tining dudi ko‘z ochmoqqa qo‘ymas, ohkim,
Ko‘z yumub ochquncha hijron zulmidin topmon omon.

Dahr aro yaxshi-yomon ichra base qildim nazar,
Dilbarimdin yaxshi yo‘q, andoqli yo‘q mendin yomon.

Vahshatim dasht uzra zohirdur junundin onchakim,
Vahshkim Majnung‘a rom erdi, erur mendin ramon.

Soqiyo, hijrondin o‘ldum, aylagil bexud meni.
Quy to‘lakim, boda yoxud zahr ekanni tolg‘amon.

EY Navoiy, bir zamon gar vasl topsang aysh qil
Kim, zamong‘a mumkin ermas hech kim bo‘lmoq zimon.

443

La’li shavqindaki bog‘landi ko‘zum ustida qon,
Angadur suqbai pinhon, mungadur dog‘i nihon.

Za’fim andoqli buzuq ichra hanuz o‘lmay mo‘r,
Uyiga sudrabu yo‘q menda qutilmoq imkon.

Ne ajab ko‘nglum uyin buzsa sirishkim yugurub,
G‘unchaning gunbazini yoshlar etarlar vayron.

G‘ussadin changdek ar nola qilurmen ne ajab,
Egri qadim aro har go‘sha erur bir paykon.

Yo‘q ajab, yetmasa faryodimakim, ko‘yi aro,
Yuz fig‘on ichra netib anga yetishkay bu fig‘on.

Otashin gul bila bulbul day o‘lub ketsa netong,
Buyla ko‘p o‘t bila kul yod bilur bu bo‘ston.

Gar Navoiy dedi hajr o‘tida ishqing gilasin,
Aylama aybki, der, muxriq isitqon hazayon.

444

Qomatingdek bog‘i husn ichra yo‘q sarvi ravon,
Orazingdek xud qoni sarf uzra arg‘uvon.

Siymi soid ko‘rguzub ko‘nglum oldi ul quyosh,
Kuchluk aning panjasiyu men bag‘oyat notavon.

G‘am yukidin men kebi qaddi xam bo‘lmoq ne tong,
Har qorikim dilbari bo‘lg‘ay aning navjavon.

To qaroqchi ko‘zlarin din yo‘lini urdilar,

Zuhdu taqvo mulkidin kelmadi bir korvon.

Naqdi jon istab meni qiynasa kofir ko‘zung,
Netkamen bermaykim ul turk mastedur avon.

Dahr elidin zinhorkim vafo qilmon tama’
Kim, tama’din kimsaga yuzlanur doim havon.

Ey Navoiy, go‘yiyo kelgusidur yorkim,
O‘trusig‘a ko‘z yoshing turmayin bo‘ldi ravon.

445

Ko‘yi tufrog‘ig‘a dafn aylang tanim qilmay kafan,
Tokim ul tufrog‘ birla topsun omizish bu tan.

Choklik ko‘nglum aro xatting xayoli ne ajab,
Mo‘r xayli yer shikofida qilur ko‘prak vatan.

Yuzu zulfi hajridin gul o‘tduru sunbul tutun,
Aytqil, ey bog‘bon, ne nav’ gasht aylay chaman?

Kofiri ishq o‘ldi deb shar’ aylasa qatlimg‘a hukm,
Dayr dargohida zunnorimni-o‘q aylang rasan.

Ishq jurmig‘a agar do‘zax nasibimdur ne tong,
Hajr o‘tig‘a kuymak o‘lmish chun manga olamda fan.

Xonaqahda taqvi ibriqig‘a may soldim nihon,
Ayladim baytul-nashot, uykim edi baytul-hazan.

Ey Navoiy, may xumig‘a sol meni mayxonada,
To farog‘at birla ul xplvatda tortay durddan.

446

Qurug‘ jismim o‘tundekdur balo dashtida qaqshalg‘an,
Anga o‘tkanda hijron korvoni ahli o‘t solg‘an.

Emas g‘am shomi bu yanglig‘ qorong‘u, bilki subhi g‘am
Kulumdur, balki hijron tundbodi birla qo‘zg‘alg‘an.

Ko‘ngul birla qaroru sabru hushu aqlim olmishsen,
Chu yetting, jonni taslim aylayinkim budurur qolg‘an.

Balo daryosi ermastur jahonni buzg‘udek mavji,
Erur ashkim suyi ohim yeli eskanda chayqalg‘an.

Firoqnng ranjidin bo‘lg‘ach xalos o‘lsam ajab ermas,
Og‘ir uyqug‘a borg‘ondek qatiq emgakda tavsholg‘an.

Ayirma bir-biridin jon bila ko‘nglumni rahm aylab,
Berurmen jonni ham olg‘il, chu sendursen ko‘ngul olg‘an.

Fano dayrida gar din naqdi barbod o‘ldi, topqum yo‘q
Ki, jam’ o‘lmaydurur hargiz xarobot ichra soyg‘olg‘an.

Qil o‘zluk dashtini tay istasang maqsadda osoyish,
Ne tong tinsa haram ichra biyobon qat’ida tolg‘an.

Karomotin dedi shayxu Navoiy tarki ishq etti,
Aning dog‘i so‘zi ko‘p chin emas, gar men dedim yolg‘an.

447

Qilmag‘ay gardun quyoshqa mujtami’ har kavkabin,
Ko‘rsa ul oy orazi davrida tavqi g‘abg‘abin.

Labg‘a maydin rangu mayga la’ldin jonbaxshliq,
Bermasa gulrang maydin ne uchun olmas labin.

Uyla maydon ichra kirmish tund ul chobuksuvor
Kim, degaysen charx uza sekretkusidur ashhabin.

Ishqkim yozdi hurufi dard ko‘ksum lavhida,
Oshkor etti balo atfoli lavhi maktabin.

Kechalar ul but labolab may ichar g‘avg‘o bila
Gar eshitmas ne ajab dard ahli yo rab-yo rabin.

Ne tafovut shurb qilsa durd yoxud sofni,
Durdakashkim ishq aro sofi qilibtur mashrabin.

Boribon jonon vafosinda Navoiy bo‘ldi gard,
Ruh ayrilg‘on zamon tufroq qildi qolabin.

448

Donai xoling terarga qo‘yma ko‘nglum bulbulin —
Kim tilarkim o‘psa bu tazvir ila husnung gulin.

G‘ofil ul sayyodkim, ko‘nglum qushin sayd aylamish,
Orazu xol uzra yoymish halqa-halqa kokulin.

Demasa sunbul qorarib, gul qizarsun ne uchun,
Tarqatur jannat guli uzra muanbar sunbulin.

Necha kuysam yorur ul yuz, go‘yiyokim qildi ishq
Sham’i mir’oti uchun parvona jismining kulin.

Yo‘q ajab men qon yutub el ichsa sog‘arkim, alar
Mul tilarlar la’lidek bazm ichra men la’ling mulin.

Demakim, dayr ichra ne oshub edi sharhin degil,
Rindlar g‘avg‘osin aytay yo surohiy g‘ulg‘ulin.

Umr o‘tub, bir dam Navoiy topsa vaslingni ne tong,
Yilda bir oy vasl ila gul xushdil aylar bulbulin.

449

Gul emaskim qon etib aflok baxtim axtarin,
Qildi tig‘i zulm ila yuz pora aning paykarin.

Bulbul ermas, chiqtி ko‘ksum chokidin ko‘nglum qushi
Hajr o‘qi paykonlari birla yasab bolu parin.

Sabzadin el ravshan aylab ko‘zu lekin men ko‘rub,
Ko‘zda hijron xayli zahrolud qilg‘on nishtarin.

Ul sochib sariq, qizil gul yafrog‘in bo‘ston aro,
Oh ila men yorutub hijron sharoru axgarin.

Ne bahor o‘lg‘ayki, el gulgun qadahdin mastu men
Bir to‘la nargis kebi ko‘rmay nishotin sog‘arin.

Husnung avroqig‘a, ey gulshan, quvonma asrukim,
To xabar topqung sovurmish tong yeli gul daftarin.

Ey Navoiy, maydin osoyish erur bu vajh ila
Kim, baho bermak kerak sen aqlu donish gavharin.

450

Ko‘zumga hajrda birdek qorong‘udur tunu kun,
Manga firoq tuni xoh qisqa, xoh uzun.

Netib ko‘ngulda xayolingni yoshurayki, emas
Bu uyni har sorikim aylasam nazora butun.

Unungni bir eshitibmen valek yillardur
Ki, yo‘q dameki qulog‘img‘a kelmagay ul un.

Tamom yuz ochibon furqatimni vasl etting,
Kecha tong otqucha ravshan bo‘lur oy o‘lsa to‘lun.

Yaralarimda momug‘lar emaski, hajr ilgi,
Bu vaslalar bila tan xirqasig‘a tiki yurun.

Bu arsada qayu mansuba daf’ini qilayin,
Solur sipehri muloyib chu har dam o‘zga o‘yun.

Navoiy o‘ldi firoqingda ul sifat rasvo
Ki, qayda tursa ulus jam’ o‘lur nazora uchun.

451

La’li oq uy ug‘lari qonlig‘ mujam bo‘lmish yaqin,
Anda mardumluq qilib kir, ey mahi xirgahnishin.

Xirmani husnungda zulfung sunbuli yonida xol,
Mehr tobidin qororg‘on lo‘liedur xo‘shachin.

Chun nigin ichra hamisha xat yozilmoq rasm erur,
Sabzada g‘unchang kebi xat ichra kim ko‘rmish nigin.

La’lig‘a ruhum uchar, lekin o‘larmen rashkdin
Kim, aning sari sanga ruhul-amin ermas amin.

Zulfining har chinida yuz fitnadur din ahlig‘a,
Arg‘adol ichra qaroqchi aylagan yanglig‘ kamin.

Faqr aro andoq daqoyiqdurki, ishq anglar ani
Kim, aning darkida a’mo keldi aqli xurdabin.

Ey Navoiy, baytul-ahzon keldi, har baytimki bor,
Nazm etarda ham o‘zum mahzunu ham nolam hazin.

452

O‘yuy olsam eshiking tufrog‘ini yostanibon,
Saltanat taxtig‘a chiqmoq tilamon uyg‘onibon.

It kebi har necha qavsang urubon toshu kesak,
Yona kelgum eshiking tufrog‘ini yostanibon,

Vaslinga xo‘y berib qovma eshikdin menikim,
Ko‘ngul uzmaklik ishi sa’bdurur o‘rganibon.

Nomai hajrim anga yetmadikim, eltur qush
Yiqilur yerga havodin qanoti churkanibon.

Vasl ila uyla sabukborki, hajring yukini,
Tortmishmen meni dilxasta base emganibon.

Har ne haq amridurur shukr ila qilkim, qilmoq
Bandadin yaxshi emas xo‘ja ishi ko‘ngranibon.

Tong qushi tortar esa kecha tong otqucha navo,
Ey Navoiy, qilur ul ishni sanga o‘tkanibon.

453

Xatingkim mehr uza chekti savodin,
Hamono mushkdin qilmish midodin.

Sochingda chun girihdin o‘zga yo‘qtur,
Ne nav’ andin tilay ko‘nglum kushodin.

Ajaldin yo‘q malolim mundin o‘zga
Ki, qobil qo‘ymag‘ay qilmoqqa yodin.

Bo‘lur ko‘nglum uyidin xayr barbod,
Qachonkim fikr qilsam xayrbodin.

Murodi gar emas dilbar murodi,
Ilohiy bermagil oshiq murodin.

Salohin gar ko‘rar zuhd ichra zohid,
Riyovu ujbdinko‘rmas fasodin.

Navoiy topmasa yuz qatla o‘lgay.
Ising bir qatla har soat sabodin.

454

Qildi ayshim subhini ul sho‘x la’bi tiyra tun,
Tifl o‘ynab o‘t o‘churgondin so‘ng o‘lg‘ondek tutun.

Boshin aylandurg‘ay elning qilsalar nazzorasi,
Qo‘psa men sargashtaning tufrog‘idin nogah quyun.

Zulf aro soldi girih uzra girih o‘lmay netay
Kim, hayotin torig‘a tushti tugun uzra tugun.

Hajr jismimda so‘ngaklarni ushotib kuydurur,
Ya’ni o‘t botroq yonar, ko‘prak ushotilsa o‘tun.

Naxli qadding kiydi sarig‘ hulla andin so‘ng yashil,

Norbundekkim xazon qilg‘ay ko‘karmastin burun.

Soqiyo, tongla xumor o‘lturmog‘i imkonibor,
Ruh topmoq rohdin bore g‘animatdurbukun.

Dema ko‘nglung mazra’ida ishq tuxmin ek nihon,
Emdikim xirmang‘a o‘t tushti qolurmu yoshurun.

Har yurunda bir diram tik mish muraqqa’ ahli zuhd,
Har tugun uzra mening xirqamda tushmish bir yurun.

Ey Navoiy, zulfining ta’rnfig‘a tushtung magar
Kim, so‘zungnung tori ham bo‘ldi parishon, ham uzun.

455

Tamug‘ o‘tig‘a unab, hajring o‘tig‘a unaman,
Boshim borurg‘a chidarmen, firoqinga chidaman.

Balo boshimg‘a base keldi, qo‘ymadim ishqing,
Kes emdi ani, yo‘q ersa bular bilan kesaman.

Ayog‘nnga buki qilmon nisor jon naqdin,
Haqoratidin uyolurmen, ey begin, ayaman.

Bu vahmdinki, bo‘lur zaxm bas latofatdin,
Xayol birla dog‘i lablaringg‘a tish qadaman.

Ko‘rub zaif meni tuhmat etma javrunggakim,
Yodotti hajr meni yo‘qsa javrdin yodaman.

Tugandim uyla firoqingdakim chekarga firoq,
Demonki vasl nishotin ko‘rarga ham yaraman.

Labing javobidakim, va’da qildi mongsizmen,
Yo‘q ersa umri abad mujdasida oldaraman.

Meni kishi demasa el malul nevchun o‘lay,
Kishi hisobida men ham o‘zumni chun sanaman.

Navoiyo, sanga ko‘rmon ravo aning vaslin
Kim, asru yaxshidur ul dilrabo, san asru yoman.

456

Ne tong bo‘lsam siyahro‘z ul quyoshdin ayru, ey gardun
Ki, hajrim shomi qish aqshomlaridek bo‘ldi ro‘zafzun.

Sirishkim qonidin har sabzakim butmish, qizil butmish,
Ulus boshig‘a par sanchar masallikkim bo‘lur gulgun.

Gadolar zarq uchun bir telba mahbus aylagan yanglig‘.
Meni olib yururlar Vomiqu Farhod ila Majnun.

Qizil to‘n birla yotmisht mastu bir misra’ masallikdur
Ki, yozmishlar durur shingarf ila ul qomati mavzun.

Yilon afsun qilurdin band o‘lur zulfung, ne voqi’dur
Ki, qilmish yuz ko‘ngulni band zohir aylamay afsun.

Yangi oyni qoshing go‘yo qulum debtur hilol otliq,
Qadi ta’zim uchun hamdur, bo‘lub bu nuktadin mamnun.

Qizil kog‘az aro ruq‘amki sorig‘ rishta chirmabmen,
Ne ochmoqdur sirishku za‘f sharxi anglag‘il mazmun.

Riyoiy shayxdurkim shaytanatdin tavqi la’natdek,
Solor o‘z bo‘ynig‘a tasbihni har lahza ul mal’un.

Zakoti husn uchun, ey mug‘bacha, lutf ayla bir sog‘ar
Ki, dunyo birla dinim yo‘qlug‘idin bo‘lmisham mahzun.

Fano sholi chubo‘lg‘on rishtasin tutqil g‘animatkim,
Erur o‘t rishtai zar birla butkan atlasu o‘ksun.

Navoiy xirqasin ta’n etma, ey rindi xarobotiy
Ki, maxmur o‘lsa, uldur vajh mayg‘a qilg‘oli marhun.

457

Gar o‘lsam zarra-zarra ul quyosh tig‘i jafosidin,
Tajovuz qilmag‘aymen zarrae aning vafosidin.

Xadanging toki qonlig‘ ko‘z qorasi ichra yer tutti,
Erur miliki chiqmish lolaning dog‘i arosidin.

Yorur xoling xayolidin oqarg‘an ko‘zlarim go‘yo,
Qo‘yubtur kilki sun’ ul nuqtani ko‘zlar qorasidin.

Teshilgay teshadek Farhodning bag‘ri, anga yetsa,
Unikim chirmanur tog‘ ichra afg‘onim sadosidin.

Baloedur qora zulfung yoyilg‘on dahr aro andoq
Ki, yer ostida el ozod emas aning balosidin.

Qazo oncha quyosh keltursakim, to‘lsa falak javfi,

Emas yuzdin biri Yusuf uzorimning bahosidin.

Tanimg‘a tiyriboroningni shikoyat aylamon yuz deb,
Nasibim muncha-o‘q erkandur aning qoshi yosidin.

Agar tig‘ ursa ul qotil, bo‘yunsunmay netay oxir,
Ne yanglig‘ kimsa bo‘ynin to‘lg‘ag‘ay haqnning qazosidin.

Safolim ichra bo‘lsa durd, olamni bag‘ishlarmen,
Salotin o‘rganing shavkat fano dayri gadosidin.

Navony benavoliq birla jon bersa ajab ermas
Kim, ul oromijon ogoh emas bu benavosidin.

Gar ul ogoh emas bo‘lsa kerak ogoh shohekim,
Quyosh keldi bir oltun xisht dargohi asosidin.

458

Vahki, vahshu tayr uyumaslar g‘amim bedodidin,
Kecha it afg‘onidin bnl, subh qush faryodidin.

Chiqsa to‘bidin quyosh ko‘rguzmagay bu lutfkim,
Angladim yuz jilva qilg‘an qomating shamshodidin.

Garchi har damkim sog‘insam. shavqidin jonim chiqar,
Istamon jonimni g‘ofil bir dam aning yodidin.

G‘am sahobidin yog‘ar Majnung‘a mehnat yomg‘uri,
Dudi ohi chiqti go‘yo xotiri noshodidin.

Deb eding, hajrimdin o‘lsang turguzay bir tig‘ ila,
Orzu o‘lturdi, vah, o‘tkarmagil miqididin.

Rostliq ozodalar oyinidur fahm aylagil,
Bu chamanning sarvi birla sabsani ozodidin.

Shayx agar masjidqa, men mayxonag‘a borsam ne tong,
Ey Navoiy, har kishiga chora yo‘q mu’todidin.

459

O‘tda qil yanglig‘ tanimni hajr o‘tining tobidin,
Bilmasang fahm et gul uzra sunbulung qullobidin.

Qalb erur ko‘nglumga bog‘labtur soching zunnorini,
Turfa bukim bir nafas qochmas qoshing mehrobidin.

Xasta ko‘nglum gar labing unnobini istar ne tong,
Nega ayrilg‘an jihatsiz xasta o‘z unnobidin.

Orazingning mushafi tafsiri bas dushvor edi,
Ravshan o‘ldi xolu xatting nuqtavu e’robidin.

Sokin o‘ldum dayr aro, to boda ichkan mug‘bacha
Jonima o‘t soldi otashnok la’li nobidin.

Shomi hijronim visol ahlig‘a behad qisqadur,
Ani so‘rdiklar Navoiy didai bexobidin.

460

Ko‘ngullardin ko‘rub zulfung aro o‘tluq asar har yon,
Tunu anjum dema bilgil tutun ichra sharar har yon.

G‘araz uldurki, ishqnnngdin g‘alatqa solg‘amen elni,
Bukim istab sumanbarlarni solurmen nazar har yon.

Pari ruxsoralar toshi meni devona davrinda,
Sochilg‘ondek durur naxli malomatdin samar har yon.

Dema ko‘yidin el ketsunki band etmish chibin yanglig‘.
Ulusni so‘zda la‘ling no‘shidin oqqon shakar har yon.

Ulus qonini tufroqqa to‘karni so‘rma, ko‘z solkim,
Ular qon birla tufrog‘ ichra bir xunin jigar har yon.

Buzuq qabrimni ko‘rgan o‘qchi do‘konig‘a o‘xshatqay,
Firoqing o‘qidin anda ko‘rub paykonu par har yon.

Ul oy husnig‘a ishqingni yoshurg‘il dema, ey nosix
Ki, tutmisht olam ahli ichra shuhrat bu xabar har yon.

Mayu ma’shuq uchun po‘yamg‘a kulmang, ey saloh ahli,
Yugurmay netkamen, cheksa qazo birla qadar har yon.

Seni istarda mumkin yo‘q, Navoiy, multafit bo‘lmoq.
Nechakim jilva qilsa noz ila bir siymbar har yon.

461

Vah, ne xushtur shahsuvorim kelsa maydon soridin.
Kirpikim birla oritsam gardni ruxsoridin.

Uylakim yetmish falak toqiq‘a qo‘ysam toq uza,
Dudi ohimdek qora parni olib dastoridin.

Yoshibon zarrin kamar nozuk belin qilsam xalos,
Tortibon gulgun qabo sarvi sahi raftoridin.

Har ayog‘idin o‘tuk tortib, aritsam yuz bila,
Ter gulobin ul xino yoqqan kafi gulnordin.

Necha sog‘ar birla sarkush bo‘lsa, lekin jur’ae,
Lutf etib ham hush zoyil aylasa bu zordin.

Mast o‘lub el yotsayu men yuz ayog‘ig‘a qo‘yub,
O‘zni qutqarsam zamone Xizr umri oridin.

Dahri foni, ey Navoiy, tushturur yoxud xayol,
Davlati boqiy umiding bo‘lsa kechgil boridin.

462

Mohiyon havzida yoru hajrida men qayg‘udin,
Muztaribdurmen yiroq tushkan kebi baliq sudin.

Ko‘z yo‘lida telmurub ko‘nglum sog‘inur, kim meni,
Istamoqqa kelgusi har kimki chiqsa o‘trudin.

Gar jahonoro emastur jannatu kavsar bu havz,
Bas ushoq toshi nedindur la’l birla injudin.

Turfa balig‘lar su ichra har taraf chirmashqani,
Mavj zohir bo‘ldi po‘lod uzra go‘yo ko‘zgudin.

Orig‘ida su uni kulmak sadosidur, magar
Kim, su o‘zidin borur aylab farah ul kulgudin.

Suyi zahru balig‘i chun xanjar o‘ldi dahrning.
Ne hayot ummidi bu xanjar bila ul og‘udin.

Chun Navoiy qildi ko‘zdin havzu kirpikdin balig‘,
Ko‘z tutar ul yon kelib qutqorsang ani qayg‘udin.

463

Yo‘qturur bir damki o‘lmon furqating bedodidin,
Oh agar jon topmasam har lahza vasling yodidin.

Sarv titrab yerga qo‘ydi yuzni savsan, go‘yiyo,
Bir nasim esdi chaman sari qading shamshodidin.

Ey ko‘ngul, ul g‘amza ollinda hazin nolang ne sud,

Qush qutilmas dardlig‘ afg‘on chekib sayyodidin.

Qatlni ul ko‘z ajaldin o‘rganib erdi, valek,
Yuz marotib emdi o‘tkarmish ishin ustodidin.

Qayg‘uliq bo‘lsang to‘la ichkil qadahnikim bu sayl,
Dardu g‘am qasrin yiqrar ichkach ani bunyodidin.

Topmag‘ung bu bog‘ aro yakrang birla yakzabon,
Ne guli ra’nosidin, ne savsani ozodidin.

Gar Navoiy ko‘rguzur o‘zni takalluf birla shod,
Betakalluf jong‘a yetmish xotiri noshodidin.

464

Ul sababdin tiyradur ko‘nglum uyi hijronidin
Kim, emas tobon ko‘zum sham‘i aning tobonidin.

Boshig‘a desamki evrulub o‘pay tobonini,
Voykim, har dam ayog‘ tortar bu sargardonidin.

Chun tikondin ayru ermas doyimo gul yafrog‘i,
Ne uchun olur kafi poyin ko‘zum mujgonidin.

Kirpigimdin zaxm o‘lub go‘yoki yoqibdur xino,
Yo qizoribtur kafi poyi sirishkim qonidin.

Qilmamish tirnog‘larin ranginki paydodur asar,
Ko‘z qorasasi har biriga sajdalar qilg‘onidin.

Chehra maqsud ko‘rdi ulki qildi to‘tiyo,
Garmrav sohib nazarlar sohati maydonidin.

Kelmasa ravshan zulol, albatta, bo‘lur chashma ko‘r,
Bas ayoq chekma Navoiy didai giryonidin.

465

Aqlu, jonu, ko‘nglum ul oy furqati ozoridin,
Bori bir-birdin malul o‘lmishlaru men bordin.

Shomi hajrim toru bepoyonlig‘in anglay desang,
Fahm o‘lur yaldo tuni yanglig‘ soching har toridin.

Bordur andoqkim buzug‘ ko‘nglumda har yon qonu dog‘.
Lolalarkim, chiqtqi vayron maskanim devoridin.

Ul pari ko‘nglum qushi qonin oqizg‘an fahm o‘lur,
Ochsalar bo‘ynumdag‘i daf‘i junun tumordin.

G‘unchai vaslim ochar sham‘i firoqim tindurur,
Har nasimekim kelur gulrux bahorim saridin.

Dahr bog‘i lola birla sabzasidin kechki, yo‘q —
G‘ayri qonu zahr bu shingarf ila zangoridin.

Ey Navoiy, nuqtai aysh istasang mayxonada,
Bosh ko‘tarma may tag‘ori davrai pargoridin.

466

Menki har soat chekarmen yuz jafo ag‘yordin,
Ne ajab gar yuz balo har lahza ko‘rsam yordin.

Kimki yor istar, ne tong ag‘yordin ko‘rmak sitam,
Gulbun ichra gul terar el neshlar yer xordin.

Kimki yuz ming zorlig‘lar tortibon top mish visol,
Tufrog‘ o‘p ollida men hijronda o‘lgan zordin.

Oshiqi sodiq vafo birla jafoni tolg‘amas,
Xush kelur ko‘ngliga har nekim kelur dildordin.

Charx davrin uyla pargor urdi me‘mori qazo
Kim, qadam chiqmoq emas mumkin xati pargordin.

Gar desang maxmurliq dardisardin o‘lmayin,
To tiriksen bosh chiqarma kulbai xammordin.

Ey Navoiy, gar tilarsen yor vaslin topqasen,
Kech iki olamdinu qo‘l tort yo‘qu bordin.

467

Mehr emas mash‘al yorutqon qal‘ai aflokdin
Kim, falakka soldi o‘t ruxsori otashnokdin.

Ishqdin kuydi tanimda har churuk bo‘lg‘on so‘ngak,
Kim ko‘rubtur mundoq avj olmoq choqin xoshokdin.

Bas munosibdur tikar holatda ko‘ksum chokini,
Ip suvurmoq ko‘nglakim jaybig‘a qilg‘an chokdin.

Sargaronmen ishqdin chopsang boshimni bog‘la berk
Kim, choparda raxsh uzulub qolmag‘ay fitrokdin.

Gar g‘azab vaqtি qo‘lig‘a tushtumu tig‘i yalang,
Bok emas olmang meni ul qotili bebokdin.

Mast agar mayxonada o‘ldum meni, ey do‘stlar,
May bila yub bog‘langiz na’shim belini tokdin.

Dema poko-pok kech mendin, Navoiy, negakim
Poklikdin bo‘lmag‘ay kechmak seningdek pokdin.

468

Bir parivashkim ko‘ngul devonadur savdosidin,
Gar erur bandangki ozod o‘lmang istig‘nosidin.

Oshiq o‘lsa shohu ma’shuqi gado, bilkim chekar,
Ishq g‘avg‘osi ani xaylu sipah g‘avg‘osidin.

Oshiq o‘lg‘on ajdaho bo‘lsa zabun o‘lmoq kerak,
Javr tortib ishq ko‘yi mo‘rining izosidin.

Ne havoedur havoi ishqkim har pashshasi,
Tu’malaylar aqlu taqvo Qofining anqosidin.

Ishq aro shohu gado tengdur, gado balkim fuzun,
Gar gadolig‘ aylar o‘lsa ishqning yag‘mosidin.

Kimkn ra’noliq bila oshiq bo‘lub istar visol,
Tortingiz otig‘a xat ishq ahlining asnosidin.

Ishq atvori Navoiyga musallamdur, kim ul,
Yuz balo chekti dog‘i o‘ldi aning ixfosidin.

469

Men kimmenu qilmoq havas ul sho‘x libosin,
It bilsa kerak mug‘tanam idbor palosin.

Gul jilva qilib bazm aro bulbul ichi qondur,
O‘z holing ila qilma ko‘ngul holi qiyosin.

Majnunvashim ilgida qadah, jabhasida xay,
Bu aql uyin buzdiyu ul zuhd asosin.

La’ling g‘ami ko‘nglumni daler etti kuyarga,
May ayladi zoyil ichidin shu’la hirosin.

G‘am mazra’ida ko‘nglumu ul qosh xayoli,

Dehqonki mudom asrag‘ay o‘zi bila dosin.

O‘z boshing ila qo‘yma qadam faqr yo‘lig‘a,
Topmag‘ucha bu marhalaning rohshunosin.

Shohidni qo‘yib, istama zohidni, Navoiy
Kim, bu saridur husn xat, ul sori mahosin.

470

Tirik qolsam gar o‘zni bazmi vasling ichra solg‘aymen,
Firoqing shiddatin de olmasam xud nig‘lay olg‘aymen.

Qabo bir qatla vasli xilvatida meni, ey gardun,
Necha hijroni zindonida ul oyning qabalg‘aymen.

Junun toshi boshingg‘a yog‘di deb ta’n etma, ey nosih,
Tasavvur qilmakim, bu sarzanishlardin uyolq‘aymen.

Nigoring gar borur, bot kelgusidur, yema g‘am dersiz,
Hamono sog‘inursizkim, men ul kelguncha qolq‘aymen.

Meni davron buzubtur, siz yasay olmassiz, ey ahbob,
Menga ne jurm azalda chun buzuq mundoq yasalg‘aymen.

Agar ahbob te’dodin qilursiz bo‘lmog‘um sonda,
Manga bas bu sharafkim, itlari ichra sanalg‘aymen.

Sabuhi vasl aro tut bir qadah, ey soqiysi davron,
Necha hijron tuni maxmurliq birla qinolg‘aymen.

Ularmen yo yetarmen maqsadimg‘a yonmoq imkon yo‘q,
Badan za’fi bila yo‘l shiddatidin garchi tolq‘aymen.

Ko‘ngul uzdum, Navoiy, ko‘yi tavfidin ne tong, emdi,
Erishsa itlari ul ko‘y aro ko‘nglumni solg‘aymen.

471

Yor ila ag‘yor ozoridin andoq zormen
Kim, tani zorim kebi boshtin ayoq ozormen.

Yor zulmi tig‘idin ko‘nglumi kebi majruhmen,
El jafosi toshidin bag‘rim kebi afgormen.

Yor holim anglamoq ummididin navmidmen,
Xalqning yuz mehnatu paykoridin nokormen.

G‘am yemak bo‘lmish ishim, yo‘qtur vale g‘am yer kishim,
Turfa ishkim, garchi beg‘amxormen g‘amxormen.

Jon taloshurmen ne dardim bilgurur, ne sihhatim,
Ne o‘lukmen, ne tirik, ne sog‘, ne bemormen.

Gar boshim olib jahondin chiqsam ermastur ajab
Kim, malul ahli jahondin ulcha dersan bormen.

Ey Navoiy, umr agar budur ajal rahm aylabon,
Kelsa jonim olg‘ali jon birla minnatdormen.

472

Tufrog‘imdin ahli ishq etsa tanure shodmen
Kim, ichimda ishq o‘ti yonmoq bila mu’todmen.

Odamilig‘din meni shod istamang, ey do‘stlar
Kim, meni majnun pari hijronidin noshodmen.

Ishq aro qozdim balo tog‘ini tirnog‘im bila,
Uyla sog‘inmangki Shirin oshiqi Farhodmen.

Shomi hajr ul ko‘y aro, ey sarsari hajr, esmakim,
Uyla tufrog‘menki subh anfositin barbodmen.

Zulmu bedodingdin elga ohu afg‘on solma ko‘p,
Zulm agar sen aylagung men qobili bedodmen.

Gar berib qulluqqa xat bir sog‘ar ichtim dayr aro,
Qilmangiz aybimki olam fikridin ozodmen.

Ey Navoiy, ishq aro gardung‘a sunmasmen bo‘yin,
Lekin ul xurshid agar tig‘ ursa ham munqodmen.

473

Tushta la’lin ko‘rdum uyg‘onmay debon qayg‘udamen,
Urma dam, ey subhkim, bir dam chuchuk uyqudamen.

Ko‘zguda to ko‘rdum ani qilmag‘il aksim gumon
Kim, kirib qilmoqqa vaslin justujo‘ ko‘zgudamen.

Nogah ul qotil nishon aylab bir o‘q otqoymu deb,
Ko‘yida yillar so‘ngakdek jism ila o‘trudamen.

Ishq bahrining nahangi desa bo‘lg‘ay negakim,
Ashk daryosin chekib gardung‘a men ul sudamen.

Holima kulmakka har zaxmim bir ochilg‘an og‘iz,
Turfakim men ham alar kulgusidin kulgudamen.

Har baliyat o‘qikim charxi muqavvasdin kelur,
Go‘yiyo menmenki olam ahlidin qobudamen.

Ey Navoiy, ul pari ishqida mahram yo‘qidin,
Telbalar yanglig‘ o‘z-o‘zum birla guftugo‘damen.

474

Ul oy firoq ila qismim g‘am etsa naylagamen,,
Visoli g‘ayri ichin xurram etsa naylagamen.

Mangaki tori vafo sust ayladi, o‘ldum,
Raqib birla ani mahkam etsa naylagamen.

Xazinu oshiqu zor etti nayladim oxir
Ki, ishq tig‘i qatili ham etsa naylagamen.

Meniki hamdam edim, qovdi, naylay oldimkim,
Raqibni o‘ziga hamdam etsa naylagamen.

Chu mahrami men edim, qildi zulm ila mahrum,
Visoli mahrumin mahram etsa naylagamen.

Sipehr mehrin agar mendin etti kam, ne iloj,
Taxayyul uylaki mundin kam etsa naylagamen.

Demangki ista ijozat borurg‘a ko‘yidin,
Debon, zamini siyah, mulzam etsa naylagamen.

475

Orazingni tush ko‘rub to subh tindim uyqudin,
Chun ko‘z ochtim uyqudin kun chiqmish erdi o‘trudin.

Suda bo‘lg‘on jilvagar oyo quyosh aksimudur,
Yoxud ul oy zohir aylabtur jamolin ko‘zgudin.

Kecha baskim holima gah kuldimu gah yig‘ladim,
Tun asardur yig‘lamoqdin, subh dog‘i kulgudin.

So‘rmang, ey vasl ahli, mendin shodlig‘kim hajr aro,
O‘zni hargiz ko‘rmadim bir dam qutulg‘an qayg‘udin.

Chunki urdung tig‘ o‘q ham yog‘dur emdi har necha

Kim, yog‘in naf’ aylamas, ulkim halok o‘lg‘ay sudin

Xalqai dars ichra g‘avg‘odin dimog‘im topti za’f,
May tutub soqiy dame qutqor meni bu yorg‘udin.

Ey Navoiy, jon olib dedi beray koming valek
Dam ura olmon anga holi bu olg‘u bergudin.

476

Zarvaraqtin yo kebi qoshingda zevarmu ekin?
Yo magar mushkin hilol ustida axtarmu ekin?

Yel uchurg‘on parniyon har yon burunchak azmidin,
Ul pari uchmoqqa egni ustida parmu ekin?

Titraguch gavharlari boshingda erkin, yo magar
Oy boshinda hay’ati Parvin musavvarmu ekin?

Ko‘zgu ichra orazing aksimu erkin jilvagar,
Yo zulol ichra ko‘rungan mehri anvarmu ekin?

Sochbog‘ing o‘rg‘onmudur siymin taning davrida pech,
Yo‘qsa husnung ganjig‘a chirmashqan ajdarmu ekin?.

Bu chaman gulbunlarida xor ekanmu yo magar,
Zor bulbul jonining qasdig‘a nishtarmu ekin?

Ey Navoiy, men xud ul oy vaslidin novmidmen,
Bilmon o‘zgalarga bu davlat tuyassarmu ekin?

477

Ne bahor o‘lg‘ayki bir gul hajridin badholmen,
Uylakim bulbul xazon faslida gungu lolmen.

Tifl toshidin yiqilg‘on qush kebi hajr ilgida,
Ko‘z yumub, boshim solib, og‘zim ochib beholmen.

Gul kebi yuz pora xunolud bo‘lg‘an jism ila,
Dard ila mehnat hujumi bazmida pomolmen.

Ul mahi gulgun qabo birla tilab hamranglik,
G‘o‘ta yeb gulrang ashkim bahri ichra olmen.

Yog‘dururlar tosh meni majnunni qavlab ko‘bako‘y,
Bir parivash hajridin bozichai atfolmen.

Berma pand, ey shayxkim, ishqida foni bo‘lg‘ali,
Jurmu toat fikridin ozodu forig‘bolmen.

Ey Navoiy, hajrdin ermaksi to yor ollida
Muddai ahvoli xushtur, men harob ahvolmen.

478

Moviyi behol ko‘nglak, vah, ne farruxfol ekin
Kim, taningg‘a surtulur bu vajhdin behol ekin.

Sunbulung oshuftayu savdoyi o‘lmish men kebi,
Chun meningdek bosh ayog‘ingg‘a qo‘yar pomol ekin.

Mushki zulfung atridur shamshod boshi uzra sham,
Qadding ostida xami shamshod tarfi dol ekin.

Donae tushmish iki tovus aro ulkim dedim,
Vo‘smalik ikki qoshingning o‘rtasida xol ekin.

Kaffadur garduni xam hajrim yukini cheksalar,
Arz jirmi ul tarozu ichra bir misqol ekin.

Ulki ma’nidin xabar topti yana dam urmadi,
Anglamon ahli jadal ichra ne qilu qol ekin.

Suvratin Layliyu Majnunning dedi ko‘rgach xirad
Kim, Navoiy birla yori shaklidin timsol ekin.

479

Chok-chok etting ko‘ngul komini hosil qilmayin,
Keskulotting notavon saydingni bismil qilmayin.

Hajr o‘qining manzili bo‘lmoq ko‘ngul ne sudkim,
Yetkach-o‘q o‘tti hadanging anda manzil qilmayin.

Tushmasun har ko‘z yuzungga, elga ham o‘t tushmasun,
Chiqma uydin parda o‘tlug‘ yuzga hoyil qilmayin.

Garchi hajri ro‘zgorim tiyra qilmish, ey sipehr,
Mahfilim yorutma ani sham‘i mahfil qilmayin.

Ul pari majnunidur ko‘nglumni zinhor, ey hakim,
Band qilma zulfi qaydidin salosil qilmayin.

Dahr ishi oludalig‘dur, ey xusho, ul pokrav

Kim, o‘tar bu jifag‘a ko‘nglini moyil qilmayin.

Ey Navoiy, shart qildimkim qutilsam hajrdin,
Necha ko‘nglum desakim ishq orzu qil, qilmayin.

480

Oshiq o‘ldum, necha javr ahli zamondin tortayin.
Ulkim oshubi zamondur bori andin tortayin.

Yor ila ag‘yor zulmi haddin o‘tti, vah, necha
Vasl uchun javru jafo yaxshi yomondin tortayin.

Hajr girdobidadur ko‘nglum kamandi vasl ber,
Kim solib ani bu bahri bekarondin tortayin.

Sen tana’um gulbunidin uz farog‘at g‘unchasi,
Men balo paykoni jismi notavondin tortayin.

Borg‘ali ko‘yiga engimdin chiqar go‘yo qanot,
Javridin desam ayoq ul ostondin tortayin.

Mehmonim bo‘lsang ollingda havodis tuhfasi,
Nesh tandin-o‘q ko‘nguldin, nola jondin tortayin.

Ey Navoiy, necha qilg‘aylar etakdek poymol,
Men dog‘i emdi etak ahli zamondin tortayin.

481

Chehra yoiting xasta jonimni anga zor aylabon,
Zulf yig‘ding telba ko‘nglumni giriftor aylabon.

Gar muroding qatl esa jon topshuray, olg‘il ravon,
Rahm etib o‘lturma yillar hajringga zor aylabon.

Dema javrimdin agar ul qochsa kimga javr etay
Kim, qocharda azm qilg‘umdur xabardor aylabon.

So‘zki la’lingdin eshitsam uylakim obi hayot,
Qonmon, ey jon, to tirikmen ani takror aylabon.

Dema majnun ul pari ishqida menmen dasht uza,
Nola chekkan tosh ila ko‘ksumni afgor aylabon.

Faqr ko‘yida gadolig‘ garchi faxrimdur valek,
Saltanat arz etsalar mayl aylamon or aylabon.

Ko‘yi azmida Navoiyg‘a navo yetsa ne tong
Kim, qilur bulbul navo ohangi gulzor aylabon.

482

Shomi hijron zulmatida obi hayvon istaman,
Ne uchunkim sensiz, ey umrum xushi, jon istaman.

Chun tilar ko‘nglum samandingning izidin topsa na’l,
G‘ayri ko‘nglum sohati raxshingg‘a javlon istaman.

Chun o‘qungdin har boshoqdur qatra su, ey qoshi yo,
Sendin o‘tluq ko‘ngluma juz tiyr boron istaman.

Istasam la’ling mayin har dam berur xunob charx,
Men xud o‘z komim bila may o‘rnig‘a qon istaman.

Ul parivash tifl toshi tayada dermen tutsa yer,
Yo‘qsa ko‘p devonalig‘din o‘zni uryon istaman.

Yor ko‘nglum buzmoq istar, men ham istarmen buzuq,
El yoshursun ganj deb bu uyni vayron istaman.

Ey Navoiy, ko‘rgach el hayronlig ‘in o‘lsam, ne tong,
Menki g‘ayratdin anga o‘zumni hayron istaman.

483

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qorosinmu deyin,
Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin?

Ko‘zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin?

Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?

Zulfi dominmu deyin, la’li kalominmu deyin,
Birining qaydi, yana birning adosinmu deyin?

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Moviy ko‘nglak uza gulrang qabosinmu deyin?

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javru jafosinmu deyin?

Ey Navoiy, dema qoshu ko‘zining vasfini et,
Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qorosinmu deyin?

484

Ko‘z ohim o‘ti sori shoyadki solmag‘aysen,
Solsang tamug‘ o‘tini og‘zingg‘a olmag‘aysen.

Dashti visol qadrin Majnundek angla, tokim
Zindoni furqat ichra mendek qabalmag‘aysen.

Dedi, sahar kelurmen, g‘am shomi behud o‘ldum,
Chiqquncha mehr, ey ko‘z, uyqug‘a qolmag‘aysen.

Ey tong nasimi, ul yon bormay damping tutuldi,
Holim demakka borsang nogoh tolmag‘aysen.

Ey ko‘z, sug‘oldi ashking sa’y aylagilki nogah,
Sen ham ul oy jamolin ko‘rmay sug‘olmag‘aysen.

Mug‘ dayri, ey mug‘anniy, xushtur valek ichmon,
To nag‘mai mug‘ona bazm ichra cholmag‘aysen.

Gar desang, ey Navoiy, faqr ichra yo‘lni ozmay,
Ko‘zni tikib yo‘lungg‘a har sori solmag‘aysen.

485

Kimsa mendek ishq aro besabru orom o‘lmasun,
Yor anga bir sen kebi badmehru xudkom o‘lmasun?

Garchi hijron shomi o‘tkach subhi vasl ummidi bor,
Shomi hajrimdek kishiga subhsiz shom o‘lmasun.

Dema, ashking nega gulrangu ko‘zung gulfom erur,
Hech kimning yori gulro‘yu gulandom o‘lmasun.

Ishq aro Farhodu Majnunni manga o‘xshatmangiz
Kim, alar ham men kebi rasvoi badnom o‘lmasun.

Xonaqahdin tashnalab yettim, karam qil piri dayr
Kim, tag‘or o‘lsun ichar zarfim mening, jom o‘lmasun.

Bog‘lasam dayr ichra zunnor, ey musulmonlar, ne tong,
Kofir ul yanglig‘ki holo ahli islom o‘lmasun.

Gar fano bo‘stonig‘a aylar havo ko‘nglung qushi,
Ey Navoiy, olam asbobi anga dom o‘lmasun.

Lablaring sharbatini chashmai hayvonmu deyin?
Demasam chashmai hayvon, ne deyin, jonmu deyin

Tun kunumkim yorug‘ ul yuzdin erur, vahki, ani
Mohi anvarmu deyin, mehri duraxshonmu deyin.

Kulubon jilva qilur chog‘da qadu og‘zin aning,
Sarvi ra’nomu deyin, g‘unchai xandonmu deyin?

G‘amzai qotil ila kofiri xunrez ko‘zin
Dushmani jonmu atay, ofati imonmu deyin?

Ishq dardini desam sa’b meni ayb etmang,
Ishqi ming mushkil erur zimnida osonmu deyin?

Aql agar ishq o‘tidin qochsa, nechuk man’ qilay,
Shu’ladin sa’i qilib qochsa birov, yonmu deyin?

Ichmagim zohid agar bildi, Navoiy, naylay,
So‘rsa so‘z uyla kishi ollida yolg‘onmu deyin?

Necha ul chehrani ko‘z lavhida tasvir etayin,
Ani ko‘rmakka bu suvrat bila tadbir etayin.

Necha tun tongg‘acha ko‘rmakka quyoshdek yuzini,
Yuz taxayyul qilibon, borig‘a tag‘yir etayin.

Necha uyqu yo‘qu vaslin yasag‘on tush ko‘rubon,
Boring o‘z ko‘nglum uchun topqali ta’bir etayin.

Necha yo‘q yerda xayolingni taaqqul qilibon,
Furqating sharhi g‘amin ollida taqrir etayin.

Necha had sizg‘ali yo‘q yerda sanga holimni,
Nomalar kilki taxayyul bila tahrir etayin.

May ber, ey barahman, ar mug‘bacha ishqida ko‘ngul
Bo‘lsa badmast firoqi bila ta’zir etayin.

Ey Navoiy, dema jon bergilu ilgin o‘pgil,
Mundoq iqbol ilik bersa ne taqsir etayin.

Ishq aro men kebi yo‘q besarusomon bo‘lg‘an,
Xonumon buzg‘an aloxonu alomon bo‘lg‘an.

Oh dudi bila ishq o‘tini zohir qilg‘an,
Lek ul dud aro axgar kebi pinhon bo‘lg‘an.

Tiyr boroni balo ishq anga yog‘durg‘an,
Tanida har sari mo‘y o‘rnida paykon bo‘lg‘an.

Sarsari ohi bila nahl umidi sing‘an,
Sayli ashki bila sabri uyi vayron bo‘lg‘an.

Pora-pora jigari dard o‘tidin o‘rtangan,
Qatra-qatra yuragi hajr o‘tidin qon bo‘lg‘an.

Ishq daryosi ani mardumi obi etkan,
Hajr sahrosi aro g‘uli biyobon bo‘lg‘an.

Tong yo‘q o‘ldum esa ishq ichra jahon rasvosi,
Kimdurur oshiqa o‘lub oqili davron bo‘lg‘an.

Soqiyo, bodaki yo vasli keraktur, yo may,
Maxlas istar esa pobastai hijron bo‘lg‘an.

Mizbonlig‘da Navoiy ne ajab jon bersa
Kim, o‘luk tirkuzur ermish anga mehmon bo‘lg‘an.

489

Bo‘ldi ayog‘ing qora ziynatu peroyadin,
Uylaki bo‘lg‘ay qora sham’ tubi soyadin.

Zulfunga tovus pari xolingu oltun varaq,
Mushafingga bo‘ldi zeb ushr bila oyadin.

Layliyu Shiring‘a ham ayla gahi iltifot,
Bekaga chun yo‘q guzir uy qizila doyadin.

Ko‘zidin el o‘rtamak kasb etar ul turfa qosh,
Uylaki o‘t olg‘ay el yoqqali hamsoyadin.

Vaslg‘a yo‘l bermasang, ishqni tark et dema,
Sud chu yo‘q noumid aylama sarmoyadin.

Izzu sharaf poyasi uzra vnsol istagan,
Topmag‘ay o‘tkarmayin o‘zini bu poyadin.

Vasl tama' aylasang hajr bila biym etar,
Voy Navoiy sanga, o'tmasang ul voyadin.

490

Ko'rguzur ag'yor yuz tuhmat nihoni naylayin,
Yorkim so'rmay inonur, bu baloni naylayin?

Yuz jafo eldin chekib bukim jafogarlikka ot,
El aro pando qilibmen bu jafoni naylayin?

Kimki dardi bo'lsa yor aylar davo, men yorsiz
Dard aro o'lдум, bu dardi bedavoni naylayin?

Dam-badam qonimg'a tonug'luq berur ko'z, ey ko'ngul,
Bilmon ul tardomani yuzi qorani naylayin?

Yuz vafo aylab xaloyiqqa, ko'rubmen ming jafo,
Aylamay xoliqqa emdi iltijoni naylayin?

Ey Navoiy, chun vatanda bir dami xush urmog'im
— Mumkin ermas, ixtiyor etmay jaloni naylayin?

491

Balo dashti aro Majnun meningdek ko'rmamish davron,
Quyundek har zamon bir ko'rmagan vodiyda sargardon.

Ne anduhu malolimg'a baliyat dashtidek g'oyat,
Ne savdoyu jununumg'a malomat bahridek poyon.

Tunum dayjur, o'zum ranjur, ichim g'amnoku bag'rim chok,
Tilim lolu tanim behol, ishim afg'on, sirishkim qon.

Zaifi dardi g'am pesha, nahifi mehnat andisha,
Zalili besaru somon, qatili xanjari hijron.

Fig'onimdin falak g'amgin, sirishkimdin jahon rangin,
Na dardim o'tig'a taskin, na hajrim dardig'a darmon.

Boshim g'am toshidin yora, tanim hajr o'qidin pora,
Ko'ngul bu yorag'a chora toparg'a topmayin imkon.

Ko'zum namliq, bo'yum xamliq, ichim anduhu motamliq,
Ne hamdamliq, ne marhamliq topib bu mehnati pinhon.

Manga ne yoru ne hamdam, manga ne do'st, ne mahram,
Manga ne chora, ne marham, manga ne sabru, ne somon.

Ham ahvoli tabohimdin, ham ohi umr kohimdin,
Ham o'tluq dudi ohimdin qorarib kulbai ahzon.

Falak rahzan, zamon dushman, badan ravzan uza ravzan,
Qolib jon xisravidin tan, chiqib tan kishvardin jon.

Navoiy bo'lsa mehnat ko'p, ichako'r jomi ishrat ko'p,
Necha bo'lsa suubat ko'p, qilur vahdat mayi oson.

492

Nola nomaqdur tong ermas meni mahjurdin,
Ne uchunkim hajr bedodi o'tar maqdurdin.

Telbalikda ishqning ma'murimen, ey ofiyat,
Barcha rasvoliqni tut ma'zur bu ma'murdin.

Gar desang huru pari vaslig'a ko'z solmay, valek,
Bog'lay olmasmen nazarni sen kebi manzurdin.

O'lsalar ahli niyoz imkoni yo'qtur g'ayri noz,
Zohir o'lmoq shammai ul husnig'a mag'rurdin.

Fosiqu zohid demakim esti ersa g'am yeli,
Sovurur gardi fano vayronayu ma'murdin.

Sarnavishting har ne bo'lsa ko'rmakiga chora yo'q,
Kimsa bosh chekmak ne mumkin ollig'a masturdin.

Ey Navoiy, yorg'a har kimsakim zokirdurur,
Rozi ermon zikr qilsa g'ayri ul mazkurdin.

493

Yorni derlarki chekmish yuz jafo men zor uchun,
Bo'lsa ming jonim fido aylay jafokash yor uchun.

Yorkim yori uchun cheksa jafo bil ani yor,
Ulsa ozdur kimsa andoq yori mehr osor uchun.

Yorliq ko'rguzdi men jon birla minnatdorliq,
Jonini haq asrasun bu zori minnatdor uchun.

Men ne qilg'aymen anga loyiq magar ming sarvu gul,
Olib ozod etkamen ul sarvi gulruxsor uchun.

Rostliq birla ravishkim anda bordur, kimda bor,

Xo‘b ekandur o‘lmakim ul qomatu raftor uchun.

O‘lmakim bemorliqdin sahldur chun turguzur
Ani, yo rabkim, salomat asra bu bemor uchun.

Ey Navoiy, yo‘q edi olamda oyini vafo,
Haq nasib etti sanga senda bu ma’ni bor uchun.

494

Hamul tog‘eki toli’ bo‘lmish erdi ul quyosh andin,
Quyosh la’licha bordur boshima har pora tosh andin.

Oti tuynog‘idin mehrobvash iz qaydakim ko‘rsam,
Muhol o‘lg‘ay agar olsam boshim bor necha bosh andin.

Ko‘zumga uyqu g‘am shomi netib kirgayki mardumni,
Yaqindurkim oqizg‘ay sayl ro‘di birla yosh andin.

Ko‘ngul qoni agar tutti ko‘zumni ayb ermastur,
Nedinkim bo‘ldi olam ichra ko‘nglum sirri fosh andin.

Kavokib nargisiyu charxning qavsi ko‘ngul hushin,
Ne olsunlar, chu olmishlar ani bir ko‘zu qosh andin.

Junun afg‘onidin tog‘ ichradur nolam xaroshida,
Aningdekkim sado faryodig‘a tushmish xarosh andin.

Ko‘ngul bir oyni istay bordi, jon qoldi o‘lum holi,
Bu ham ayrilmag‘ay erdi bu qattiq yo‘lda kosh andin.

Bag‘ir pargolasin aylab g‘izo, qonin qilib sharbat,
Tavaqqu’ qilma olam ahlidin o‘tsa maosh andin.

Navoiy muknati qon yosh ila bir yerga yettikim,
Bo‘lubtur la‘l farsh ofoq aro har yon tutosh andin.

495

Adab siyosati chekti ko‘zumga mujgondin,
Sinonki bahra dalirona olmag‘ay andin.

Ne ko‘zki tengri bilurkim, kechurmadi hargiz
Ko‘ngulda beadabona xayoli jonondin.

Vale ne sudki, ul sho‘x beadablig‘ ila
Malul etar meni yuz qatla har nafas jondin.

G‘araz manga chu aning zotidur tafovut yo‘q,
Guli visol bila toza dog‘i hijrondin.

Parimu yoki malak, yo‘qsa ruhi pokmudur
Ki, zohir o‘lmadi muncha latofat insondin.

Ne tarki ishq uchun afsona dersan, ey nosih,
Ko‘ngulni men uza olmon, chu ko‘nglum olg‘ondin.

Navoiyo, sanga bastur xayoli oshiq esang,
Kishi visol tama’ qilmas obi hayvondin.

496

To muhabbat dashti bepoyonida ovoramend,
Har baliyat kelsa ishq oshubidin bechoramen,

El netib topqay menikim men o‘zumni topmanom,
Buylakim ishq junun sahosida ovoramend.

Qaysi zaxmimg‘a qilursen chora chun men, ey rafiq,
Tiyr boroni baliyatdin sarosar yoramen.

Oh dudi ichra bir uchqun kebi ko‘rgan meni,
Bildikim hijron tuniga kavkabi sayyora men.

Kecha o‘rtansam, sahar faryod qilsam, ne ajab,
Ishq aro parvonavu bulbulg‘a chun hamkoramen.

Ey xarobot ahli, gar siz mast o‘lub, men bo‘lmasam,
Ayb emas, nevchunki siz mayxora, men xunxoramen.

Ey Navoiy, bordi deb ahbob ta’jil etma ko‘p,
It kebi men erishib ul korvonni boramen.

497

Ohu vovayloki ishqingdin jahon shaydosimen,
Ham jahon shaydosi, ham ahli jahon rasvosimen.

Ko‘rsa hush ahli yuqar mendin junun holimg‘a boq
Kim, xirad ahli ulusning boisi savdosimen.

Kim junun ahli aro nodonroq ul, donoroq ul,
Ishqu dard iqbolidin ul xaylning donosimen.

Olami savdoda tinmay po‘ya urmog‘liq bila,
Podshohi ishqning payki jahonpaymosimen.

Ko‘rmakimdin aqli kulga yuzlanur savdoi ishq,
Ey ko‘ngul, shaxsi xiradning moyai vasvosimen.

Dashti savdoda havoi ishqu mehnat gardidin,
Besarupo po‘yalar birla quyun hamposimen.

Ey Navoiy, holima el yig‘laru ul oy kular,
Shukrkim bir nav’ ila aning nashotafzosimen.

498

Labingkim o‘luk tirkuzur jonmu erkin?
Agar jon emas obi hayvonmu erkin?

Yuzung shu’lasi ustida anbarin dud
Ki, jam’ o‘ldi zulfi parishonmu erkin?

Balo saylidin ishq dashtida Majnun
Mening telba ko‘nglumcha vayronmu erkin?

Qiror kufru din amlin ul sho‘x, bilmon
Ki, kofurm u erkin, musulmonmu erkin?

Qilur telba mardumlig‘i elni oyo,
Parimu ekin, yoxud insonmu erkin?

Vafo ahlini ko‘p qilur qatl gardun,
Shafaqmu erkin yo qo‘li qonmu erkin?

Dedilar, birov soldi davrong‘a oshub,
Navoiy ul oshubi davronmu erkin?

499

Chun xayolingda ko‘ngul behol edi o‘z rashkidin,
To ne hol o‘lg‘ay visol ichra anga ko‘z rashkidin.

Vaslida chun o‘zni mahram ko‘rmay o‘ldum, g‘ayrni—
Ko‘rsa mahram naylagay ulkim o‘lar o‘z rashkidin.

So‘z degon ermishki bir so‘z deb o‘lukni tirkuzay,
Ey ko‘ngul, men xud dami naqd o‘ldum ul so‘z rashkidin.

Gul qizil, sarig‘ emas gulshanda sen ko‘rgan zamom,
Oq gul erdikim necha rang o‘ldi ul yuz rashkidin.

Mehri tobon rashkidin botti ko‘rub chehrangda xo‘y

Kim, quyoshqa ko‘rdi muncha tob yulduz rashkidin.

Lutfu qahri sarbasar muhlikdurur ul sho‘xning,
Bo‘lmadi o‘lmak meni mahzung‘a yolg‘uz rashkidin.

Ul quyosh chunkim bo‘lur kunduz ayon, aqshom nihon,
Kecha hajridin Navoiy o‘ldi, kunduz rashkidin.

500

Ey quyosh, yoyding tuman ming zarra bu g‘amnokdin,
Baski otting sarnigun tufrog‘ uza aflokdin

Qushqa o‘tdin ram bo‘lur, yuz voykim, ko‘nglum qushi
O‘zni asray olmas ul ruxsori otashnokdin.

Ey musulmonlar, manga chun zulmu javridur murod,
Bok emas ayrilmasam ul kofiri bebokdin.

Pok tengri ishq aro pok aylagan shukronag‘a,
Tortaram yuz tuhmatu ming g‘ussa har nopokdin.

Ishq kuydurgan zamon oh urmasam ermas ajab,
Barq o‘rtar chog‘da chiqmas dud ham xoshokdin.

Ulturur chobuksuvorim, men qo‘yarmen yerga bosh
Kim, boshimni qilmag‘ay mahrum ul fitrotdin.

Ko‘nglakimda qon ne tongkim bag‘rima yuz chokdur
Kim, tarashshux aylamas bal qon oqar har chokdin.

Boda tafrihini yoquti mufarrih bermadi,
Xo‘sha la’lu dur magar yetkundi dehqon tokdin.

Ey Navoiy, mohvashlardin chu yo‘q toli’ manga,
Bejihat ne shikva aylay anjumu aflokdin.

501

Yuzinda may gulidur yo yuzin ko‘rguzdi ko‘zgudin,
Vayo jannat guli aksini zohir ayladi sudin.

Yuzungga chun tavajjuh ayladim, qoldi qora qayg‘u,
Keyin tushkan kebi soya ko‘rung‘ach mehr o‘trudin.

Tushumda dedikim ko‘ksungga bir o‘q ursam ilgim o‘p,
Ko‘rung toli’kim ul o‘q yetkach-o‘q seskandim uyqudin.

Dema hijron tuni muhlik g‘amimdin subh sarg‘ardi,
Hamono bul-ajab holim ko‘rub za’f etti kulgudin.

Bor erdi husnung afzun g‘am tuni chun chehra ko‘rguzdung,
Ko‘runur sham’ ravshanroq zuhur etkach qorong‘udin.

Dema mensiz nechukdurkim seni o‘lturmadi qayg‘u,
Sanga yo‘qtur xabar men xud o‘lubmen ushbu qayg‘udin.

Qadah nazzorasi hushumni zoyil qilsa ayb ermas
Ki, shohid aksi har dam jilva aylar ushbu ko‘zgudin.

Bu gulshandinki bulbul zog‘ ila tengdur, firoq avlo,
Netay ul yerdakim yo‘qtur arabg‘a farq hindudin.

Navoiy Ka’ba qasdin aylasun, ey shayx, dey olsang
Ki, imkon yo‘qturur topmoq kishi dayr ichra maqsudi.

502

Choklik ko‘ksum eshikdur, jism uyi baytul-hazan,
Ul eshikning halqasidur na’lu gulmexi tugan.

Gul yuzung shavqida tig‘i ishq ila bo‘lsam shahid,
Bo‘lg‘usidur hurlar gulgunasi qonlig‘ kafan.

Arg‘adol ichra qaroqchi mahfiy o‘lgondekdurur,
Fitna xaylig‘a panah zulfung dog‘i chinu shikan.

Chug‘z tashbihin manga, ey husn ganji qilmakim,
Men vatan buzmishmen, ul qilmish buzug‘ ichra vatan.

Sudramang ul ko‘yidin yuz zaxm ila men xastani
Kim, yopishmish ostoni farshig‘a qonlig‘ badan.

Uyla, ey bulbul, bahor o‘lmish xazon birla qarin
Kim, degaysen bir guli ra’no bo‘lubtur bu chaman.

Yuz hiyal qilding Navoiy qatlig‘a, faryodkim,
Aylading bir turguzur uchun yuz o‘lturmakni fan.

503

Xayoling kelsa ko‘nglumga bo‘lur ozurda mujgondin,
Haramg‘a azm qilg‘an uylakim xori mug‘ilondin.

O‘qung ko‘nglumga tegmasdin g‘ubore erdi ko‘nglumda,
G‘ubori o‘lturishmish to su seping anda paykondin.

Ko‘zum xunobi la’ling shavqidin bahr o‘ldi tong ermas,
Chiqib gulgun bu daryoning sahibi yog‘sa qon andin.

Xating naqshi buzug‘ ko‘nglumda aylar qasdi jon, vahkim,
Bo‘lur neshi balo har sabzakim butkay bu vayrondin.

Chaman tufrog‘in, ey ahbob, aritmang zor jismimdin,
Libosin so‘ymangiz hazl aylabon majnuni uryondin.

Labing vasfida jonbaxsh o‘lsa anfosim tong ermaskim,
Damim ul dam nasimidurki eskay obi hayvondin.

Soching sarrishtasidin bir girih ko‘nglumda jam o‘ldi,
Bu jam’iyat erur ko‘nglumga ul zulfi parishondin.

Ne gulgun sog‘are mumkin, ne gulrux soqie mavjud,
Jihat budur: Navoiy gar tilar ketmak Xurosondin.

Buyurdi shayx paymon maydinu mug‘ tutti paymona
Rizo yo‘lida ne paymonadin qochtim, ne paymondin

504

Agar ishqing havosida yog‘ar har jola tosh o‘lsun,
Nishona har biriga dermen ushbu xasta bosh o‘lsun.

Yuzungnung mehridin bir zarra sotmon, gar falak javfi,
To‘la bo‘lsun filuriy, har filuriy bir quyosh o‘lsun.

Sitam zangin temurdek ko‘nglidin, vahkim, qira olmas,
Nechakim nolai zorimda suhondek xarosh o‘lsun.

Quyoshni bo‘lmas, ey gardun, ul oyg‘a aylamak tashbih,
Og‘iz gar zarra, Cho‘lpon — ko‘z, yangi oy anga qosh o‘lsun.

Agar paykonlaring ko‘z istabon topti ko‘ngul, g‘am yo‘q,
Kelib yig‘lar mahal ul qatra sular ko‘zga yosh o‘lsun.

Sipohi husnunga bir mahchasi raxshon alam bo‘lg‘ay,
Quyosh ko‘zgusiga ohim sutuni gar tutosh o‘lsun.

Ko‘ngulda sirri ishqin asray-asray o‘ldum, ey soqiy,
Qadah tutkim, xarobot ahlig‘a fosh o‘lsa fosh o‘lsun.

Ko‘ngulga jon bila bir dog‘ing ozdur, qo‘y yana bir ham.
Necha ikki gadog‘a bir diram uzra talosh o‘lsun.

Ularda tengdurur shoh aylasun gulshan gulin mafrash,
Vagar gulxan kuli uzra gado sohibfiros o'lsun.

Navoiy ashk durridek tilarkim ko'zda yer bergay,
Agar ishqing havosida yog'ar har jola tosh o'lsun.

505

Huqqai la'lingda ko'ptur xurdai ma'ich nihon,
Ushbu ma'nidin ani go'yoki derlar xurdadon.

Hush ila sabrim sipohi uylarin kuydurdi ishq,
Har yangi dog'im ul uylar o'rnidin qolmish nishon.

Ko'zda ashkim qonidin har sori ko'rgil qatralar,
Nuqtalar yanglig'ki qo'yg'aylar qachon yozilsa qon.

Tig' chun boshimg'a yetkurdung tavaqquf qilmakim,
Su maqom etmas biyik yerdin quyi bo'lmay ravon.

Bir momuq tiqqan qulqurdur har yaram marham bila,
Xasta ko'nglum baski o'qi zaxmidin tortar fig'on.

Jomi durd birla yiq, ey soqiyi davron, meni
Kim, o'larmen ishq ko'yida sog'alsam har zamon.

Ey Navoiy, emin erman zuhd aro mundin nari,
Dayrni ma'man qilay, gar umrdin topsam amon.

VOV HARFINING VILOHATAFZOYLARINING VAQOYE'I «NAVODIR»DIN

506

Falakdin gar manga har lahza yuz qayg'u kelur o'tru,
Agar har qayg'udin so'ng bir sevinmak bor, emas qayg'u.

Va gar har tiyralikka bir yorug'luqni inonmassen,
Yig'i ko'r charxdin har shom dog'i subhdin kulgu.

Kamol istar esang sidq ahlidin qilma ko'ngul tiyra
Mukaddar aylamas xurshid subh anfosidin ko'zgu.

Safo ahlig'a gulruxlar xayolidin tag'ayyur yo'q,
Qachon gul aksi tushmaklik bila gulrang bo'lg'ay su.

Tilarsen g'aflatingni raf' etib ogohlar naqlin
Ki, g'ofil elga ul afsonalardin kam bo'lur uyqu.

Baqo naqdi hayotingg‘a chu ermas bir zamon ma’lum,
Diram naqdig‘a umrung har zamon sarf etmagil asru.

Junun zanjirida oshiq yonida hiylagar zohid,
Kishi ko‘rsa tasavvur aylagay sher ollida tulku.

Ko‘ngul mir’oti ichra jilvagardur yoru sen g‘ofil,
Toriqma hajridin ko‘pkim emassen yordin ayru.

Fanoning ham fanosin istagil vasl ersa komingkim,
Bu yo‘lda vosil o‘lmakning tariqi ushbudur ushbu.

Ketur bir boda, ey soqiyki, ichsam qolmag‘ay boqiy,
Fanodin bal, baqodin ham zamirim lavhida belgu.

Navoiy dayr aro mast o‘lsa, shohdin panoh andin
O‘tarda tutqusi, albatta, bir sog‘ar chiqib o‘tru.

507

Qayon qilsa havo ul turfa qush uyqum olur qayg‘u,
Vagar kulbamda bir tun qo‘nsa xud ko‘zdin uchar uyqu.

Firoqing shomida subhi visoling yodima kirgach,
Kelur har lahza timmay yig‘lamoq ichra manga kulgu.

Quyoshim sarvdek qad birla har yonkim qilur jilva,
Ayog‘i ostida, vah soyadur yo sunbuli gesu.

Yangi jon topqamen bo‘lsa labing obi hayotidin,
Ularda og‘zima chun tomizurlar paxta birlan su.

Labingning xolidin jon istadim, ul oldi jonimni,
Gunah mendindur, andin yo‘q chu ishni aks etar hindu.

Qul o‘ldum xolu zulfu qaddinga gar javrdin qochsam,
Erur ko‘ksumda har yon dog‘ ila na’lu alif belgu.

Qadah mir’oti ruh, ey soqiyu maxmurluq ranji,
Meni o‘lturdi, bovar qilmasang qo‘y og‘zima ko‘zgu.

Chu davron bevafodur necha sohib joh esang, ey shah,
Gadolar xotirin asrayu mag‘rur o‘limg‘il asru.

Ichar ermish ul oy ushshoq yodi birla sog‘arlar,
Seni ul el tufayli, ey Navoiy, yod qilg‘aymu.

Ohu ashkimdin shikoyat aylamish ul tund xo‘,
Ne dey olg‘aymenki bir og‘zida o‘tdur, birda su.

Jon fizo vaslin qilurmen kom muhlik hajr aro,
Jon berur el aylagandek umri jovid orzu.

Muddailarning hujumi bul-ajab holimg‘adur,
Nogahon qilg‘an kebi ko‘rgach g‘arib itlar g‘ulu.

Menu kunlar yuz balo sen kom ila yuz aysh so‘r.
Menu tunlar uyqusizliq, noz ila sen xush uyu.

Soqiyo, chiniy idish birla takalluf qilmakim,
Betakalluflarg‘a hushroqdur surohidin sabu,

Huru jannatdin murodim davlati diydor erur,
Yorsiz bog‘u kanizi besh emastur ulu bu.

Ishq dashtig‘a fanodin nori ermish yuz xatar,
Ey Navoiy, yor ishqida berib jon bo‘ldimu.

Ko‘nglumu bag‘rimni g‘amzang tig‘i aylar kov-kov,
Yo‘q ajab gar qon oqar ikki ko‘zumdin nov-nov.

Xayli xatting chergasi yuz davri uzra go‘yiyo
Kim, iki mushkin g‘azoling sayd etarga bo‘ldi ov.

Ishqing o‘ti shu’lasin mufrit tilar majnun ko‘ngul,
Uylakim devonalar doim tilar qilmoq olov.

Ishq boshimdin chiqorib o‘zlukumni urdi tig‘,
Ani boshtin sov etib, boshni tanimdin qildi sov.

Zohido, ishqining yoshur dersen, andin so‘ngrakim,
Holima tashni’ ila solding bari olamg‘a chov.

Qayda mumkindur alifdek chiqmoq eldin xossakim,
Kun aro olti jihatdin qolmisham andoqki vov.

Ey Navoiy, tig‘ tortib, chobukum javlon qilib,
Boshima yetkach, dedim: tark et urushni, dedi: yov.

Sipehri oyinagun gar damimdin o‘ldi qorong‘u,
Asar yo‘q emdi damimdin qo‘yulsa og‘zima ko‘zgu.

Firoq bazmida ermas surohiy og‘zida qul-qul
Ki, qildi qah-qaha birla g‘arib holima kulgu.

Sipehr bahrig‘a boqsang yuzungga aks durur mehr,
Ko‘runur ikki quyosh chun bo‘lur quyoshqa su o‘tru.

Yuzungda qatral xo‘y xol nuqtasinmu yoshurdi,
Vayo cho‘mub nafas asrar hayot suyida hindu.

Netib habib visolin tama’ qilay meni shaydo
Ki, telba beadabu tund xo‘y erur pari asru.

Yoruq gar o‘lmadi sham‘i muroding, aytma ko‘p so‘z,
Kishi qazo bila bo‘lmas urushmoq aylama yorg‘u.

Navoiy, istar esang yor la’li komini, jon ber,
O‘zung de elga tirilmaklik o‘limguncha bo‘lurmu.

511

Qad ermaski, sarvi xiromon erur bu,
Lab ermaski, gulbargi xandon erur bu.

Ko‘ngul ichra ul oy mengining xayoli,
Gumon qilmakim dog‘i pinhon erur bu.

Bag‘irdinki ko‘ksumga paykon tiralmish,
G‘aming o‘qidin no‘gn paykon erur bu.

Ko‘zum bahrida qatradin dur topilsa,
Ajab bo‘limg‘ay bahri Ummon erur bu,

Buzulg‘an ko‘ngul mulkiga qilma hayrat
Ki, to sayli g‘am yetti vayron erur bu.

Halok aylasa g‘am tuni jonne har dam,
Ne tong, ey ko‘ngul, shomi hijron erur bu.

G‘amim haddin o‘tti ketur, soqiyo, may
Kim, ul muhliku obi hayvon erur bu.

Salomat havaslandi shayhu sog‘indi
Ki, zuhdi riyo yanglig‘ oson erur bu.

Zamon ahlida yo‘q vafo, ey Navoiy,
Tilab yo‘jni topmoq ne imkon erur bu.

512

Kofurgun libos aro ul sarvinaz ekinmu?
Yo sham’i hajr daf’ig‘a sham’i tiroz ekinmu?

Qatl aylarida dahr eli bosh qo‘ydilarmu erkin?
Yo qiblai jamolig‘a el sajdasoz ekinmu?

Yelmu nihollarni chamanda xam etti yoxud
Ul sarvinoz ollida ahli niyoz ekinmu?

Ko‘z bahru koni bo‘ldi nisor anga naqdi jon ham,
Bukim tarahhum etmadi, bilman bu oz ekinmu?

Yag‘mo solurg‘a har taraf otlandi ul sitamgar,
Ko‘nglum viloyati sari bu turktoz ekinmu?

Ushshoq ishq bodiyasin qat’ etarda oyo,
Ma’shuq ko‘i qasdlari yo hijoz ekinmu?

Ko‘nglung, Navoiyo, sochidin kech, yetar yuziga
Aqshom qorang‘u, yo‘lda nishibu faroz ekinmu?

513

Labingg‘a to yetibtur barmog‘im hayratdin erkinmu?
Ki, tishlarmen ani har lahza yo lazzatdin erkinmu?

Chaqilg‘ach barqi husnungkim, xaloyiqning ko‘zi yorur,
Mening o‘rtanmagim ul shu’la yo g‘ayratdin erkinmu?

Soching rangu isidinkim, dimog‘im bo‘ldi oshufta,
Bu savdodinmu erkin, yo‘qsa ul nakhatdin erkinmu?

Nasime yettikim ruhumni qildi toza, vah, bilmon
Ki, aning ko‘yidin yo ravzai jannatdin erkinmu?

Tanimda toshlar zarbi, ichimda neshlar zaxmi,
Junun bedodidin yo ishq aro shiddatdin erkinmu?

Tamug‘ o‘ti bu yanglig‘ tez ekinmu, ey ko‘ngul, yoxud
Anga muncha harorat shu’lai furqatdin erkinmu?

Bukim olam aro ishqim so‘zidin o‘zga so‘z yo‘qtur,
O‘tum ta’siridin erkinmu yo shuhratdin erkinmu?

Ichimda za'fedur, soqiy, qadah ber, garchi bilmonkim,
Xumor osebidin yo davr aro mehnatdin erkinmu?

Fano lofin urub o'zni ulusqa aylamak muhtoj,
Bu da'vo ichra kizbi mahz yo himmatdin erkinmu?

Menu mug' dayrikim, har soyil anda shah sari boqmas,
Degin, ey shayx, himmatdinmu yo shavqattdin erkinmu?

Navoiy ko'ngli yonib ishqidin kuymakni bas qilmas,
Nadomatdin anga yo ertagi odatdin erkinmu?

514

Oldi chun ilgiga ul huri sumanbar ko'zgu,
Aksidin qildi ayon ruhi musavvar ko'zgu.

Javhari husnin agar ko'nglida qilmaydur naqsh,
Ne uchun topti javohir bila zevar ko'zgu.

Uylakim oy quyosh ollig'a kelib bo'ldi munir,
Ro'baro'yungda qilur o'zni munavvar ko'zgu.

Orazing oyinasi hajrida ko'ksum bo'lmish,
Har taraf eski tugon birla sarosar ko'zgu.

Oy sari boqmayu xurshidni mir'ot etkim,
Ko'rguzur egri emas bo'lsa mudavvar ko'zgu.

Tilasang fayz ko'ngul ayla xavotirdin pok,
Aylamas aks qabul o'lsa mukaddar ko'zgu.

Mayda soqiy yuzi, soqiy yuzida may ko'rдум,
Ey Navoiy, bu safo qayda topar har ko'zgu.

515

Yuzung bayozida ul xoli mushkso hindu,
G'arib tushti Xo'tan kishvari aro hindu.

Ne xol erurki ko'ngulni rabuda aylab olur,
Kishi bu nav' qachon ko'rди dilrabo hindu.

Qora ko'zungki vafo aynidin manga boqmas,
Ajab emastur, agar bo'lsa bevafo hindu.

Tutub quyosh uza maskan solur jahong'a balo,

Yuz uzra xoling erur voqeai balo hindu.

Ko‘ngulni olsa malohat bila tafovuti yo‘q,
Xitoiy o‘lsinu yo armani va yo hindu.

Teng o‘ldi bulbulu zog‘ ushbu bog‘ aro, ya’ni
Fasohat ichra kachau yuzi qora hindu.

Navoiy etti o‘zin uyla turk hindusi
Ki, ahli Chinu Xito bo‘ldilar anga hindu.

516

Agar oshiq etsa visol orzu,
Ayon etmish o‘lg‘ay mahol orzu.

Anga baski qilg‘ay agar bersa dast,
Yiroqtin ko‘rarga jamol orzu.

Qurub og‘zim, istarmen ul chehrani,
Susiz aylagandek zulol orzu.

Sug‘a, yo‘qsa ko‘zguga solg‘il nazar,
Gar etsang o‘zungga misol orzu.

Ham oshufta, ham tiyradur bo‘lg‘ali
Zamirimg‘a ul zulfu xol orzu.

Quyoshdek manozil tay etmak kerak,
Ne rahravki qilg‘ay kamol orzu.

Navoiy tilar edi shomi qoshing,
Ulus aylagandek hilol orzu.

517

Ko‘zumdin uchti yana yorsiz bu shom uyqu,
Yana tong otqucha bo‘ldi manga harom uyqu.

Men uyqudin to‘ngulubmenki yor ketsa uchar,
Chu keldi xasta ko‘nguldin chiqar tamom uyqu.

El uyqusin agar ul sho‘x etmadi toroj,
Iki ko‘zinda nedur nozdin mudom uyqu.

Ne qushdururki uchib ishq hoyu-ho‘yidin,
Ko‘z oshyonida qilmas yana maqom uyqu.

Ko‘zungga sudi uchun naqdi jon beray, gar ul
Ko‘zumga ko‘z yumub ochquncha bersa vom uyqu.

Tushungga kirgali ul sho‘xi masti xobolud,
Tilarmen aylagamen tunu kun iltizom uyqu.

Birovga davlati bedor yor emas, ey shayx
Ki, sharhi voqea aylarga qildi kom uyqu.

Fasona boisnig‘aflatdur elga voizdin,
Nedinki kelturur afsonavash kalom uyqu.

Navoiy aylasa ko‘z to‘tiyosi gardi fano,
Ziyoni yo‘q anga bo‘lsa alad-davom uyqu.

518

Ey yo‘lungda podsholarg‘a gadolig‘ orzu,
Uylakim bo‘lg‘ay gadog‘a podsholig‘ orzu.

O‘qlar urdi zuhdu taqvo jonig‘a usruk ko‘zung
Kim, yana bo‘lmas kishiga porsoliq orzu.

Topsam ul begonavash bedodidin maxlas yana,
Qilmag‘aymen xo‘blarg‘a oshnoliq orzu.

La’lidin kom istadim, jonimg‘a yetti yuz balo,
Lek jonimdin kam o‘lmas bu balolig‘ orzu.

Evrulub ul tiflvash boshig‘a oyu kun qilur,
Ul anolig‘ orzu, bu bir atolig‘ orzu.

Andoq oldi dirlabolar ko‘nglini ul dirlabo
Kim, pariga emdi bo‘lmas dirlabolig‘ orzu.

Ko‘yida jonom fidosidur, bu ma’ni birlakim,
Ollida doim qilurmen jon fidolig‘ orzu.

Gar zamon ahli jafosig‘a chidarsen ista yor,
Chun topilmas, istama ani vafolig‘ orzu.

Davr elida chun safo yo‘q bazm davrinda magar,
Jom ichinda may ne qilg‘ay sen safolig‘ orzu.

Qaysi gumrah komili rahbar ayog‘i tufrog‘in,
To‘tiyo qildiki, qilmas rahnamolig‘ orzu.

Ey Navoiy, dahr bog‘ida chu yo‘q bargu navo,
Bargi faqr et, istama o‘zni navolig‘ orzu.

519

Firoqing ichra ishim iztirobdur asru,
Tarahhum aylaki, holim xarobdur asru.

Ko‘zumdin ashk tugandi, ko‘nguldin o‘t o‘chti,
G‘amingda bu iki beobutobdur asru.

Firoqing o‘tida ranjimg‘a yo‘q hisob, o‘lma
Bilurga ranjaki, ul behisobdur asru.

Jamol davrida ushshoq ko‘nglini asra
Ki, husn xaylig‘a oyin shitobdur asru.

Birorta shiftai jonu ko‘ngulga rahm ayla
Ki, bu xarobdur, ul bir yabobdur asru.

Angaki masjid aro yetmadi kushod, ne g‘am,
Yetishsa maykadag‘a fathi bobdur asru.

Navoiy andin erur g‘ussa tufrog‘i orast
Ki, ko‘nglin olg‘ali olijanobdur asru.

520

Qad ermas ravza sarvi nozidur bu,
Kalom ermas, Masih e’jozidur bu.

Dedim: ishqingda o‘lmak toptim anjom,
Kulub derkim, hanuz og‘ozidur bu.

Berur qatlimg‘a og‘zi va’da pinhon,
Mening birla nihoni rozidur bu.

Qilur qadding havosi ko‘nglum, ey sarv,
Biyik himmat qushi parvozidur bu.

G‘amingda may berur ko‘nglumga quvvat
Ki, furqat ahlining damsozidur bu.

Fano dashtig‘a ko‘nglum chekti tindim,
Ulustin, vah, ne dilkash yozidur bu.

Yuzung bog‘ig‘a bulbuldur Navoiy,
Navo qilsa, aning ovozidur bu.

HYe HARFINING HUMOYU NVAShLARINING HALOQANGIZLIG‘LARI «NAVODIR»DIN

521

Yusuf ermas chu malohatda jamolingg‘a shabih,
Husnungga ani malih o‘lmag‘ay etsam tashbih.

Odam asrorining ijmolini qilding tafsil,
Mundin erkinki deding alvaladu sirru abih.

Chun berur bog‘ gulu sho‘ra tikon, sen ochibon,
Lutfdin gul nechakim xori jafo ursa safih.

Vosil o‘ldi nafasing ruhini anglab orif,
Shar’ tuzdi, chu aning zohirini bildi faqih.

Andakim sen chekibon izzu nazohat etagin,
Yo‘q janobingda maloyikka mahalli tanzih.

Ham qamar shaqqnn ishorat bila aylab zohir,
Ham shajar mashshin irodat bila aylab tanbih.

Kimki sendin evurub chehra qora topib vajh
Kim, hadisingg‘a qilib ta’n debon betavjih.

Oy tulu’ etsa bo‘lur mehri jamoling zohir
Kim, bo‘lur fahm jamil ollig‘akim keldi karih.

Gar Navoiy sari mahsharda nazar aylamasang,
Saqaru nordek o‘lg‘ay anga xuldu mofih.

522

Tikmagaymen tig‘i zaxmin o‘lsam ul ozor ila,
Bo‘lsa Iso ignasi Maryam igirgan tor ila.

Dog‘lar shaklin kishi ko‘ksumda ko‘rsa fahm etar
Kim, baloni anda tigmishlar magar mismor ila,

Ko‘k ravvoqinda quyosh vasfini qilmang, chunki men
Ko‘yida xursand o‘lubmen soyai devor ila.

Yuzu zulfi ishqida kofir, mo‘min yo ahli din,
Buylakim muzhaf hamoyil qilmisham zunnor ila.

Sabzai xat yorutubtur orazing mir’otin, oh,
Ko‘zguga bu nav’kim bermish jilo zangor ila.

Sog‘inurlar qon ila bo‘lmish munaqqash kisvatim,
Har yon etsam azm bu uryon tani afgor ila.

Davr ayog‘in, soqiyo, xush tut, damekim yo‘qturur,
Xushlug‘um davr ahli, balkim gumbadi davvor ila.

Boru yo‘qning mehnatin chekmas bu davlat basdurud
Har kishi olamda qoni’ bo‘lsa yo‘qu bor ila.

Ko‘kka yetkay boshi qo‘yg‘an lahza shoh ollida bosh,
Gar Navoiy ichsa may shohi falak miqdor ila.

523

Ingali ko‘ktin balolar zinadur qilsang nigoh,
Hajr o‘tidin tortsam tobu shikanlik dudi oh.

Zulfining har halqasida bir shikandur uylakim,
Xafs zanjirida har tav’ ichra bir ahli gunoh.

Buki ohim tiyr boroni borur gardun sari,
G‘am sipohi ingali ko‘nglumga uldur shohroh.

Tig‘ surmay netsun ul qotilki turmay ikki ko‘z,
Qonima doril-qasosi ishq aro bo‘ldi guvoh.

Buki urdung boshima har tuk hisobi tig‘i javr,
Bo‘lsa bo‘lmas har sari mo‘ bo‘lsa bir til uzrxoh.

Dayr aro jon ber Masihi dam bila, ey mug‘bacha
Kim, xumor o‘lturgudek holimni aylabtur taboh.

Qirpigingdin qochti yuz sari Navoiy tong emas,
Xordin gar qilsa gul qolqonini bulbul panoh.

524

Gulgun yeng ichra ilgin ul mushkbo‘ g‘azola,
Yo rang qildi mushkin yo qo‘lg‘a tutti lola.

Oshufta sochin ul gul yig‘diyu tishlab o‘rdi
Garchi qilur parishon sunbulg‘a yetsa jola.

Sanchilmamish gajakkim jonu ko‘ngul chekarg‘a,
Oyirdi ikki qullob ul anbarin kulola.

Yuz davrida qirondur yo anjum injusidin,
Gardun terib mudavvar qildi qamarg‘a hola.

Yog‘liq ilikda tah-tahkim naqshi xat yozilmish,
Javru jafo fanida yozding magar risola.

Razzoq haqni angla har vaqtu har makonda,
Har kimga ro‘zi o‘lsa har xonda, har navola.

Faryodinga ul oy chun yetmaydur, ey Navoiy,
Nedur falakka har dam yetkurmak ohu nola.

525

Gar durdii xum bo‘lsun agar sof piyola,
Ichkum chu azaldin, manga bu bo‘ldi havola.

Tan shishasida umr mayi o‘ksusa g‘am yo‘q,
Ey soqiyi gulchehra, to‘la ayla piyola.

Sen may ichibu rost qilib soz ila ohang,
Men qon yutubu tortibon afg‘on bila nola.

Yuz taqviyu zuhd ahlin etar mastu parishon,
Ul nargisi sarmastu ul oshufta kulola.

Gulgashti chaman xushtur agar soqiyu mutrib,
Bu kelsa tuta-tutavu ul bir chola-chola.

La’ling mayidin bizga jigarxorliq o‘lmish,
Yo‘q chora nasib o‘lsa kishiga bu navola.

Ul zulfmudur ikki ko‘zung avjida yoxud
Gulzor ichida mushk sochar ikki g‘azola.

Holoki tuyassar bo‘lur ul may bila xushhol,
Nevchunki raqam qilmadilar umrg‘a hola.

Dayr ichra Navoiyg‘a qilur mug‘bachalar zulm,
Gar piri xarobot tutar jomi adola.

526

Men netib ishqida oqil bo‘layu farzona
Kim, parivashlar erur hasratidin devona.

Choklik ko‘ksum aro telba ko‘ngul turmas hech,
Garchi Majnung‘a vatan loyiq erur vayrona.

Sham’ girdida magar soyasi rashkidin erur,

Aylanib buki qanotin evurur parvona.

Oshno aylamak ul oyni ne mumkinki, sipehr
Mehr oyinndin aylabtur ani begona.

Dostonimni demang yorg'a, nevchunki gahe
Yig'latur, garchi gohe kuldurur ul afsona.

G'arqi may bo'lsam aningdek bu fano dayri aro
Ki, xubob uyidin-o'q bo'lsa manga mayxona.

Bir qadah birla Navoiyni bu dam tnrguzsang,
Netti, ey mug'bacha, to'lg'uncha anga paymona.

527

Zihi gul ichra kular chog' etib ayon g'uncha,
Chu yopilib qila olmay kishi gumon g'uncha.

Kularga xo'blar og'zidin og'zing o'ldi qarib
Ki, qilmpsham ochilurg'a yaqin nishon g'uncha.

Agarchi g'uncha aro gul nihon erur doim,
Vale yuzung guli ichra erur nihon g'uncha.

Ko'p o'ldn huqqai la'lingda xurdai ma'ni,
Qayu chamanda bo'lur muncha xurdadon g'uncha.

Bo'lurmu og'zing ila tengki rishtai duri bor,
Nechaki jolag'a qilsun o'zin makon g'uncha.

Varaq-varaq emas og'zida bargikim, og'zing
Chu nukta surdi yutar laxt-laxt qon g'uncha.

May ich bahor, xususanki la'lgun mayliq,
Surohi o'rtag'a kelturdi har qayon g'uncha.

Zamona bog'ida ko'nglum ajab tutulmish, lek
Ajab emasturur ochilsa nogahon g'uncha.

Navoiy o'lmaki mumkin emas, agar ichsa
Hayotbaxsh labing bodasini qong'uncha.

528

Sipehr saqfig'a oltun sutun bo'lur, ey moh,
Dameki charxqa cheksam g'amingda shu'lai oh.

Dedimki: o'lturasen ishq aro nedur gunahim,
Dediki: ishqdin ortuq yana bo'lurmu gunoh.

Demaki toza tugonlar guvohi ishqing erur,
Yuzi qoralig'i yolg'on bo'lurdin o'ldi guvoh.

Ko'zumga kirdi xayoling sirishk kasratidin,
Qachon yog'inda qilibtur kishi bulutni panoh.

Chu kuydi g'ayr xayoli ko'ngulga tushti xating
Ki, sabza xush ko'karur dasht aro, chu kuysa giyoh.

Fano yo'lidin agar yonsa rohrav ne ajab
Ki, yo'l maxufdurur anda yo'qturur hamroh.

Navoiy ar dedi, juz haq vujudi yo'q, ey shayx,
Ne yozg'urursen ani loiloha illalloh.

529

Qilmag'il borg'ali shitob yana,
Solma ko'nglumga iztirob yana.

Keldingu kulbam o'ldi qasri bihisht,
Qilma ani chiqib xarob yana.

Har dam ohim yeli chu eltur ani,
Solma ruxsor uza niqob yana.

Labi la'lingg'a o'xshamas yoqut,
Yana dur toshu la'linob yana.

Soqiyo, tut qadahki, ranji xumor
Qiladur jonima azob yana.

Maykada bog'liq erdi to'ktum ashk,
Onchakim bo'ldi fathi bob yana.

Ich Navoiy, qadahki tuzdi navo,
Bazm aro ud ila rubob yana.

530

Yorab, ul yuzni dame ko'zumga pinhon aylama,
Yo ko'zumni andin o'zga yuzga hayron aylama.

Chehrasiga mizbon o'lsun ko'zum, ul chehrani
Ko'zlarim uyidin o'zga uyga mehmon aylama.

Ochmayin zulfi parishon ko‘ngluma chekturma oh,
Yetmayin ohim yeli zulfin parishon aylama.

Jonima la’lidin o‘zga la’ldin berma hayot,
La’lig‘a jonimdin o‘zga Jonni qurbon aylama.

Boshima ko‘yidin o‘zga ko‘yni qilma vatan,
Ko‘yida boshimdin o‘zga boshni g‘alton aylama.

Ey ko‘ngul, davr ahlidin ming yilchilik yo‘l go‘sha tut,
Yo alardin yetsa yuz ming g‘ussa afg‘on aylama.

Istasang, ey gul, Navoiydek hush ilhon bulbule,
G‘unchadek ko‘nglun malomat xoridin qon aylama.

531

Ochib ko‘ksum shigofin ayladim ko‘nglumni nazzora,
Erur yuz poravu g‘am tig‘idin ming yora har pora.

Ne tosh uryon tanimg‘a urdi ko‘ksum chokiga soldim,
Meni bedil ko‘ngul kasb ettim, aning ko‘nglidek xora

Tanim chun ishq asiri aylading, man’ etma ohimni,
Chu qil o‘t uzra tushti, dud qilmoqtin emas chora.

O‘tarsen o‘ynay-o‘ynay, men gadoyi xasta yo‘l uzra,
Qolurmen bir qiyon boqmoq uchun yolbora-yolbora.

Ulumdin hajr dushvor o‘lmasa dard ahlig‘a nevchun,
Ajal Majnunni asrab aylagay Laylini ovora?

Kishi may yutsa, ko‘nglum ani qon yutqon gumon aylar,
Su ichkanni may ichkan sog‘inurkim, bo‘lsa mayxora.

Qo‘ngul sargashtalikdin bo‘ldi yo‘q og‘zing kebi, go‘yo
Ani charx aylagandur g‘uncha yo‘nmoqliqqa inkora.

Malak taslimi shayton kibridekdur buki, aql o‘zin
Qilib ma’muri amr istar amorat nafsi ammora.

Navoiy ko‘ksini chok etti hajr andoqki fahm etkay,
Taxayyul hay’atin ko‘ngul aro kim qilsa nazzora.

532

Yana zulfung buzug‘luq soldi ko‘nglum xonumoninda,

Yilon andoqki solg‘ay qo‘zg‘olon qush oshyoninda.

Ne qotildur ko‘zungkim, to‘ksa qon Bahrom shaklidur,
Taammul qilsalar maqtulning har qatra qoninda.

Bihamdillah, ko‘zu ko‘nglumda sen yo‘q ersa topilmas,
Seningdek gavhari pokiza olam bahru koninda.

Jahon ahlig‘a jon har nechakim topmas omon sendin,
Sen, ey jonus jahon, yo rabki, bo‘lg‘il haq omoninda.

Yuzungkim bo‘ldi maydin la’lgun, o‘lmish iki zulfung
Ul iki lomdekkim la’ling bor ikki yoninda.

Nachuk sirrin dey og‘zingningki tanda g‘unchadek ko‘nglum
Erur pinhon ul pinhon aning sirri nihoninda.

Yozilg‘on jon aningdekkim alifsiz, nuqtasiz bo‘lmas,
Erur xolu qading naqshi bu zoru xasta joninda.

Zamoni husng‘a chun bo‘lmadi rasmi vafo hargiz,
Vafo rasmin g‘animat anglag‘il husnung zamoninda.

Ne husnung nisficha Shirinu Layli husnida mumkin,
Ne ishqim juzvicha Farhodu Majnun dostoninda.

Muruvat rangiyu insof isi ko‘z tutmag‘il eldin,
Bu rangu bo‘yluq gul yo‘q chu olam gulsitoninda.

Qilur ko‘yida it qatli Navoiy telmurur mahrum,
Nedinkim ermas ul yor ollida bu hayl soninda.

533

Manga may o‘lmadi ro‘ziy tarab ayog‘inda,
Tarabdurur icha olsam iting yalog‘inda.

Ko‘p og‘zin ochqilu may tobidin mulohaza qil,
Hayot suyi nachukkim Xizr bulog‘inda.

Firoq kunjida topsam qadah, bo‘lay bexud,
Nedinki ko‘nglum ochilmas farog‘ bog‘inda.

Tag‘orliq may erur havzi kavsar, ey zohid,
Chibinlar o‘ldi maloyik aning qirog‘inda.

Buyurdi tavba yigitlikda ishqu maydin shayx,
Kishi chekarmu riyozat nishot chog‘inda.

Vafo nasimi tama' qilma guldin, ey bulbul
Ki, yo'q Masih dami eski dahr bog'inda.

Navoiy o'lmag'usi xonaqah sari moyil,
Nedinki maykada atri durur dimog'inda.

534

Hudhud eltur dardlig' payg'omim ul oy qoshig'a,
Sanchibon xudrang ruq'am payk yanglig' boshig'a.

Bas munosibdur sen o'rghanmak uchun, ey navhagar,
Baytlarkim yozdilar dard ahli qabrim toshig'a.

Holini chekkan munajjim hukmin aylar qon aro,
Kimki ko'rgay aksini boqsa ko'zumning yoshig'a.

Yuz ajab suvrat ko'rар ko'rgan yuzungning suvratin,
Chehra ochmoq xatm bo'lmish suvrating naqqoshig'a.

Har tun aqshom pardai jondin qilay dermen qanot,
Boshig'a evrulmak uchun ko'yining xaffoshig'a.

Shayxqa tasbihining har donasi bir qayd erur,
Xatmdur ozodalig' guyi fano qalloshig'a.

Mehmon bo'lsang Navoiyg'a nisor aylar uchun,
Obro' bo'lg'ay ko'zining mardumi durposhig'a.

535

Fig'onki, umrum o'tar tunu kun xayol bila,
Xayol orasida yuz muvahhish ehtimol bila.

Ul oy xayoli bila telba bo'lmisham kechalar,
Javob birga eshitmon tuman savol bila.

Chu topmon ul gul isin subhu shom bo'lmishmen,
Gahi sabo bila vahshatda, goh shamol bila.

Misoli mumkin emas tortmoq musavviri aql,
Yo'q ersa qoni' o'lur erdim ul misol bila.

Xayol ila dog'i gustoxliqqa zahram yo'q,
Menu firoq, manga, vah, ne ish visol bila.

May ichki, umri abad topsang arzimas angakim,

Dame zamona aro bo‘lg‘asen malol bila.

Chu ishqu may meni holimg‘a qo‘ymas, ey nosih,
Netib salo tariqin tutay bu hol bila.

Chu bo‘ldi dayri fanoning gadoyi ayb etmang,
Agar may ichsa Navoiy sinuq safol bila.

536

Nomai shavqum kishi arz aylay olmas yorg‘a,
Bas g‘alat bo‘lg‘ay javob etmak tama’ men zorg‘a.

Rashkdin dermenki, panjamni solib toshlay chekib,
Ko‘yida har necha shakli cheksalar devorg‘a.

Istaram har halqasi bo‘lg‘ay mening bo‘ynumg‘a tavq,
Gar tushar yuz halqa bandi zulfidin har torg‘a.

Zarnishon tig‘i kerak bo‘ynumg‘a osmang zinhor,
Za’faron birla qilich shakli chekib tumorg‘a.

Orazu zulfung g‘amidin kofiri ishq o‘lg‘ali,
Butqa bosh indurmanu sunmon bo‘yun zunnorg‘a.

G‘am xumoridin base badhol o‘lubmen, ey rafiq,
Chek meni har hol birla kulbai xammorg‘a.

Muncha xorij nag‘makim davri muxolif ko‘rguzur,
Ey Navoiy, topmadim birin boqib advorg‘a.

537

La’li serobingdin ul yanglig‘ kelur jon og‘zima
Kim, agar xud tomizurlar su totir qon og‘zima.

Novakingdin ko‘nglum andoq to‘ldikim chekkanda oh,
Zor ko‘nglumdin kelur har lahza paykon og‘zima.

Bodai hajr andoq achchig‘durki, ani ichkali
Zahr o‘lur gar xud yetishsa obi hayvon og‘zima.

Vasl no‘shin chunki totmay men mazoqim tonimas,
Lek anglarmen yetishkach zahr hijron og‘zima.

Garchi ko‘p qon yutmisham aylar talofi barcha umr,
Umr o‘tub bir yetsa ul gulbargi xandon og‘zima.

Jon berib ul za'fni topmanki jonbaxsh ernidin,
Kasbi quvvat sharbate yetkursa jonon og'zima.

Davr ayog'in, soqiyo, tutg'onda la'ling qil gazak
Kim, mayi yetkurmamish juz zahri davron og'zima

Bag'rimu ko'nglum aro mundoqki soldi la'ling o't
Dam yeriga g'ayri o't kelmak ne imkon og'zima.

Ey Navoiy, ishq dardi ko'rgan el jonin olur,
O'z o'lar dardim demakta kelsa afg'on og'zima.

538

Chiqti paykoning ko'nguldin ohi dard olud ila,
Shu'la o'ttin ayrilib andoqki chiqqay dud ila.

Yuz qo'yub tufroqqa gard olud etar yuz ahli din,
Har qayon yuz qo'ysang ul ruxsori gard olud ila.

Zulfi savdosi meni sudu ziyondin qildi fard,
Menu ul savdo, ishim yo'qtur ziyonu sud ila.

Aysh ravshan subhi vasl ahlig'a bo'lsun, chunki men
Mehnat ichra o'rganibmen shomi qiyrandud ila.

G'ussa gardidin yetar el jonig'a farsudalig',
Har qayon mayl aylasam bu jismi g'amfarsud ila.

Bud ila nobud chun huznu tarabqa arzimas,
Shod bo'lma bud ila, g'am ham yema nobud ila.

Mayg'a ohang et, Navoiykim, mug'anniy har zamon
Aysh tahrisin ayon aylar lisoni ud ila.

539

Mushkin xating ul yuz kebi gulgun varaq ichra,
Tun anbari go'yoki sochildi shafaq ichra.

Jon sabzai xattingg'a fidokim ko'runur xush,
Zangor ila xat hay'ati gulgun varaq ichra.

Bog' ichra kelursen deb erur muntazir iynak,
Gullar solibon naqdini har yon tabaq ichra.

Hijlatda ne terlarki kavokibdin oqizdi,
Oy ko'rdi chu xurshidi jamoling araq ichra.

Oldi sabaqi ishq yuzung lavhida ko‘nglum,
Har kun o‘qug‘on nuktasi yo‘q mosabaq ichra.

Ummidiki haq etkay aning sa’yini botil,
Har kimki nihon ayladi botilni haq ichra.

Ishq o‘tida gar aqlni xas dedi Navoiy,
Yo‘q kimsaga so‘z mas’alai muttafaq ichra.

540

Istaram yetsam quyundek gul uzorim qoshig‘a,
Ollida tufrog‘ o‘lub evrulsam aning boshig‘a.

Xora uzra lola butkondek erur har yerda qon,
Boqsalar jismimga otqan har malomat toshig‘a.

Ko‘zlaridin yosh oqizg‘an, balki qon beixtiyor,
Har kishikim solsa ko‘z giryon ko‘zum qon yoshig‘a.

Ishq dashti zog‘ining minqoridur yoqutrang
Go‘yiyo tushkan durur la’ling haloki loshig‘a.

Ko‘zlarim qilsun hadaf, kirpiklarim etsun qalam,
Bo‘lsa dur boisti zebo suvrating naqqoshig‘a.

Ko‘p tajammul sotmag‘il, ey charxkim, har kavkabing
Bir diramcha yo‘qturu dayri fano qalloshig‘a.

Har guharkim vasfida sochti Navoiy nazmidin,
Ul pari devona deb bir tosh otar podoshig‘a.

541

Firoq soldi bir o‘t jismi notavonimg‘a
Ki, o‘rtanur kishi so‘rmoqqa kelsa yonimg‘a.

Ne ayb zor tanim kuysa dog‘i xas yanglig‘,
Bu shu'lalarki aning hajri soldi jonimg‘a.

Tahayyul ayladi Farhodu Vomiqu Majnun,
Chu boqtilar alamangez dostonimg‘a.

Aning tufayli sanamlar yuzun ko‘rarmen, lek
Muni kim ayta olur sho‘xi badgumonimg‘a.

Ko‘ngul shikoyatidin yuz risola yozmishmen

Kim, aylagay bu risolatni dilsitonimg‘a.

Ichurdi mug‘bacha dayr ichra obi otashrang
Ki, shu’lasi aning o‘t soldi xonumonimg‘a.

Ne sud elni kar etsa Navoiy afg‘oni,
Chu yor solmadi hargiz quloq fig‘onimng‘a.

542

Hargiz ermas husn ul mehri jahon oroycha,
Mehr aning ollinda, mehr ollinda bo‘lg‘ay oycha.

Bir-biri uzra necha yo ko‘rguzur qavsi quzah,
Boshqa-boshqa ermas ul ikki muanbar yoycha.

Og‘zig‘a yetkach shakar su bo‘ldi ne nav’, ey ko‘ngul,
Bas bo‘la olg‘ay shakar ul la’li shakkarxoycha.

Gar mufarrih o‘lsa yoquti labing jonbaxsh erur,
Ul bo‘la olg‘aymu yoquti mufarrihzoycha.

Layliyu Shirin sitam aylarda o‘z ushshoqig‘a
Hargiz ermas erdilar ul sho‘xi beparvoycha.

Gar farog‘at mulki istarsen may ichkim, bo‘lmadi
G‘amsiz o‘lmoqliqda shah rindi qadahpaymoycha.

O‘kma bulbulniki, ul gul hajrida har kechalik
Nolasi ermas Navoiy tortqan bir voycha.

543

Ko‘nglumda dog‘ sham‘i jamoling xayolida,
Andoqki hol har sori parvona bolida.

Yilda besh-o‘n kun o‘ldi nihol uzra gul, valek
Gul keldi to‘rt faslida qadding niholida.

Sharbatdurur labingki chuchuk jon ezildn ko‘p,
Serob o‘lurda chashmai no‘shung zilolida.

Hijron marizidur ko‘ngul, ey rahmsiz ajal,
Bir dog‘i yetmading boshig‘a, bu malolida.

O‘t uzra tushti nuqtai anbarki chiqtidud,
Tuk kim zuhur qildi yuzi uzra xolida.

Davron falakka cheksa seni emin o‘lmaq‘il
Kim, yetkurur zavol quyoshning kamolida.

Taqvoyi zohirig‘a, Navoiy, ne e’tibor,
Hayrondurur chu aqli, kul aning maolida.

544

Ey sabo, holimni arz et gul ruxi tannozima,
Egma qaddimning salomin ayt sarvinozima.

Ayt: ko‘ptin ko‘pu ozdin oz ashkim sharhini,
Dardu sabrim naqdi sadqang boqma ko‘pu ozima.

Chunki o‘lgum yosurun ishqim bayon qil shammae,
Voqif etma lek ishq ahlin bu maxfiy rozima.

Novakandozimki elni yiqtin ko‘p andozadin,
Vahki, emdi tortmish novak mening andozima.

Ul kabutarg‘a fido janimki, shavqum nomasin
Qilsa taslim eltibon sho‘xi kabutarbozima.

Changdek g‘am bazmida qaddim xam o‘ldi, ey rafiq,
Ashk har toridin ortar nolae bu sozima.

Ey Navoiy, ishq aro qochma balodan zinhor,
Chunki oshiqqa balokashlik kelibtur lozima.

545

Ko‘zlarida ishqdin su erdi uyqu o‘rnida
Turfa ko‘rkim hajrdin qon bo‘ldi ul su o‘rnida.

Kimgakim kirpik o‘qin yog‘dursa ul gul rashkdin,
Jismim ichra bir tikondur har sari mo‘ o‘rnida.

G‘ayr naqshidin qilibmen pok ko‘nglum safhasin,
Tut ul oy ollida, ey mashshota, ko‘zgu o‘rnida.

Shahsuvorimning ayog‘in o‘pkali rozigurur,
Oy bila kun har birisi bir tepingu o‘rnida.

Iztirob etsa qoshing ko‘rgach ne tong shaydo ko‘ngul,
Telbakim ko‘rdi yangi oy o‘ltururmu o‘rnida.

Dahr bo‘stoni aro barqu bulutdin angladim,
Yig‘lamoq yuz qatladur bir qatla kulgu o‘rnida,

Ey Navoiy, dersen: ul qomatni ko‘nglungdin chiqar,
Ne nihol o‘lturtayin ul sarvi diljo‘ o‘rnida.

546

Yordin yaxshi emas aylamagi yor gila,
Yo‘qsa ul yordin erdi manga bisyor gila.

Buki ag‘yorg‘a mendin gila izhor etti,
Har necha aylasam izhor yana bor gila.

Ko‘rubon g‘ayrig‘a lutfungni agar dam urmon,
Dema, yo‘qtur gilalik, aylamon izhor gila.

Ko‘p jafosidin agar o‘lsam erur turfa bukim,
Yana mendin qilur ul sho‘xi jafokor gila.

Xirqa ko‘ydurdi xumor o‘tig‘a qilma, ey shayx,
Ani qilsam garavi kulbai xammor gila.

Chun azal qismatidin hech nima xorij emas,
Aylamas foqasidin voqifi asror gila.

Ey Navoiy, desang oyini rizo hosil etay,
Yordin har ne kelur aylama zinhor gila.

547

Iltifot etti bukun men qulg‘a ul shoh o‘zgacha,
O‘zgacha anglabmen o‘z holimni billah o‘zgacha.

Goh o‘zumdamen, gahi beholmenkim, ul pari
Goh yaxshidur meni majnun bila, gah o‘zgacha.

Holim o‘lsa o‘zgacha Farhodu Majnundin ne tong
Kim, erur Shirinu Laylordin bu dilxoh o‘zgacha.

Gar damnmdin chiqsa o‘t demangki, tortar har dam oh,
Kuygay ohimdin falak, dam o‘zgadur, oh o‘zgacha.

Ne ajab gar o‘zgacha sayr etsa hayratdin sipehr,
Yuzni may ta‘siridin qilg‘onda ul moh o‘zgacha.

Vasli holimg‘a berur tag“yir andoqkim bo‘lur,
Bu zamonda ulki topqay davlatu joh o‘zgacha.

Mehr zohir aylasa, aylar Navoiy vahmkim,
Charx davri qilmag‘ay ul oyni nogoh o‘zgacha.

548

Vahki, umrum barcha zoyi’ bo‘ldi el komi bila,
Bodai nob o‘rnida xunoba oshomi bila.

Kimsa yuz yil komronliq qilsa bilkim arzimas,
Dahr aro bir lahza bo‘lmog‘liq birov komi bila.

Zahrni o‘z komi birla ichsa andin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomlig‘ jomi bila.

Yuz dilorom aylagandin ravza habsi, yaxshiroq
Bo‘lmoq o‘z vayroni ichra ko‘ngli oromi bila.

Ey ko‘ngul, el subhi ayshi sari boqma, xo‘y qil
Fardliq vayronida mehnat qora shomi bila.

Qushqa yung maskan aro xushroq durur ozodlig‘,
Bo‘lg‘anidan band aro sayyodi ipak domi bila.

Bo‘lmoq itlar mun’imi tan tu’ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilg‘uncha samin nokaslar in’omi bila.

Johu markab birla, ey kim, bormading maqsad yo‘lin,
Qat’ o‘lur beto‘shalig‘ zodi fano komi bila.

Ey Navoiy, huzn ila o‘tkar qarilig‘ mehnatin,
Chun yigitlik bordi ayshu ishrat ayyomi bila.

549

Mehrida men xastaning har lahza holi o‘zgacha,
Lek ul badmehrning har dam xayoli o‘zgacha.

Gulbun o‘ldi past vard asru biyik, billahki, bor,
Sarvi gul ro‘yim qadining e’tidoli o‘zgacha.

Bog‘ naxlining qadingdek boshida gul butmamish,
Husn bog‘ining bo‘lur ermish niholi o‘zgacha.

Har zamon la’ling mayi yodi ko‘ngulni mast etar,
Ani har dam aylar ul fikri muholi o‘zgacha.

Ey musavvir, aylasang taqlid jonon suvratin,
Chekmagil jonkim erur aning misoli o‘zgacha.

Gar guli ra'no qizil, sarig‘ ko‘runur vajhi bor,
Har dam aylar ani chehrang infioli o‘zgacha.

Taqvi ahlidek borib mug‘ dayrida yo‘l topmaduq,
Soqiyo, may tutki bu qatla boralı o‘zgacha,

Xonaqah ahlig‘a, ey zohid, meni o‘xshatmakim,
Zuhd eli bor o‘zgacha, rind louboli o‘zgacha.

Ikki dunyodin kechib yor istagan topmish visol,
Ey Navoiy, kelki yo‘qtur ehtimoli o‘zgacha.

550

Solib qon oncha qo‘ydung dog‘ bu jismi figor ichra
Ki, oncha dog‘ ila qon bo‘lmag‘ay bir lolazor ichra.

Qushekim tushsa, ohim girdbodidin chiqqa olmas,
Birov yanglig‘ki qolq‘ay eshiki bog‘liq manor ichra.

Iki ruxsori ikki zulf yopqondin nihon ermas,
Nachukkim shu’la dud ichra quyosh yoxud g‘ubor ichra.

Yuzung shavqida ashkim ko‘zlar ichra jola bog‘lanmish,
Yog‘in ul nav‘kimdur bog‘lag‘ay abri bahor ichra.

Qolibtur anbarin zulfung ichinda bog‘lanib ko‘nglum,
Kiyikdin qatra qon qolq‘on kebi mushki totor ichra.

Qiziq ko‘nglumdagı paykonlari dardin ne fahm etkay,
Angakim qatralar xaydindurur o‘luq uzor ichra.

Chu o‘ldum hasratidin shoyad o‘lgan chog‘da ko‘rgaymen,
Meni sudrang gadolar ko‘yida bir rahguzor ichra.

Gar ul shah bazmida bir jur‘a may topmon ajab ermas
Ki, may sho‘xi kiriptur shiradin muhkam hisor ichra.

Menikim aylamish ul mug‘bacha ishqı mayi maxmur,
Magar ham dayr piri chora qnlg‘ay bu xumor ichra,

Vafo aylarda elga ro‘zgoring aylama zoe‘
Ki, ulkim sen tilarsen yo‘qtur ahli ro‘zgor ichra.

Navoiy, gar falak davri sanga yetkurmas ul oyni,
Ne chora chun sipehr ermas kishiga ixtiyor ichra.

Va'da aylab vasl jismi notavonim o'rtama,
Kelmagungdur, intizor o'tig'a jonim o'rtama.

Ishq o'ting o'rtadi basdur yana jonim aro,
Dog'i hijron har dam, ey nomehribonim, o'rtama.

Jonni olding, solma oxir notavon jismimg'a o't,
Nakdi jon yag'mog'a bordi, xonumonim o'rtama.

Novakingning kasratidinkim, nayistondur ko'ngul,
O't olib kirma qamishqa, naysitonim o'rtama.

Jonima o't soldi ishqing, bal jahonim o'rtadi,
Rahm etib mundin nari jonu jahonim o'rtama.

Har nafas kundurma bir o't birla, ey gardun, meni
Kuydururga har dam aylab imtihonim o'rtama.

Qilma nisbat xo'blar birla Navoiy deb meni,
Tuhmat aylab har zamon, ey badgumonim, o'rtama.

Vahki, kelturdung firoqingdin balolar boshima,
Ul balolardinki qochtim, keldi alar boshima.

Zaxm agar bo'lsa boshimning har tuki soyi ne tong,
Muncha toshkim yog'dururlar dirlabolar boshima.

Sarv qadlarning tamannosi boshimdin chiqmag'ay,
Qahr etib, ey shayx, sindursang asolar boshima.

Ko'rmayin ko'zlar qachon keldi boshimg'a yuz balo,
Ko'r, nelar kelturdi bu yuzi qorolar boshima.

Ishq aro gah-gahki el pandig'a bosh indurmadi,
Keldi turluk-turluk andin mojarolar boshima.

Muddaolar boshima tushkuncha har dam aqldin,
Kelsa xushroq ishq tig'idin yarolar boshima.

Ko'yida o'ldi Navoiy, qochti andin itlari,
Yo'q edi o'lganda yoru oshnolar boshima.

Men o'lsam aylamang ul tiflg'a xabar nogah
Ki, vahm o'luktin anga qilmag'ay asar nogah.

Tutay firoq tuni g'ayridin nihon o'zni,
Netay chiqar esa oh o'tidin sharar nogah.

Netayki, bag'rim erur pora-pora, vah, naylay,
Yugursa ashk ila pargolai jigar nogah.

Dediki, shom kelay ko'nglum ichra o'tdurkim,
Bahona qilmag'ay ul sham'i siymbar nogah.

Jahonni kuydurur ohim o'ti balo bo'lg'ay,
Bu o'tdin etmasa majnunvashim hazar nogah.

Zamona bog'ida ekting niholi mehr valek,
Netarsen o'lsa nadomat sanga samar nogah.

Navoiy, ulcha kerak aylading ne qilg'aysen,
Ishingni adl bila so'rsa yor agar nogah.

554

Dayr aro to aylading ko'nglumni zor, ey mug'bacha,
Kufr ila zunnor qildim ixtiyor, ey mug'bacha.

Demakim, gar istasang ko'nglumni, butg'a sajda qil,
Sen borinda butqa xud, ne e'tibor, ey mug'bacha,

Dayr pirining muridimen, sening ham oshiqing,
Yo'qsa din ahlig'a dayr ichra ne bor, ey mug'bacha.

Ahli islom ichra nogah chiqma sarxush dayrdin,
Yuz xalal din ichra qilma oshkor, ey mug'bacha.

Kecha sham'u may bila qoshingg'a kelgumdur deding,
Subh bo'ldi necha tortay intizor, ey mug'bacha.

Turrani oshufta etma ochibon marg'ulasin,
Qilma ko'nglumni parishon ro'zg'or, ey mug'bacha.

Hashr subhigacha mast o'lg'um gar etsam bir sahar,
Bodai la'ling bila daf'i xumor, ey mug'bacha.

Dayr piri savlati man' etmasa har dam qo'pub,
Boshingga evrulgamen devonavor, ey mug'bacha.

Mast agar o'lsam asog'a bog'labon zunnorni,
Qil alam ko'ying aro aylab mazor, ey mug'bacha.

Buzma ko'nglum kishvarin bedod birlakim, emas
Husn mulkining binosi poydor, ey mug'bacha.

Asru g'amgindur Navoiy may tila, ey piri dayr,
Bo'l anga soqiyliq aylab g'amgusor, ey mug'bacha.

555

Qoshining yoyi chekilmish zulfi chavgonig'acha,
Zulfi chavgoni dog'i go'yi zanaxdonig'acha.

Demangiz mushkin bulutkim bo'ldi ko'k toqi qora,
Baski ohim dudi bordi charx ayvonig'acha.

Ichkali so'zon ko'ngul qonin o'qung ochti og'iz,
O't tushub suforidin kul bo'ldi paykonig'acha.

Ko'p yoshurdim holim, oxir chok etib ko'ksumni ishq,
Oshkor etti ko'ngulning dog'i pinhonig'acha.

Bo'lmasun darde itinggakim bag'irni tashlag'ach,
Yedi har yondin uzub yerdin yalab qonig'acha.

Tushti go'yo bulbul afg'oni muassir gulgakim,
Chok-chok etti giribonini domonig'acha.

Bo'lg'aningda mehmon o'lsa Navoiy, ne ajab,
Chekti chunki ollinga boru yo'qin jonig'acha.

556

Guli ruxsoring aro bo'lg'ali pinhon g'uncha,
Rashkdin bog'da pinhon yutadur qon g'uncha.

G'uncha serob bo'lur, lek og'izu la'lingdin,
Oshkor ayladi sarchashma hayvon g'uncha.

Topmay og'zingni ovunmoq tilasam gulshan aro,
Sanchilur ko'ngluma ul nav'ki paykon g'uncha.

Ko'z yoshimdin agar og'zingda erur kulgu ne tong,
Chun bo'lur necha bulut yig'lasa xandon g'uncha.

Gul yuzi vasli ila ko'nglum ochilmas, garchi
Dard bog'ida ani ayladi hijron g'uncha.

Ochmadi juz guli dard onchaki bedil bulbul,
Qildi ko'ksida ko'ngul o'rnida pinhon g'uncha.

Do'stlar vasl o'tin istarga Navoiy bormish,
Fosh qilmang bu hadisini aning yong'uncha.

557

Topib hayoti zuloli xating qorasinda,
Yozildi oyati rahmat yuzung safosinda.

Iki labing yopishurlar, gar obi hayvondin
Rutubat o'lmasa ul ikkining orasinda.

Ne nutq ila ne ado topti ruhbaxsh labing
Ki, ruhi notiqa ojizdurur adosinda.

Firoq biymi durur choklik ko'ngulda ne tong,
Gar o'lsa ulki qilich zaxmidur yarosinda.

Ko'zung otib manga novak xato qilur amdo,
Tirikligimga xatodur aning xatosinda.

Dedimki, umr vafo qilsa dahr ham qilg'ay,
Valek bahsdur ul ikkining vafosinda.

Navo ming aylasa bulbul Navoiy ortuq emish
Ki, munglar o'ldi adadsiz munung navosinda.

558

Gar necha chavgong'a birdur go'y el maydonida,
Necha go'y o'lmish tugundin har soching chavgonida.

Uyla ablaq tund surdikim, kira olmas quyosh,
Tun bila kundin qilib markab aning maydonida.

Har taraf boqsangki ko'nglum qoni qaynar g'ussadin,
Bu harorat rashk o'tidin tushti ko'nglum qonida.

Sarsaru bahr ohu ashkimdin taajjub aylamang
Kim, yo'luqmaysiz hanuz ul ikkining tug'yonida.

Hajr aro g'amgin esam tong yo'qli, vaslida aning
Necha toptim shodlig'kim, topqamen hijronida.

Ko'zu ko'nglumdin o'qin chekkan qora topsang bashoq,

Ko‘z savodiyu ko‘ngul dudidurur paykonida.

Eyki, dersenkim falakdin ko‘rmayin sargashtalik,
Davr ayog‘in solma ilgingdin aning davronida.

Bevafolig‘ tong emas eldinki dehqoni azal,
Ekmadi aslo vafo naxli jahon bo‘stonida.

Ey Navoiy, tut butun bu ahd aro paymonani,
Chun butunluk yo‘qturur el ahd ila paymonida.

559

Bo‘lsam ul qotil shahidi hasratu hirmon bila,
Bir qilich torting mazorim lavhi uzra qon bila.

Bir fatila anglag‘il marham bila ul sho‘xdin,
Jong‘a har momuqki chirmang‘on kelur paykon bila.

Cheksalar tandin o‘qin chun ul chiqar, jon ham chiqar,
Uydin el chiqqan kebi ta’zim uchun mehmon bila.

Qoshi gar ko‘nglumda kuymak boisidur, ayb emas,
Yoy agar bo‘lsa bo‘lur o‘t bargi ham qurban bila.

Ishq dashtining sumumidin degay bo‘lmish quyun,
Hajr o‘tin boshtin ayoq ko‘rgan bu sargardon bila.

Do‘zax ahli g‘am yemangkim, do‘st rahmi kelgudek,
Qelgum ul yon ohu ashkimdin ajab to‘fon bila.

Ey Navoiy, itlariga tu‘madur bois o‘lub,
Yor agar istar ko‘ngul taslim qilg‘il jon bila.

560

Ey niholi qomating sarsabz jon bo‘stonida,
Jilvasidin vola o‘lmoq sarvu to‘bi shonida.

Qoshlaringdur go‘yi ikki hinduiy otashparast,
Mayl qilg‘on sajdag‘a o‘tluq uzoring yonida.

O‘lsam olmang ul parivash toshlarinkim tutti yer
Kim, erur jonlar bu majnunning tani uryonida.

Qolqig‘ay har sari gardun bir mujavvaf go‘ydek,
Hajr shomi tushsa ashkim saylining tug‘yonida.

La’li hajrinda bag‘ir pargolasidur istasang,
Ko‘z yoshimning la’lgun har qatra tomg‘an qonida.

Chun falak davronig‘a yo‘q e’timode, ey quyosh,
Mehr ko‘rguzmakni xo‘y et ho‘bliq davronida.

Bazl ilgin yuqori soyil qo‘lin ko‘rgil quyi,
Teng bo‘lurmuhu termaku sochmak xirad mezonida.

Shomi hajr ermas hamonokim, chu zolimdur sipehr,
Tushti mazlum ohi aning kulbai ehzonida.

Ul Masih anfosqa yoqmas Navoiy, ne osig‘,
Nag‘mai Dovud agar zohir qilur afg‘onida.

561

Dog‘i qonin ko‘rguzur Majnun mazzallat sholida,
Holidin humrat kebi parvonaning har bolida.

Za’f ko‘rgilkim qalamda nollar siqqan kebi
Necha mendek ham sig‘oolur aning har nolida.

Suvratin kog‘azda ko‘rgach, bordim o‘zdin, vah, o‘zin
Ko‘rgach o‘lgum, chunki bexudmen aning timsolida.

Har dam o‘zga shakl birla jilva aylar, vah, ne tong,
Bor esa ko‘nglum gahi beholu gah o‘z holida.

Va’dai qatl ettiyu ehmol etar o‘lturdi fikr
Kim, tarahhum yoxud istig‘nomudur ehmolida.

Subhidam kirdim xarobot ichra chiqti piri dayr,
Bor edi yuz fayz aning ruxsori farrux folida.

Ey Navoiy, ul yigit oyu quyoshtin tug‘dimu,
Kim anga loyiq bu voliddur dag‘i ul volida.

562

Savodi xoli aning xatti mushkbor ichra,
Magarki zog‘ yoshunmish binafshazor ichra.

Degayki, gulshani jannatda ochilibdur gul,
Kishiki may gulini ko‘rsa ul uzor ichra.

Jamoli ko‘zgusi ichra sarig‘ yuzum aksi
Ajab xazone ayon aylamish bahor ichra.

Qoshing xayolini xoki tanimda anglamas el,
Hilol ru'yati mushkuldurur g'ubor ichra.

Labingda jismi zaifim so'zi erur ul nav',
Kirishta o'tkarilur la'li obdor ichra.

Fidosi mug'bachaning naqdi dinu imonim,
Mayi mug'ona manga tutsa bu xumor ichra.

Demak ne sud Navoiyg'a o'rtagum dog'i,
Chu kuydi joni aning dog'i intizor ichra.

563

Ro'zgorim chun qorordi shomi hijroni bila,
El ko'zin yorutsa naylay mehri raxshoni bila.

Ne labidin kom erur mumkin, ne andin kechmakim,
Kimsa mendek bo'lmasun darmonda o'z joni bila.

Yuzga solsa ko'nglum ahvolin manga yo'qtur gunoh,
Ko'z yoshimkim bulg'oshib chiqsa bag'ir qoni bila.

Rahm ko'rguzgay azob aylar malak, gar oshiqing
Kirsa do'zaxqa yarolig' jismi uryoni bila.

Olti oyliq Nuh to'fonicha buzg'ay dahrni,
Olti kun qolsa ko'zum yoshi bu tug'yoni bila,

Husn bog'inda ko'ruba zulfa qadingni bog'bon,
Chekti xijlat sunbulu sarvi xiromoni bila.

Ey Navoiy, umri boqiy istasang haq birla bo'l,
Boqiy o'lkim vola o'lma olami foniyl bila.

564

Ul uchug' ermas qabarg'an la'li ruhafzosig'a,
Shishada hayvon yeuyi solmish ulus ehyosig'a.

Ne uchun sham' ollida sargashtadur parvona, gar
Sadqa qilmas o'zni aning qomati ra'nosig'a.

Oncha ul oy ko'z qarortibtur mening qonimg'akim,,
Surma chekmak hojat ermas nargisi shahlosig'a.

Boqmas istig'nodin elga, vah, ne erkim ishqidin,

Yuz tuman xayli balo har dam ko‘ngul yag‘mosig‘a.

Topmasa la’li mayig‘a bodapaymolig‘ ko‘ngul,
Xushturur nazzora ham la’li qadahpaymosig‘a.

Husn aro mag‘lub anga Shirinu Laylo uylakim,
Ishq aro Farhodu Majnun ham aning shaydosig‘a

Ohu vovaylodin o‘ldum, ohu vovaylo agar
Boqmasa ul sho‘x ko‘nglum ohu vovaylosig‘a.

So‘fi ibn-ul vaqtdur gar istasang osudalig‘,
Ey ko‘ngul, ko‘p iltifot etma zamon abnosig‘a.

Bog‘ladim zunnor, ammo qilmadim ma'lumkim,
Iso aylar iqtido bu dayrning tarsosig‘a.

Gar Navoiy o‘ldi ishqil tig‘idin zinhorkim,
Qo‘yg‘asiz tufroqqa yuz holin debon mirzosig‘a.

Ulki to‘qqiz charx ayvoni o‘zun ko‘p ko‘rdi past,
Chun nazar soldi biyik dargohining kiryosig‘a.

565

Nildin behol xoling la’li serob ustina,
Tuxmi rayhon tushti go‘yo sharbati nob ustina.

Soch ila qoshing aro jabhangni ko‘rgan sog‘inur
Kim, to‘kulmish qadr shomi nuri mehrob ustina.

Ul quyosh hajrinda za’fim uyladurkim o‘lgamen
Soya tushsa nogahon bu jismi betob ustina.

Qon yutar erdim g‘amingdin, hajr anga qilding fuzun,
Naylay o‘lmay zahri chun qo‘ydung bu xunob ustina.

Ko‘nglum ichra yoralar chun butti qo‘ydi dog‘i ishq,
Xozin ul yanglig‘ki bosqay muhr abvob ustina.

Xattu xolingdin yuzung mohiyati ravshan bo‘lur,
Safhadekkim, nuqta birla bo‘lg‘ay e’rob ustina.

Itlaring g‘avg‘osi tong yo‘q, chun Navoiy berdi jon,
Kimki o‘ldi jam’, o‘lurlar xayli ahbob ustina.

566

Yuz balo toshi agar yog‘dursa dilbar boshima,
Shod o‘lurmen barchasi gar teksa yaksar boshima.

Mazrai jonomda tuxmi shavq ila mehr ekmisham,
Yo‘q ajab gar qo‘nsalar xayli kabutar boshima.

Hajr tig‘i qildi gar yuz pora bu majnung‘a bosh,
Turfa ko‘rkim ul pari savdosidur bir boshima.

Har tuki soyi boshimning bir o‘qi paykonidur,
G‘am tuni monand bo‘ldi charxu axtar boshima.

Ikki boshim bo‘lmasa ikki ko‘ngulluk yorni,
Sevmagaymenkim balo ursun mukarrar boshima.

Chun o‘zum sevdim seni dardu g‘amingdin shodmen,
Gar ko‘zu ko‘nglumgadur, gar jonica, gar boshima.

Sabzai xattingg‘a bo‘ldum sadqa ushbu vajhdin,
Go‘iyokim evrulur bu charxi axzar boshima.

May tag‘orin sipqarib daf‘ig‘a qolqon aylayin,
Fitnalarkim yog‘durur charxi sitamgar boshima.

G‘am quyoshidin kuyub erdim Navoiy, solmasa
Zilli ra’fat shahriyori dodgustar boshima.

567

Xolin o‘psam ne uchun man’ qilur jonica,
Kim ko‘rubtur kishi mo‘r og‘zidin olmoq dona.

Tiyr boroni g‘aming yiqti buzug‘ ko‘nglumni,
Yorga mayl etti yog‘in kasratidin vayrona.

Qaddi hajrindaki ko‘ksumda aliflar kestim,
Bo‘ldi anduhu balo kulbasig‘a dandona.

Jannatu hurni zuhd ahlig‘a kechmay netayin,
Basdurur chunki manga mug‘bachavu mayxona.

Ey pari, telbamen andoqkim o‘zumni toniman,
O‘z-o‘zidin chu meni qildi g‘aming begona.

Keldi zeb ahlig‘a ra’nolig‘u ushshoqqa so‘z,
Ul biri chun ko‘palakdur, bu biri parvona.

Zulfi savdosi Navoiyni chiqardi eldin,
Telba ettiyu ayog‘ida aning zavlona.

568

Buki men mahrumu el mahramdurur jononima,
Mungranib bekasligimdin o‘t tutoshur jonima.

Garchi vayron etti aqlu hush ila sabrim uyin,
Kosh bir qatla yetishsa kulbai vayronima.

Ey baliyat novaki, ul fitna ko‘zdin ayribil
Kim, havoiysen kelib, sen dog‘i o‘ltur yonima.

Qatlim istab qonlig‘ ashkim saylidin o‘tti raqib,
Ne uchun, yo rab, kirar erkin gunahsiz qonima.

Qolg‘ali hayron sanga, yopilmadi hayron ko‘zum,
Uyqudur bir xayli hayronlardin ul hayronima.

Ko‘ngluma kirkach g‘aming to‘ksam bag‘ir xunobini,
Ne ajab, gulrang may matlub erur mehmonima.

Kufr ila bo‘ldi badal dinim magar, ey mug‘bacha,
Rishtai zunnor payvand aylading imonima.

Ishq dashtida balo gardi manga chun parda bas,
Atlasi gardunni yopmasmen tani uryonima.

Ey Navoiy, to seni tanibmen afg‘ondur ishim,
Jonima rahm et, meni sen bori emdi tonima.

569

Yoqar o‘lsang iting ilgiga hino qonim ila,
Qo‘yki avval supuray gardini mujgonim ila.

Ashk o‘lturdi meni hashr eliga, voy, agar
Cheksalar arsai mahsharg‘a bu to‘fonim ila.

Baytul-ahzon bila Ya’qubni Yusuf g‘amida
Ko‘rmagan hajrida ko‘rdeg meni vayronim ila.

Dasht aro gar yovumas ko‘ngluma gardun, ne ajab,
Bo‘la olmas bu aloxonu alomonim ila.

Panahim g‘ayri quyun bo‘limg‘ayu tog‘ etagi,
Meni sargashtani ko‘rgan tani uryonim ila.

Sarv oyog‘iki botibdur sug‘a naylab qilg‘ay,
Jilvainoz mening sarvi xiromonim ila.

Jonda pinhon durur ul oyu eshitmas netayin,
Necha yolborsa ko‘ngul nolai pinhonim ila.

Tiyramen dudi gunah birla magarkim o‘lsam,
Do‘zax o‘ti yorug‘ay shu’lai isyonim ila.

Ey Navoiy, meni jon olg‘ali jonon tilamish,
Aylaram azm aning ko‘yi sari jonim ila.

570

Yana ishq ilgidin holim ulandi zorlig‘larg‘a,
Firoq oshubidin qoldi ishim dushvorlig‘larg‘a.

Ko‘zidin juz balo paykoni yetmas garchi qolmishmen,
Og‘izg‘a qatra su tomuzg‘udek bemorlig‘larg‘a.

Hurar it kecha tong boshi, uyur mendek qachon tushmish,
Kecha tong otqucha faryod ila bedorlig‘larg‘a.

Jafoni chunki nohamvor etar ul qotili bebok,
Tanimda zaxmlar dol o‘ldi nohamvorlig‘larg‘a.

Aningdek zuhdu taqvo yo‘lini urdung chiqib usruk
Ki, tushti yuz meningdek porso xammorlig‘larg‘a.

Ko‘zu zulfungdin andoq kufr shoyi‘durki yer hasrat,
Belin taqvig‘a qilg‘on mahkam el zunnorlig‘larg‘a.

Birov o‘zni falak ozoridin ozod qildikim,
Fano tufrog‘i ichra tushti beozorlig‘larg‘a.

Desangkim, har zamon bir yorning dushmanlig‘in ko‘rmay,
Zamon ahli bila yuz mayl ko‘rguz yorlig‘larg‘a.

Navoiy ashk durru la’lidin ne vasl topqaykim
Bu davlat yetmadi Qorun masallik borlig‘larg‘a.

571

Mast otlandi ul oy qilmay xabar ahbobqa,
G‘arqa maylik shisha yanglig‘dur ko‘ngul xunobqa.

Bir taraf go‘yo o‘zin solmoq xayoli bor edi,

Yo'qsa nevchun soldi yuz fosid xayol ahbobqa.

Ne erishmoqlikka haddim, ne turarg'a toqatim,
Yo'q manga yolg'uz bu shiddatkim bori ashobqa.

Har biri badhol bir yon tarqashib tushti va lek,
Notavon jismim qorong'u uyda pechu tobqa.

Ul kecha to subh ne deykim ne o'tti hajridin,
Paykari beholg'a yo didai bexobqa.

Soqiyo, g'am shomida o'lдум sabuhiy boda tut,
To dame mashg'ul etay o'zni rahiqi nobqa.

Ey Navoiy, andin o'lsa maxlasim bermay ko'ngul,
Hech bandi zulfi dilkash turrasi qulobqa.

572

Ey ko'ngul, hajrim balosin arz qildim shohima,
Va'da qildikim, meni qo'shqay parivash mohima.

To payopay bo'lg'ay, ul aftodalarg'a dastgir,
Umru davlat, yo rab, afzun qil damodam shohima.

Dema hijron biymi chun ketti nedur o'tluq damping,
Vasl umididin yorug'lug'lar yetibdur ohima.

Zulmati hijronda it mish ko'nglum, ey barqi visol,
Lam'a solib gah-gahi yo'l ko'rguz ul gumrohima.

Ko'nglum istar erdi ul oyni, beray yuz mujdakim,
Yetkurur yanglig'durur gardun meni dilxohima.

Istaram ishqin nihon bo'lg'ay el ichra kirgali,
E'timodim yo'q netay bu nolai nogohima.

Vasli yuzidin manga jomi jahonbindur ko'ngul,
Davri jomi yetsa tong yo'q xotiri ogohima.

Buki vasl iqbolida mumkindur osebi firoq,
Vasl yetmay ko'ngluma solur taraddud vohima.

Ey Navoiy, aytqil ul shahg'a shayallohkim,
Vasl mulkin ayladi in'om shayallohima.

LOM ALIFNING LOLARUXLARINING LOBASI «NAVODIR»DIN

573

Labing fikri bag‘rimni qon qildilo,
Chu qon qildn, ko‘zdin ravon qildilo.

Yuzumni demaykim, bari yer yuzin,
Hamul qon nchinda nihon qildilo.

Dedi ko‘nglung ettim nishon vasl uchun,
Firoqi o‘qig‘a nishon qildilo.

Ko‘ngulkim buzuldi tilab ganji vasl,
Ani chug‘zi hajr oshyon qildilo.

Ko‘ngul birla ko‘z sIRRINI, ey rafiq,
Yana ohu ashkim ayon qildilo.

Vafo ahlini charx bekom etib,
Jafo xaylini komron qildilo.

Navoiyg‘a gar tavba yaxshi edi,
Yana tarkini ul yomon qildilo.

574

Oshno yorim yana begonalig‘ fan qildilo,
O‘zni o‘z yorig‘a har fan birla dushman qildilo.

Va’dai hamxonalig‘ aylar edi ul, bo‘lmadi,
Xonavayronlar sari ko‘yini maskan qildilo.

Dedi, la’limdin qilay jonning iloji, qilmadi
G‘amzasin jonimg‘a, oxir novakafkan qildilo.

Gulshani vaslin manga zindoni hijron aylabon,
Muddaig‘a hajr zindonini gulshan qildilo.

Ishq o‘ti o‘rtab menu parvonani hijron tuni,
Bulbul ul motam aro to subh shevan qildilo.

Ey ko‘ngul, ul turfa qush moyil bizing sori bo‘lub,
G‘ayri bog‘u gulshanin oxir nishiman qildilo.

Kuyganin aytib Navoiy, bovar etmas erdi xalq,
Yorutub hajr o‘tin ul da’voni ravshan qildilo.

Yo HARFINING YaG‘MOYLARINING YuZ KO‘RGUZMAKLARI «NAVODIR»DIN

575

Zihi tajalliy husnung kelib jahonoroy,
Jamillar sanga oyinai jamolnamoy.

Jamol birla jaloliyatingdin o‘ldi bu nav’,
Sahar uzori uza shomy zulfi anbarsoy.

Bu tiyra dahrni gar oshiq etmasang bo‘lmas,
Arusi mehri falak mazharida jilvanamoy.

Basati olamoro gar sen o‘lmasang bosit,
Ko‘ngulga qayda bo‘lur Zuhra lahni bastfizoy.

Chaman aroyisi zebig‘a bo‘ldi husnungdin,
Zulol oyinadoru nasimnofakushoy.

Sening xayoling ila xonaqahda hoy ila xo‘y,
Sennng visoling uchun dayr ichinda nolayu voy.

Navoiy o‘ldi guli hamdu shukrunga bulbul,
Ani bu bog‘ aro lutf aylab ayla nag‘masaroy.

576

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame
Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq g‘ame.

Kimki davron sog‘ardin dam-badam xunob ichar,
G‘am yo‘q ar har dam g‘amin ayturg‘a topsa hamdame.

Charx uzukning xalqasidur, lek har kavkab anga,
Qatl uchun ostida qilg‘on zahr pinhon xotame.

Yo‘q farog‘at dahr arokim, shomdin sochin yoyib,
Yog‘durub ashkin tutar holingg‘a har tun motame.

Gar budur olam, kishiga mumkin ermas anda kom,
Haq magarkim kom uchun boshtin yorotqoy olame.

Yo‘q vafo jinsi bani odamda, bo‘l novmidkim,
Sen vafo ko‘rmak uchun xalq o‘lg‘usi yo‘q odame.

Nukta nozuk bo‘ldi asru bo‘lg‘ay erdi koshki,
Shammae bu ramzдин zohir qilurg‘a mahrame.

Dardi zaxm o‘lmish ichu toshim, qadah quy og‘zima,
Soqiyo, ko‘ksuma loyidin dog‘i yoq marhame.

Davr aro suhbat bu yanglig‘dur Navoiy tong emas,
Nolayu faryodi birla gar tuzar zeru bame.

577

Ne bir subh ul quyoshning ilgidin ichtim to‘la jome,
Ne yottim mast ruxsorim ayog‘ig‘a qo‘yub shome.

Ne bir qush hargiz ul gulshan sari yetkurdi payg‘omim.
Ne bir yel hargiz ul guldin manga yetkurdi payg‘ome.

O‘qungdin ming to‘shukluk ko‘nglak ichra tolpinur ko‘nglum,
Hamul qush mislikim ani muqayyad aylagay dome.

Nachukkim tutmading, ey umr, vayronim aro orom,
G‘amingdin tutmadi jon ham buzug‘ jismimda orome,

Hamul kundin sarig‘ chehramda gulgun ashkdur, ey shayx
Ki, bir zarbafti gulfomiy kiyib chiqtı gulandome.

Yugurdung Ka’bai maqsad tilab ko‘p, lek tinmaysen,
Chiqarsang o‘zluknungning dayridin o‘zni erur kome.

Navoiy, tongla huru sofiy kavsardin ortug‘dur,
Bukun ul mug‘bacha ishqida bo‘lsang durdi oshome.

578

Chehra ko‘rsatgilki jon bermoq tariqin ko‘rsatay,
Ishq atvorini da’vo qilg‘an elga o‘rgatay.

Ko‘rsatib yuzkim, deding: qilma ko‘ngulni muztarib,
Garjavob istarsen oncha turki, ani to‘xtatay.

Baxtim uyg‘onmas bu nafxi surdek faryod ila,
Menki marg uyqusи bosqonlarni dermen uyg‘atay.

Mehr ila vasling kuni bir subhdek kuldur meni,
Necha hajring tunlari ko‘zni falakdek yig‘latay.

Rishtai ashkim kerishdur egma qaddim yosig‘a,
Oh o‘qin g‘am shomi baxtim kavkabi chiqqach otay.

Ko‘ngluma xoling xayoli kirsa mardumluq qilib,
Ko‘z uyida ani mardumlar ichinda asratay.

Kelki g‘amzang ignasig‘a toqibon jon rishtasin,
Ko‘nglakim choki kebi ko‘nglum shikofin tevratay.

Bir qadah may birla turguzgil meni, ey mug‘bacha,
Dayr eshikinda necha maxmur, o‘luk yanglig‘ yotay.

Ey Navoiy, sharbati la’li erur jonbaxsh, lek
Za’fdin o‘lsam, ne hadkim degamen ani totay.

579

Yor tandin jonnm ayrilg‘uncha zulmin qilmog‘i,
Ermas oncha sa’bkim, mendin o‘zi ayrilmog‘i.

Gar tutulmoq istamas ko‘nglum qushin, bas negadur,
Donai xol uzra zulfi domining ochilmog‘i.

Bog‘layin dermen ko‘ngul toatqa qo‘ymas, naylayin,
Har nafas ko‘nglumg‘a ul but g‘amzasi sonchilmog‘i.

Kirpiki yonmish ko‘ngullar ilg‘ali qullobdek,
Buyladur ul sho‘xning ko‘nglumni ko‘zga ilmog‘i.

Vaslidin, vah, ne so‘z aytaykim, emas mumkin, valek,
Xoli az ayshe ham ermas har zamon aytilmog‘i.

Har kishikim dayr ichinda g‘oyib etti naqdi din,
Ey musulmonlar, aning mumkin emas topilmog‘i.

Chok etib ko‘ksin Navoiyning, ko‘rub ko‘nglida o‘t,
Dedi: bevajh ermas ermish muncha afg‘on qilmog‘i.

580

Vahki, dinim kishvarin toroj qildi kofire,
Kufr eliga homie din ahlig‘a yag‘mogare.

Chobuke, no‘shin labe, ra’no qade, xoro dile,
Mahvashe, Shirin uzore, gulruxe, siyminbare.

Jon berurda la’lidin Iso sifat jononae,
Ko‘ngul olurda yuzidin Yusuf oyin dilbare.

Zulfi ko‘zlarni qora qilmoqqa shomi furqati,
Shom furqat daf‘ig‘a ruxsori mehri anvare.

Ham guliston sayrn ichra sarv qomatlig‘ gule,

Ham shabiston bazmi ehyosida sham'i anvare.

Olloh-olloh, buyla ofatning giriftori bo'lub,
Naylagay bir men kebi zori zaifi abtare.

Ne qaroru sabru ne tobu tavon, ne toqate,
Ne ko'ngul, ne jonu ne ruhu ravon, ne paykare.

Soqiyo, dildorim ul yanglig' meni bedil bu nav',
Rahm etib tutqil manga aylab labolab sog'are.

To bo'lub bexud Navoiydek qilay devonalig'
Kim, tarahhum qilmasa, qilg'ay tamosho ul pari.

581

Ne ajab giryon ko'zum gar bo'lmas uyqu manzili
Kim, yetshimas bahrning bir yerga ikki sohili.

Eyki ko'rdung jonima furqat kuni yuz ming balo,
Bilki emastur bular hajrim tunining doxili.

Demang ul orazda burqa'dur va yoxud yo'qturur,
Yo emastur g'oyati ravshanlig' idin hoyili.

Dafn etar chog'da ichimdin chekmangiz paykonlarin
Kim, bu javharlardurur naqdi hayotim hosili.

Har taraf chun tig' chekti rashkdin bo'lrum halok,
Elga jon berdi va lekin bo'ldi jonim qotili.

Ishq mayli chunki hijron sari ermiss, xush ul
Kim, burundin bo'lindi ko'ngli biravning moyili.

Gar junun ahli aro aytur Navoiy darsi ishq,
Ne ajabkim uldurur devonalarning oqili.

582

Bas ajabdur, ikki la'lin ko'rsangu og'zin dog'i,
G'uncha bo'lmoq bir-biri uzra iki gul yafrog'i.

Mil agar bo'lsa o'qungdin yo'q ajab, ey qoshi yo,
Chun ko'zumni surmadon etmish ayog'ing tufrog'i.

G'arqi ashk o'lrum ko'ngulda gavhari ishq uylakim,
Bahr aro dur maskani bo'lg'ay bolig'ning qursog'i.

Yo‘qli tig‘ing to‘kti qonim, balki chekti dam bila,
Ul iki ajdarki ko‘rsatmis qiliching bolchog‘i.

Chiqti qon to‘kmakka ul kofir shafoat qilmangiz,
Ey musulmonlarki, mumkin yo‘q tarahhum qilmog‘i.

Bodayu ishqu shabob ayyomiyu, fasli bahor,
Pand netsunkim erur oshuftalig‘larning chog‘i.

Voiz aylar vasfi jannat ichra kavsar bodasin,
Bo‘l Navoiy mast, xohi mundog‘i, xoh andog‘i.

583

Jismi ul gulning qizil to‘ndinmudur gul xirmani,
Yo solib ruxsori bir xirmang‘a o‘t o‘rtar mani.

Otashin gul jismida andoqli su muzmardurur,
O‘yladur gulgun to‘n ichra obi hayvondek tani.

Go‘yiyo gul ichra savsan bargi aylabtur nihon,
Yo‘qsa gulgun to‘n ichinda ko‘nglakidur sabsani.

Qatl uchun ol ayladi to‘n, yo‘qsa ul qattolvash,
G‘arqa bo‘lmish qong‘a, baskim bo‘ldi qon to‘kmak fani.

Otashin gulmu ekin, gulgunda har yon yo magar,
Ishq so‘zidin tushub o‘t, kuydi bulbul maskani.

Gul sochib yuz yil agar gulrang may no‘sh aylasang,
Arzimas bir kun tikon neshig‘a davron gulshani.

Gul erur yuz xurdasi birla gadoyi jandapo‘sh,
Ey Navoiy, muflisi qoni’ni bil shohi g‘ani.

584

Ko‘ngulning chokidin gar bo‘lsa jonning vahmiyu boki,
Ne tong, ey gulki, ko‘nglak choki ermastur ko‘ngul choki.

O‘luk ushshoq bahri ishq atrofida tong ermas,
Erur xaslarki surmish har taraf bu bahr ko‘loki.

Balo sahosida, ey oy, tanim o‘rtarga sa‘y etma
Ki, bahr ichra choqin tushsa kuyar bu dasht xoshoki.

Boshim avval iti ollig‘a sol, ey charxkim, to‘ysun
Ki, qonim birla rangin bo‘lmasun ul sho‘x fitroki.

Bukim ul sho‘x elni o‘lturur bu rashkdin oyo,
Bilur erkinmukim ermas tirik bu zori g‘amnoki.

Bo‘lur husn ichra bir aniki ahli ishq dark aylar,
Yo‘q ersa zohidi beishqning yo‘q muncha idroki.

Nachuk har zarra bu doir falakdin mehr ko‘z tutqay
Kim, aning davridin sargashta bo‘lmish mehr afloki.

Tirildim bodadin qayg‘um ketib, ey bog‘bon, go‘yo
Ki, hayvon suyidin shodob bo‘lg‘ondur aning toki.

Navoiy nazm aro tig‘i zabonin uyla surdikim
Pichoq topmas uyatdin o‘zni o‘lturmakka Sakkokiy.

585

Kosh sanchilsa iki ko‘zuma ko‘yung tikani,
Kirpiking ignasi birla chiqarur bo‘lsa ani.

Chiqmag‘ay tufrog‘i bo‘lg‘uncha gadolarg‘a vatan,
Har gadokim eshiking tufrog‘i bo‘lmish vatani.

Zaxmdur lola kebi dog‘larning dudidin,
Xanjari ishq shahidi uza qonlig‘ kafani.

Purshikan zulfung aro tushtikim, ey ahdshikan,
Yuz shikan soldi ko‘ngullarga aning har shikani.

Tunu kun zulfa yuzung shavqidurmen, negakim,
Gulshani husnning ul sunbulidur, bu sumani.

Boda qon, nag‘ma fig‘on, suri azo, aysh balo,
Ko‘rgasen jilva agar aylasa ishq anjumani.

Husnidin bo‘lsa Navoiyg‘a gadolig‘, ne ajab
Ki, budur asru faqir, ul dog‘i bor asru g‘ani.

586

Orazing hajrida zor erdim quyosh botqon chog‘i
Kim, sabo payki manga yetkurdy bir gul yafrog‘i.

To‘ldi shavqing gavharidin bahri ishq ichra ko‘ngul,
Go‘yiyo bo‘lmish mening ko‘nglum sadafning qursog‘i.

Yerga tomg‘och ashki hayvon chashmasi bo‘lmoq ne tong,

Qaysi ko‘z ichraki yer tutsa ayog‘ing tufrog‘i.

Surtsam mujgon kafi poyingga ko‘p vahm etmakim,
Qilmadi afgor gul bargini bulbul tirnog‘i.

Netib asray o‘znikim holimnn ul chiqqon zamon,
Anglatur yonimg‘a o‘lturg‘ang‘a ko‘nglum solmog‘i.

Yoshim ellik bo‘ldi yuz hasrat yesamkim sudi yo‘q,
O‘zni maydin hush tutay chun o‘tti umrum xushrog‘i.

Ey Navoiy, Vomiqu Farhodu Majnun bordilar,
Bo‘lma g‘ofil, dam-badam qilg‘ung azimat sen dog‘i.

587

Necha yilda qilmadi ko‘nglumga ishq shiddati,
Ulcha qildi xasta jong‘a necha kunluk furqati.

Hajr bedodi aro har kun yaqindur o‘lgamen,
Do‘sstar behad qotiq ermish yirog‘liq mehnati.

Bog‘ni qo‘ykim ko‘ngulning ul qadu yuz hajrida,
Sarv ila ham unsi yo‘q gul birla dog‘i ulfati.

Sen bilu jismim necha dog‘ o‘rtar ersang, ey sipehr
Kim, ko‘ngulga basdur ul badmehr dog‘i furqati.

Ey ko‘ngul, davron eliga chunki yo‘q husni vafo,
Qayda bas husn ahlig‘a bo‘lg‘ay vafoning nisbati,

Istasam jomi mug‘ona tutsa gohi mug‘bacha,
To tirikmen aylagumdur dayr piri xidmati.

Ey Navoiy, charx zolining firibin yemagum,
Yor agar bo‘lsa mening birla eranlar himmati.

588

Uyla hijron tiyradurkim, zulm ekoch ul oy fani,
Yoqibon kunduz charog‘ istab topa olmon ani.

La’ling ummidida munglug‘ jonim o‘lmish bir gado
Kim, munung yirtuq to‘nidekdur aning zaxmin tani.

Ul ko‘z ollida mukahhal ko‘zlar husn ahlining,
Kulga bulg‘ong‘on suruk devonalardur gulxani.

Og‘zi jon qasdi qilur, jong‘a tavahhum yo‘q ajab,
Xavfi ko‘proqdur aningkim, maxfiy o‘lsa dushmani.

Kelsa tong yo‘q goh piri dayru gahi mug‘bacha,
Rindkim kunji xarobot o‘lg‘oy aning maskani.

Yaxshiroqdur ko‘rmagan olamda husn ahli yuzin
Kim, sanamlar ishqining bu keldi vajhi ahsani.

Ey Navoiy, kom topmay gar men o‘ldum ishq aro,
Kimki topsa kom anga gohi sog‘indurg‘il mani.

589

Chun so‘z aytursen labing titrar g‘azab qilg‘on chog‘i,
Rost andoqkim sabo tahrikidin gul yafrog‘i.

Kimki ko‘rdi suvrating kog‘azdag‘i suvrat kebi,
To qiyomat og‘zi ichra qoldi hayrat barmog‘i.

Baski ko‘z oqu qarosin surtmishmen, shavqdin,
Ham qora, ham oq o‘lubtur bodpoying tuynog‘i.

Ne ajab qon to‘ksa tig‘ing kim, aning oshomig‘a,
Og‘zin ochqon ikki ajdar zohir etmish bolchog‘i.

Boshima tufrog‘ Sovurg‘ondinmu chehram gard ekin,
Yo falak yog‘durmish ustimga mazallat tufrog‘i.

Dedi, la’limni so‘rarsenmuki, topqaysen hayot,
Bir hayoti toza xud yetkurdi aning so‘rmog‘i.

Dayr piri xidmatig‘a ulki der, bel bog‘ladim,
Chin degay ul vaqtkim, zunnor bo‘lg‘oy belbog‘i.

Menki ellik yil chekib g‘am, topmadim xushvaqtliq,
Topqamenmu umrning emdiki o‘tmish xushrog‘i.

Ey Navoiy, olam ahlidin vafo qilding tama’,
Men edim sening kebi, men yanglig‘ o‘lg‘ung sen dog‘i.

590

Kim ekin ul ko‘y aro deb, kelsa andin it uni,
It uni vazni bila ko‘nglum solur hijron tuni.

Demangizkim, shomi hajringning nechuk poyoni yo‘q,
Subhi sham’in tiyra anlar g‘am tunining shudruni.

Shomi hajrimni qora qilmoq ne hojat, ey sipehr,
Ro'zgorimdin qoraraqdur chu hajrimning tuni.

Ishq iqboldin andoq kimiyoedur yuzum,
Kim qilur kasbi iyor andin quyoshning oltuni.

Dard ko'rgim istasa kelmak g'amim so'rmoqqa yor,
Rozi ermonkim, sirishkim saylining bor o'z kuni.

Dahr bo'stonig'a ziyrak qush, ne qilsun maylkim,
G'uncha juz qonlig' ko'ngul ochmas bu gulshan gulbuni.

G'am Navoiyning ko'zin qilmish bulutkim za'fdin,
Istar og'zig'a tomizg'aylar momug' birla suni.

591

Yuzi davrinda qironmu zohir etmish ul pari,
Yo quyosh birla qiron aylabturur yuz Mushtari.

Yo'qsa anjum halqa urdilar tamosho qilg'ali,
Jilvai husn aylaganda oftobi xovari.

Bu bahona birla ruxsorig'a yetkaymenmu deb,
Rishtan jonim aro tortildi ashkim gavhari.

Gul uza shabnam emas ul yuzda dur monandikim,
Infiolidin botibtur terga gul bargi tari.

Jolalarining lolazor ichra yo'q oncha zebikim,
Lolagan ruxsoring atrofida durlar zevari.

Dur bila faxr etmakim, ul besh emas bir qatra su,
Pand durrig'a qulq sol, ey sanamlar sarvari.

Yuzi vasfida Navoiy dog'i aylabtur qiron,
Nazm silkigaki chekmish durri ma'ni har sari.

592

Nasli odam bo'lmadi hargiz muhabbat mazhari,
Ul nimakim bilmagay odam, qachon bilsun pari.

Xo'blar husnin qazo mashshotasi ko'p qildi zeb,
Anda yuz ming hayfkim, yo'qtur vafoning zevari.

Men kebi aylab vafo, ko'rgan jafo topilmag'ay,

Axtarilsa sarbasar ahli muhabbat daftari.

Ey ko‘ngul, jinsi bashardin sen vafo ko‘z tutmakim,
Yo‘qturur bu xayl zotida muhabbat javhari.

Eyki dersen, mehr sham’i birla kulbangni yorut,
Ham magar ani yorutqay sham’i mehri xovari.

G‘ussadinkim jon olib parvoym etmas mug‘bacha,
Bexud o‘lmoq istab o‘ldum dayr piri chokari.

Ey Navoiy, gar desang ko‘rmay jafo bo‘lmoq kerak
— Xo‘blardin, balki mutlaq nasli odamdin bari.

593

Qon aylading ko‘nglumni nihoni,
Ko‘rgil iki ko‘zumda nishoni.

Tushti fig‘ong‘a ko‘nglum ul oydin,
Tong yo‘q yetishsa ko‘kka fig‘oni.

Hajring tuniga tushkali ko‘nglum,
Bo‘lmish ko‘ziga tiyra jahoni.

Hasrat guli hamul dam ochilg‘oy
Bag‘rimning tomsa ko‘yida qoni.

Har kimsaga ne tuhmat etaykim,
Itkan ko‘ngulni oldi faloni.

Aylarda ishqing sharhini tahrir,
Sig‘mas qalam tiliga bayoni.

Xusrav, Navoiyyo, seni ko‘rsa,
Shahni degay, Malikshahi soniy.

594

Ko‘ngulga itkali andin topilmadi xabare,
Topilsa ham anga mendin topilmag‘ay asare.

Qadingki naxli balodur sitam yog‘ar andin,
Ne bo‘lg‘usi samari, bo‘lsa ul sifat shajare.

Ne shomi furqat ekin, vahki, umr o‘tub andog‘,
Tulu’ qilmadi xurshidi vaslidin sahare.

Guzarda ko‘rmak uchun za’fdin yiqilmishmen,
Gadoiy xastadek ul ko‘y aro tutub guzare.

Itingki bor anga ushshoq bag‘ridin to“ma,
Qilay deganga ani mehmon kerak jigare.

Oqar qadahg‘a, tomar yerga bodang, ey soqiy,
Xumor ahlig‘a tegmasmu hech oqar-tomari.

Firoq o‘tida Navoiyni, eyki, kuydurasen,
Chu ishqing ayladi xascha anga ne bas sharare.

595

It kebi necha samanding so‘ngicha po‘ya uray,
Nogah o‘tsam boqibon sen yana o‘tkuncha turay.

Chunki yetting ko‘rub ul chehrani behol bo‘lub,
O‘zga kelgach yana ul raxsh so‘ngincha yuguray.

To‘rt ayog‘lanib iting xayli aro men majnun,
Gar kesak otsang o‘pay, gar so‘ngak otsang ko‘muray.

O‘yqunga moni’ agar bo‘lmasa ul ko‘y ichra,
Yugurub itlar ila kecha tong otquncha huray.

Subhidamkim uyur itlar manga chun yo‘q uyqu,
Posini mehr ila olam yorug‘uncha yeturay.

Ishq ko‘yida agar sheri jayondur itdur,
Tong yo‘q ar faxru mubohot ila bu nukta suray.

Netti itlikka Navoiy kebi qoyil bo‘lsam,
Elga ko‘z yo‘qmudurur garchi ani men yoshuray.

596

Xunfishon ko‘zni yubon oq etti ashkim kasrati,
Garchi ketmas lolaning sudan savodu humrati.

Shusha oltunlar erur durri visolingga baho,
Kohi a’zom uzra eskirgan aliflar hay’ati.

Tushta vaslin ko‘rgali, vahkim, ajal uyqusig‘a,
Bordimu ko‘nglum aro qoldi ul uyqu hasrati.

Garchi ollimdin o‘tarsen har zamon maydonda, voy
Kim, erur moni’ yuzung ko‘rmakka raxshing sur’ati.

Tig‘i zulmingdin emastur zaxmlar ko‘nglumdakim,
Choklar qildi bu uyning hajr o‘tining shiddati.

Buki hokim johilu mahkum erur olam anga,
To hakimi sun’ining ne erdi erkin hikmati.

Ey Navoiy, ko‘zga ko‘nglumdin aduvroqmenki, bor
Manga ko‘nglum mehnati, ko‘nglumga ko‘zning ofati.

597

Gul yopishturdingmu yuzga sho‘xliqtin har sari.
Yoxud ochilmish uzoring bog‘ida may gullari.

Kelgach ul yuz ollima, qolur qora qayg‘u keyin,
Soch tushkandek keyin xurshid bo‘lg‘och ilgari.

Bo‘lmish ul oy hajrida ranjim falak javfi to‘la,
O‘zga ranj o‘lsa, magar bo‘lg‘ay falakdin tashqari.

Dema mending bo‘l yiroqkim, tushmisham andoq yiroq
Kim, emas mumkin yana bo‘lmog‘lig‘im mundin nari.

Tong emas payvasta qoshlar orazing ustidakim,
Yoyni payvasta mushaftin qo‘yarlar yuqari.

Zulm ila bedodidin maxlas ne mumkin, ey ko‘ngul,
Chunki quvvatlig‘ yigitdur yoru men ojiz qari.

Ey Navoiy, hajr aro bilmon sening holing nedur,
Yordin ayru hayotimdin to‘yubon men bari.

598

So‘z vafodin demakim, ul ermas ahli husn ishi,
Javr kam qilkim, vafo sendin tama’ tutmas kishi.

Ishq aro taskin tavaqqu’ tutma ko‘nglum so‘zig‘a
Kim, harorat daf’ini qilmoq emastur o‘t ishi.

Chekti saf kirpiklaring ko‘nglum sipohi ollig‘a,
Sindurur yuz qalbni lekin alarning sonchishi.

Sovug‘ oh o‘tlug‘ ko‘nguldinkim chekarmen turfa ko‘r
Kim, havoiy ishning mamzuj emish yozu qishi.

Termagaysen jolani gulbargi ichra, ey bahor,

Zohir o'lsa yor la'li durjidin durdek tishi.

Nuri botin ichra, ey solik, tilar bo'lsang kamol,
Qil quyosh yanglig‘ manozil qat'i qilmoq varzishi.

Chekki ollingg‘a Navoiy aql ila hushu xirad,
Turk cheksun jism aro xasta jondur qolmishi.

599

Tog‘ aro Farhodu har yon surma qilg‘an toshni,
Ko‘zga chekkan ne ajab yuz mil oqizmaq yoshni.

Ahli ishq ul ko‘y aro sargashtadur jodularing,
Sehr ila go‘yo bu nav’ aylandururlar boshni.

Ko‘kta har oy bir hilol, ul mashqdurkim kilki sun’,
Aylamish sizg‘onda ul ikki muqavvas qoshni.

Ey sabo, ushshoq naqdi jonlarin yetkur yig‘ib,
Qayda topsang ul muqomir shevai qallosshi.

Keldi Chin naqqoshi ul yuz naqshini qilmoqqa tarh,
Chehra ochib naqshi devor aylading naqqoshni.

Kimni mendek xonaqahdin surdilar ahli saloh,
Mug‘tanam tutdik fano dayri aro avboshni.

La’lini kavsar mayig‘a garchi tashbih aylading,
Ey Navoiy, bordurur bu mayda o‘zga choshni.

600

Xayol o‘lg‘on kishi ishq ichra fahm aylar xayolimni,
Bilur hijron aro behol bo‘lg‘an sa‘b holimni.

Ko‘ngul bog‘i arodur naxli qaddi, lek qo‘rqarmen
Kim, ul issig‘ havo so‘ldurmag‘ay navras niholimni.

Erur hijron tuni bas tiyra, ey gardun, duraxshon qil,
Saodat matlaidin axtari farxunda folimni.

Ne za’f o‘lg‘ayki bir qil gar qalamdin ustiga tushkay,
Nihon qilg‘ay musavvir tortg‘on qildek misolimni.

Ko‘rub xandon labin og‘zim ochildi buki o‘lmaymen,
Qilurmen daf’ kulmak birla go‘yo infiolimni.

Haqorat birla boqma shayxu mug‘ dayri sari yuz qo‘y,
Boq ul ko‘y itlari silki aro johu jalolimni.

Navoiydek agar nafs itligidin qilmag‘aymen ram,
Qachon gardun manga rom aylagay ra’no g‘azolimni.

601

Necha tig‘ urdung ko‘ngulga tiyra ohi itmadi,
Kimsa o‘ttin dud chirkin su bila oritmadi.

Bosh qo‘yarmen shukrdinkim qilmayin boshimni go‘y,
Chobukum maydong‘a hargiz raxshini sekritmadi.

Xohi tig‘i javr yo tig‘i zabon birla raqib,
Iltifote qilmadi ko‘nglumgakim og‘ritmadi.

Ayladi yuz qatla su, bir qatla qon ko‘nglumnikim,
Urmadi bir tig‘ ani yuz qatla to injitmadi.

Qilmadi mahbus ko‘nglum kulbasida g‘amni ishq,
Raxnalarini to malomat toshidin berkitmadi.

Ey xush, ul qushkim tegib jismig‘a har bir tikan,
El qulog‘in noladin bulbul kebi yolqitmadi.

Bahri ashk ichra Navoiy sobit erdi tog‘dek
Kim, esib bir yel tanining taxtasin qolqitmadi.

602

Sarsari ohimdin ul oy furqatida g‘am tuni,
O‘yqug‘a qo‘ymas xaloyiqni eshiklarning uni.

Ishq o‘tin Farhodu Majnun ruhi bilgay charx uza,
Har biriga yetsa ohim o‘tining bir uchquni.

Buki derlar kimiyyodur ishq, bovar qilmasang,
Qilg‘usi yuz vajh ila sobit uzorim oltuni.

Orazi gulgul bo‘lub maydin oqizdi qon yoshim,
Ko‘r, ne gullar ochti ul bo‘stoni ofat gulbuni.

Eyki, do‘zax o‘tinu mahshar kunin sharh aylading,
Uchramaydur joningga ishq o‘tiyu hijron tuni.

Shohidi maqsud husni jilvagohing jom emish,
Istasang maqsud ilikdin qo‘ymag‘il ul ko‘zguni.

Chun Navoiyg‘a iki la’li mayidin tutsa qo‘sh,
Qorivor jon istasakim, jon berib topti muni.

603

Menmudurmenkim, ko‘nguldin ayrumen jondin dog‘i,
Olloh-olloh ne ko‘ngul, ne jonki jonondin dog‘i.

Ul pari zunnoriz zulfin bog‘lamay devonamen,
Bo‘lmisham begona, ya’ni aqlu imondin dog‘i.

Xonumondin ham tushubturmen meni bedil yiroq,
Ko‘ngul otlig‘ ham aloxonu alomondin dog‘i.

Har zamon kirsa buzug‘ ko‘nglum aro yoru diyor,
Olam ahli siqtaturmen ohu afg‘ondin dog‘i.

Ey ajal, jon birla minnatdormen qilsang xalos,
Intizori vaslidin ham dardi hijrondin dog‘i.

Ko‘zlarim bog‘i socharda ashk gulgun oshtilar,
Bu biri aynul hayot, ul bir gulafshondin dog‘i.

Kimki istar jonig‘a davron jafosi yetmagay,
Ko‘nglini davrondin uzsin, ahli davrondin dog‘i.

Dahr chun buzdi meni men ham mukofot ayladim,
O‘tkarib ohimni barq, ashkimni to‘fondin dog‘i.

Ey Navoiy, ko‘nglung ar itti ani yozg‘urma ko‘p,
Bu emish taqdir, emas sendin dog‘i, andin dog‘i.

604

Dasht uza sargashta majnunnung taku po‘y urmag‘i,
Yo‘q ajab, chun mumkin ermastur quyunning turmag‘i.

Yozg‘urur har dam meni ul qotil o‘lturgum debon,
Ulturur har dam meni balkim aning yozg‘urmag‘i.

Ko‘kni ohim o‘qlari gar qilmamish yuz ming teshuk,
Nedur aning shu‘lasin bas charxdin oshurmag‘i.

Ul pari lutf aylabon devonalar ko‘nglin olur,
Ne ajab ushshoqi bedilning ko‘ngul oldurmag‘i.

Soqiyi davroig‘a mayli qatl agar yo‘qtur, nedur,

Har zamon ahbobning paymonasin to‘ldurmag‘i.

Bog‘boni dahr har naxlki payvand ayladi,
Xo‘b edi gar bo‘lmasa erdi yana sindurmag‘i.

Demangiz ishqin Navoiy xalqdin tutsun nihon,
Olam ahli bildi emdi ne osig‘ yoshurmag‘i.

605

Necha nihoni ishorat raqiblar sari,
Ko‘z uchidin nazare ham g‘ariblar sari.

Tikanlar ichra bo‘lur gul ne tong, gar ul gulrux
Ham etsa mayl hamisha raqiblar sari.

Bu vajhdinki davo dardmanlarga yetar,
Nasibi vasl kerak benasiblar sari.

Yuzum sening sari bo‘lg‘usidur, bihamdillah,
Muhabbat ahli borurda habiblar sari.

Ne ayb telba ko‘ngulni qochursa nosihlar,
Bo‘lurmu tiflg‘a rag‘bat adiblar sari.

Chu husn davri vafosizdur, ey guli ra’no,
Qil iltifot gahi andaliblar sari.

Navony, chu erur hajr dardidin alaming,
Tazallum etma, gar o‘lsang tabiblar sari.

606

Sahar xovar shahi charx uzrakim, xaylu xasham chekti,
Shioi xat bila ko‘hsor uza oltun alam chekti.

Qazo farroshi chekti subhning siymin supurgusin,
Muzahhab parlarin andoqli, tovusi haram chekti.

Kitoba sun‘i kilki surai vash-shams tafsirin,
Falak toqi havoshisida zarhaldin raqam chekti.

Muazzin Ka‘ba toqi uzra gulbongi samad urdi,
Barahman dayr ayvonida ohangi sanam chekti.

Yoqa chok etti gohi subh ul motamg‘akim oshiq,
Bu muhlik shomi hijron ichra yuz xunobi g‘am chekti.

Zamone kului ul g‘ofilg‘akim davron sitam tig‘in,
Anga urmog‘ni anglab o‘zgaga tig‘i sitam chekti.

Xusho, ulkim munungdek chog‘ vafosiz umrni anglab,
Sabuhi jomini ahbob birla dambadam chekti.

Maoniy ahli gohi nukta uzra qilu qol etti,
Tag‘anniy xayli nag‘ma ichra gohi zeru bam chekti.

Agar ko‘nglida bir gul hajridin xori firoq o‘lsa,
Bahona yig‘lamoqqa bir necha jomi alam chekti.

Vagar xud vasli iqibili tuyassar bo‘lsa bir soat,
Faridun taxti uzra bazm tuzdi, jomi Jam chekti.

Bo‘lub matlub ruxsorig‘a mahvu jomdin sarkush
Yuzin tufroqqa qo‘ydi boshini ollig‘a xam chekti.

Ne davlatdurki, bu holatda andoq bordi o‘zdinkim,
Baqo iqlimidin raxtini to mulki Adan chekti.

Navoiy shoyad ul rahravg‘a bu maqsad nasib o‘lg‘ay
Kim, ul dashti fano qat’ etkali yillar qadam chekti.

607

Charx agar solsa yiroq yuz yil visolingdin meni,
Oyira olg‘aymu bir soat xayolingdin meni.

Belu og‘zing zikru fikri birla bo‘lsam ne ajab,
Shavq bir dam g‘ofil etmas qilu qolingdin meni.

Yangi oydur mujibi savdoyu men devonamen,
To falak soldi judo mushkin hilolingdin meni.

Elga yuz ochib qorong‘u qilma olamni manga,
Tiyra qilmag‘lig‘ nedur sham‘i jamolingdin meni.

Jon bag‘ishlab elga la’lingdin, men o‘ldum tashna lab,
Vahki, qilding qatl jonparvar zulolingdin meni.

Bastai zunnor qil bir rishtag‘a, ey piri dayr,
Har sari tori chubulg‘on eski sholingdin meni.

Ey Navoiy, yona ishq aylab taxayyul zinhor,
Qilma har dam ranja bu fosid xayolingdin meni.

608

Yo‘q vafo ahlida bir zori parishon men kebi,
Bevafovashlarni sevmakdin pushaymon men kebi.

Jon berib bu xayl uchun birdin vafoe ko‘rmagan,
Barchadin navmid o‘z holig‘a hayron men kebi.

Xonumonidin kechib Majnunki tutmish erdi dasht,
Qayda bor erdi aloxonu olomon men kebi.

Tuttilar ahli junun vayronalik ul jam’din
Kim, parishonlig‘lar ichra bo‘ldi vayron men kebi.

Hazlu zavq aylarga tuttung dasht, bir so‘z qot manga
Kim, tilab topmas kishi g‘uli biyobon meni kebi.

Bilmayin husn ahlidin qildim tama’ rasmi vafo,
Yo‘q alardek bevafo, andoqliki nodon men kebi.

Ey Navoiy, sen dog‘i qilsang tama’ sayri Hijoz
Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kebi.

609

Kishi ketursa manga sarvi guluzorimni,
Anga fido qilayin joni xoksimni.

Yoshurg‘ay ahli baqo oraziki gardi fano,
Chu yelsovursa adam ko‘yida g‘uborimni.

Yo‘l uzra onsiz emaskim buzulmag‘ay ko‘nglung,
Nazzora qilsang o‘tarda buzuq mazorimni.

Chu zulfung erdi ko‘ngul ro‘zgori, vahki, sipehr
Qorartib ayladi oshufta ro‘zgorimni.

Raqiblar toshi yo itlaring tishidin erur,
O‘luk yo‘l ustida ko‘rsang tani figorimni.

Meni chu maykadadin va’z jashnig‘a tilading,
Tahammul ayla damekim yozay xumorimni.

Dema Navoiyg‘akim berma ixtiyor eldin,
Muni dekim manga kim berdi ixtiyorimni.

610

Gulshan ichra maxfiy ichsang bodai gulgomni,

Chirma nargis g‘unchasidek pardalarg‘a jomni.

Yor zulfida nihon aysh aylagan yanglig‘ ko‘ngul,
Sen dog‘i ishrat uchun tutqil g‘animat shomni.

Qil shabiston tunlarin maydin yorug‘, andoqki charx,
Mehrdin maxmurluq birla o‘tar ayyomni.

Gar tariqi e’tidol oson emastur, xushturur,
Dayr aro tark aylamak oyini nangu nomni.

Mast chok aylab yaqo, yig‘lab zamon bedodidin,
Bir qadah mayg‘a sotib davroni nofarjomni.

Chun xarobot ichra kirding mast bo‘lkim, mug‘bacha,
Mahrami bazm aylamas juz rindi durdoshomni.

Zuhdunga mag‘rur o‘lub ko‘p qilma is’yonimni ta’n.
Ne uchun, ey shayxkim, bilmas kishi anjomni.

Men — menu dayri fano, so‘fiyu kunji xonaqah
Kim, tilar ul kavsaru men bodai gulfomni.

Ey Navoiy, dahrdin ko‘z tutma juz nokomliq,
Kom kim topmishki, sen topqaysen andin komni.

611

Chun ayon qildi labing aksini jom, ey soqiy,
Bodadin jon isi kasb etti mashom, ey soqiy.

Mastliqdur manga ham maydinu ham aksingdin,
Nelar aylar qaydahi oyinafom, ey soqiy.

Kayfiyatdin emas el boshi quyikim, qiladur
Husninga bazm elining ishqil salom, ey soqiy.

Garchi biz qon yutadurmiz labinga yetsa qadah,
Sanga bo‘lsun tarabu aysh mudom, ey soqiy.

Qo‘yma uy azmig‘akim, endi bo‘libsen sarxush,
Qilma bazm ahlig‘a ishratni harom, ey soqiy.

Labing o‘pmakka ne haddim, gazak etkan qanding
Og‘zima yetsa bu basdur manga kom, ey soqiy.

Va’da qilding chu sabuhig‘avu mast o‘lmishsen,
Uyusang netti bizing birla, bu shom ey soqiy.

Bilgali kufrdurur niyating aylabdurmén,
Xonaqahdin chiqibon dayr maqom, ey soqiy.

Gar Navoiy desa ichmanki, qilibmen tavba,
Yiqibon bo‘g‘zig‘a qo‘y bir to‘la jom, ey soqiy.

612

Lahza-lahza chunki ortar ul pari zebolig‘i,
Dam-badam afzun bo‘lur majnun ko‘ngul shaydolig‘i.

Xalq ko‘p parvosidin jon topqoninmu aytayin,
Yo anikim ne qilur jonimg‘a beparvolig‘i.

Itti shahlar ko‘nglini og‘zi o‘g‘urlab oqibat,
Ayladi paydo bu shahkorini nopaydolig‘i.

Garchi rasvo erdi Majnun, chun mening rasvolig‘im
Bo‘ldi afzun, emdi ko‘runmas aning rasvolig‘i.

Mayda soqiy zulfu yuzi gar ko‘runmas, bas nedur,
Dayr pirining kecha-kunduz qadahpaymolig‘i.

Jannatu do‘zaxga chekmas, lutfu qahring bo‘lmasa,
Gar munung mo‘minlig‘idur, gar aning tarsolig‘i.

Layli mayni to mayi la‘lig‘a tashbih aylading,
Ey Navoiy, andin o‘ldi bu nishotafzolig‘i.

613

Og‘iz ichra tilingdek g‘unchada gul bargi tar bo‘lg‘ay,
Vale bu shart ilakim, bargi gul ichra shakar bo‘lg‘ay.

Qadingg‘a sarvi ra’no o‘xshag‘ay, lek ul zamonkim sarv
Xiromon bo‘lg‘ayu gul bergay, ul guldin samar bo‘lg‘ay.

Yuzung davrig‘a oy davrini tashbih etkamen, vaqte
Ki, anda xol ila xat fitnai davri qamar bo‘lg‘ay.

Ko‘zunga o‘xshag‘ay nargis, agar qiymoch o‘lub oqi,
Mudavvar asfari ichra, qoralig‘din asar bo‘lg‘ay.

Xatingg‘a qadr shomi o‘xshag‘ay bu shart birlankim,
Tajalli nuridin ul shom arosinda sahar bo‘lg‘ay.

Chu minsang ashhabing ul dam, quyosh bo‘lg‘ay sanga monand

Ki, bersa ko‘kbo‘zin javlon jahon zeru zabar bo‘lg‘ay.

Manga ishqingda Majnun birla Farhod o‘xshag‘ay ul chog‘
Ki, bu bo‘lg‘ay jahon rasvosi, ul mundin batar bo‘lg‘ay.

Xabardor ani bilgil, ey ko‘ngul, bu davr javridin
Kim, ul tun-kun xarobot ichra mastu bexabar bo‘lg‘ay.

Dedim, nazm ahlining sarxayli kim bo‘lg‘ay, dedi hotif,
Navoiy bo‘lgay, ulkim sen tilaydursan agar bo‘lg‘ay.

614

Ko‘ngul o‘t berki, bir gul hajridin ko‘ksumga dog‘ o‘rtay,
Fatila chirmab, oy davricha solib, anda yog‘ o‘rtay.

Emas mumkin g‘azolim multafit men uylakim lola,
Necha bag‘rimni qon aylay, necha ko‘nglumga dog‘ o‘rtay.

Aningdek tiyradur shomi g‘amimkim bo‘limg‘ay ravshan,
Agar xurshid sham‘i yanglig‘ anda yuz charog‘ o‘rtay.

Chiqing Farhodu Majnun, ishq o‘ti lofidin urmay dam
Ki, hijron so‘zidin bir oh tortib, dashtu tog‘ o‘rtay.

Emas kulbamni hargiz ul quyosh yorutqudek, ey charx,
O‘zumni sham‘dek har tun necha boshdin ayog‘ o‘rtay.

Meni do‘zax sari boshlangki, tashlab sarnigun o‘zni,
Bu yanglig‘ hajr o‘ti bedodidin istab farog‘ o‘rtay.

Necha ul sho‘x elga no‘shxandu loba qilmoqdin,
Yog‘imni hoy-hoy aylay, ichimni log‘-log‘ o‘rtay.

Bu gulshan gullarida chunki yo‘q bo‘yi vafo, nevchun
Tilab ani tamanno o‘tidin har dam dimog‘ o‘rtay.

Zamon ahlin vafosiz debki, qildim dostonlar sabt,
Navoiy bir kishida gar vafo topsang so‘rog‘ o‘rtay.

615

Necha kilki taxayyul birla bir suvrat nigor aylay,
Anga oshiq yasab, ko‘nglumni umdo beqaror aylay.

Necha chirmashturub bir zulf savdosin dimog‘img‘a,
Uzumni ahli savdodek parishonro‘zgor aylay.

Necha bir sarvdek qomat havosi birla har soat,
Jahonda ohu afg‘ondin qiyomat oshkor aylay.

Necha bir lolarux dog‘i g‘amin istab tanim uzra,
Quyub yuz dog‘ ami qonlig‘ yoshimdin lolazor aylay.

Erur bas tiyra shomi ishq, yo rab, husn sham’in yoq
Ki, jon birla ko‘ngul o‘rtanmagin parvonavor aylay.

Necha g‘am dashti ichra bir pari mehrida soyamni,
Junundin bir zamon qovub, gahi andin firor aylay.

Necha anjum bila charx ofatidin charxu anjumdek,
Havoni ohim o‘tidin to‘la dudi sharor aylay.

Chu hech ish ixtiyori kimsada yo‘qtur, qo‘y ey zohid
Ki, tarki ixtiyor etmakni men ham ixtiyor aylay.

Navoiy, boda bahri begaronig‘a meni solg‘il
Ki, gardun bahrining mavji balosidin kanor aylay.

616

Necha ko‘rguzsam niyoz, ul sho‘x noz aylar, netay?
Javr ko‘ptin-ko‘p, tarahhum ozdin-oz aylar, netay?

Men niyoz aylarda istig‘nodin etmas noz ham,
Noz ham hayf elga izhori niyoz aylar, netay?

El bilakim la’lidin jon istar, aylar ixtilot,
Jon berib la’lig‘a mendin ehtiroz aylar, netay?

Vasli shomi boda yanglig‘ mast etib ahbobin,
Sham’dek to subh ishim so‘zu gudoz aylar, netay?

Javrini chekmakta men mumtozmen ahbobdin,
Lutf vaqt ul tarafni imtiyoz aylar, netay?

To haqiqiy ishq mastimen ko‘ngulni qovmusham,
Anikim andishai husni majoz aylar, netay?

Men husayniy mazhab ar hamroh emasmen, yo‘q ajab
Chun Navoiy har dam ohangi Hijoz aylar, netay?

617

Ro‘za bo‘ldiyu manga ichmak-emak kam bo‘lmadi,
Ichmakim juz qon, yemak juz g‘ussavu g‘am bo‘lmadi.

Elni serob ayladi ishrat zuloli shomi aysh,
G‘ayri ko‘z selobidin ernim mening nam bo‘lmadi

El yangi oy ko‘rdiyu men ko‘rmadim qoshing xamin,
Elga bayram bo‘ldi, ammo bizga bayram bo‘lmadi.

Olam oshubi uchun maydong‘a kirding sekretib,
Ul zamon kim qoldikim rasvoi olam bo‘lmadi.

Yangi oy bo‘lg‘ach ayon tutqil hiloli jomkim,
Juz bu ish imosig‘a qaddi aning xam bo‘lmadi.

Hajr zindonidin ozod et menikim, yo‘q bukun
Hech zindonyiki maxlas birla xurram bo‘lmadi.

Ey Navoiy, iyd o‘lub el ichtilar may dam-badam,
Bizga juz xuni jigar jomi damo-dam bo‘lmadi.

618

Ko‘z yoshim g‘alton borur ul orazi diljo‘ sari,
Tifldekkim ag‘nabon mayl aylagay ko‘zgu sari.

Ul buti zebo gar istar ashkim oqsa aybi yo‘q,
Zinnat ahli mayl etarlar doimo inju sari.

Xol shirinlig‘ni la’lingdin magar kasb aylamish
Kim, erur ko‘nglum bag‘oyat moyil ul hindu sari.

Hajr dashtida ko‘zi sori borur shaydo ko‘ngul,
Telba sahro sayrida borg‘an kebi ohu sari.

Har sari mayl etkaningdindur hasaddin o‘lmakim,
Yolg‘uz andin yo‘qli ko‘nglum moyil o‘lg‘ay bu sari.

Obi hayvondek chuchuk la’ling tuyassar chun emas,
Hajridin har lahza ko‘nglum tortar achchig‘ su sari

Ul mahi hirgahnishinning ostonin mendin o‘p,
Ey Navoiy, har qachon mayl aylasang o‘rdu sari.

619

Notavon nargisidek ayladi bemor meni,
Sunbuli domi aro qildi giriftor meni.

Yor ko‘yida gar o‘lsam g‘am emas o‘lturadur,

Ko‘yidin buki qovar har nafas ag‘yor meni.

Dard tog‘iyu balo dashtida ko‘rkim, qilmish
Ishq Farhod ila Majnung‘a namudor meni.

Tongdin oqshomg‘acha noz uyqusi ichra ul ko‘z
Vahki, qilmish kecha tong otqucha bedor meni.

Kuydurub har sari dudumni parishon qildi,
Duddek zulf ilo ul o‘t kebi ruxsor meni.

Kufr zulfi rasaninkim belima bog‘ladi rust,
Tortti dayrg‘a ul halqai zunnor meni.

Xonaqah ahlidin asru mutanaffirdur tab’,
Piri dayr aylagali voqifi asror meni.

Chun fano dayrida o‘zluktin og‘irroq yuk yo‘q,
Shukrkim ishq o‘ti qildi sabukbor meni.

Dema, ey shayx, Navoiyg‘aki, chiq maykadadin,
Chiqayin qo‘ysa gar ul dilbari xammor meni.

620

Ey quyosh, nevchun qoshingdin soyadek surdung meni,
Ravshan aylab jumlai olamni, kuydurdung meni.

Kuydurub, ey ishq o‘ti, gardung‘a sovurdung kulum,
Poyada oxir bu yanglig‘ ko‘kka yetkurdung meni.

Hajr o‘ti tobi yana behol qildi nechakim,
Ey nasimi vasl, o‘z holimg‘a kelturdung meni.

Ishq man’ida so‘zung chun hashv edi bo‘ldum xamush,
Qilma, ey voiz, gumonkim yo‘ldin ozg‘urdung meni.

Nayladim, ey ishqim, bo‘ldum o‘lum mustavjibi,
Kim, bu yanglig‘ hajr jallodig‘a topshurdung meni.

Vasling etting va‘da, ammo hajringa qilding asir,
Ko‘kka chekting, lek yerga oqibat urdung meni.

Ey Navoiy, vasl agar ro‘zi emastur chora yo‘q,
Qilmading deb sa‘yi bas, ne ishga yozg‘urdung meni.

621

Bor edi ul hamki bir chog‘ bizga yore bor edi,
Kulliy ar yor o‘lmasa filjumla bore yor edi.

Vasldin butqormasa taskin berur erdi so‘rub,
Xasta ko‘nglum dardinikim hajrdin afgor edi.

Men agar mahrum edim, mahram ham ermas erdi ul,
Ko‘nglum ar ozurda erdi, lek minnatdor edi.

Sham’ agar yorutmasa kuydurmasa ham yaxshidur,
Ne ulusqa ulfat andin, ne manga ozor edi.

Go‘yiyo shukr etmadimkim, onsiz o‘lmishmen bu dam,
Ul quyoshimni yoshurg‘an charxi kajraftor edi.

Charx bilmonkim manga bu uzrni tutti ravo,
Yo‘qsa mehr ahlig‘a ul to bor edi, g‘addor edi.

Yorsiz demang Navoiy mast emish, ey ahli hush
Kim, anga to hajr bor erdi, qachon hush yor edi.

622

Yana la’ling g‘ami ashkimni jigargun qildi,
Ham jigargun ani, ham bizni jigarxun qildi.

Mazhari husnu jamol o‘ldi yuzung andoqkim,
Shod etib olam elin, tek meni mahzun qildi.

Soching af‘ilaridin yo‘q ko‘zunga hech gazand,
Sehr ila to bu yilonlarg‘a ne afsun qildi.

Husni Shirin bila Laylidin agar ortug‘ emas,
Nega yuz xastani Farhod ila Majnun qildi.

Sayli ashkim g‘amida sarsari ohim birla,
Dashtni bahr etibon, tog‘ni homun qildi.

Quli bo‘ldim negakim, mug‘bachai bodafurush
Meni maxmurni bir jom ila mamnun qildi.

Ey Navoiy, demakim qilmasun ul oy oshiq,
Hozir ul emdi netay, hozir o‘lub chun qildi.

623

Yo‘qtur anduhu malolat o‘tig‘a xas men kebi,

Bedilu bechoravu bemoru bekas men kebi.

Eyki Majnun vasfin etting, o‘lmadi yor ollida,
Men qilib yuz jon fido ul bo‘lmag‘ay, bas, men kebi.

Dema parvona kuyar mendekki so‘z sham’ uzradur,
Ne uchunkim ul dog‘i g‘am shomi kuymas men kebi.

Turki anjumg‘a dedim husn ichra sen, yo ul fuzun,
Dedi, kim bo‘lg‘ay anga yuz banda charkas men kebi?

Qoshlaring yoyig‘a qurban qilg‘ali yillar tilab,
Topmag‘ay bir bu ko‘han toqi muqavvas men kebi.

Eyki dahr ahli, vafosi yo‘q debon ozurdasen,
Oshnolig‘ni alardin sen ham et bas men kebi.

Ey Navoiy, ishqni har kim yorutmoq istasa,
Yer yuzinda topmag‘ay tutruq uchun xas men kebi.

624

Chok bulg‘och ko‘nglum oldi sho‘xlar filhol ani,
G‘unchadekkim avval ochilg‘ach uzar atfol ani.

Hajr aro og‘riq ko‘ngul qolmish iki zulfung aro,
Darddekkim qopsamish har saridin bir dol ani.

Bog‘i ruxsoringdadur ko‘nglum qushikim qildi sayd,
Dom birla dona yanglig‘ zulf birla xol ani.

Tushkali ko‘yungga ko‘nglum aylading tufroqqa past,
Tushsa o‘t bir yerga, el qilg‘an kebi pomol ani.

Suvratingdin aql majnun bo‘lg‘ali bir tifl erur
Kim, qilibdur muztarib kog‘azda bir timsol ani.

Dahri dunni ayla rad nevchunki qilmaydur qabul,
Ulki dahr ahlig‘a muqbil aylamish iqbol ani.

Gar Navoiy davr aro behol erur soqiy, ne g‘am,
Kelturur o‘z holig‘a bir jomi molomol ani.

625

Ochmag‘ay erding jamoli olam oro koshki,
Solmag‘ay erding bori olamda g‘avg‘o koshki.

Chun jamoling jilvasi olamg‘a soldi rustahez,
Qilmag‘ay erdi ko‘zum ani tamosho koshki.

Bo‘limg‘ay erdi ko‘zum o‘tlug‘ yuzung ko‘rgan zamon
Ishqing o‘ti shu’lasi ko‘nglumda paydo koshki.

Aylagach ishqing balosi zor ko‘nglumni hazin,
Qilmag‘ay erding meni maxzung‘a parvo koshki

Tushmagay erdi firibomez lutfung bilmayin,
Notavon ko‘nglumga vaslingdin tamanno koshki.

Lutf ila ko‘nglumni vaslingdin talabgor aylabon,
Qilmag‘ay erding yana zulm oshkor koshki.

Bevafolig‘ anglag‘ach ishqingni ko‘nglum tark etib,
Qilmag‘ay erdi o‘zin olamda rasvo koshki.

Emdikim devonayu rasvoi olam bo‘lmisham,
Vasl uchun mumkin yo‘q o‘lturgay bu savdo koshki.

Ey Navoiy, bevafodur yor, bas ne foyda,
Nechakim desang agar yoxud magar yo koshki.

626

Yordin ayrilsa qotilmag‘lig‘in bilmas kishi,
Bilsakim, chun ayirlur, qotilmas, ayrlimas kishi.

Kimsa o‘lsa yordin ayrlmag‘ay, yuz voykim,
Ayrlurda buyla hijron shiddatin bilmas kishi.

Vasl qadrin bilmayin o‘ldum g‘ami hajrida, voy
Kim, visol ayyomi hajr andishasin qilmas kishi.

Hajr biymidin o‘lubmen, soqiyo, tut jomkim,
Ko‘zga mast o‘lg‘an zamon Jamshidni ilmas kishi.

Mendin ermas, hajrdindur har taraf bag‘rimda chok,
Yo‘qsa tig‘i qatl ila o‘z bag‘rini tilmas kishi.

Yoshurun dardimni qilmay oshkor o‘lgumdurur,
Ohkim, olamda ahli dard topilmas kishi.

To‘ydi jonidin Navoiy hajr aro tut, ey ajal,
Uyla maykim chun ichar to hashr oyilmas kishi.

627

Baski ko‘nglumni falak majruhu vayron istagay,
Istaram o‘lmakni andoqkim, o‘luk jon istagay.

Furqating oshubidin istar ko‘ngul qo‘ymoq tungan,
Kimsa andoqkim yara man’ig‘a qolqon istagay.

Hajrkim jonom tilar har dam azob aylab erur,
Zolimekim qiyab eldin naqdi pinhon istagay.

Bo‘lmasun oshiq meningdekkim, ko‘rub dildorini,
O‘zgalarga multafit har lahfa hijron istagay,

Vah, necha mehnat toshi atfoldin yog‘durg‘ali,
Ishq shahru ko‘y aro jismimni uryon istagay.

Ul pari ushshoqig‘a rahm etsa etsun ushbu bas
Kim, meni devonavu rasvoi davron istagay.

O‘qlaringdin o‘lganimdin so‘ngra topqay qatl uchun,
Tufrog‘imdin charx agar yuz qari paykon istagay.

Qilsun oson o‘zlukidin bo‘lsa bir dushvorlig‘,
Har kishi davron g‘ami dushvorin oson istagay.

Ey Navoiy, sen kebi mahrum qolg‘ay, kimki ul
Olam ahlidin vafoyi ahdu paymon istagay.

628

Firoq ashkidin, ey ko‘z, dame ochil bore,
Boshimg‘akim qadam urmish nazora qil bore.

Kelibdur ul pari, ey be shuur telba ko‘ngul,
Kelib o‘zungga ne deydurmen anglag‘il bore.

Jahon xaloyiqi javrungdin o‘ldi, ey badmast,
Bular tafarrujig‘a bir nafas oyil bore.

Iyodatimg‘a mening, ey Masih, chun kelding,
Dam urmay o‘lma ravon nuktae degil bore.

Bukim jahon aro rasvomen aylamon tahsin,
Sening g‘amingdin o‘lubmen bu nav’ bil bore.

Necha ulusqa mayu bizga zahr soqiydur,
Dedingki mastmen, ar chin deding, yongil bore.

Navoiy o‘lg‘usidur iltifoting ozlig‘idin
Chu ko‘rmagung yana bir qatla ko‘zga il bore.

629

Gul emas har yon yuzung davrida oro qilgali,
Halqa urmishlar jamolingga‘a tamoshq qilg‘ali.

Orazing Chin naqshi zulfung mushku haryon xol erur,
Hind elikim Ching‘a kelmish mushk savdo qilg‘ali.

Yuz uza og‘zing o‘g‘urlab naqdi din bo‘ldi nihon,
Chekti xatting xayli saf o‘g‘rini paydo qilg‘ali.

Qilg‘ali ishqining pinhon aylading ko‘ksumni chok,
Dema pinhon qilg‘alikim oshkor qilg‘ali.

Eyki, so‘rdungkim qachondin sen junun oshubida,
Ul pari xayli g‘ami ko‘nglumda g‘avg‘o qilg‘ali.

Bodag‘a rahm aylaganda ofiyat dastorini,
Yirttim bir go‘shasidin bodapol qilg‘ali.

Yo‘l chiqarmon tiyra shomimdin Navoiydek, vale
Muntazirdurmen hidoyat barqi bir choqilg‘ali.

630

Ey ko‘ngul, vaslidin ul oy bizni navmid etmagay,
Jonimizg‘a furqat anduhini jovid etmagay.

Qasdi jon aylarda la‘lig‘a tatabbu’ qilmag‘ay,
Kungul o‘rtar chog‘da ruxsorig‘a taqlid etmagay.

Vasl ummidi bila ushshoqini qilg‘anda shod,
G‘ussalig‘ ko‘nglumni hajri birla tahdid etmagay.

Tushta ko‘rdum orazin ko‘nglumni barqi ishq ila,
Ul qadar garm ettikim, tush vaqt xurshid etmagay.

Itlaring sing‘an safoli tushkach ilgimga, ko‘ngul
Oncha faxr ettiki, jomi birla Jamshid etmagay.

Durri vahdat topmag‘ay hargiz fano girdobidin,
Solikekim o‘zni g‘arqi bahri tajrid etmagay.

Oncha faryod etti mutribilar Navoiy nazmidin
Kim, Utorid she‘ridin charx uzra Nohid etmagay.

So‘rmangiz ashkim suyinkim muttasilmu kelgusi,
To ko‘ngul ishq o‘tidin kuygusi ul su kelgusi.

Zulfunga yetkach ko‘ngul bexud yiqildi atridin,
Bilmadim ul shomg‘a kirganga uyqu kelgusi.

Tiyra bo‘ldi lam’ai paykoning o‘tkandin ko‘ngul,
Chun quyosh borg‘usi, olamg‘a qorong‘u kelgusi.

Haddin o‘tti orazim, ko‘rgach labing xandonlig‘i,
Bilmadim bu za’farondin muncha kulgu kelgusi.

Chiqtı ko‘nglumdin havosu aql ishqing ollig‘a,
Qo‘ysa yuz mulkiga shohi xalq o‘tru kelgusi.

Soqiyo, tut mayki o‘zluk naqshidin bo‘lg‘um xalos,
Har qachon ilgimga ul raxshanda ko‘zgu kelgusi.

Ey Navoiy, o‘lma har dam ul musofir oy uchun,
G‘am yema shah yong‘usidur tongla urdu kelgusi.

Ahli dil ollida dildor iltifoti kamlig‘i,
Oncha sa‘b ermaski, har noahl ila hamdamlig‘i.

Gar o‘g‘urluq istamas la’ling dog‘i jon naqdidin,
Bas nedur o‘g‘ri kebi payvasta qoshing xamlig‘i.

Zulfi torin torta olmas kimsa ko‘nglumdinki bor,
Berkroq jon rishtasidin ham aning mahkamlig‘i.

Uylakim tun dudini ohim parishon ayladi,
Tong yelidindur muanbar sunbulung darhamlig‘i.

Har ne el ko‘ngluga xurramlig‘, mening ko‘nglumg‘a g‘am
Kim, g‘amingdin bo‘lmish ul devonaning xurramlig‘i.

Soqiyo, may berki, dardim zohir aylay mast o‘lub
Kim, ichim qon ayladi ish siringning mubhamlig‘i.

Gar Navoiy ayladi badmastlig‘, ey piri dayr,
Sen karam kam qilmag‘ilkim, ko‘ptur aning kamlig‘i.

Bormag‘il qahr bila bag‘rim etib qon emdi,
Yo bu bedil sari, yo lutf sari yon emdi.

O‘qlaringdin ko‘z aro ko‘p tikon erdi qochting,
Kelki, qon yoshim ani qildi guliston emdi.

Dedi, hijron aro faryodinga yetkum bir kun,
Za’fdin, ohki, mumknn emas afg‘on emdi.

Qatldin ko‘p meni qo‘rqutmag‘il, ey muhlik ishq
Kim, ani hajr qilibtur menga oson emdi.

Bildi maxmurlug‘um tutti qadah soqiyi davr,
Shah meni dengki, erur komima davron emdi.

Bodadin kom, labing bodasidin jon toptim,
Soqiyo, yo‘qturur o‘lsam dog‘i armon emdi.

Ey Navoiy, dema tark aylaki ko‘ptur g‘ami ishq,
Menki chektim g‘amini, tark ne imkon emdi.

634

Necha men mehnat chekib, ul oy tana’um aylagay,
Oshkoroyig‘lasam, pinhon tabassum aylagay.

Javridin ul nav’ xushmenkim o‘lum holi bo‘lub,
Vahm etarmenkim, ko‘rub nogah tarahhum aylagay.

Nukta surgach la’li o‘lgonlar topar umri abad,
Umrida Iso qachon mundog‘ takallum aylagay.

Tig‘i zulmi tegmag‘idin aylasa el ko‘ngli bim,
Tegmasun g‘ayrig‘a deb, ko‘nglum tavahhum aylagay.

Dema zulmum ko‘p yetib ko‘nglung tazallum aylamish
Kim, agar oz yetsa shoyadkim tazallum aylagay.

Ey ko‘ngul, bir lahza hijron shiddatig‘a arzimas,
Gar visol ichra kishi yuz yil tana’um aylagay.

Yor bazmig‘a chu yo‘l topmas Navoiy ne osig‘,
Dilxarosh afg‘onu gar dilkash tarannum aylagay.

635

Istadim yoreki ko‘nglum dam-badam shod aylagay,
Bilmadim jonimg‘a bedod uzra bedod aylagay.

La’li anfositdin ochilg‘ay hayotim g‘unchasi,
Yo‘qli umrim xirmanin bir damda barbod aylagay.

Vasl ila yiqqay ko‘nguldin dardu g‘am bunyodini,
Yo‘qli, har dam o‘zga hijron tarhi bunyod aylagay.

Sham’i ruxsori yorutqay tiyra ko‘nglum kulbasin,
Yo‘qli, zulfi dudi ani mehnatobod aylagay.

Rishtai jonimdin ochqay no‘gi mujgoni girihi,
Har birin qatlimg‘a yo‘qim neshi po‘lod aylagay.

Hech gulga bo‘lmasun moyil birovkim sarvdek,
Desakim o‘zni xazon davridin ozod aylagay.

Ko‘p Navoiy nolasin man’ aylamangkim, toki ul
Yorini yod aylagan, albatta, faryod aylagay.

636

Gulshani ko‘yungdin ayru bog‘i rizvonni netay,
Boshima gar gul sochar, sensiz gulafshonni netay.

Naxli qadding chun emas giryon ko‘zumda jilvagar,
Jo‘ybor atrofida sarvi xiromonni netay.

Ul itingga bo‘lmasa tu’ma, bu ollingda fido,
Za’fliq paykarni naylay, notavon jonni netay.

La’lgun ashkim labi hijronida ayb etmangiz,
Ko‘z yo‘lidin to‘kmayin bag‘rimdag‘i qonni netay.

Zulmati hajrida chashming vasfin etma, ey Xizr,
Menki umrimdin to‘yubmen, obi hayvonni netay.

Dog‘ima marhamni ko‘p taklif qilmay, ey rafiq,
Tuttum ul dog‘im o‘ngardi, dog‘i hijronni netay.

Yordin ayru buzug‘ ko‘nglumga qildim xayrbod,
Ey Navoiy, uyla ganj o‘lmay bu vayronni netay.

637

Chu qo‘ydum ishq, uyat har bedilu devonadin dog‘i,

Demay Farhodu Majnun bulbulu parvonadin dog‘i.

Chu men begona bo‘ldum ishq birla oshnolig‘din,
Bu ishga oshnolardin uyat begonadin dog‘i.

Bu ishnikim men aylabmen, meni qilmoq bo‘lur ixroj,
Vatan ma’murasidin ham, buzug‘ koshonadin dog‘i.

Chu zuhd ettim havas, yo‘q ayb piri dayr agar derkim,
Qovung ani fano dayridinu mayxonadin dog‘i.

Mening jonimg‘a o‘tkanlarni sharh etsam ulus o‘lgay
Ki, jon qotillaridin kechtimu jononadin dog‘i.

Manga zulm oncha o‘tti ishqdinkim, tarkini tuttum,
Og‘iz muhr ayladim ul bobda afsonadin dog‘i.

Tazarv oyinlar etsa jilva gulshan ichra yo‘q ulkim,
Nazar solmayki, chiqmay chug‘zdek vayronadin dog‘i.

Falak jomidin oncha zahr no‘sh aylabmen, ey hamdam
Ki, maydin elni yubmen, sog‘aru paymonadin dog‘i.

Navoiy, tarki ishq ettim desa butmangki butmaslar,
Kishi har so‘z eshitsa usrugu devonadin dog‘i.

638

Charxkim oyu quyoshi boru yuz ming anjumi,
Poymolu tiyra tufrog‘ emgagidin ne g‘ami.

Bog‘bon gulshanda yuz ming gul bilakim aysh etar,
Ne g‘ami gul hajridin bulbulning o‘lsa motami.

Shahg‘a shavkat olamiyu bandadur yuz mohchehr,
Hajr aro bilmas gadoning bor ne muhlik olami.

Ey rafiq, olg‘il yaram momuqlarin, bo‘lg‘il bihil,
O‘lgudekmenkim, tikondur zaxmlarg‘a marhami.

Men bashar jinsig‘a jon o‘ynab vafoe ko‘rmadim,
Qochmay odam xaylidin har kimki bo‘lsa odami.

Men chu zohir qilmadim ne nav’ ulusqa bo‘ldi fosh,
Ishq aro oshufta ko‘nglumning bu sirri mubhami.

Ey Navoiy, ishq sIRRIN hech mahramg‘a dema
Kim, buning ham mahrami bo‘lg‘ay, aning ham mahrami.

Agar ishq ayladi bechora bizni
Va lekin qildi hajr ovora bizni.

Ne ishqu hajr balkim rashk tig‘i,
Damodam qildi pora-pora bizni.

Bu ishdur turfakim har kimga bir tig‘
Ki, urdi ayladi yuz yora bizni.

Menu Farhoddin Majnun uzulmas,
Nedinkim topti ul hamkora bizni.

Vafo qil bag‘ri toshimkim, haq et mish,
Jafo tortarda sangi xora bizni.

Jahon sho‘xin taloq etsang ne tongkim,
Chiqardi eldin ul makkora bizni.

Navoiydek yuzung bir ko‘rduk, itti
Jahon rasvosi bir nazzora bizni.

Gulbun uzra subhidam har sari gul bargi tari,
Har shajar uzra magar qo‘ng‘an durur xayli pari.

Su aro tushmish quyosh aksi yo‘q ersa g‘aybdin
Kirdi gulshanning tamoshosig‘a mehri xovari.

Maktab atfoli kebi bulbullar o‘lmish na’razan,
To nasimi subh elidin ochilur gul daftari.

Gul arusi husn mulkida erur sohibqiron,
To yuzi davrig‘a ziynat berdi shabnam gavhari.

Jola birla nilufar bir nav’ tutmish zebkim,
Sobitu sayyora birla gunbadi nilufari.

Ul kishi umri bahoridin terar gulbargi aysh
Kim, kafida lolagun may birla bo‘lg‘ay sog‘ari.

Do‘sstar birla tutub ishrat bahorin mug‘tanam,
Bir nafas ssuda bo‘lg‘ay joni mehnatparvari.

Kimgakim bir dam bu kom o‘lsa tuyassar yaxshiroq,
Bo‘lg‘ucha yuz kari aning hukmida olam kishvari.

Ey Navoiy, faqr mulkin tut g‘anim zinhor
Kim, g‘inovu saltanatning ko‘pturur dardi sari.

641

Chehra yopib meni kuydurma, axi,
Vajhsiz jonima o‘t urma, axi.

Dame o‘lturmas esang yonimda,
Bore el yonida o‘lturma, axi.

Shishadek ko‘nglum aro gar mayi vasl,
Solmas ersang ani sindurma, axi.

O‘zgalar sari boqib tishlama lab,
Zaxmlar jonima yetkurma, axi.

Zulfi savdosina chirmashma ko‘ngul,
Yuz balo boshima kelturma, axi.

Ey ko‘z, ul sho‘xqa chun xush kelmas,
Ko‘p aning jonibi telmurma, axi.

Yozug‘um bor esa qatl ayla o‘zung,
Hajr jallodig‘a topshurma, axi.

Soqiyo, tinmog‘im istar bo‘lsang,
May ichardin meni tindurma, axi.

Yuz jafo toshi Navoiyg‘a urub,
It deb ollingdan ani surma, axi.

642

Ko‘ngulning hajr aro jondin maloli
Ki, yo‘q sensiz tiriklik ehtimoli.

Qadidin sarvig‘a yetti xijolat
Ki, tuzlukda yo‘q erdi e’tidoli

Xayoli bas chu yo‘q vaslig‘a haddim,
Visoli bo‘lmasa bori xayoli.

Niholedur qadi to‘bidin ortuq,
Agarchi yo‘qturur to‘bi niholi.

Yangi oy shomg‘a mayl aylagandek,

Ulanmish zulfig‘a mushkin hiloli.

Labi jonbaxsh so‘z ayturda qolmas
Masihoning dam urmoqqa majoli.

Ne g‘am, soqiy, agar xud jomi Jam yo‘q,
Yetar mayxonaning sing‘on safoli.

Meni behol qil bir may bilankim,
Ko‘ngulning o‘zgadur har lahza holi.

Navoiy, sen chu hijron loyiqisen,
Pishurma vasl savdoi muholi.

643

Soqiyo, yo‘q g‘amu dardima hadde,
Vaqt erur may bila qilsang madade.

Mehnatim tog‘icha yo‘qtur Uhudi,
Ani tortarg‘a meningdek ahade.

Tut manga bodai jomi azali
Ki, berur qatrasи umri abadi.

Buyla dardimni magar andoq may,
Daf’ qilg‘ayki anga umr fadi.

Bodakim ani chun no‘sh etsam.
Har zamon Xizrg‘a bo‘lg‘ay hasadi

Ki qiyomat kuni kavsар mayini
Ichkali ham bu may o‘lg‘ay sanadi.

Ajab ish qildi Navoiyki, bu nav'
May, ichib bizga salo aylamadi.

644

Ko‘nglum olg‘on dilbarim dildorlig‘ bilmas, netay,
Bilsa g‘amgin aylamak g‘amxorliq bilmas, netay?

Husnig‘a boqtim ko‘zumning mardumig‘a urdi nesh,
Mahvashim oyini mardumdorlig‘ bilmas, netay?

Dema usrukdu ko‘zum, qilma tazallum ollida,
Ko‘z yumub ochquncha ul hushyorlig‘ bilmas, netay?

Ul pari paykarg‘a yoqmas zorlig‘ birla fig‘on,
Telba ko‘nglum yuz fig‘onu zorlig‘ bilmas, netay?

Odamivashliq pari ruxsorlardin xo‘b erur,
Chun bu ishni ul pari ruxsorlig‘ bilmas, netay?

Eyki dersen dayr pirig‘a nedin bo‘ldung murid,
Shayxi hiylat pesha juz makkorlig‘ bilmas, netay?

Mastu behush o‘lmog‘im tun-kun, Navoiy, so‘rmag‘il,
Charxi javrandisha juz g‘addorlig‘ bilmas, netay?

645

Yona nihon qilasen bizga qasdu kin bore,
Raqib ila bo‘lasen yoru hamnishin bore.

Dedingki, ishqim ichinda tariqi taqvo tut,
Bu so‘zni deb olasen yona naqdi din bore.

Bu va’da birlaki ishq ahli huznin o‘ksutayin,
Alar orasida qilding meni hazin bore.

Dedingki, kel sanga ehson qilay, chu men keldim,
Qoshingdadur girihi manglayingda chin bore.

Jamol gulshanida elga sen guli xandon,
Bu xasni o‘rtagali bo‘ldung otashin bore.

Shior aylamasang naqshband oyinin,
Riyovu zuhd bila bo‘lma naqshbin bore.

Fano yo‘lig‘a chu kirding, Navoiy, urma nafas,
Bu dasht tufrog‘ig‘a surtmay jabin bore.

646

Ishq aro holimg‘a bir hamdam tarahhum qilmadi
Yor holim bilmadi, gar bildi, ko‘zga ilmadi.

To ul oy ag‘yor ila no‘sh ayladi jomi visol,
Qaysi hijron neshikim bag‘rim aro sanchilmadi.

Ne ajab gar bilmasam holimni bu g‘amdinki, yor
O‘lgali yettim g‘ami ishqida holim bilmadi.

Qon yoshimning sarguzashtin kim yoshursun emdikim,
Qolmadi yerkim, bu rangin mojaro aytilmadi.

Husn bog‘idin vafo vardi tavaqqu’ qilmangiz
Kim, bu gulshan gulbunida buyla gul ochilmadi.

Ishqim ixfosini, vahkim, qilmadim hargiz xayol,
To ul oyning husnidek olam aro yoymadi.

Ey Navoiy, sendin o‘tu su arodur xalqkim,
Yog‘madi ashking suyi to oh o‘ti choqilmadi.

647

Sen zuloli vasl ichib, men zaxri hijron ichkuchi,
Og‘u ichkondin ne voqif obi hayvon ichkuchi.

Ul yuzin gulrang etib men ashk xunobin to‘kub,
Kim erur ul bodai gulgunu men qon ichkuchi.

Ichsa gulgun boda olamdur guliston yuzidin,
Buyla yo‘q olam gulistonida imkon ichkuchi.

Davr ayog‘in ichmayin davrong‘a solding rustaxez,
Ko‘rmadi davr ichra sendek ahli davron ichkuchi.

Oshiq o‘lmay sizki dersiz tavba qil, ey ahli zuhd,
Netsun ichmay joni mahjur o‘lsa jonon ichkuchi.

Boda sho‘xidin agar nolon bo‘lubmen ayb emas
Kim, erur ko‘nglumni olg‘on sho‘xi nodon ichkuchi.

Ey Navoiy, yor mehmon bo‘lsa, may tutqach, sumur,
Mizbon zohid xush ermas, bo‘lsa mehmon ichkuchi.

648

Yo‘q manga had vasl alfozin tilima surgali,
Tengri xalq etmish meni hijron g‘ami o‘lturgali.

Ishq o‘tig‘a istasang tutruq yetar xasdek tanim,
Shu’la yoqmoq istasang ushshoqni kuydurgali.

Tun qorong‘u mast otlandi, ko‘ngulning shu’lasin
Aylabon mash’al borurmen uyiga yetkurgali.

Telba ko‘nglumni so‘ro keldiyu ul itkan emish,
Ani men xud bormog‘im, billah, topib kelturgali.

Yoshurun erdi g‘amim, vahkim, balo toshi yog‘ar,

Boshima ishqisi nihonin el aro bilgurgali.

Begunah qonimni to'kti ishq emdi ne osig',
Qelsalar Farhod ila Majnun anga bildurgali.

Gar Navoiy tutsa tog' avjin junundin, ey sipehr,
Sang boron hojat ermastur ani indurgali.

649

Necha hajringda chekib un yig'lay,
Har kecha yig'layu har kun yig'lay.

Kecha faryodima yetkay deb ul oy,
Osmondin oshirib un yig'lay.

Har taraf zohir etib kavkabi ashk,
Kun tulu' etkucha har tun yig'lay.

Ashkdin kirpik uza ul xat uchun
Yog'durub sabzag'a shudrun yig'lay.

Charxu anjum sari ohim o'tidin,
Yuborib dud ila uchqun, yig'lay.

Charx bedodidin ul mushfiq yor,
Bir zamone meni qo'ysun, yig'lay.

Dema vaslimda Navoiy yig'lar,
Vasl mumkin esa nevchun yig'lay.

650

Labing Masihu aning nutqi nuktapardozi
Ki, ruhi qudsiy erur bu Masih e'jozi.

Xatingni Xizr demonkim, bu sabza har giyahi
— Xizrdurur labing obi hayot damsozi.

Havoi ishqida ko'nglumda hush qolmadikim,
Bu telba qushning erur ul havoda parvozi.

Qadah bu dayrda andozasiz tutungkim, bor
Boshimda mug'bachalar sho'ri ishqisi andozi.

Ne sog' o'layki, chu borg' umdur o'lmayin ma'lum —
Bu korxonaning anjomni birla og'ozi.

Navoiy istadi behush o‘zinki ahli xirad,
Falakning o‘lmadi bu ishda mahrami rozi.

Anga bu baski jahon mulkin oldi so‘z birla,
Chekib sipohi maoniy dami fusunsozi.

Bu vajh birlaki Sohibqiron debon laqabin,
Atadi xusravi Sohibqiron Abulg‘oziy.

Yanaki nutq ilayu ruh ila yeturdi anga
Fuyuz orifi Jomiyu rindi Sheroziy.

MUSTAZOD

Din ofati bir mug‘bachai mohyuliqodur,
mayxoravu bebok
Kim ishqidin aning vatanim dayri fanodur,
sarmastu yoqom chok.
Ham turrasining dudi vara’ beliga zunnor
men kofiri ishqqi.
Ham yuzi majus o‘ti kebi shu’lafizodur,
men o‘rtanibon pok.
Ul chehra furug‘i tushubon zor tanimg‘a
bir nav’ kuyarkim.
Har kimsa ani ko‘rdi sog‘indiki yonodur
o‘t ichida xoshok.
Hayvon suyi jonimni olur la’lidin ayru
ul jur’ai maykim,
Tegmish anga maygun labi jonimg‘a davodur
ne zahru, ne taryok.
Bu nav’ki aylar, mayi vasli havasidin
maxmur bo‘lubmen.
Mushkilki yozilg‘ay bu xumoriki mangadur
sog‘ar bo‘lub aflok.
Soyilmenu maqsudum erur naqdi visoling
buxl aylama, jono,
Kim barcha mazohibdaki ishq ahli arodur,
mazmum erur imsok.
Hajringda yuzi sarg‘oribon dam ura olmas,
bechora Navoiy.
Go‘yoki xazon faslida bebargu navodur
ul bulbuli g‘amnok.

MUXAMMASLAR

1

Masnadi husn uzra tokim ko‘rmisham ul shohni,
Tiyra aylabmen fig‘ondin nilgun xirgohni,
Ey sabo, arz ayla nogah ko‘rsang ul dilxohni,
Ko‘ktadur har dam fig‘onim ko‘rgali sen mohni.
Da‘vii mehringga tonuq tortadurmen ohni.

Ey g‘ubori markabing kun ko‘zgusining sayqali,
Nechakim men bir gado, sen podshohdursen bale,
Yo‘q ajab sen husn shohin mayl qilsam sevgali,
Sen kebi sultonni sevmak haddim ermastur, vale
Bu balolig‘ ishq farq etmas gadovu shohni.

Xirmani vasling to‘la senda, ey xalq ahsani,
Sabzai xatting tomoshosinda, ey ko‘z ravshani,
Sunbuli zulfung xayolotida, ey jon gulshani,
Donai xoling tamannosinda, ey gul xirmani,
Rahm qilkim, chehrai zardim yoshurdi kohni.

Zulfa yuzung ko‘rdiyu kuydi ko‘ngul hasrat bila,
Vasling ummidig‘a jon qildi fido rag‘bat bila,
Senda yo‘q ermish vafoyu men kuyub mehnat bila,
Zulfungu yuzung firoqinda tuman hasrat bila,
Hayfkim zoe’ kechurdum muncha solu mohni.

Eyki, yo‘qtur husn iqlimida sendek podsho,
Oshiqingning necha tutqaysen munungdek benavo,
Nechakim bo‘ldi eshikingda Navoiydek gado,
Qavma Lutfini eshiktin, ber zakoti husn ango,
Qayda etsun sen g‘ani borinda shay lillohni.

2

Ohkim, volih men ul sarvi xiromondin judo,
Ko‘zlarim giryondur ul gul bargi xandondin judo,
Benavodur jon dag‘i ul huri rizvondin judo,
Ne navo soz aylagay bulbul guliston judo,
Aylamas to‘ti takallum shakkariston judo.

Vah, necha ishq o‘ti jismimda so‘ngakni o‘rtagay,
Ko‘nglakim jaybig‘a o‘t solg‘ay etakni o‘rtagay,
Telbalik ohim samodin to samakni o‘rtagay,
Ul quyosh hajrida qo‘rqarmen falakni o‘rtagay,
Har sharorekim bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo.

Vahki, bag‘rim to‘kti ko‘zlar yo‘lidin pargola ko‘p,
Ko‘z ham ul gul hajridin yog‘durdi gulgun jola ko‘p,
Za‘f etibmen qonlig‘ ashkim baski to‘kti lola ko‘p,
Dema hijronimda chekmaysen fig‘onu nola ko‘p,
Jism aylarmu fig‘on bo‘lg‘an nafas jondin judo.

Qilg‘ali mahrum jomi vaslidin jonon meni,
Talxkom etmish tiriklik bodasidin jon meni,
Har zamon o‘lturur g‘am zahridin hijron meni,
Hajr o‘lumdin talx emish mundin so‘ng, ey davron, meni
Aylagil jondin judo qilg‘uncha jonondin judo.

Bag‘rima, ey xori hijron, har zamon sanchilmag‘il,
Ey ko‘ngul, yuz javr yetsa ko‘zga g‘ayrin ilmag‘il,
Ming balo yuzlansa, ey jon, yordin ayrilmag‘il,
Bo‘lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag‘il.,
Yorni mendin judo yoxud meni andin judo.

Jonni andoq husnung o‘ti shu’lasi kul qildikim,
Jism aningdek lam’ai ruxsoringa yoqildikim,
Sharhi holig‘a alarning bu raqam yozildikim,
Vasl aro parvona o‘rtandi hamono bildikim,
Qilg‘udekdur subh ani sham‘i shabistondin judo.

Oshiqekim bo‘lg‘ay ul bir sho‘xi gulruxsorsiz,
Uyla bulbuldurki qolmishdur gulu gulzorsiz,
Voy ul bedilg‘akim, qolq‘ay tirik dildorsiz,
Bir iyosiz it bo‘lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo‘lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo.

3

Bo‘limg‘ay erdi jamoling muncha zebo koshki,
Bo‘lsa ham qilg‘ay eding ko‘zlardin ixfo koshki,
Qilmag‘ay erding ulus qatlin tamanno koshki,
Ochmag‘ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki.

Emdikim ochting jamolu xalq ila qilding sitez,
Ko‘rgach ani xayli ishqing tortibon yuz tig‘i tez,
Qildilar ko‘nglumni hijron xanjaridin rez-rez,
Chun jamoling jilvasi olamg‘a soldi rustaxez,
Qilmag‘ay erdi ko‘zum ani tamosho koshki.

Ochq‘och ul yuz shu’lasin mahzun ko‘ngul topmay omon,
Bor edi ul shu’lani ko‘rmak hamon, kuymak hamon,
Sahv edi sendin vafo qilmoq tamanno men hamon,
Bo‘limg‘ay erdi ko‘zum o‘tlug‘ yuzung ko‘rgan zamon,

Ishqing o‘ti shu’lasi ko‘nglumda paydo koshki.

Chun sening ishqing menga bo‘ldi baloyi aqlu din,
Va’dai vasl aylading yuz lutf ila, ey mahjabin.
Emdikim bo‘ldum giriftoring qilursen qatlu kin,
Aylagach zulfung balosi zor ko‘nglumni hazin,
Qilmagay erding meni mahzung‘a parvo koshki.

Ko‘nglum olg‘anda deding, sendin dame ayrilmayin,
Jon nisorim aylasa ishq ahli ko‘zga ilmayin,
Dam-badam lutfungni ermas erdi bovar qilmayin,
Tushmagay erdi firibomez lutfung bilmayin,
Notavon ko‘nglumga vaslingdin tamanno koshki.

Ko‘nglum olding chehra burqa’din namudor aylabon,
So‘ngra javrung ne edi jonimni afgor aylabon,
Ey quyosh, avval vafov u mehr izhor aylabon,
Lutf ila ko‘nglumni vaslingdin tama’gor aylabon,
Qilmag‘ay erding yana zulm oshkor oshkor koshki.

Ey qoshi yo, ishqing o‘qin ko‘nglum ichra berkitib,
Der eding qilg‘um vafo sarvaqtinga gohi yetib,
Telbaratkach zulm qilding, va’da yodingdin ketib,
Bevafolig‘ anglag‘och ishqingni ko‘nglum tark etib,
Qilmag‘ay erdi o‘zin olamda rasvo koshki.

Vasli savdosida menkim bastan g‘am bo‘lmisham,
O‘ylakim Majnun balo xaylig‘a hamdam bo‘lmisham,
Vahki, rasvoliqqa olamda musallam bo‘lmisham,
Emdikim devonayu rasvoyi olam bo‘lmisham,
Vasl chun mumkin yo‘q o‘lturgay bu savdo koshki.

Dema ko‘nglum kosh itsa zulfi anbar soyida,
Yo agar jon mahv bo‘lsa la’li shakkarxoyida,
Yo magar boshim emasmu raxshi xoki poyida,
Ey Navoiy, bevfodur yor, bas, ne foyda,
Nechakim desang agar yoxud magar, yo koshki.

MUSADDAS

Dahr aro chun qayg‘usiz yo‘q hech ishrat, ey rafiq,
Aysh subhin istama beshomi ofat, ey rafiq,
Kim emas bir-birdin ayru nuru zulmat, ey rafiq,
Shu’lai ishrat qani bedudi mehnat, ey rafiq,
Kimki vasli ichra yoqsang sham’i ulfat, ey rafiq,
Ko‘z tut ul sham’ o‘tidin-o‘q dog‘i furqat, ey rafiq.

Bevafodur bu qadimiy davr uza bu eski toq,
Ko‘rsang anda no‘shi ishrat neshi g‘am zimnida boq,
Kim icharga vasli jomin zohir etti ishtiyoy
Kim, anga talx etmadi dardi firoq oxir mazoq,
Vasl sofiy mumkin ermas, chunki bedardi firoq,
Zinhor ul boda sari qilma rag‘bat, ey rafiq.

Ofiyat sarmanzilidin o‘zni mahjur etmagil,
Xo‘blar ko‘yi sari mayl ulcha maqdur etmagil,
Aylasang ul oy g‘amidin o‘zni ranjur etmagil,
Vasli ummidi bila ko‘nglungni masrur etmagil,
Vasl yo‘qkim, ishq lafzin tilga mazkur etmagil,
Har nafas ko‘rmay desang yuz nav’ shiddat, ey rafiq.

Gar salomat ko‘yining asbobin istarsen to‘kuz,
Xonaqah sahni ichinda zikr ohangini tuz,
Masjid aylarga imorat dayr devorini buz,
Ishq ko‘yi tufrog‘ig‘a har zamon yetkurma yuz,
Sho‘xi chobuklar g‘ubori tavsanig‘a solma ko‘z,
Yuzda istar bo‘lmasang gardi mazallat, ey rafiq.

Bir quyosh ishqig‘a gardun aylabon mahram seni,
Zarra yanglig‘ aylasa sargashtai olam seni,
Qochma ul o‘tdin necha kul qilsa ham har dam seni,
Ofiyat fikriga salsa zuhdu taqvo ham seni,
Kuyma har bemehr o‘tig‘a, gar desang har dam seni,
Qilmag‘ay kul shu’lai anduhu furqat, ey rafiq.

Tori ishqingni desangkim charx davri uzmasun,
Xasta ko‘ngling juz navoiy dardu mehnat tuzmasun,
Jon uyida g‘ayri jonon ishq o‘lturg‘uzmasun,
Charx umrung qasrig‘a desang halal ko‘rguzmasun,
Boqma guldek yuz uza xay shabnaminkim buzmasun,
Aql ila sabring binosin sayli ofat, ey rafiq.

Ofiyat bazmida garchi jomi vasling to‘lmasa,
Zuhd bedodi boshingdin bir nafas o‘ksulmasa,
Shayx aylab yuz jafo, bir qatla uzrung qo‘lmasa,
Buyla o‘tlardin kerak bargi umiding so‘lmasa,

Gar solib yuz ming balog‘a mendek o‘zni, bo‘lmasa
Ishqsiz bir dam sanga ham sabru toqat, ey rafiq.

Aytmon bir sarv qaddu mohi ruxsor istagil,
Aysh sozi, qotili sho‘xi sitamkor istagil,
Tosh bag‘irliq rahmsiz xunrezi ayyor istagil,
Lek dermen, dahr aro yori vafodor istagil,
Toki mumkindur kezib bir mehribon yor istagil,
Bag‘ri toshlarni sevarga qilma jur’at, ey rafiq.

Arzimas fikr aylamakka dahri behosil g‘ami,
Xulladek xil’at so‘zi yo ravzadek manzil g‘ami,
Boda ich desangki ketkay davri musta’jil g‘ami,
Istabon qatlingni nogah ishqning mushkil g‘ami,
Gar Navoiydek boshingg‘a tushsa bir qotil g‘ami,
Anda dog‘i ko‘rgasen ne bo‘lsa qismat, ey rafiq.

TARJI'BAND

Jahon qasrig‘adur su uzra bunyod
Chu yo‘q bunyodi andin bo‘lmog‘il shod.

Ne shod o‘lg‘ay kishi bir qasrdinkim,
Ani tengri yaratmish mehnatobod.

Emastur qasr balkim qosiredur
Ki, taqsir aylamas aylarga bedod.

Tiriklik qushlarig‘a yoyibon dom,
Tengiz amvojidin andoqli sayyod.

Kiyib qatl aylamakka loladin to‘n,
Qiyodin tig‘ tortib misli jallod.

Emas qotil parivash dilbaredur
Ki, javridin qutilmas odamizod.

Fununu lobasi andoq muassir
Ki, mum aylar ko‘ngul gar bo‘lsa po‘lod.

Vale ne ishvasig‘a e’timode,
Ne aning va’dai vaslig‘a bunyod.

Visoli ko‘z yumub ochquncha oxir,
Firoqi ko‘z oolib yumg‘uncha barbod.

Ko‘ngul qo‘yma angakim boqi ermas,
Inonmas bo‘lsalar aylay qasamyod.

Baqosizdur jahon ra’nosi valloh,
Jahon ra’nosi yo‘qkim mosivalloh.

Jahon sho‘xidin olmish haq vafoni,
Ne olmaqkim anga bermaydur oni.

Bukim yo‘qtur vafosi bas emastur
Ki, dardu mehnatidur jovidoni.

Bu mehnatlar bila istar ani xalq,
Faho‘m loya’rif uzoq-maoniy.

Tikondin gulga har dam yetkurub nesh
Ki, aylar la’lgun jismini qoni.

Sabo kojin urub savsang‘a andoq

Ki, qolib ko‘klugi andin nishoni.

Choqin tig‘idin aylab pora-pora,
Chamanda g‘unchaning ko‘nglin nihoni.

Yog‘inning yig‘labon andin nafiri,
Bulutning titraban andin fig‘oni.

G‘alat qildim bu tuhmatdin baridur,
Jahon ra’no arusi dilsitoni.

Ki, haq taqdiridindur olam ichra,
Yomonu yaxshining yaxshi yomoni.

Jahon fonindurur, ey xoja, zinhor
Ki, sen boqiy tasavvur qilma ani.

Ko‘ngul berma o‘shul ra’nog‘akim, haq
Erur boqiyu, boqiy barcha fonyi.

Baqosizdur jahon ra’nosi valloh,
Jahon ra’nosi yo‘qkim mosivalloh.

Jahonkim zohir aylar lolavu bog‘,
Erur ul bog‘ zindon lolasi dog‘.

Arusidur fusunsoz ul diloshub,
Ishi ko‘rguzmak elga lobavu log‘.

Kishikim sandi domi bo‘ldi, bordur
Aning ollida ming bulbulcha bir zog‘.

Yoqibon otashin gul jonig‘a o‘t,
Quyar yomg‘irdin ul o‘t ustiga yog‘.

Ko‘rub nargisni savsan g‘unchasidin,
Chekar aning ko‘zi qasdig‘a bormog‘,

Xazon bedodidin yel sa’yi birla
Sochar shamshodu gul boshig‘a tufrog‘.

Taaddi birla nasrin yafrog‘idin
Yasar gulchehrasin yirtarg‘a tirnog‘.

Jafosi yosidin yog‘durdi paykon,
Gumon qilma shajar jismida yafrog‘.

Nachukkim bo‘stonning yo‘q vafosi,

Xususankim xazon yeli esar chog‘.

Aning ham nisbatin gar istar ersang,
Aningdekkim xazon ayyomida bog‘.

Baqosizdur jahon ra’nosi vallo,
Jahon ra’nosi yo‘qkim mosivallo.

Jahon ra’nosidin bo‘lg‘il mujarrad
Ki, qilmishlar qabul ahli ani rad.

Nachuk maqbulung o‘lg‘ay ulki, bo‘lg‘ay
Anga mardudlug‘ asbobi behad.

Agar hikmatda ul, miqdor bulkim
O‘qusin Bu Ali ollingda abjad.

Vagar bo‘lsang fasohat ichra nav’e
Ki, nazming aylagay Hassonni bexud.

Tamavvul kasratidin bo‘lsang andog‘
Ki, Qorun dargahingda aylagay kad.

Shijoat dashtida raxshingg‘a bo‘lsa,
Rikob o‘pmak uchun Rustam nigon qad.

Skandar yanglig‘ olib bahru barni,
Balo ya’juji uchun bog‘lasang sad.

Aningdek bo‘lsa taxting rif‘ atikim,
Guharliq aylasa tojingg‘a farqad.

Jahong‘a chun baqo yo‘qtur bu barcha
Necha kundur vale ermas muhallad.

Tamanno aylasang bir nav’ iqbol
Qi, bo‘lg‘ay ham muxallad, ham muabbad.

Demon yolg‘uz jahondin ayla tajrid,
Nekim haq g‘ayridur bo‘lg‘il mujarrad.

Baqosizdur jahon ra’nosi vallo,
Jahon ra’nosi yo‘qkim mosivallo.

Jahon ra’nosi birla qilma payvand,
Er o‘lsang bo‘l aning hajrig‘a xursand.

Erur olam uyi rahravg‘a zindon,

Aning har qaydi yo‘l man’ig‘a bir band.

Ushotmoq istasang bu bandlarni,
Muqayyad bo‘lma anda ushbudur pand.

Jahon no‘shi aro qilmish nihon zahr,
Sen ani no‘sh etarsen, uylakim qand.

Topib lazzatkim aylarsen tabassum,
Erur ul zahrxand, ermas shakarxand.

G‘araz irfon ekindurkim adamdin,
Seni mavjud aylabtur xudovand.

Qo‘yub ko‘ngling aro naqdi amonat,
Malak bo‘lmay sanga bu ishda monand.

Seni g‘ofil qilib asli ishingdin,
Sarovu bog‘u rog‘u zavju farzand.

O‘zungga kelsang ozdur, gar o‘zungni
Bu g‘amdin aylasang parkand-parkand.

Jahon johilg‘a mahbub o‘ldi, lekin
Aning ollinda kim bo‘lg‘an xiradmand?

Baqosizdur jahon ra’nosi valloh
Jahon ra’nosi yo‘qkim mosivalloh.

Jahon jomi to‘ladur zahri qotil,
Anga mayl aylamas kim bo‘lsa oqil.

Ajab ishdurki mundoq zahr icharga,
Jahon ahli erur jon birla moyil.

Ajabroq buki ichkan soyu bo‘lmas,
Bu zahr ichkanga ichmak hirsi zoyil.

G‘arobat ko‘rki, gar yuz mingni har kun,
Qilur ul zahr o‘lgan elga doxil.

Yana yuz ming durur ichmakka mashg‘ul,
Yana yuz ming ani istarga shog‘il.

Magar bu zahrdin qutqarg‘ay elni
Fano taryoki birla piri komil.

Vale Qof ustida ul kimyogar,

Ani ko‘rmakka Anqo parri hoyil.

Jihatsiz, ey ko‘ngul, sevdung jahonni,
Mening pandimdin aylab o‘zni otil.

Chu berding barcha sarmoyangni barbod,
Pushaymon bo‘lmog‘ing emdi ne hosil.

Magar yodingda yo‘qturkim, sanga men
Dedim yuz qatla k-ey majnuni g‘ofil.

Baqosizdur jahon ra’nosi valloh,
Jahon ra’nosi yo‘qkim mosivalloh.

Jahon ayyorasidin tut kanora
Ki, makru fannig‘a yo‘qtur shumora.

Ayog‘ ilgidagi zarrinasi o‘t,
To‘ni zar basmasi andin sharora.

Bo‘lubon ruh to‘tisig‘a sayyod,
Ishi qilmoq ani qasdig‘a chora.

Bu ishga gurdi Yazdiy me’jari dom,
Ichinda dona inju go‘shvora.

Nazar maqsud ruxsorig‘a solmoq
Tilar bo‘lsang anga qilma nazora.

Chekibon kun shioidin sinonlar,
Qilayin deb ulus bag‘rini yora.

Anga xino shafaq rangidin aylab,
Kecha nushodiridin ani qora.

Yiroq bo‘l, ey ko‘ngul, bu dilrabodin
Ki, sensen shisha, aning ko‘ngli xora.

Borib xush-xush anga sayd o‘lg‘aningdin,
Qilay dermen yoqamni pora-pora.

Deding kechmoq nachuk bo‘lg‘ay jahondin,
Ne hojat xayr ishiga istixora.

Demon yolg‘uz jahondin tut kanore
Ki, tutqil mosivallohdin kanora.

Baqosizdur jahon ra’nosi valloh,

Jahon ra'nosi yo'qkim mosivallo.

Jahon sho'xin aruse qilg'il ixsos
Ki, kiymish tun bila kundin kishu os.

Bu rangomezlig'din ganji Qorun,
Kishida bo'lsa tutqay ganj iflos.

Tiriklik mazrai qasdig'a har oy,
Ayon aylab yangi oy shaklidin dos.

Falak birla shafaq ermaski, qilmish
Muhayyo dam-badam qon to'kkali tos.

Emas qon bodadurkim bexud aylab,
Yiqarg'a elni qilmish charxdin kos.

Sog'inma bodai la'l anikim, bor
Ulus qonig'a rangin bo'lg'an olmos.

Bu qon to'kmak bila kimdurki yo'qtur,
Aning savdosidin ko'nglida vasvos.

Bu pandimni eshit sen dog'i, ey do'st,
Irodat yuzidin tut posい anfos.

Jafolarkim men onglabmen jahondin,
Vafo sendin manga g'olibdurur yos.

Valavhozal maoniy anta qultum,
Taqulu i'lamu yo ayyuhannos.

Baqosizdur jahon ra'nosi vallo,
Jahon ra'nosi yo'qkim mosivallo.

TARKIBBAND

Dahr bog‘iki jafo shoriidur har chamani,
Juz vafo ahlig‘a sonchilmadi aning tikani.

Kimdakim dog‘i vafo ko‘rsa shahid aylamasa,
Lolasining ne uchun qong‘a bo‘yalmish kafani.

Poymol etmasa andinki kelur mehr isi,
Oyog‘ ostida nedin qoldi giyohi damani.

Safhai xotiri pok o‘lmasa barbod andin,
Bas, ne sovrulmoq erurkim ko‘rar aning samani.

Rostlar bo‘lsa aning arsasida barxo‘rdor,
Javrdin, bas, nega bebarlik erur sarvi fani.

Gar yaqin ahlini Mansur kebi qatl etmas,
Bas nedindur shajaru sunbuli doru rasani.

V-ar kamol ahli jaloyi vatan ermas andin,
Nega tufrog‘dur ul akmali davron vatani.

Bahri urfon duri Sayyid Hasan ulkim aflok,
Yetti durji aro bir ko‘rmadi andoq duri pok.

Zoli gardun kishiga mayli vafo aylamadi,
Kimda-kim ko‘rdi vafo, g‘ayri jafo aylamadi.

Qaysi bir vasl kunin mehr ila qildi ravshan
Kim, yana hajr tuni birla qora aylamadi.

Qaysi davlat quyoshin chekti kamol avji uza
Kim, yana yer to‘bida maskan anga aylamadi.

Qaysi labtashnag‘a tutti qadahi sof nishot
Kim, yana qismi aning durdi ano aylamadi.

Qaysi dilxastag‘a yetkundi farog‘at no‘she
Kim, nasibi yana yuz neshi balo aylamadi.

Har dil ozurdag‘akim novaki zulm etti kushod,
Garchi bor erdi xato, lek xato aylamadi.

Chekti bu zulmin aning barcha xaloyiq, lekin
Chora bu dardg‘a juz ahli fano aylamadi.

Xossa ul foni davronki, bo‘lub vosili haq,

Qo‘ymadi ko‘ngli aro g‘ayri xayolin mutlaq.

Garchi ul ravzai rizvon sari raftor etti,
Hajridin umrni ahbobqa dushvor etti.

Garchi huro yuzi sham‘i bila yorutti ko‘zin,
Motami bizga yorug‘ dahr yuzin tor etti.

Garchi uchmog‘ sari azm etti, vale olamni,
Vahki, tomug‘ o‘tidin elga namudor etti.

Garchi ul bordi baqo mulkiga, lekin yuz alam
So‘gidin charxi fano ahlig‘a izhor etti.

Halqai zikr dema faqr eliga shomu sahar
Ki, azosida bu el navha padidor etti.

Faqr xurshidi fano shomi uyoqtqi ne ajab
Ki, quyoshini falak dog‘i nigunsor etti.

Uchti ul sham‘i valoyatki, falak motamida,
Qora kiydiyu duri ashkini iysor etti.

Garchi faqr ahlig‘a bu nav‘ azo kam tushti,
Meni savdozadag‘a o‘zgacha motam tushti.

Ey falak, aytkim ul soliki atvor qani,
Faqri atvori aro koshifi asror qani?

Tashlab o‘zlukni fano bodiyasin qat’ etkan,
Ushbu yo‘l holdin ogohu xabardor qani?

Faqr manzillarining rahravi bal rahbari,
Hodiyi ahli fano murshidi ahror qani?

Shar‘ qonunini diqqat bila mar‘i tutqon,
Soliki jodai Ahmadi, Muxtor qani?

Qurb ayvonig‘a taqvo yo‘lidin gom urg‘on,
Vosili borgahi Qodiru G‘affor qani?

Bu qadar manzilatu qurbu buyuk poya bila,
O‘zini tutquchi tufrog‘ ila hamvor qani?

Meni motamzadag‘a ham ota, ham murshidu pir,
Balki ham g‘amxo‘ru ham yovaru ham yor qani?

Sensizin dahr elidin asru malolim bordur,

Koshki kelsangu ko‘rsangki, ne holim bordur.

Sangakim, ravzai rizvonda farog‘at bo‘lg‘ay,
Dahr vayron chamani ichra ne ulfat bo‘lg‘ay.

Senki, kavsar suyidin qilg‘asen o‘zin serob,
Bu sarob ichra sanga qayda iqomat bo‘lg‘ay.

Sengakim, xayli malak bo‘lsa musohib munda,
Devvash xalq qachon qobili suhbat bo‘lg‘ay.

Faqr tutqonda deb erding sanga ham yetkurayin,
Manga har fayzki bu ko‘yda qismat bo‘lg‘ay.

Bo‘lubon koshifi asrori ilohiy boarding,
Meni mahrumg‘a jahl ichra ne holat bo‘lg‘ay.

Bor umidimki madad ruhung ila qilg‘aysen,
Har qachon ollima davron aro shiddat bo‘lg‘ay.

Hargiz etkaymu edim davlati vaslingni tama’,
Bilsam erdiki so‘ngi anduhi furqat bo‘lg‘ay.

Do‘sstar, bir-biriigizdin tilamang jomi visol,
Desangiz ichmali hijron qadahin molomol bo‘lg‘ay.

Manga zulm o‘ldi falakdinki chu bo‘ldung bemor,
Kerak erdiki men o‘lsam boshing uzra g‘amxor.

Sharbating ezsam edi shirai jonim qo‘shubon,
Ichururga qilibon jahd nekim mumkin bor.

Ham g‘izo men kerak erdiki tutub ollingda,
Rag‘bat aylarga desam erdi muloyim guftor.

Gah boshingni tuzatib, goh ayog‘ingni yopib,
Evrulub boshinga farzandlig‘ aylab izhor.

Gar qazo yetsa qilib ho‘y ila olamni qora,
Yoqa yirtib etibon tosh ila ko‘ksumni figor.

Navhalar tortibu na’shing ko‘tarib egnimga,
Bosh yalang aylabu bexudlug‘ etib majnunvor.

Tark etib olam ishin qabring uza sokin o‘lub,
Ko‘rsatib elgaki ne nav’ kerak ermish yor.

Chora yo‘qtur chu bu nav’ ermas ekandur taqdir,

Mumkin ermas kishi taqdirg‘a bermok tag‘yir.

Do‘stlar, dahr vafosini xayol aylamangiz,
Burju koxig‘a tama’ g‘ayri zavol aylamangiz.

Turfa mahbubdurur umru vafosi yo‘q aning,
Andin istarga vafo fikri mahol aylamangiz.

Har kishi komil erur, bas anga haq bandalig‘i,
Mundin o‘zga tama’i kasbi kamol aylamangiz.

Yo‘q jamol ichra vafo husnig‘a dog‘i bunyod,
G‘arroi husn bo‘lub arzi jamol aylamangiz.

Olami foniy uchun ranju mashaqqat chekmang,
Mol uchun g‘am yemangiz, fikri manol aylamangiz.

Ishq dardig‘a Navoiy kebi mag‘rur o‘lmang,
O‘zni har mahvash uchun shifta hol aylamangiz.

Turk piri kebi olamdin etakni silking,
Do‘stdin g‘ayri tamannoi vnsol aylamangiz.

To salomat bu xatar manzilidin solib kom,
Ma’mani vaslg‘a bo‘lg‘ay tuta olmoq orom.

QIT'ALAR

1

HAQ TAOLO XONI IN'OMIYU KARAMI OMI BORIDA O'ZGADIN NIMA TILAGONNING TAMA'I XOMIYU ZOTI NOFARJOMI

Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro'ziy istagan gumroh.

Uyladurkim tengiz qirog'inda,
Ro'za ochmoqqa kimsa qozg'oy choh.

2

MUHAMMADNI TYENGRI TAOLO AYNI MUHABBATDIN YaRATQONG'A DALOYIL TUZMAK VA ShAVOHID KURGUZMAK

Muhammadni yaratti, chunki haq ayni muhabbatdin,
Kishi vaznin muvofiq, chunki da'vo etsa sodiqdur,

Burung'i ikki harfi har birining dog'i bir keldi,
Talaffuz holatida ulki sobiq, yo'qsa lohiqdur.

Uchinchi ikki harfi birla to'rtinchi iki harfi,
Taammul aylagan maxraj ham anglarkim muvofiqdur.

3

HUKAMO QAVLI TARJIMASI ShOHNING DARYOG'A MUSHOBATIDA VA NAF'U ZARARIDA

Hikmat ahli shohni daryog'a tashbih ettilar
Kim, ham andin ko'p ziyonlar elga, ham ko'p sud erur.

Gah topar g'avvos bir soatda yuz durri samin,
Gah nahang og'zida yuz hasrat bila nobud erur.

4

FAHMSIZ MULOZIMLAR G'AFLATIDA VA ALAR BILA MAOSH O'TKARMAK MYEHNATIDA

Yo'ldin ozdi har mulozimdinki, g'aflat aylading,
Budur oyin gar gadolig'dur ishing, gar shohlig'.

Urkudar eldekki chiqti kecha yo'ldin markabi,
Ko'z yumub ochquncha chunkim qilmadi ogohlig'.

Olam ahlida mulozimlar erur hayvon kebi,
Qaysi g‘aflat anglag‘och zohir qilur berohlig‘.

5

MUTAKABBIR MANZURNING HUSNI ChOG‘IDAKIM ISTIG‘NOSI DARDNOK QILUR VA HUSNI KYeTKANDA MULOYIMATI HALOK

Xo‘b ekan chog‘daki mustag‘niy eding, kelmas eding,
O‘tti chun xo‘blug‘ung javr manga yetkurma,

Ko‘p kelur vaqtida oz kelmaking emgatti meni,
Oz kelur vaqtida ko‘p kelmak ila o‘lturma.

6

MAJOZIY MAHBUB IShQI TARQIDAKIM XO‘BLUG‘I MUJIBI YIG‘LAMOKDUR VA SAQOL ChIQARMOG‘I MUJIBI KULMAK

Chu husni vaqtida ul oyg‘a zor oshiq edim,
Ko‘rub jahon eli yig‘larlar erdi holimg‘a,

Saqol chiqarg‘onida tark qilmasam ishqin,
Ulus kular ham aning, ham menin saqolimg‘a.

7

OLTUN, KUMUSHGA HIRS MAN’IKIM TUTMOG‘I ILIKNI QORA QILUR VA MUHABBATI KO‘NGULNI

Ko‘p oltun, kumush sari qo‘l so‘nmog‘il
Ki, tut sang kafingni qora zang etar,

Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama
Ki, ko‘nglungni dog‘i hamul rang etar.

8

MA’NI AHLIDIN GADOLIG‘ BAShORATI VA SUVRAT AHLIDIN ShOHLIG‘ IShORATI

Ahli ma’ni guruhida zinhor,
Hech or aylama gadolig‘din

Kim, bularg‘a gadolig‘ ortug‘dur,
Ahli suvratqa podsholig‘din.

9

**POKRAV NISO TA'RIFIDAKIM INSON ONSIZ XOLIDUR VA OLUDAVASH RIJOLKIM
NURSIZLIQDIN DAJJOLI BYeMISOLDUR**

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq
Pok xotunlar ayog‘ining izi,

Lut o‘g‘lin ko‘rki soldi tiyrilik
Ding‘a nafs ilgida tab‘i ojizi.

Dahr aro yoqtisiyodat mash‘alin,
Pokravliqtin rasululloh qizi.

10

**BIZNING ShOH XONG‘A LA’LGUN AYO G‘ BYeRGANDA AYTILIBDUR VA XAVODIN
SIYMISUDA YoG‘ARDA RAQAM QILIBDUR**

Falak sochti xon boshig‘a siymi nob,
Bizing shoh ayog‘ig‘a la’li muzob.

Falak birla shah qadru johi aro,
Tafovut nisoridin etgil hisob.

11

**BUYNIG‘A YaShM OSILG‘ONNI DYeBDURKIM ShIFO UChUN EMAS, BALKI
FALAKDIN MUTAADDID JAFO UChUNDUR**

Bo‘ynuma yashm osilg‘ondin emas,
Buki za‘fimg‘a davo bo‘lg‘ay fosh,

Ip bila bog‘ladi bo‘ynumni falak,
Har qadam urmoq uchun ko‘ksuma tosh.

12

**RUM TUHFALARINING ULASHINGONNI DYeBTURUR, BALKI ShOH
POYANDOZIDYeK TALASHQONNI AYTIBDURUR**

Tuhfalarkim yubordi qaysari Rum,
Bursa jinsi farang debosi,

Turfa ko‘rgilki zumrai islom,
Anga soldi farang yag‘mosi.

13

O‘Z NAZMIDIN KO‘RGAN MALOLATLAR ShIKOYaTI VA KO‘NGUL O‘TIDIN JONSO‘Z HIKOYaTI

Ne nazmiki o‘tlug‘ ko‘nguldin chiqardim,
Dedimkim, mening xotirimg‘a yorang‘ay,

Manga oncha o‘t soldi har baytkim, tab’,
Gar obi hayot o‘lsa andin o‘song‘ay.

Tilarmen ani men dog‘i o‘tqa solsam
Ki, qaydinki keldi hamul sari yong‘ay.

14

HUSN AHLINING KO‘NGLI NISYoNI VA VAFO AHLI ANDA UNUTULURINING BAYoNI

Jon base qildim fido ul husn mir’oti uchun,
Oh ko‘p chektim vafosida aping shomu sahar.

Har nafaskim xizmatidan g‘oyib o‘ldum uyla bil
Kim, meni umrida ul badmehr ko‘rmaydur magar.

O‘z-o‘zum birla der erdimkim nedin bu nav’ ekin,
Aylabon ogah xirad dedi menga, ey bexabar,

Munda ramzedur daqiq, ammo qilay ravshan sanga
Kim, latofatda safo ko‘zgusidur ul siymbar.

Anglakim to ko‘zguning ollida sen, ko‘nglida sen,
Chunki bording ollidin, yo‘q ko‘nglida sendin asar.

15

DYeVONDA MUHR BOSQONDIN NAFSIG‘A ShIKAST YeTMAGAN UChUN MUHRG‘A ShIKAST BYeRGANI

Chun manga lutf etti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog‘im

Kim, g‘ururi nafsi sarkash man‘ig‘a,
Barchadin bo‘lg‘ay quyi o‘lturmog‘im,

Chun shikasti nafs hosil bo‘lmadi,
Mundin o‘ldi muhrni sindurmog‘im.

16

XILVATDA FALAK JAFOSINING OZORI VA ANJUMANDA ULUS BYeDODINING IZHORI

Baytul hazang‘a kirsam ulustin qochib dame,
Atrofdin g‘ubori malolat manga yog‘ar,

Silkay deb ul g‘uborni chiqtim chu kulbadin,
El javru zulmidin boshima yuz balo yog‘ar.

17

**XUBLAR HUSNI ShARHIDAKIM MASHShOTA SA’YI BILA AFZUN BO‘LUR VA OROYISH
BILA SAFOSI GUNOGUN**

Ne tong o‘lsa fuzun jamolu safo,
Xo‘blar qirqon zamon boshlar,

Sham’ nuri yorug‘roq o‘lg‘ondek,
Uchni kimsa chun ola boshlar.

Sartarosh aniyu muni farrosh
Bir-biridek olib-olib toshlar.

18

**BIROVGA VOBASTA EMAS KISHI MADXIDAKIM UL BYEPAYVANDLIK‘ MUJIBI
SAODATMANDLIK‘DUR**

Dahr aro ani degil davlatmand
Kim, birov sari emas dilbasta.

Xasta bo‘lmas chiroyin ko‘rsa chituq,
Joni chiqmas ani ko‘rgach xasta.

Ming balodin desa vorasta bo‘lay,
Kimsa qildik o‘zini vorasta.

19

**XAYROBOD BANDI XAYOLIDIN XALOS BO‘LG‘ONI VA O‘ZLUK BANDI MALOLIDIN
XALOSLIG‘ TILAGONI**

Chu Xayrobod bandin o‘zlugum birla yasab erdim,
Meni andin xalos etti inoyat aylabon shohe,

Ne bo‘lg‘ay o‘zlukumning bandidin dog‘i xalos etsa,
Haqiqat kishvari sari hidoyat aylab ogohe.

20

ORIF KO‘NGLIN DARYOГ‘A NISBAT BYeRURKI, ANDA HAR NYe TUSHSA SINGURUR BALKI ITIRUR

Erur orifqa ganji fayz yetsa,
Ishi dam urmayin ani yoshurmoq,

Quyosh aksi tushub daryo ichinda,
Ne mumkindur aning suyin toshurmoq.

21

ShOHNI AJDAHOG‘A NISBAT QILIBTURKIM GANJ UMIDI HAM ANDIN BORU RANJ BIYMI HAM

Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho
Ki, o‘tlar sochar qahri hangomida.

Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida.

22

FAQR TA’RIFIDAKIM RIFQ BILA MUVOFIQDURUR VA FAQIR HURUFI RAFIQ BILA MUTOBIQ

Ayni rifq ayla gumon, faqrni aning birdur,
Harf ham ikkisig‘a yaxshi gar etsang tahqiq,

Jam‘i ham birdurur inak fuqarovu rufaqo,
Siyg‘ai mufradi ham ayni faqir o‘ldi rafiq.

Bor ishorat angakim rifqu mavosodur ishi
Har muxolif el ila faqrg‘a topqon tavfiq.

Poya mundin biyik o‘lmaski risolat xatmi,
Faqrning nisbatida faxrg‘a qildi tasdiq.

23

UY KITOBASIG‘A SO‘Z BITMAK VA IZORASIG‘A NIMA BOG‘LAMOQ

Uy ichra ham kitoba ham izora
Zaruratdur tugangan chog‘da qilmog‘.

Yo‘q ersa ul uy o‘xshar bir kishiga
Ki, anda bo‘limg‘ay ishtonu belbog‘.

VAFO BOZORINING QOSIDLIG‘IDA VA VAFOJO‘YLAR XAYOLINING FOSIDLIG‘IDA

Kimgakim qildim vafo, vahkim, jafo podosh edi,
Olam ahlida vafo mavjud emas beishtiboh.

Orzu qildim vafo ahlin ko‘ray deb, topmadim,
Xoh zohid, xoh fosiq, xoh soyil, xoh shoh.

Topmog‘idin noumid o‘lg‘onda aqli xurdabin,
Istabon xudbin meni ko‘zguga qildi ro‘baroh.

Bevafolar orazi yanglig‘ topib ko‘zgu anga,
Har nechakim ehtiyyotu sa’y ila qildim nigoh.

Ko‘rmadim nevchunki tiyra erdi ko‘zgu, negakim
Ham vafosizlar g‘amidin baski tortib erdim oh.

UL MAZMUNDAKIM ANDOQKI QOZIY RIYозIY KYeRAKMAS, RIYозIY HAM QOZI KYeRAKMAS

Riyoziy bo‘lsa qoziy, bas, ajabdur,
Kerakkim fiqh ilmin bilsa qoziy.

Anga chun fiqhdin aslo xabar yo‘q,
Ne yanglig‘ bas bo‘lur qozi Riyoziy.

IMORAT TOQI KITOBASIDAKIM KOSHIKORLIG‘ KITOOG‘A SARLAHV BO‘LG‘ONDYeK MUNOSABATI BOR

Har imoratkim tugandi garchi sho‘xedur jamil,
Bo‘lsa koshikorlig‘ aylar jamolin birga o‘n.

Bu yaqindurkim jamol ahli yulongliqdin base,
Yaxshiroqdur bo‘lsa koshi naqshliq egnida to‘n.

IKKI MANORNING MUSHOBAHATIDAKIM ShAR‘ BO‘STONIDA IKKI SARVYeDURURLAR HAMQAD VA IKKI ALIFDURURLAR HAM ADAD

Bizning imorat ichinda tuzolgan ikki manor
Ki, qubbalardin erurlar sipehr sonida.

Iki ag‘o-inndur tav‘amon gumon qilg‘il

Ki, farq yo‘q orada bo‘lsalar namoyanda.

Zamona zolini ko‘rkim ne nav’ bikr o‘lg‘ay
Ki, mundoq, ikki o‘g‘il andin o‘ldi zoyanda.

28

BAShARIYaT MUQTAZOSIDAKIM QILG‘ONI MARG‘UBDUR VA QILG‘UChINING O‘Z OLLIDA MAHBUB

Bashar xayli anga majbul erurlar
Ki, bo‘lg‘ay har bir o‘z ollinda mahbub,

Ajab yo‘q necha qilsa nomuloyim
Kishiga kelsa o‘z mahbubidin xo‘b.

Va lekin lozim ermas buki bo‘lg‘ay,
Aning marg‘ubi dog‘i elga marg‘ub.

Ham andoqkim kishi farzandi bo‘lg‘ay,
Necha mankub esa ollinda matlub.

Kishiga ayta olg‘aymuki, bo‘lsun
Sanga ham your matlub ushbu mankub.

Hunar ahli ani degilki bo‘lg‘ay,
O‘zini qilsa o‘z ollida ma‘yub.

Chu o‘z aybig‘a voqif bo‘ldi aybin,
Nachuk qilg‘ay hunar o‘rnig‘a mahsub.

29

FUZUL EL BOBIDAKIM BOR IShGA DAXL QILURLAR VA HAR XORIJ IShGA DOXIL DURURLAR

Falong‘a ajab hol erurkim xaloyiq
Ne qilsa alar birladur mojarosi,

Sola olmas el oshig‘a bir nuxud, gar
Tuzulmas aning birla ul el arosi.

Qazon yo‘qli ul anda kafliz emastur
Ki, bo‘lsun yuziga qazonlar qorasi.

30

XUShKSOL TA’RIFIDAKIM ChASHMALAR AYNI QURUB ShAMMAYe SU QOLMADI

Xushksol o'ldi bu yil ul nav'kim gard ichra el,
Bir-birin ko'rmas agarchi, o'ltururlar ro'baro'.

Dalug'a kirmak quyoshning chashmasi ne sudkim,
Tommadi ul dalu ila ul chashmadin bir qatra su.

31

ISSIG‘ YeL VASFIDAKIM BAXR SUYI ANDIN QURUR ERDI VA SU TUBINING GARDIN SOVURUR ERDI

Bu yoz o'rduda yel andoq esarkim,
Samum andin bo'la olg'ay nishona.

Isig'din xishti xona elni o'rtar,
Bo'lubtur xishtxona doshxona.

32

JAVShAN BOBIDAKIM DILOVARLAR JISMINING HISORIDUR VA JONSIPORLAR JONININGHISNI POYDORI

Razm maydonidakim ikki tarafdin ahli harb,
Bosh ila jon tarkin aylarlar ajab hangomadur.

Kiynavarlar anda javshan kiysalar tan hifzig'a,
Jism sanduqi uchun go'yoki ohanjomadur.

33

JUKI ShOHNING QASRIDA ShOH JUKI MASKAN TUTQON BOBDA

Dahr jo'kiliklaridin turfa ish,
Chehra ko'rguzdi bizing shah asrida.

Kim fusunu la'b birla tutti yer,
Shoh Jo'ki shohi Jo'ki qasrida.

34

SARKASH MANZURNING XATTI HAM O'ZIDYeK BOSH TORTQONIDA VAFOG'A TARG'IB QILMOQ

Xatting yo'q erkanida qochting oncha mendinkim,
Xatting bosh urdi yuzung gulshanida sabza misol,

Muloyimat qilako'r, yo'qsa men dog'i qochqum,
O'tub chu bir necha kun ushbu sabza bo'lsa saqol.

35

**UL XAYSIYaTDINKI MOL VA JON DYeBTURLAR. SIYMFIShONLIQ
JONFIShONLIQChA DUShVORLIG‘I**

Siyymi sochquchi mingdin birdur,
O‘zgalarning ishi keldi termak.

Ul jihatdin budurur odatkim,
Yulmoq osonduru mushkil bermak.

36

**SAFIH ZOLIMNING MAHRAMLIQQA VA ABLAHI NODONNING HAMDAMLIQQA
YaRAMASLIG‘IDA**

Safih zolim ila bo‘lma xon uza hamdast,
Munosib o‘lmadi it chunki hamtabaqliqqa.

O‘zunga ablahi nodonni aylama hamroz
Ki, yaxshi ermas eshak dog‘i hamsabaqliqqa.

37

**MUXTASIBNING TUQKAN MAYIKIM YeR QONI BO‘LUBTUR VA XUNXORA RINDLAR
IChIB MASTLIG‘ QILG‘ANI**

Muhtasib har sari may to‘kmakka borsa shahr aro,
Rindlar ham aylabon payravlig‘u hamdastlig‘,

Mayi ko‘l o‘lg‘och, tortibon barcha qirog‘inda cho‘kub
Kaf sochib har sari buxtidek qilurlar mastlig‘.

38

**PAHLAVON MOTAMINING SARGUZASHTI VA MANZUR SABZXAT FIROQINING
SARNAViSHTI**

Pahlavon erdi mening yorimu bir sho‘x anisim
Biri o‘ldiyu biri itti, ishim bo‘ldi taassuf.

Roviyo hajrlaridip manga yo‘qtur kecha uyqu,
Qiseai Hamza degil gohsho gah qissai Yusuf.

39

**UL BOBDAKIM JAHON AXLI BYeVAFODUR VA ALARDIN VAFO KO‘Z TUTMOQ
XATODUR**

Agar oqil esang, uzgil jahon ahlidin ulfatkim,
Alardin juz jafo kelmas, agar yuz yil vafo qilsang.

Biriga yuz Xito mulki xirojin aylasang isor,
Xatosiz qasdi joning qilg‘usidur, gar xato qilsang.

40

**YoMG‘UR DUOSI QILG‘ANLAR AXVOLIKIM KO‘Z TUTKAN YoG‘INDIN AShKLARDIN
O‘ZGA QATRAYe TOMMADI**

Bordilar yomg‘ur duosin qilg‘ali ahli riyo,
Men niyoz ahli edim, da’vi kamitin so‘rmadim,

Yomg‘ur ikkidur: biri ma’hudu ul bir ko‘z yoshim,
Ko‘z yoshim yo‘q erdi, to ul oyg‘a ko‘z oldurmadim.

Tengri yomg‘ur bermadikim, so‘zsiz erdi talab,
Manga kulgu keldi, ashkim yomg‘urin yog‘durmadim.

41

**YuQORI O‘LTURMOQ TALASHQUChILARKIM HINDUI DIDBON ALARDIN
YuQORIROQ DURUR UChAR QO‘NG‘UZ ILGARIROQ**

Yuqori o‘ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil.

O‘lturur safda yuqoriliqdin,
O‘lturur safda yaxshiroq bilgil.

42

**BADOVOZ MUKRI UNIDAKIM JAMOATQA PARIShONLIG‘DUR VA JAMOATQA
KYeLGANLARGA MU‘JIBI PUShAYMONLIG‘**

Shayxi muqri salovati vaqtida el
Masjidi jum’ani solib chiqadur.

Elni jam’ etkali emas bu salovat,
Go‘yokim salovati tafriqadur.

43

NOKAS KISHI BO‘LMASLIKDA VA NOJINS KISHI JINSI BO‘LMASLIQDA

Nokasu nojins avlodin kishi bo‘lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami

Kim, kuchuk birla xo‘dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

44

O‘ZINING KUFRI NIHONIYSIN OShKORO VA FISQI PINHONIYSIN PAYDO QILG‘ANI

Fosiq menu kofiri nih oni,
Ka’ba safari erur manga hayf.

O‘zni buki yaxshi ko‘rguzurmen,
Billahki, menga kaliso hayf.

45

BU YIL XUROSON ROKIBLARINING JAHONPAYMO MARKABLARI BIR PO‘Ya BILA JAHONDIN KYeTKANI BALKI YaNA JAHONG‘A YeTKANI

Bu yil qazodin ajal dashtig‘a xirom etti,
Nekim ulus aro bor erdi hang sayli xirom,

Sipohi el aro chun yaxshi ot qolmadi hech,
Erur bu kun alar andoqli zumrai badnom.

46

ShARBATIYNING QULOG‘I OG‘IRLIG‘IG‘A QIT‘A DYEMAK AGARChI BU HAM ANGA OG‘IR KYeLUR

Sharbatiy gar bo‘ldi ersa oqibat,
Zotida lekin karam bordur amin,

Ushbu ikki vajh ila ermas ajab,
Gar aning otin xitob etsam karim.

47

ZIYoRATGOHNING ORIG‘ TUFROG‘I IBODAT BOISI DYEMAK BU HAYSIYaTDINKI NAMOZ FAROIZIDIN BIRI ORIG‘ YeRDUR

Qubur tavfi namozu niyoz boisidur,
Bu vajhdinki mazorot o‘lur ibodatgoh

Ajab yo‘q ersa ziyoratgoh ahli obidkim,
Ibodat etkali xush yerdurur ziyoratgoh.

48

MAHMUD SAYYODNING SAN'AT DOMI VA FIRIB DONASI BILA VAHShIY QUSHLARNI SAYD QILG'ANI

Ishida fard erur Mahmud Sayyod
Ki, ko‘p shahbozlarg‘a domidur qayd,

Dengiz sayyodlarning shohi ani
Ki, shah ko‘ngli qushini aylamish sayd.

49

HUKAMO QAVLINING TARJIMASI INSONIYaT BOBIDA

Tavozo“ yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da‘b etsa ani ahli davlat.

Erur ham afv xo‘bu xo‘broq ul
Ki, zohir bo‘lg‘ay el topqanda qudrat.

Ato ham turfa ishdur turfaroq bil,
Agar yo‘qtur aning yonida minnat.

Hakim insoni komil debtur ani
Ki, bo‘lg‘ay zotida bu necha xislat.

50

O‘ZINING E’TIBORIDIN KYeChKANIGA E’TIBOR QO‘YMA Y IXTIYoR TARKINI BYeIXTIYoRLIQQA HAML QILG‘ANI

Qo‘yub amoratu beboklik bihamdillah,
Ki, faqr ko‘yi nasib etti kirdikor manga,

Eshikda tark etibon ixtiyoru mulkda ham
Bu nav’ martaba lutf etti shahriyor manga.

Gar ixtiyor ila qo‘ydum o‘z ixtiyorimni
Valek yo‘q edi ham munda ixtiyor manga.

MUAMMOLAR

1

ODAM

Qon to‘qar yuzdin damodam ashku vahkim, har zamon
Bog‘lanib ohimdin aylar ko‘kka mayl ul qatra qon.

2

AHMAD

Mayda ikki yuz agar ko‘rguzmasa ul mahjabin,
Durd dardin istabon jon bermagay ahli yaqin,

3

BOQIY VA BOQIR

Jannat guliyu nasrinig‘a bo‘lsang mushtoq,
Gah yor yuziga, gah kafi poyig‘a boq.

4

BAHO

Dayr aro kir, pandni go‘sh aylagil,
Boda beshak sof erur no‘sh aylagil.

5

TAQIY

Mustaqim erdi ko‘ngul ishqingda, ey oromi jon,
O‘rtanur ul mustaqimim emdi g‘amdin har zamon,

6

TOJ

Yuz ko‘ngul saydin ajal domidin ozod ayladi,
To jamoling toblig‘ zulfini barbod ayladi.

7

SAMUD

Tanimda dog‘lar uzra g‘amnngki o‘rtadi dog‘,
Ko‘rindi o‘zgacha ul dog‘din tanimda farog‘.

5

JUNAYD

Oh o‘qin jondinki cheksam ul parivash yodidin,
Qolmas ul yodimda ham faryod aning bedodidin.

9

JA‘FAR

Jonondin ayru topti ko‘ngul, umrdin malol,
O‘zdin kechibtur emdiyu aylar vafo xayol.

10

HASAN

Qoshing go‘shasi chekkali g‘amza dosin,
Yangi oyning ustida ko‘rguzdi yosin.

11

HAMZA

Yoshun, ey gulki, ul gulrux jamoli
Erur ham sodavu ham toza xoli.

12

XOLID

Nuqtai mushkinki ul yuz uzra bo‘lmish jilvagar,
To hisobin anglasun el yuz yoshur, ey siymbar.

13

XUSRAV

Ul niholekim qadingg‘a yo‘q shabih, andoq nihol
Boshida ko‘rguzsa yuz xurshid o‘lur sendin misol.

14

DOVUD

O‘t tushti vahm dudi aro furqatidin,
To kuydiyu o‘rtandi ko‘ngul hirqatidin.

15

DARVYeSh

Har ne topsang davr aro, soqiy, ayoqqa sol ani,
Yuz ko‘rardin o‘tti ish tut emdi molomol ani.

16

ZUNNUN

Vasl sa’yidin emish ishq ahli ichra mojaro,
Zavqdin ko‘rkim yuzum oltundek o‘lmish ishq aro.

17

RUSTAM

Nechakim yor sitam etkan ila uzdi vafo,
Yodin etkancha oti virdi zabon bo‘ldi mango.

18

RAJAB

Oyu quyosh ayladi yuzung bila da’vo,
Bizga alardin ajab ko‘rindi bu ma’no.

19

ZAYNI VA ZAYD

Ko‘z uchi qoshi yosidur sohir,
Ani yod ol alardin, ey somir.

20

ZOHID

Oy yuzinda xolini ko‘rgach, ul oy topti jamol,
Oxir ul yuzdinki yopti, vahki, pinhon bo‘ldi xol.

21

SA’D

Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot.

22

SALMON

Qilur esang manga somon ayo rafiq havas,
Aning ayog‘ig‘a yetkur mening boshimniyu bas.

23

ShOH

Jon qushi chu bo‘ldi donai xolig‘a zor,
Shod o‘ldiyu halqa ayladi zulfini yor.

24

ShUKRILLOH

Qora erdi ko‘zum hajringdin, ey moh,
Yana ko‘rdum yuzungni shukrilloh.

25

SIDDIQ

Yuzung bila yuzuma kosh bo‘lsa uyla visol
Ki, bo‘lmasa oralarinda g‘ayri ul xatu xol.

26

SAFI VA SAFO

Qasdi jonimg‘a chu mujgoning ikki saf tuzdi.
Biri qosh yosi, biri g‘amzang o‘qin ko‘rguzdi.

27

ZIYo

Gul avroqin sabo qildi parishon,
Qabul etti nechakim topti imkon.

28

TOHIR

Girihni turradin to ochti mohim,
Parishon qildi filhol ani ohim!

29

TOLIB

Og‘iz labig‘a chu qo‘ydum yana talab qilayin
Ki, g‘ayri naqshi kam o‘lg‘oy yana tarab qilayin.

30

ZAHIR

Xalq ichra zuhuri husn ul siyminbar,
Ko‘rguzdi vayo bo‘ldi qiyomat yaksar.

Kim jilvagar erdi gar kichik, yoxud ulug‘,
Bir-bir harakatin ayladi zera zabar.

31

OMIR

Jumlai ashayog‘a bo‘ldum oshiqu oshufta hol,
Olamu odam yuzin chun qildi mir’ot ul jamol.

32

ODIL

Ham qoshi birla orazi xush erur,
Ham ko‘zi birla qaddi dilkash erur.

33

G‘ARIB

Chok bag‘rim tarfin aylading ikki parkand,
Birini tashlabon oxir birin etting payvand.

34

G‘AYBIY

So‘zg‘a evurdi ikki labingni takallumung,
Yo bargi gulni iki ayirdi tabassumung.

35

FARHOD

Har kecha ko‘nglum g‘aming tog‘ida faryod aylagay,
Uylakim faryod-faryodini Farhod aylagay.

36

FARRUX

Gar yuzungdin husn eln yuzinda bir xol etsa fosh,
Ul aroda besarupo zarradek kirgay quyosh.

37

QUBOD

Soching g‘ubori gahi yuz yopar, gahi yuz ochar,
Ne zulfdurki yopar oyni, chunki mushk sochar.

38

QOSIM

Ruxsorasi uzra, ey ko‘ngul, xol nedur,
Zulfi ayog‘i ostida pomol nedur.

Qani ani ko‘rgan seni ko‘rsa meni ham,
Kim oyidin ayru elga ahvol nedur.

39

KAMOL

Yuzinkim qatra xay serob qilmish,
Guledurkim su ichkandin ochilmish.

40

KOKO

Jon qilg‘ay ikki yuzung guli sori shitob,
Gar bo‘lmasa ikki sunbulungdin qullob.

41

LOLO

Sabodin ko‘rdi chun mashshota ikki zulfini darhamu
Aningdek uchlarin kestiki qat’ o‘ldi girihlar ham.

42

LATIF

Saf chekti har taraf yuzidin kirpik, ey ko‘ngul,
Ul shaklnu ko‘rub xiradu sabrdin to‘ngul.

43

MUHSIN

Majlisda shayx bu kecha ko‘p shayn boshladi,
Sindurdi sham’u nuqlni havz ichra tashladi.

44

MUROD

Lutfung yeli chun esti bu mardudqa filhol,
Idbor nihoyatqa yetib keldi yuz iqbol.

45

NYeKIPAY

O‘qungg‘a tan, va’dangg‘a jon xush qilmish erdi xotirin
Kesti chu paykoning birin, kuydurdil payg‘oming birin.

46

NOSIR

Ko‘runsa ko‘zga nogah-nogah ul oy,
Ko‘zum hayron qolur yuziga, ey voy.

47

VALI

Chu ul oyg‘a qul o‘ldi bu g‘amkash,
Qulidin yuz yoshurdi ul mahvash.

48

VARQA

Javr ila qahringki haddin oshti bag‘oyat,,
Vahki, ne bor ibtido anga ne nihoyat.

49

HUMOM

Ul sho‘x oncha javrda ko‘rguzdi ehtimom,
Kim ot chiqardi, balki anga ushbu erdi kom.

50

HILOL

Ko‘nglum halok bo‘ldi, chu ishqingni boshladi,
Oxir boshinda har neki bor erdi, tashladi.

51

YuSUF

Sayr ichra qachonkim yuzungga yetti quyosh,
Ter oqib, aning chehrasidin bordi yosh.

52

YuNUS

Zulf ochmaki yuzungdur manga sham’i majlis,
Mahv qil tun raqamin kun yuzidin, ey munis.

TARIXII, ADABIY VA MIFIK ShAXSLAR NOMI KO'RSATKICHI

- Ayoz—g‘azal 200, 6.
Anas — g‘azal 51, 6; 223, 3; 234, 1
Anqo— tarji’band 65.
Aflatun — g‘azal 128, 3.
Afridun — g‘azgl 69, 5.
Ahmad— tarkibband 4, 4.
Ahmadi Mursal — g‘azal 364, 9.
Bahrom —g‘azal 532, 2.
Bishr—g‘azal 365, 6.
Bu Ali — tarji’band 38.
Buzar —g‘azal 223, 3; 234, 7.
Vomiq —g‘azal 341, 7; 456, 3; 541, 3; 586, 7.
Gadoiy — g‘azal 400, 8.
Dovud — g‘azal 287, 6; 560, 9.
Yofas —g‘azal 89, 3.
Jamshid (Jam) — g‘azal 8, 3; 69. 5: 89, 4; 123, 6; 127, 5; 131, 7; 134, 7; 168, 6; 225, 1; 238, 7; 336, 4; 337, 5; 394, 1; 2; 3; 4; 426, 8; 605. 8; 630, 5; 642, 7; 650, 9.
Jibril — g‘azal 242, 6; 284, 5; 379, 5.
Jo‘ki — qit‘a 33.
Zol — g‘azal 275, 6.
Zulayxo — g‘azal 303, 4.
Iblis — g‘azal 262, 6.
Iskandar (Skandar) — g‘azal 30,6; 62,2; 89,4; 178,3; tarji’band 42, 69, 2.
Iso (Masix, Ruxullox) — g‘azal 3,2; 6,4; 33,9; 78,4; 141,3; 150, 4; 176, 3; 183, 1; 191, 5; 193, 6; 197, 6; 215, 2; 224, 2; 225, 2; 228, 3; 242, 4; 245, 2; 246, 7; 262, 4; 284, 1; 287, 6; 301, 9; 302, 4; 304, 4; 331, 9; 373, 1; 377, 3; 403, 1; 440, 3; 520, 1; 522, 1; 523, 6; 533, 6; 580, 3; 597, 7; 634, 3.
Karx —g‘azal 111, 6.
Layli (Laylo) — g‘azal 2,7; 3,5; 43,6: 59,5; 238,3; 326,3; ZPZ, 1; 373, 5; 408, 3; 409, 3; 419, 8; 439, 1; 478, 7; 531, 5; 532, 9; 542, 5; 547, 3; 564, 6; 622, 4.
Lutfiy — muxammas 1, 5.
Majnun — g‘azal 2, 7; 3, 5; 23, 5; 38, 7; 43, 6; 45, 5: 56, 2; 59, 5; 75, 5; 91, 2; 124, 1; 127, 6; 128, 4; 138, 5; 192, 4; 197, 5; 238, 5; 254, 6; 304, 4; 308, 1; 3; 325, 6; 326, 3; 341, 7; 363, 1; 373, 5; 408, 3; 409, 3; 419, 8; 439, 1; 442, 5; 456, 3; 458, 4; 478, 7; 485, 4; 498, 3; 526, 2; 531, 5; 532, 9; 541, 3; 542, 5; 561, 1; 564, 6; 586, 7; 602, 2; 603, 3; 612, 4; 613, 7; 619, 3; 622, 4; 623, 2; 639, 4; 648, 6; muxammas 5, 8.
Mansur — tarkibband 1, 6.
Muso — g‘azal 6, 4; 51, 5.
Muxtor — tarkibband 4, 4.
Maryam — g‘azal 19, 4; 522, 1.
Muhammad— qit‘a 2, 1.
Mahmud — g‘azal 200, 6.
Mahmud Sayyod— qit‘a 48, 1.
Nuh —g‘azal 5, 7; 8; 89, 3; 106, 6; 563, 5.
Odam —g‘azal 89, 3; 339, 1; 393, 1.
Parvez —g‘azal 193, 8; 204, 6; 209, 5.

Rustam —g‘azal 275, 6; tarkibband 41.
Riyoziy — qit'a 25, 2.
Sayyid Hasan — tarkibband 1, 8.
Salmon — g‘azal 51, 6.
Sakkokiy — g‘azal 584, 9.
Som — g‘azal 89, 3.
Sulaymon — g‘azal 426, 3.
Sulton Husayn Boyqaro (Abdulg‘oziy, Sohibqiron Abulg‘oziy) g‘azal 35, 7; 238, 7; 650, 8.
Suxayb — g‘azal 51, 6.
Suxayl — g‘azal 383, 5.
Surush — g‘azal 262, 6.
Uzro — g‘azal 38, 7.
Faridun — g‘azal 69, 5; 238, 7; 606, 8.
Farhod —g‘azal 3, 5; 43, 6; 45, 3; 5; 56, 2; 75, 5; 127, 6; 138, 5; 193, 5; 8; 197, 5; 204, 6; 209, 5; 228, 5; 230, 2; 247, 3; 264, 6; 296, 5; 299, 6; 301, 4; 308, 3; 341, 7; 408, 3; 439, 1; 456, 3; 457, 4; 472, 3; 485, 4; 532, 9; 541, 3; 547, 3; 564, 6; 586, 7; 599, 1; 602, 2; 614, 4; 619, 3; 622, 4; 637, 1; 639, 4; 648, 6; muammo 35.
Fuzayl — g‘azal 365, 6.
Xallux — g‘azal 111, 4.
Xizr —g‘azal 10, 2; 82, 3; 178, 3; 225, 1; 245, 2; 373, 10; 388, 7; 398, 5; 403, 1; 427, 5; 461, 6; 533, 2; 636, 5; 643, 5; 650, 2. Xusrav — g‘azal 593, 7.
Shirin —g‘azal 3, 5; 38, 7; 43, 6; 45, 3; 103, 4; 203, 5; 238 3; 408, 3; 439, 1; 472, 3; 489, 3; 532, 9; 547, 3; 564, 6; 580, 2; 622, 4.
Shuayb — g‘azal 51, 1.
Yusuf — g‘azal 43, 5; 103, 5; 115, 5; 190, 5; 209, 5; 273, 4; 305 4 323, 4; 359, 5; 457, 6; 569, 3; 580, 3; qit'a 38, 2.
Yazdiy — tarji'band 73.
Ya'kub —g‘azal 175, 3; 178, 3; 569, 3.
Qodir — tarji'band 4, 5.
Qorun — g‘azal 570, 9; tarji'band 40.
G'affor — tarkibband 4.
Havvo — g‘azal 393, 1.
Hakim — qit'a 49, 4.
Hamza — qit'a 38, 2.
Hasson — tarji'band 39.

GYeOGRAFIK NOMLAR KO'RSATKICHI

Adan — g‘azal 606, 10.
Badaxshon — g‘azal 370, 3.
Buxoro — g‘azal 124, 6.
Bag‘dod — g‘azal 124, 6; 283, 5.
Dajla —g‘azal 124, 8; 333, 7.
Jayhun —g‘azal 124, 8; 308, 4; 333, 7.
Iraq — g‘azal 608, 7.
Kan'on — g‘azal 158, 6; 175, 3.
Kashmir — g‘azal 80, 7.
Ka'ba —g‘azal 12,6; 59,7; 114,4; 184,7; 200,4; 32,2; 347,4; 384, 2; 396, 6; 398, 9; 501, 9; 577, 6; 606, 4.

Misr — g‘azal 158, 6; 428, 2.
Rum — qit‘a 12.
Ummon — g‘azal 399, 4; 511, 4.
Xavarnaq — g‘azal 313, 1.
Xayrobod — tsit‘a 19, 1.
Xito — g‘azal 515, 5; 7; qit‘a 39, 2.
Xuroson — g‘azal 174, 7; 503, 8; 608, 7.
Xo‘tan — g‘azal 515, 1.
Shat — g‘azal 283, 5.
Sheroz — g‘azal 650, 9.
Chin—gazal 428, 2; 429, 5; 629, 2.
Eram — g‘azal 214, 4.
Qof — g‘azal 140, 5; 303, 1; tarji’band 65.
Hijoz — g‘azal 608, 7; 616, 7.
Hirot — g‘azal 12, 7.

ETNIK NOMLAR KO‘RSATKICHI

Armani — g‘azal 515, 5.
Lo‘li — g‘azal 73, 6; 111, 4.
Mo‘g‘ul — g‘azal 100, 4.
Tojik — g‘azal 368, 5.
Turk — g‘azal 368, 5; 395, 5; 598, 7; 623, 4, Uhudn — g‘azal 643, 2.
Charkas — g‘azal 623, 4.
Qiyot — g‘azal 73, 6.
O‘zbak — g‘azal 100, 4; 180, 2; 323, 8.
Qo‘ng‘irot — g‘azal 73, 6.
Hindu — g‘azal 100, 4; 111, 4; 319, 2; 323, 8; 365, 5; 501, 8; 507, 5; 510, 4; 515, 1; 2, 3; 4; 5; 6; 7; 560, 2; 629, 2.